

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATION UNIVERSITETI NTM**

***INNOVATSIYA
VA
TARAQQIYOT***

***Ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy
JURNAL***

2025-yil, 9-son

Urganch-2025

Bosh muharrir:

M.J.Eshmurodov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

S. Samandarova – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Mas’ul kotib:

U.Bekmuhammad – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Tahrir hay’ati:

M.Isxoqov – Tarix fanlari doktori, professor

F.Maqsudov – Tarix fanlari doktori, professor

G.Durdieva – Arxitektura fanlari doktori, professor

A.Ashirov – Tarix fanlari doktori, professor

G‘.Boboyorov – Tarix fanlari doktori, professor

Sh.O‘ljayeva – Tarix fanlari doktori, professor

S.Hoshimov – Tarix fanlari doktori, professor

O.Komilov – Tarix fanlari doktori, professor

D.Jamalova – Tarix fanlari doktori, dotsent

F.Boboyev – Tarix fanlari doktori, professor

I.Xaydarov – Tarix fanlari doktori, professor

M.Alixojiev – Tarix fanlari nomzodi, dotsent

M.Xo‘jamov – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

N.Mahmudov – Filologiya fanlari doktori, professor.

Z.Do‘simov – Filologiya fanlari doktori, professor.

S.K.Salayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Ulug‘bek Hamdam – Filologiya fanlari doktori, professor.

Bahodir Karim – Filologiya fanlari doktori, professor.

Jabbor Eshonqul – Filologiya fanlari doktori, professor.

M.Asadov – Filologiya fanlari doktori, professor.

A.D.O‘razboyev – Filologiya fanlari doktori, professor.

D.Q.G‘ayipov – Filologiya fanlari doktori, professor.

I.Ismoilov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

A.I.Primov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

R.Y.Xudoyberganov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

R.B.Maxmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

Qozoqboy Yo‘ldosh – Pedagogika fanlari doktori, professor.

M.Salayeva – Pedagogika fanlari doktori, professor.

I.Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

D.Xudayberganov – Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.

M.Xoshimxonov – Falsafa, pedagogika, filologiya fanlari doktori, professor.

M.S.Xajiyeva – Falsafa, pedagogika fanlari doktori, professor.

O.N.Naumenko – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).

Y.A.Naumenko – Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).

Y.M.Gancharov – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).

K.V.Karpinskiy – Psixologiya fanlari doktori, professor (Belorus).

L.S.Zelensova – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya).

V.A.Barmin – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).

A.A.Veryayev – Pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya).

A.G.Abdullin – Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).

Almaz Ulviy – Filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon).

Azizullah Aral – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (AQSH).

H.H.Tadjiyev – Turkologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (Qozog‘iston).

ISSN 3030-3206

Innovatsiya va taraqqiyot: ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal.
№ 9 (30), Urganch innovatsion universiteti, 2025-yil.

MUNDARIJA:

TARIX

B.SA'DULLAYEV, A.AZODOV. Xorazm antik davr sopollari.	4
B.SATIMOV, G.RO'ZMETOVA. O'zbekiston hududida bronza davri geografik sharoiti, tabiiy-iqtisodiy hududlarning rivojlanish bosqichlari sahifasi	10
F.MATQURBANOV. Ayoqqal'a I arxeologik yodgorligining 3D vizual turistik ko'rinishi.....	14
M.EGAMBERGANOVA. Xorazmda mehrjon an'analari: dehqonchilik madaniyati va tabiatga ehtirom.	20
O.SHOMURATOV. XI-XIII asrlarda savdo-sotiq va iqtisodiy hayotning yuksalishida Xorazm vohasi shaharlarining o'rni.	25
B.ABDIRIMOV. Chingiziylar imperiyasi nostalgiyasi: "Chingizxon turkiy" da'vosining manbalari, sabablari va ildizlari.	31
M.SALIMOV. Muhammad Salim Oxunning Xiva xonligidagi lavozimlari.	42
D.TILLAIEV. Muhammad Rahimxon Soniy - Feruzxonning taraqqiyparvarlik siyosati va matbaaxonaning tashkil qilinishi.	48
Sh.MATYAKUBOV. Xivaliklarning maishiy marosimlari va udumlari.	56
S.SAMANDAROVA, U.BEKMUHAMMAD. Xorazm jadidchiligi: o'ziga xos xususiyatlari va farqli jihatlari	61
F.ABDUXOLIQOV. O'zbek kinosida Sharq miniatyuralaridan foydalanish an'analari.	70
I.NURMETOV. O'zbekiston Respublikasida ekologik diplomatiyaning Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasidagi o'rni va roli.	77

FILOLOGIYA

M.ESHMURODOV. Xorazm turkiy tarixnavisligi manbalarida Eroniy qatlam so'zlari.	83
R.JABBOROV. Alisher Navoiy va turkiy xalqlar folklori.	93
B.RO'ZIMUHAMMAD, A.ALLAMBERGENOV. Modern she'r-rebus emas ...	104
U.HAMDAM. Viktor Gyugo – katta yurakli yozuvchi.	117
O'.PANAYEVA. Sharq va G'arb poeziyasida ayol qalbi va ruhiyati.	124
Z.AZILOVA . "Farhod va Shirin" dostoni tarjimasida mazmuniy tafovut va badiiy uyg'unlik.	130
F.KENJAYEV. Tarixiy romanda badiiy masofa, fakt va ijodiy moharat.	137
D.MEXLIYEVA. Lofning kulgi bilan bog'liq janr sifatida shakllanish asoslari.	147

Hamkor tashkilotlar:

Xorazm viloyat turizm boshqarmasi.

Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Xorazm viloyat bo'limi.

"Jaloliddin Manguberdi" fondi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 24-sentabrdagi № 375/5 qaroriga ko'ra "«Innovatsiya va taraqqiyot»" jurnali Tarix va filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

TARIX**XORAZM ANTIK DAVR SOPOLLARI****UO‘K 902.34**

**BAHROM
SADULLAYEV, Tarix
fanlari bo'yicha falsafa
doktori, dotsent**



**AZAD AZODOV,
Xorazm Ma'mun
Akademiyasi Ijtimoiy-
gumanitar fanlar
bo'limi kichik ilmiy
xodimi**

Annotatsiya: Maqolada kulolchilik san'atining vujudga kelish tarixi va uning taraqqiyot bosqichlari, antik davrga kelib sopol buyumlarining sifat darajasi oshishi, buyumlarning turlari, ular yasaladigan ustaxonalar, yasali jarayonlari, bezatilishi, savdosi va xo'jalikda foydalanilishi haqidagi ma'lumotlar berib o'tilgan. Shuningdek, Xorazmda antik davrni davrlashtirishdagi muammolar va bu jarayonlarni tadqiq qilgan arxeologlarning materiallari o'rganildi.

Аннотация: В статье приводятся сведения о возникновении гончарного искусства, видах керамики древности, мастерских, где они изготавливались, процессах их изготовления, декорирования, торговли и использования в хозяйстве. Также рассматриваются проблемы периодизации античности Хорезма и роль керамики в этом процессе.

Annotation: The article provides information about the emergence of the art of pottery, the types of ceramics of antiquity, the workshops where they were made, the processes of their manufacture, decoration, trade, and use in the economy. It also discusses the problems of the periodization of antiquity in Khorezm and the role of ceramics in this process.

Kalit so'zlar: Neolit, kulolchilik, antik davr, xum, xumcha, ko'za, xumdon, antramorf, zoomorf, kulolchilik charxi.

Ключевые слова: Неолит, керамика, древность, горшок, кувшин, антраморф, зооморф, гончарный круг.

Key words: Neolithic, pottery, antiquity, hum, humus, jug, humdon, anthramorph, zoomorph, pottery wheel.

Kulolchilik - pishirilgan loydan turli xil kundalik turmushda va diniy marosimlarda ishlatish mumkin bo'lgan idishlar, zoomorfik va antramorfik haykalchalar yasaladigan soha hisoblanadi.

Bu soha mil. av. VI-IV ming yilliklarda, ya'ni neolit (yangi tosh) davrida vujudga kelgan bo'lib, ushbu davrda ishlangan sopol buyumlar loyning yaxshi pishirilmaganligi va loy sifatsiz tuproqdan tayyorlanganligi sababli deyarli saqlanmagan. Ammo bronza davridan boshlab, ayniqsa antik va o'rta asrlarga xos

bo'lgan buyumlar ming yillar davomida sifatini yo'qotmasdan yer qa'rida o'z davri madaniyatini, tarixini, kundalik turmushini yashirib yotibdi.

Sopol pishirish texnologiyasining rivojlanib borishi yaratilgan buyumlarning shakli va ko'rinishida ham o'z ifodasini topgan. Dastlabki sopol buyumlar qo'lda, dastgohsiz bajarilgan turli idishlar bo'lib, bular ichida sopoldan ishlangan idishlar shakliga e'tibor berish, turli chiziqli, rangli va chizma rasmlari naqshlar bilan bezash san'ati rivojlandi. Sopol buyum yuzalariga to'liqinsimon, katak, uchburchak, to'g'ri chiziqli naqshlar ishlangan, idishlarda naqshlar bilan birga hayvon va qushlarning soddalashtirilgan shakllari, sodda hayotiy kompozitsiyalar tushirilgani ham shu davr kulolchilik san'atiga xosdir (1-rasm) [1, 15].



1-rasm

Arxeologik tadqiqotlar davomida arxeologlar aholi punktlaridan sopol buyumlardan tashqari hech narsa saqlanib qolmaganliklariga ko'pincha duch kelishadi. Bu holat ayniqsa Markaziy Osiyo xalqlari uchun xos bo'lgan xususiyat hisoblanadi. Shamol, chang-to'zon taxta inshootlarini vayron qiladi, tuproq va atmosfera omillari temir asbob qoldiqlarini butunlay vayron qiladi. Bu ta'sirlar turar-joylar va aholi punktlarini ham chetlab o'tmagan. Sopol parchalari va qadimiy o'choq qoldiqlarigina bundan mustasno. Shu qoldiqlarni sinchkovlik bilan o'rganish ba'zan qadimgi aholi punktlari sxemasini tiklashga imkon beradi [2, 5].

Arxeologlar antik davr qal'alarini tadqiq qilishganda ko'pincha xum, xumcha, ko'za va kosa qoldiqlariga duch kelishadi. Bu buyumlardan xo'jalikning turli sohalarida qo'llanilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Xorazm vohasi qadimgi davrdan boshlab sug'orma dehqonchilik madaniyati markazlaridan biri sifatida arxeologik obidalariga boy o'lkadir[6,4].

Xorazm vohasining antik davr sopollarini o'rganish ishlari haqida ma'lumotlar, avvalo, Sergey Pavlovich Tolstov rahbarligida tashkil qilingan Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi materiallari va hisobotlarida, shuningdek ekspeditsiya a'zolarining kundaliklarida keltiriladi. Ayniqsa, XX asrdagi tadqiqotlarda Xorazm vohasining qadimgi va ilk o'rta asrlariga oid qimmatli ma'lumotlar Y.G'ulomov[7,18] tadqiqotlarida ham mavjud bo'lib, bu

o'lkani tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Yana voqea tarixini o'rganishda A.I.Terenojkin, M.Mambetullayev, M.Sh.Kidriyozov, S.B.Bolelov, S.R.Boratov, Sh.Matrasulov, Q.Sobirov, keyingi yillarda B.P.Sadullayev[4, 57]larning tadqiqot materiallari asosiy yo'l ko'rsatkichlardir.

Arxeologik topilmalarga tayanib, sopollarni yasashda ustalar avvalo uning og'iz qismiga e'tibor qaratishgan va ko'pincha gardishini bo'rttiribroq, tashqariga qayiribroq ishlashgan. Keyin esa idishlar turiga qarab qo'shimchalar qo'shilgan, ya'ni ko'zachalarga - dasta, qozonlarga - tutqich, piyolalarga - baldoq va qopqoqlar qo'shimcha qilib yasalgan.

Buyumlarni yasagandan so'ng ularni bezatish ham muhim vazifa hisoblangan. Kulol loyni pishitib, mahsulotni buyum shakliga keltirgandan so'ng xumdonida ma'lum vaqt va haroratda pishiriladi, ana shundan keyin sopolga tabiiy bo'yoq "angob" yordamida bezak berilgan. Antik davr sopollariga e'tibor bersak odatda buyum dastlab butun qismi bilan bo'yoqqa botirilib, so'ngra ochroq yoki to'qroq angob bilan turli xil tasvirlar chizilgan. Ilk sopollardagi tasvirlarning ko'pchiligida spiralsimon shakl va to'lqinlar aks etgan. Bunday turdagi sopol namunalarni ilk bor Markaziy Osiyo hududidan M.E.Masson boshchiligidagi Qo'yqirilgan qal'a yodgorligidan topilgan [2, 103].

Antik davr xumlari arxaik davrdagi xumlardan keskin farq qilib, ular noksimon shaklni oladi.



1-rasm Qo'yqirilgan qal'a

2-rasm Katta qirg'iz qal'a

3-rasm Xumbuztepa

Xorazm viloyatining Shovot tumanidagi Chap qirg'oq Kat qal'a yodgorligining arxeologik ekspiditsiyalar davomida to'plangan sopollar majmuasi tarkibida ham antik davr sopollari ko'pchilikni tashkil qilib, ular asosan ilk antik davrga mansub. Chap qirg'oq Kat-qal'aning ilk antik davridagi sopol idishlar materiallari aksariyat qazishma maydonlarining quyi qatlamlaridan aniqlangan[5, 177]. Ushbu majmuada yirik turdagi idishlar – xumlar va xumchalar, xurmasimon idishlar, oshxona va o'choqboshi idishlari alohida ajralib turadi. Butun majmuaning 95 foizi kulolchilik charxida ishlangan.

Xumlar va xumchalar- shaklan deyarli bir xil bo'lib, hajmi jihatidan farq qiladi. Ular gardishlar, devorlar va tub qismlari bilan ifodalanadi. Ushbu turdagi idishlar yirik idishlar sirasiga kirib, asosan don mahsulotlari saqlashga

mo'ljallangan. Idishning loyi yaxshilab aralashtirilgan, tarkibida deyarli hech qanday aralashma yo'q. Ushbu turdagi sopollar sinig'i to'q sariq yoki qizg'ish rangli bo'lib, gardishi bo'ylab qizil angob tomchilari hamda yelkalari va gavdasi bo'ylab esa jingalak shakldagi keng, yo'g'on tasmasimon chiziqlar bilan bezatilgan. Ba'zi idishlarning yuzasi to'q qizil tusdagi uchta o'rama spiral tasmalar shaklida bo'yalgan. **Xurmalar** - bir xil turdagi idishlar bo'lib, har xil o'lchamga ega. Ularning barchasi sharsimon gavdali, bo'yni past, kesimida to'rtburchaksimon, uchburchaksimon, ovalsimon gardishli (diametri 16 dan 22 sm) idishlardan iborat. Idishlar gardishi ostida ko'pincha to'rtta teshikchasi bor. Ko'pincha tashqi tomondan idish gavdasining yuzasi bir yoki bir nechta gorizontal chiziqlar bilan bir necha qismlarga ajratilgan. Bu qismlar ichi o'tkir uchli tayoqchalar bilan tirnolib uchburchak, vertikal chiziqlar hosil qilingan va ichi qizil, to'q-qizil angob bilan bo'yalgan. Kulolchilik charxida, yaxshi aralashtirilib qorilgan loydan, tarkibida hech qanday aralashmalarsiz qilingan.

Ko'zalar - gardishlar, bo'g'iz qismlari, idish devorlari va tag qismlarining ko'plab bo'laklari bilan ifodalanadi. Gardishi qalinlashgan, tik bo'g'izli va yana bir boshqa ko'za gardishi bo'lagi ikkita bo'rtiq chiziqqa ega bo'lib, bo'g'zi og'ziga qarab kengayib boradi. Ularning yuzasi, asosan, qizil angob bilan to'liq qoplangan, ba'zi bo'laklardagina faqat gardishi yuzasi angoblangan. Ushbu idishlarning gavdasi sferik shaklga, kam hollarda oval-tuxumsimon shaklga o'xshaydi. M.G.Vorobyovanning fikriga ko'ra, Xorazmda sher boshli ma'budaning paydo bo'lishi Yaqin Sharq mamlakatlari, ayniqsa Misr san'atining ta'siri bilan bog'liq va bu tasvirdan foydalanilgan davr mil.av. IV – III asrlarga to'g'ri keladi[2,48].

Suvdonlar - ilk antik davrda va keyingi davrlarda keng tarqalgan idishlar sirasiga kiradi. Bu davrga xos suvdonlarning aksariyati o'zining jozibadorligi bilan ajralib turadi. Chap qirg'oq Kat-qal'ada aniqlangan suvdonlardan birining orqa tomonida sakrayotgan go'zal kiyik tasviri bo'rtma shaklda muhrlangan. Ushbu suvdonning radiusi bo'ylab bir qatordan bo'rtma hollar konturi aylantirilgan.

Qadahlar - asosan gardishlar va tagliklar parchalari bilan ifodalangan, vazni og'irlashgan, tag qismi konussimon shaklga ega (diametri 5 sm gacha). Bu idishlarning yuqori og'iz qismida diametri 13 sm dan 20 sm gacha kuzatiladi. Qadahlarining yuqori qismi gardishi tashqariga xiyol egilgan yoki cheti salgina qayrilgan holatda uchraydi. Barcha idishlar juda sifatli loydan yasalgan, bir tekis pishirilgan va sirti to'yingan qizil va qizg'ish rangli angob bilan qoplangan.

Kosa - oshxona idishlari ichida shokosalar bilan bir qatorda kosalardan ham keng foydalanilgan. Kosalar yuqori sifatli yaxshi qorilgan loydan tayyorlangan.

Idishlarning sirti asosan, to‘q qizil, qizil-jigarrangli angob bilan qoplangan. Ular orasida bitta bo‘lak yorqin fonda qizil angobli chiziqlar bilan bezatilgan.

Qopqoq. Yuqorida qayd etilgan idish turlaridan tashqari, idishlarning og‘zini yopish uchun mo‘ljallangan qopqoqlar ham keng tarqalgan sopol buyumlar sirasiga kiradi. Qopqoqlar kulolchilik charxida ishlangan. Boshqa idishlardan farqli asosan, uning o‘rtasida idish pishirilmasdan oldin hosil qilingan kichkina teshikchaning mavjudligidir. Chap qirg‘oq Kat-qal‘adan topilgan qopqoqlarni ikki turini ko‘rsatish mumkin. Ular konus shaklidagi va yumaloq shaklga ega.

Qadimgi Xorazm kulolchilik majmualarining shakllanishiga o‘z navbatida janubiy hududlar, ayniqsa mil.avv. I ming yillik o‘rtalaridagi Eron madaniy an‘analari ma‘lum ma’noda ta’sirini o‘tkazgan. Idishlarning aksariyat qismi Ahamoniylar saltanati va unga qo‘shni hududlarda keng tarqalgan metall idishlarga taqlidan ishlab chiqarilgan. Bu davrdagi Xorazmning kulolchilik idishlari yuqori sifati, badiiy san’at namunalari bilan keyingi davr idishlaridan ajralib turadi[3,123].

Xumbuztepa va Chap qirg‘oq Kat qal’a yodgorliklarining sopollari tahlili asosida antik davr sopollari boshqa davr sopollaridan ajralib turuvchi xususiyatlari:

- tuproq, xomashyo tarkibining tozaligi;
- loyning yaxshilab pishirilganligi;
- asosan och-qizg‘ish tusdagi loydan foydalanilganligi;
- xumlarda keng va qalin gardish qismining bo‘lishi;
- qizg‘ish tusdagi angobdan keng foydalanilishi;
- idishlarda spiralsimon naqshlarning tushirilishi[4, 23].

Demak, yuqoridagi ma’lumotlarga tayangan holda antik davr sopollarning tahlili Chap qirg‘oq Kat-qal‘aning Yormish kanali tarmog‘ida manzilgoh sifatida vujudga kelganligini yaqqol ko‘rsatadi. Uning mustahkamlangan devorlarga ega bo‘lishi masalasi hali o‘rganilgan emas. Bu davrda hozirgi kundagi Shovot va Yormish kanallarining qadimgi tarmog‘ida Chap qirg‘oq Kat-qal’a bilan birga bir qancha manzilgohlar yoki mustahkamlangan istehkomlar yuzaga kelgan bo‘lishi ehtimol. D.Chunixin tomonidan olib borilgan qazishmalar mil.av. IV-III asrlarda Chap qirg‘oq Kat-qal‘aning mudofaa devorlari bilan o‘rab olinganligini va shahar hududida jamoat inshootlari ham bo‘lganligini ko‘rsatadi. Ilk antik davrda Shovot va Yormish kanallarining qadimgi tarmoqlarida Chap qirg‘oq Kat-qal’a bilan birga Voyangan, Shovot Tuproqqal’asi va Tuzloq kabi mustahkamlangan shahar-qal’alar ham mavjud bo‘lgan.

Hozirgi XXI asr - globallashuv davrida hamma soha singari arxeologiya sohasi ham ildam harakatlanmoqda. Yildan-yilga tariximiz haqida so‘z ochuvchi,

qadim tariximiz shonli sahnalariga guvoh bo'lgan yangi qal'a va manzilgohlar olimlarimiz tomonidan ochilib kelinmoqda. Yodgorliklarni o'rganish, ular tarixi bilan tanishish jarayonlari ilmiy manbalar va etnografik manbalar asosida olib borilmoqda. Shu bilan bir qatorda manbalarning tasdig'ini topish uchun yodgorliklarda arxeologik tadqiqotlar olib borilib, turli xil artefaktlar (turar joy qoldiqlari, loydan yasalgan sopol buyumlar, terrakotik haykalchalar, xo'jalik buyumlari, turli xil suyak qoldiqlari) ham aniqlanyapti. Bunday topilmalardan eng ko'p uchraydigani va eng uzoq vaqt saqlanadigani albatta, sopol buyumlar hisoblanadi. Bu materiallar ham davrlar mobaynida takomillashib, yasaliish uslubi va texnikasi davrdan kelib chiqib o'zgarib borgan. Neolit davridagi dastlabki idishlar asosan qo'pol va sifatsiz loydan yasalgan bo'lsa, kulolchilik charxi paydo bo'lganidan so'ng ularning yasaliishi va loy tarkibida o'zgarishlar, yaxshilaniishlar bo'lganini arxeologik materiallar tasdiqlaydi. Chap qirg'oq Kat-qal'a yodgorligi sopol buyumlaridan ham antik davr materiallari sifat darajasi qanday bo'lganligini bilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev N.U. O'zbekiston san'ati tarixi. Toshkent-2007. 236-b.
2. Воробьева М.Г. Керамика Хорезма античного периода// ТХАЭЭ, Т.4, М., 1959. С. 66-220
3. Мамбетуллаев М. Хумбузтепа-керамический центр южного Хорезма. Археология Приаралья, 1982, Вып.2. С. 123
4. Sadullayev B. Avezov O. Xumbuztepa yodgorligini arxeologik jihatdan o'rganilishi. Xorazm Ma'mun Akademiyasi axborotnomasi, 2010. 1/2
5. Sadullayev B., Matqurbanov F. Arxeologik tadqiqotlarda ilg'or texnologiyalardan foydalanish hamda 3D modellastirish//Tamaddun nuri jurnali. – 2024. – T. 10. – №. 61. – С. 177-180.
6. Қ.Собиров. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарлари мудрофаа иншоотлари. Т. 2009. 4-бет.
7. Гуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Тошкент: Фан, 1959.

TARIX**O‘ZBEKISTON HUDUDIDA BRONZA DAVRI GEOGRAFIK SHAROITI, TABIIY-IQTISODIY HUDUDLARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI SAHIFASI****UO‘K 523.26**

Bahodir Satimov,
Urganch innovatsion
universiteti dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori



Guli Ro'zmetova,
Yangibozor tumani
15-son maktab
o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston hududida bronza davri jamiyatining geografik muhiti, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarining rivojlanish tarixi tahlil qilingan.

Аннотация: В статье анализируется географическая среда общества эпохи бронзы и история развития социально-экономических отношений на территории Узбекистана.

Annotation: The article analyzes the geographical environment of Bronze Age society and the history of the development of socio-economic relations in Uzbekistan.

Kalit so'zlar: Xlopik I. N, Sagdullayev A, Abdullayev O'. I, Bijanov E.B, Asqarov A, Jo'raqulov M.J, Dunke X, Zadneprovskiy, Xolmatov N.U, O'zbekiston, Kopetdog', Murg'ob, Tajan, Quyi Zarafshon, Toshkent, Farg'ona, Ustyurt, Quyi Amudaryo, neolit, eneolit, bronza.

Ключевые слова: Хлопик И.Н, Сагдуллаев А, Абдуллаев О.И, Биджанов Э.Б, Аскаров А, Джуракулов М.Ю, Дунке Х, Заднепровский, Холматов Н.У, Узбекистан, Копетдаг, Мургаб, Таджан, Нижний Зарафшан, Ташкент, Фергана, Устюрт, Нижняя Амударья, Неолит, Энеолит, Бронза.

Key words: Khlopik I. N, Sagdullayev A, Abdullayev O. I, Bijanov E. B, Askarov A, Jurakulov M. J, Dunke H, Zadneprovsky, Kholmatov N. U, Uzbekistan, Kopetdag, Murghab, Tajan, Lower Zarafshan, Tashkent, Fergana, Ustyurt, Lower Amudarya, Neolithic, Eneolithic, Bronze.

Bronza davri (mil. avv. III-ming yillikning ikkinchi yarmi-II-ming yillikning oxiri) jamiyatining geografik holati, tabiiy-iqtisodiy hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda yuz bergan o'zgarishlari bilan eneolit davridan farqlanish jihatlari bilan O'zbekiston bronza davri tarixida o'z tarixiy o'rniga ega. Bronza jamiyatining turli sohasi rivojlanishining tarixiy ildizi neolit davri urug' jamoalarining xo'jalik sohasida nashr qilgan ko'ptarmoqli xo'jalik sohalarida erishilgan natijalarni eneolit davrida o'z ahamiyatini saqlab qolgan, buning natijasi esa bronza jamiyatining notekis rivojlanishiga sabab bo'lgan. Bronza

jamiyatida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning barqaror rivojlanishida ulardan suv ta'minotini olgan Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon daryolarning tarixiy o'rni behisob. Mazkur maqola, eneolit davri aholisining xo'jalik sohasida erishgan asosiy tajribasi natijalari, bronza jamiyati rivojlanishi tarixini yoritish nazarga olingan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Arxeologik izlanishlar natijalariga qaraganda O'zbekiston bronza davri jamiyatida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojlanishida eneolit davri xo'jalik an'analari ahamiyati saqlanib qolgan. Mazkur tadqiqotlarda qayd qilingan tarixiy ma'lumotlarni nazariy-qiyosiy tahlil asosida vujudga kelgan hollar asosida jamiyatda kechgan jarayonlar tahlili quyidagicha bo'lgan. Tadqiqotchilar qayd qilishicha, bronza davri jamiyati rivojlanishiga asos bo'lgan eneolit davri jamiyati rivojlanishi neolit davrida kechgan jarayondan farqlanish belgilari quyidagi manzarada qayd qilingan:

1. Shakllangan ziroatchi – chorvachilik xo'jaligi asosida mustaqil o'troq hayot va sug'orma dehqonchilikning vujudga kelishi;
2. Katta hududlarni o'zlashtirish, aholi joylashish zichligi;
3. Manzilgohlarning paydo bo'lishi;
4. Hunarmandchilik va binokorlik bilimi rivojlangan [1.1966-C.93, 2. 2004-C.23-26, 3. 2019-B. 139-140].

Eneolit davri jamiyati manzarasini aks ettirgan yuqorida qayd qilingan ma'lumotlar Janubiy Turkmaniston Kopetdog' oldi etaklari, Murg'ob va Tajan daryolari havzasi atroflarida o'rnatilgan o'troq va ziroatkor aholi hayoti va ijodiy faoliyati mahsuli edi. Tadqiqotchi O'.Abdullayev tadqiqotida fikr-mulohazalarni qayd qilmasdan, tadqiqotchilar mulohazalariga qo'shilgan. Ustyurt platosida E.B.Bijanov, Quyi Amudaryo regionida M.A. Itina, Quyi Zarafshonda A. Asqarov, O'rta Zarafshonda M.J. Jo'raqulov, Toshkent vohasida X.Dunke, Farg'ona vodiysida Y.A. Zadneprovskiy asarlarida qayd qilinishicha, neolit davri ovchilari va termachilari eneolit davri jamiyatini tadrijiy tarzda rivojlantirgan, bu jarayon bronzaning so'nggi bosqichigacha davom etganligini qayd qilish joiz [4. 1996-42-c, 5. 1962-C.59-65, 6. 2011-B.16, 7. 1982-95c, 8. 1974-C 32-35, 9. 2008-B 27-31].

Tadqiqot metodologiyasida quyidagilar belgilab olindi:

Obyektivlik, tarixiy-xronologik izchillik, nazariy-qiyosiy tahlil, munozara, bahs, umumlashtirish, yakuniy xulosa, arxeologiya va etnologiyaga oid faktlardan foydalanish.

Tahlil va natijalar. O'tgan asrdagi nashrlar va mustaqillik yillari adabiyotlariga ko'ra, O'zbekiston bronza davri jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlanishida eneolit davri aholisi erishgan natijalar asosida notekis rivojlanish kechgan. Bronza jamiyatida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojlanish natijalarini inobatga olib, jarayonni ikki tarixiy davrga ajratgan holda yoritish amalga oshirildi, ya'ni mil.avv. III-ming yillikning ikkinchi yarmi-II-ming yillikning ikkinchi yarmi, so'nggi bosqichi va oxiri.

O'zbekiston tabiiy-iqtisodiy hududlarining rivojlanishi jarayonida o'zgarishlar bo'lgan emas, eneolit davri aholisi ajdodlari amaliy mashg'ulotlarni davom ettirganlar.

Tadqiqotchilar nashrlarida bronza davri jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish munosabatlarining rivojlanishida eneolit va bronza davrining birinchi bosqichida O'rta Osiyoning tarixiy-madaniy viloyatlarini qamrab olgan migratsion jarayonni quyidagi bosqichlarga ajratgan holda tahlil qilgan:

1. Mil. avv. IV-ming yillik va III-ming yillik o'rtalarida – Panj daryosi so'l sohili etaklari - Ko'chish, markaziy Belujiston, Hind vodiysi;
2. Mil. avv. IV-ming yillikning ikkinchi yarmi. Yuqori Zarafshon vodiysi ko'chib kelishi – Belujiston, Janubiy Turkmaniston.
3. Mil. avv. III-ming yillik o'rtalari. Panj daryosi so'l sohili – Hind vodiysi, Xarappa madaniyati.
4. Mil. avv. III-ming yillik oxiri – II-ming yillik bosqichi – Marg'iyona va Baqtriya hududlari - ko'chish boshlangan hududlar Old Osiyo, ikki daryo oralig'i, Eronning janubi-g'arbi va shimoli-sharqi, Turkmanistonning janubi-g'arbi E.B. Rtvladze monografiyasida tahlil qilingan.

Tadqiqotchining O'rta Osiyo tabiiy-iqtisodiy hududlarining o'zlashtirilishi to'g'risidagi mulohazalariga qo'shilib bo'lmaydi. Bizning nazarimizcha, janub tomonda O'rta Osiyo hududiga aholi tomonidan migratsiya siyosati amalga oshirilgan. Bu masalani O'zbekiston tabiiy-iqtisodiy hududlarida kechgan jarayonlar misolida yoritish afzal ko'rinadi.

O'zbekiston hududida eneolit davrida aholi o'rnashgan hududlar doirasida tabiiy resurslardan foydalanishni keyingi hududlarga ko'chish tadbiri amalga oshirilmagan. Misol tariqasida Quyi Amudaryo, Quyi Zarafshon, O'rta Zarafshon, Toshkent va Farg'ona vodiysi mil.avv. II-ming yillikning birinchi yarmi o'rtalarida Yog'ochband va Andranova qabilalari Xorazm vohasida joylashgan, Andranova qabilalarining birinchi tarix vakillari Quyi Zarafshon, ichki Qizilqum, Toshkent va Farg'ona hududlari Andranovaliklar tomonidan o'zlashtirilgan. O'zbekiston xo'jalik-markaziy hududlarda joylashgan aholi geografik hududlarda ajdodlar xo'jalik an'alarini davom ettirganlar, tabiiy resurslar barqaror bo'lgan.

Xulosa va takliflar. Ustyurt, Quyi Amudaryo, Zarafshon (gʻarbiy, markaziy), Toshkent, Fargʻona vodiysida aholi miqdori oshgan boʻlsa ham koʻnikkan hududlarda iqtisodiy omillar ajdodlarimiz kundalik zaruratiga mos kelgan. Jamiyatnin rivojlanishi bir xil darajada kechgan, mehnat qurollari, tosh mahsulotlari kundalik ehtiyojlarni qondirgan. Shu maʼnoda quyidagi xulosaga kelish mumkin:

- Ustyurt turli tomoni ochiq, tabiiy manbalar kam boʻlsa ham ashel davri ovchilari avlodlari bronza davrida kundalik faoliyatlarini davom ettirganlar. Bunday turmush tarzi Janubiy Orolboʻyi, Quyi va Oʻrta Zarafshon, Toshkent va Fargʻona vodiylarida chorvador qabilalar joylashib, geografik muhitni oʻzgartirganlar.

- Janub tomonidan oʻtroq ziroatkor aholi vakillari koʻchib kelgan emas.

Ushbu jihatlarni inobatga olib quyidagi tadqiqotlarni izohlash lozim:

1. Eneolit davri jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi natijalarining bronza davridagi ahamiyatini izohlash.

2. Bronza davri jamiyati vatanimiz hususlaridagi barcha jarayonni qamrab olgan emas, bu jarayon tarixini oydinlashtirish.

3. Bronza davri xoʻjalik-madaniy viloyatlar manzilgohlarining joylashish kartografiyasini ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хлопин.И.Н. Энеолит юго-запада Средней Азии// Средняя Азия в эпоху камня бронзы – М-Л; Наука. 1966.
2. Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. Тошкент, “Университет”, 2004.
3. Абдуллаев Ў. И. Ўрта Осиёда ибтидоий жамоа тузуми ва илк давлатчилик тарихи. – Тошкент,. 2019.
4. Бижанов Е.Б. Каменный век Устюрта. Нукус:, 1996.
5. Асқаров А. Культура Заманбаба в низовьях Зарафшана, «Общественные науки в Узбекистане» №11, 1962.
6. Журакулов М.Ж. Самарқанд воҳасининг ибтидоий-маданий тарихи саҳифаси – Самарқанд, 2011 (1,2)
7. Дике Х Туябугузские поселения бургулюкской культуры – Ташкент,: Фан, 1982.
8. Заднепровский Ю.А. Типы поселений и жилищ Ферганы бронзового века// Реконструкция древних общественных отношений по археологическим материалам жилищ и поселений – Л, : Наука, 1974.
9. Холматов Н. У Ўзбекистоннинг неолит даври жамоаларининг моддий маданияти – Тошкент, 2008.

TARIX**AYOZQAL'A I ARXEOLGIK YODGORLIGINING 3D VIZUAL
TURISTIK KO'RINISHI**

**FAYZULLA
MATQURBANOV,**
Xorazm Ma'mun
akademiyasi Ijtimoy-
gumanitar fanlar
bo'limi kichik ilmiy
xodimi

UO'K 523.26

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimiy Xorazmning muhim yodgorliklaridan biri — Ayozaal'a I qal'asi misolida tarixiy merosni 3D texnologiyalar yordamida qayta tiklash jarayoni tahlil qilinadi. Tadqiqot S.P. Tolstov ekspeditsiyasi ma'lumotlari va 3Ds Max hamda Lumion dasturlari asosidagi rekonstruksiya natijalariga tayangan.

Аннотация: В данной статье рассматривается процесс цифровой реконструкции исторического наследия на примере одного из важнейших археологических памятников древнего Хорезма — крепости Аязкала I. Исследование основано на археологических данных Хорезмской археолого-этнографической экспедиции под руководством С.П. Толстова, а также на результатах 3D-реконструкции, выполненной с использованием программ 3Ds Max и Lumion.

Annotation: This article analyzes the process of digital reconstruction of historical heritage using the example of one of the key archaeological sites of ancient Khorezm — the Ayazqala I fortress. The research is based on archaeological data from the Khorezm Archaeological and Ethnographic Expedition led by S.P. Tolstov and on the results of 3D reconstruction created using 3Ds Max and Lumion software.

Kalit so'zlar: Qadimiy Xorazm, Ayozaal'a, S.P. Tolstov, 3D rekonstruksiya, "Qal'a tur" marshruti.

Ключевые слова: Древний Хорезм, Аязкала, С.П. Толстов, 3D-реконструкция, туристический маршрут «Кала-тур».

Key words: Ancient Khorezm, Ayozaal'a, S.P. Tolstov, 3D reconstruction, "Qala Tour" route.

Xorazm nafaqat O'zbekiston, balki jahon sivilizatsiyasida o'zining boy tarixi bilan alohida o'ringa ega. Shunday boy tariximizni, ajdodlardan qolgan ulkan merosimizni avaylab-asrash biz yoshlarning sharaflı burchidir. Shu maqsadda, tariximizni yorituvchi arxeologik yodgorliklar – qal'alarni o'rganish va uning dovruq'ini dunyoga tanitish yo'lida, davlatimiz rahbari alohida e'tibor

qaratgan Ayoqzal'a yodgorligi qanday qal'a ekanligi, uning turistik marshrutda qay salohiyatga egaligini yoritish uchun ushbu loyihaga qo'l urildi.

Qadimgi Xorazm o'zining boy madaniy merosi, qadimiy fortifikatsion arxitekturasini va sivilizatsion taraqqiyot bosqichlari bilan o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan mintaqalardan biridir. S.P. Tolstov tomonidan bu hudud "O'rta Osiyoning Misri" [Толстов, 1948, С.-5] deb ta'riflangan bo'lib, ushbu metafora Xorazmning ekologik-geografik va tarixiy-strategik ahamiyatini chuqur ifodalaydi. Nil daryosi vohasida shakllangan qadimgi Misr sivilizatsiyasi bilan muqoyasa qilinarli darajada Amudaryo bo'ylarida ham barhayot sivilizatsiya vujudga kelgan.

XX asrning 30-yillari oxiridan boshlab faoliyat olib borgan Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi (XAE) ushbu mintaqaning tarixiy landshaftini ilmiy asosda o'rganishga asos solgan [Tolstov, 1948; Gulyamov, 1957]. Ekspeditsiya faoliyati asosan Amudaryoning o'ng va so'l sohillari, hozirgi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Sirdaryoning o'rta va quyi oqimi bo'ylari, Orolbo'yi va Kaspiybo'yi hududlarini qamrab olgan. Tadqiqotlar natijasida ochilgan ko'plab qadimiy qal'a va arxitektura yodgorliklari qadimiy Xorazmning Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tarixidagi beqiyos o'rnini namoyon etdi.

Ushbu ekspeditsiyaning ilmiy boyliklari nafaqat fundamental arxeologik tadqiqotlar asosini, balki Ermitaj muzeyi hamda I.V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog' davlat san'at muzeyining asosiy fondlarini ham boyitdi. Ayniqsa, I.V.Savitskiy muzeyining "Sahro Luvri" deb atalishi bevosita Xorazm hududida topilgan noyob artefaktlar va ularning ilmiy-ma'naviy qiymati bilan bog'liq.

Hozirda ham ushbu madaniy meros obyektlariga e'tibor yuksak darajadadir. Jumladan, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning 2025-yil 1-maydagi Xorazm viloyatiga tashrifi chog'ida Qadimiy Xorazm yodgorliklari, xususan Ayoqzal'a I qal'asining turistik salohiyatini oshirish maqsadida ushbu obyekt asosida yangi marshrutlar ishlab chiqish, xorijiy investorlarni jalb qilish, mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun zarur infratuzilmalarni shakllantirish bo'yicha topshiriq va tavsiyalar berilgan edi. Bu esa, o'z navbatida, madaniy merosni saqlash va uni zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalariga integratsiyalashtirish yo'lida muhim qadamlardan biri bo'ldi.

Prezidentimizning topshiriq va tavsiyalaridan kelib chiqib hamda hozirgi kundagi keng auditoriyaning talab va istaklariga asoslangan holda mahobatli madaniy meros obyektini tadqiqot nashrlarida keltirilgan ma'lumotlar asosida zamonaviy kompyuter dasturlaridan foydalanib, uning 3D rekonstruksiya variantini tayyorlash bizning oldimizdagi birlamchi vazifadir. Tadqiqot natijasida arxeologik yodgorlikning 3D modeli yaratilib, tarix va kelajak orasidagi ko'prik

saqlanib qolishi nazarda tutiladi. Bu orqali keng auditoriyada tariximiz haqida tasavvur uyg‘otish samaraliroq bo‘ladi.

Xorazmning qadimiy qal‘alaridan biri bo‘lgan Ayoqzal’a I Qoraqalpog‘iston Respublikasining Ellikqal’a tumanida joylashgan bo‘lib, o‘zining mustahkam va mukammal me’morchilik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Uning mahobatli devorlari, strategik joylashuvi va muhandislik yechimlari ushbu yodgorlikning nafaqat harbiy, balki siyosiy-iqtisodiy jihatdan ham yuqori ahamiyatga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Yodgorlik S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi tomonidan aniqlangan bo‘lib, ushbu yodgorlik miloddan avvalgi IV-III asrlarga tegishlilikini ekspeditsiya tomonidan topilgan materiallar tasdiqlaydi [Толстов, 1948]. Sulton Uvays tog‘ining sharqiy tarmoqlari yonidan uchta qal’a xarobalari joy olgan bo‘lib, ular tartib bilan belgilangan. Baland tepalik ustida joylashgan Ayoq qal’aning o‘zi 1-raqam bilan belgilangan (1-rasm) [G‘.Xo‘janiyozov, 2007, 148-bet].

Yodgorlik o‘lchamlari 182,5x 152 m bo‘lib, to‘g‘riburchak shaklida olam taraflariga qaratib qurilgan. Qo‘shdevor zarang qatlam (materik) ustiga ko‘tarilgan va ayrim joylarda 10 m dan ziyod balandlikda saqlanib qolgan. Tashqi devorning qalinligi 2,4 m, ichki devorniki— 1,7—2,1 m.

Kirish joyi qal’aning janubiy devorida bo‘lib (2-rasm), sharqiy devorda o‘tish joyi bo‘lgan to‘g‘ri burchak shaklidagi peshdarvoza inshooti bilan himoyalangan. Peshdarvoza inshootiga kirish joyi bir-biridan 4,4 m masofada joylashgan to‘g‘riburchak shaklidagi ikki burj bilan mustahkamlangan. Istehkom sharqiy va g‘arbiy devorlarda bir-biridan 13,8 m masofada, shimoliy devorda esa 11,5 m masofada joylashgan yarim ellips shaklidagi burjlar bilan kuchaytirilgan (3-rasm). Qal’aning to‘rttala burchagida burjlar ayri “qaldirg‘och dumi” shaklida joylashgan. Hamma burjlar devor yuzasiga tirab qurilgan. Gumbazli berk yo‘lak ustidagi devor yuqorisida bir-biridan o‘rtacha 1,5 m masofada nayzasimon shinaklar qo‘yilgan (G‘.Xo‘janiyozov, 2007, 41-42-betlar).


So‘nggi yillarda tarixiy yodgorliklarning ma’lumotlariga tayangan holda 3D modellashtirish orqali qayta tiklash, ularning vizual tarixini yaratish ishlari jadal tarzda rivojlanib bormoqda. Ayoqzal’a I yodgorligi 3Ds Max va Lumion dasturlari orqali modellashtirilishi orqali uning qadimiy ko‘rinishi virtual tarzda jonlantiriladi. Bu esa ilmiy tahlilni chuqurlashtirish, yodgorlikni saqlash va ommaga taqdim etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Raqamlashtirish, xususan 3D modellashtirish jarayoni uchun yuqoridagi manba ma’lumotlari asos bo‘lib xizmat qiladi. Ya’ni, qal’a (obyekt) o‘lchamlari asosida model yaratish tarixiy ishonchlilikni oshiradi. 3D modellashtirishda asosan 3Ds Max dasturi imkoniyatlaridan keng foydalaniladi. Dasturning


qulayliklaridan foydalanib Ayoqzal'a I yodgorligi 3D rekonstruksiya qilindi (4-7-rasmlar).

Xulosa: Ayoqzal'a I yodgorligi qadimgi Xorazmning harbiy arxitektura tizimini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Uning qurilish xususiyatlari, mudofaa tizimi va arxeologik topilmalari orqali Xorazmning qadimiy aholisining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy hayotini tasavvur qilish imkonini beradi. 3D vizualizatsiya texnologiyalari esa ushbu yodgorlikni tarixiy kontekstdan kelib chiqib, zamonaviy raqamli formatda saqlash va targ'ib qilish imkonini beradi. Ushbu loyiha davlat rahbari tomonidan ta'kidlab o'tilgan Xorazm va Qoraqalpog'iston hududidagi qal'alarni bog'lovchi "Qal'a tur" marshruti bir bo'g'inining amaliy ifodasi sifatida tayyorlandi.


Ilovalar




1-rasm. G'. Xo'janiyozov, Ayoqzal'a I umumiy ko'rinishining 2D rekonstruksiya.



2-rasm. G'. Xo'janiyozov, 2D rekonstruksiya.




3-rasm. Gʻ. Xoʻjaniyozov, devordagi burj 2D rekonstruksiya.




4-rasm. Ayozaqal'a I ning 3Ds Max dasturida tayyorlangan 3D modelining Top ekrandan umumiy koʻrinishi.



5-rasm. Qal'aning darvoza qismi Top ekranda koʻrinishi.



6-rasm. Qal'aning shimoliy qismida joylashgan, shinaklarga ega yagona burji koʻrinishi.



7-rasm. Qal'aning Perspektiva ekranda umumiy ko'rinishi, 3D modelning tayyor holati.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Толстов С.П. Древний Хорезм. – М., 1948.
2. Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. Ташкент,. 1957
3. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М., - Л.: Издательство АН СССР. 1948.
4. Хўжаниязов Ғ. Қадимги Хоразм муҳофаа иншоотлари. – Т., “O‘zbekiston”, 2007.

TARIX**XORAZMDA MEHRJON AN'ANALARI: DEHQONCHILIK
MADANIYATI VA TABIATGA EHTIROM****UO'K 523.26**

**MATLUBA
EGAMBERGANOVA,**
Urganch innovatsion
universiteti dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xorazm mintaqasida Mehrjon bayramining tarixi, mazmun-mohiyati va uning dehqonchilik madaniyati hamda ekologik qadriyatlar bilan bog'liq jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda Abu Rayhon Beruniyning asarlari va "Avesto" manbalari asosida bayramning kelib chiqishi hamda xalq an'anaviy marosimlarida tabiatga bo'lgan munosabat yoritilgan.

Аннотация: В статье рассматриваются исторические корни и культурно-экологическое значение праздника Мехрджон в Хорезме. На основе трудов Абу Райхана Бируни и «Авесты» анализируются особенности празднования, отражающие уважительное отношение к земле, воде и урожаю.

Annotation: This article examines the historical origins and cultural-ecological significance of the Mehrjon festival in Khorezm. Based on the works of Abu Rayhan Biruni and the Avesta, the study analyzes how the festival reflects respect for land, water, and agricultural traditions.

Kalit so'zlar: Mehrjon, Xorazm, dehqonchilik madaniyati, tabiat, ekologik qadriyatlar, nomoddiy madaniy meros.

Ключевые слова: Мехрджон, Хорезм, земледельческая культура, природа, экологические ценности, нематериальное культурное наследие.

Key words: Mehrjon, Khorezm, agricultural culture, nature, ecological values, intangible cultural heritage.

Mehrjon (yoki Mehrgon) bayrami kuzgi teng kunlik (odatda 22-23-sentabr) kuz bayrami sifatida nishonlanadigan qadimiy marosimdir. Bu bayram tabiatning mo'l-ko'l hosiliga shukronalik bildirish, odam va atrof-muhit o'rtasidagi uyg'unlikni ulug'lash bilan chambarchas bog'liq. Miloddan avvalgi I-ming yillik boshida bunday kuzgi bayramlar turli mintaqalarda mashhur bo'lgan: Eron va boshqa joylarda Mehrjon, qadimgi Xorazmda Chiriruj, Sug'dda esa Nimsarda nomi bilan nishonlangan. Bu bayram zoroastrizmning Mitra (Mehr) xudosiga bag'ishlangan bo'lib, do'stlik, mehr-oqibat va muhabbatning ramzi sifatida qadrlangan.

Mehrjon bayramining ildizlari Ahamoniylar imperiyasi (miloddan avvalgi VI-IV asrlar) davriga borib taqaladi, u o'sha paytlarda Navro'zdan

keyingi ikkinchi muhim bayram sifatida qayd etilgan. Qadimiy manbalar, jumladan, “Avesto”da bu bayram tabiatning kuzgi mo‘l-ko‘llik mavsumi va yer unumdorligiga bag‘ishlangani tilga olinadi. Xorazmiy olim Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Asar ul-boqiya” asarida Mehrjonni hosil yig‘imi va tabiat bilan uyg‘unlik ramzi sifatida tasvirlagan[1]. O‘rta asrlarda Mehrjon muhim bayramlardan biri sifatida nishonlanib kelingan. Ba’zi mamlakatlarda, masalan, Sosoniylar imperiyasida (III–VII asrlar) u davlatning rasmiy bayrami sifatida o‘tkazilgan, davlat xazinasidan mablag‘ ajratilgan, sovg‘alar tarqatilgan, yurtga osh berilgan, sayllar, musobaqalar va tomoshalar uyushtirilgan. Mehrjon qadimgi dehqonchilik madaniyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, hosilning tugashi va tabiatning kuzgi tenglik holatini ulug‘laydi.

Musulmon ulamolari bu bayramni zoroastrizmga daxldor udumlar deb hisoblab, o‘tkazilishiga qarshilik ko‘rsatishgan. Shu boisdan Mehrjon bayramini nishonlash asta-sekin to‘xtagan, ayniqsa, Mo‘g‘ul bosqinidan keyin u hatto yo‘qolishga yuz tutgan.

Mehrjon bayramining tarixi va ma’naviy mohiyati haqidagi ma’lumotlar qadimgi manbalar va zamonaviy tadqiqotlarda keng yoritilgan. “Avesto”da Mehr xudosi do‘stlik va mehr-muhabbat ramzi sifatida tilga olingan bo‘lib, bayram tabiatning mo‘l-ko‘llik fasli bilan bog‘langan. Abu Rayhon Beruniy “Asar ul-boqiya” asarida Mehrjonni dehqonchilik va tabiat uyg‘unligini ifoda etuvchi marosim sifatida ta’riflaydi.

So‘nggi tadqiqotlarda Mehrjonning nomoddiy madaniy meros sifatidagi ahamiyati, xususan, YUNESKO ro‘yxatiga kiritilishi ta’kidlanadi. Mahalliy olimlar (Ashirov, Rasulov va boshqalar) asarlarida Xorazmdagi dehqonchilik marosimlari va ularning ekologik qadriyatlar bilan bog‘liqligi tahlil qilingan. Bu manbalar orqali bayramning tabiatga ehtirom va barqarorlik g‘oyalariga asoslanganligi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Tadqiqotda tarixiy, qiyosiy va tahliliy metodlar qo‘llanildi. Tarixiy yondashuv orqali Mehrjon bayramining kelib chiqishi va evolyutsiyasi o‘rganildi. Qiyosiy tahlil Eron, Sug‘d va Xorazmdagi an‘analarni solishtirish imkonini berdi. Tahliliy metod asosida Xorazmdagi marosimlar mazmuni va ularning ekologik mohiyati ilmiy manbalar asosida umumlashtirildi.

Mehrjon bayramining asosiy mohiyati tabiatga mehr-muhabbat va uni asrash g‘oyalariga asoslanadi. U kuzgi hosil yig‘imi bilan bog‘liq bo‘lib, odamlarni yer va suv resurslarini qadrlashga, tabiatdan oqilona foydalanishga undaydi. Qadimiy davrlarda bayram tabiatning mo‘l-ko‘llik ramzi sifatida nishonlanib, hosilga shukronalik bildirish va kelajak avlodlar uchun resurslarni saqlash g‘oyalarini targ‘ib qilgan. Masalan, Xorazmda Chiriruj nomi bilan nishonlanadigan bu bayram Orol dengizi inqiroziga

yaqin mintqa sifatida suv resurslarini asrash va yerdan samarali foydalanishga alohida e'tibor beradi.



XX asrning 90-yillaridan Mehrjon bayrami dastlab Tojikistonda, so'ng O'zbekistonda qayta nishonlana boshlandi. 2024-yilda u YUNESKOning nomoddiy madaniy meros ro'yxatiga kiritildi, bu esa bayramning global ahamiyatini ta'kidlaydi[2]. Tojikistonda Mehrjon oktabr oyining uchinchi yakshanbasida kuz va hosil bayrami sifatida nishonlanadi. O'zbekistonda, ayniqsa, Xorazmda u mahalliy an'analar bilan uyg'unlashib, madaniy tadbirlar, hosil ko'rgazmalari va ekologik aksiyalar bilan boyitilgan. Bayramda milliy taomlar, raqs va musiqa guruhleri ishtirokida konsertlar uyushtiriladi.

Xorazmda tabiat bilan bog'liq bayramlar nafaqat xo'jalik ishlari, balki ijtimoiy-ma'naviy hayotning ham muhim qismi hisoblangan. Masalan, "Navro'z", "Mehrjon", "Sada" kabi bayramlar qadimdan ekologik mazmunga ega bo'lib, ular orqali yil fasllari almashinuvi, tabiatdagi o'zgarishlar, suv va yerning qadri ulug'langan. Xususan, Tirgovda qayd etilganidek, bahorda osmonda birinchi bor kamalak ko'ringanda xalq yaxshilik va ro'shnolik belgisi sifatida bir-biriga suv sepib o'ynagan. Bu odat suvning hayotbaxsh kuchini va uning inson hayotidagi muqaddas o'rnini ifodalagan.

Xorazm aholisi tomonidan tabiat bilan bog'liq qadimiy bayramlar bilan birga turli xalq marosimlari ham o'tkazilib kelingan. Jumladan, "Avesto"dan bizgacha yetib kelgan "Dalaga qo'sh chiqarish", "Shox moylar", "Ekin sayili", "Qo'sh osh", "Ona bug'doy", "Xirmon to'yi" kabi xalq marosimlari, avvalo, dehqonchilik va tabiatning yillik aylanish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, ular orqali insonning yer, suv va hosilga bo'lgan hurmati

ifodalangan. Masalan, “Ona bug‘doy” marosimida oxirgi tutam bug‘doy alohida ahamiyat kasb etgan. U o‘rib olingach, xonadonga olib kelinib, uying to‘riga osib qo‘yilgan va bahorgacha saqlangan[3]. Buning ma‘naviy-ekologik ma‘nosi shundaki, dehqonlar hosilni tabiatning ne‘mati sifatida ko‘rganlar va uning davomiyligini ta‘minlash uchun muayyan ramziy harakatlarni bajarganlar. Bahor kelgach, “Ona bug‘doy”ning bir qismidan patir yopilib, dalaga urug‘ sochishga chiqqan dehqonlarga tarqatilgan, qolgan qismi esa urug‘lik don sifatida yerga qo‘yilgan. Bu orqali xalq “hosil doimiy, yer barakotli, suv serob bo‘lsin” degan ezgu orzularini ifoda etgan.

Shu bilan birga, Bobodehqon kulti va u bilan bog‘liq marosimlar ham xalqning atrof-muhit bilan uyg‘un munosabatini ko‘rsatadi. “Ona bug‘doy”dan tayyorlangan non yetilishida: “Bu yil ham hosil mo‘l-ko‘l bo‘lsin, Ona bug‘doy yuz qullasin, Bobodehqon madhkor bo‘lsin”, degan duolar aytilgan[4]. Bu iboralar dehqonchilikda mehnat, yerga ehtirom va tabiatning hosildorlik kuchiga ishonch ramzi bo‘lgan.



Xorazmliklarning qadimiy diniy odatlarida turli ehtiyojlar tufayli o‘tkaziladigan maxsus hayitlar ham mavjud bo‘lib, ularning soni oltitani tashkil etadi. Bu hayitlar qadimiy zoroastriylik va mahalliy urf-odatlarga asoslangan bo‘lib, tabiat sikli, hosildorlik va hayotning yangilanishi bilan bog‘liq. Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida batafsil tasvirlangan bu marosimlar Xorazm kalendariga asoslangan.

Birinchi hayit – *Banxushchishrid* deb ataladi. Bu Navsari oyining o‘n birinchi kuni nishonlanadi. Avom xalq uni *Novsorjikonik* deb ataydi, chunki u ayni shu oyda keladi. Bu bayram asosan yangi oyning kirishi va tabiatning yangilanishi bilan bog‘liq marosimlardan biri sifatida qabul qilingan.

Ikkinchi hayit – *Mishxanrid* nomi bilan mashhur bo‘lib, oyning birinchi kuni o‘tkaziladi. U *Xovarda minik*, ya‘ni “qovoq bayrami” deb ham ataladi. Shuningdek, *Ajfarminik* deb yuritiladi, chunki bu marosim ajfardan o‘n besh kun oldin o‘tkazilgan. Bu bayram qish mavsumida yetilib pishgan qovoq va boshqa mahsulotlarning hosilini nishonlashga bag‘ishlangan.

Uchinchi hayit – *Maziyanrid* bo‘lib, Hamdod oyining o‘n beshinchi kuni nishonlanadi. Bu Anjmarz kunik nomi bilan ham ma‘lum. Ushbu

marosimda asosan qishdan keyingi hosildorlikka tayyorgarlik ishlari va yerni qayta ishlashga bag'ishlangan urf-odatlar bajariladi.

To'rtinchi hayit – *Mizarmirid*, Umriy oyining o'n beshinchi kunida nishonlanadi. U Xirravch kunlik deb ham ataladi. Mazkur marosimda umr va bardavom hayot ramzi bo'lgan turli an'anaviy marosimlar o'tkaziladi.

Beshinchi hayit – Rimj oyining birinchi kunida nishonlanib, *Kajzdi kunik* nomi bilan mashhur. Bu bayramda inson hayotidagi yangi davr boshlanishi va ruhiy tozalik g'oyasi ulug'lanadi.

Oltinchi hayit – *Arsminrid*, *Arsmin dkunik* nomi bilan ma'lum bo'lib, Axman oyining birinchi kuni o'tkaziladi. Ushbu marosimda ko'proq hosildorlik, yerning unumdorligi va baraka tilangan.

Bundan tashqari, xorazmliklar Ispandarmaki oyining oxirgi besh kunida va undan keyingi qo'shimcha besh kunda eronliklar Farvardijon kunini nishonlab, maxsus rasmiy marosimlar o'tkazganlar. Bu davrda arvohlarga atalgan sadaqalar berilib, qabristonlarga ovqatlar olib borilgan. Bu an'ana marhumlarni xotirlash va oilaviy birdamlikni mustahkamlash vazifasini ham bajargan[5].

Shunday qilib, Xorazm aholisining qadimiy bayram va marosimlarida atrof-muhit masalasi dehqonchilik jarayoni, hosilga munosabat va suv-yerning qadrini e'zozlash bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu holat xalqning ekologik madaniyatining uzoq tarixiy ildizlarga egaligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar... B. 132.
2. <https://tj.sputniknews.ru/20241205/prazdnik-mekhrigon-spisok-naslediya-unesco-1065381410.html>
3. Ashirov A. Avestodan meros marosimlar (O'zbek xalqi turmush tarzida zardushtiylik diniy marosimlar an'anasi). Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. 18- bet.
3. Ashirov A. Avestodan meros marosimlar. O'sha joyda.
4. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. T. I. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar / Tarjimon A.Rasulov. Mas'ul muharrirlar: I.Abdullaev, O.Fayzullaev. Toshkent: "Fan", 1968. B. 282.

TARIX

XI-XIII ASRLARDA SAVDO-SOTIQ VA IQTISODIY HAYOTNING YUKSALISHIDA XORAZM VOHASI SHAHARLARINING O'RNI



Otojon Shomuratov,
Urganch innovatsion
universiteti
“Tarix” kafedrasini
o'qituvchisi

UO'K 523.26

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazmshoh-Anushteginiylar davri iqtisodiy munosabatlar va savdo-sotiqning rivojlanishida Xorazm vohasi shaharlarining o'rni va ahamiyati manbalar va arxeologik materiallar asosida tarixiy ma'lumotlar va fikrlar keltiriladi.

Аннотация: В статье на основе источников и археологических материалов излагаются исторические сведения и мнения о роли и значении городов Хорезмского оазиса в развитии экономических связей и торговли в период Хорезмшахов-Ануштегинидов.

Annotation: This article presents historical information and opinions on the role and importance of the cities of the Khorezm oasis in the development of economic relations and trade during the Khorezmshah-Anushteginid period, based on sources and archaeological materials.

Kalit so'zlar: Urganch (Ko'hna Urganch), Al-Istaxriy, Muqaddasiy, Yoqut Hamaviy, Bartold, Ardaxushmisan.

Ключевые слова: Ургенч (Старый Ургенч), Аль-Истахри, Мукаддаси, Якут Хамави, Бартольд, Ардахушмисан.

Key words: Urgench (Old Urgench), Al-Istakhri, Muqaddasi, Yakut Hamavi, Bartold, Ardakhushmisan.

Qadimdan Xorazm vohasi xalqaro savdo va madaniy aloqalarda muhim o'rin egallab kelgan. Xorazm faqat sharq-g'arbiy o'qi bilan Osiyo va Yevropa bir-biriga o'zaro bog'lash bilan birga mintaq, shuningdek, shimoliy-janubiy o'qdagi fin, o'g'ur va slavyan jamoalari va islom mamlakatlari o'rtasidagi savdo-sotiq uchun gavjum nuqta edi. Yuqorida tilga olingan shimoliy xalqlarning mollari Xorazm orqali o'tgan. Eron (Xuroson) va Iroq (Bag'dod) viloyatlariga o'tkazilgan[1.63-80,90-betlar]. Xorazm, Xitoy va Hindiston kabi uzoq mamlakatlar bilan, shuningdek, tijorat munosabatlari tashkil etilgan. Shunday qilib, Bu savdoda Gurganj katta o'rin tutgan. Xitoydan ham, Hindistondan ham savdo karvonlari Gurganj orqali Sharqiy Yevropaga o'tib ketgan. Xorazm nafaqat Xitoy va Hindiston savdogarlari uchun Sharqiy Yevropaga chorraha bo'lib xizmat qilgan[2. p.233.], balki mintaq, shuningdek, ushbu savdogarlar Skandinaviyaga

yetib borishi uchun tranzit nuqtasi bo'lib xizmat qilgan. Ayniqsa, Anushtegin Xorazmshohlar davrida (XI–XIII asrlar) bu jarayon yanada yuksaldi. Xorazmlik savdogarlar musulmon Sharqi va Markaziy Osiyoda mashhur bo'lib, xalqaro savdo yo'llarining asosiy vositachilariga aylandilar. Xorazmshohlar davlatining siyosiy qudrati va iqtisodiy barqarorligi savdo aloqalarining yanada rivojlanishiga imkon yaratdi. Bu davrda Xorazmni turli mamlakatlar bilan bog'lovchi karvon yo'llari bo'yida yirik shaharlar, bozorlar va karvonsaroylar barpo etilib, ular iqtisodiy hayotning muhim markazlariga aylandi. Xususan, Yevropadan Hindistonga olib boruvchi dengiz yo'li ochilguniga qadar, Xorazm orqali o'tuvchi savdo yo'llari Sharq va G'arb o'rtasidagi eng faol iqtisodiy jihatdan bog'lovchi ko'priklar sifatida yuksak taraqqiyot cho'qqisiga chiqqan.

Qadimdan Xorazm vohasi Markaziy Osiyoning eng qadimiy va muhim madaniy-iqtisodiy markazlaridan biri bo'lib, Sharq va G'arb o'rtasidagi xalqaro savdo yo'llarining kesishgan nuqtasida joylashgan edi. Ayniqsa, Anushtegin Xorazmshohlar sulolasi hukmronligi davrida (XI–XIII asrlar) bu o'lka yuksak iqtisodiy va siyosiy taraqqiyot bosqichiga erishdi.

Arab geograflaridan Al-Istaxriy va Muqaddasiy Xorazmni “savdogarlar yurti”, “boyliklar manbai” sifatida tilga olganlar. Shuningdek, Yoqut al-Hamaviy o'zining **“Mu'jam al-buldon”** asarida Xorazm haqida shunday yozadi: “Xorazm aholisi ilmda, tijoratda va hunarda mohir. Bu yer orqali Sharqdan G'arbgacha, G'arbdan Sharqqa karvonlar uzluksiz o'tadi.”[3. 132-133-b]

Anushtegin Xorazmshohlar davrida davlatning siyosiy qudrati, harbiy barqarorligi va soliq tizimining izchilligi savdo faoliyatining kengayishiga xizmat qildi. Xususan, Alovuddin Takash va Muhammad Xorazmshoh hukmronligi yillarida karvon yo'llarini himoya qilish maqsadida karvonsaroylar, rabotlar va bojxona postlari barpo etildi. Bu yo'llar orqali Bag'dod, Buxoro, Marv, Nishopur, Urganch, Xiva, Gurganj va Ray kabi shaharlar o'zaro bog'langan edi. Savdo aloqalari natijasida Xorazmga Hindistondan ziravorlar, Xitoydan ipak, Erondan gilam, Dashti Qipchoqdan mo'yna, Rusiya va Bolgariyadan metall buyumlar keltirilgan.

Tarixchi V. V. Bartoldning ta'kidlashicha: “Xorazmshohlar davlati o'z davrida Sharqiy Yevropa bilan Osiyo o'rtasidagi eng muhim iqtisodiy ko'priklarga aylangan”. Xususan, Yevropadan Hindistonga olib boruvchi dengiz yo'li ochilguniga qadar, Xorazm orqali o'tuvchi karvon yo'llari Sharq va G'arb o'rtasidagi eng muhim iqtisodiy arteriya bo'lib, Xorazm shaharlarini boylik, ilm va madaniyat markaziga aylantirdi. Muqaddasiy Katning boy savdo hayoti haqida hayrat bilan yozgan, Istahriy esa Xorazm shaharlari serhosil, hunarmandchilik rivojlangan, turklar bilan savdo orqali katta foyda olinayotganini qayd etgan.

XI asr boshlarida poytaxt Katdan Urganch (Gurganj, al-Jurjoniya) shahriga ko‘chirildi. Bu shahar Xorazmshohlar davrida davlat markaziga aylandi va xalqaro savdoning eng muhim nuqtasiga aylandi. “Hudud al-‘Alam”da Urganch ichki va tashqi qismlardan iborat yirik shahar sifatida ta’riflanadi. Yoqut Hamaviy Urganchni gavjum bozor va savdo markazi sifatida tasvirlagan.

Davlatning asosiy sohalaridan biri bo‘lgan iqtisodiy hayot Anushtegin Xorazmshohlar davrida ham juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Saljuqiylar singari, Xorazmshohiylar davlati tarkibidagi barcha iqtisodiy ishlar ikki idora: Divan-i Istifo-yi Memolik va Divan-i Ishraf-i Memolik tomonidan boshqarilardi. Bu ikki idora savdo-sotiq ishlarini ham boshqarganligi ko‘pchilik tarixchilar tomonidan aytib o‘tilgan. Davlatning savdo-sotiq ishlariga e’tibor berganligini Juvayniy faoliyati orqali ham bilib olish mumkin: “Muhafazân-i turuk” nomi bilan mashhur bo‘lgan mamlakatning asosiy savdo yo‘llari bo‘ylab yo‘l xavfsizligini ta’minlash uchun davlat tomonidan shaxsan tayinlangan shaxslar bor edi” [5.288-b]. Qadim zamonlarda, Amudaryoning serunum sohillarida, oltin qumlar orasida bir shahar bo‘lgan — Gurganj. U oddiy shahar emasdi, u o‘z davrining yuragi, Sharqning yuragi edi. Har tongda Jayhun daryosining suvlariga quyosh nuri tushganda, Gurganj minoralari oltinday yaltirardi. Karvonlar esa uzoq yo‘llardan kelar, ularning tuyalariga ipak, ziravor, mo‘yna va oltin yuklangan bo‘lardi. Bu davrda Anushtegin Xorazmshohlar davlati gullab-yashnayotgan edi. Gurganj esa uning yuragi, eng boy va obod shahri hisoblanardi. Zakariyo Qazvinii uni “Jayhun bo‘yidagi ulkan, aholisi zich shahar” deb yozgan. Yoqut Hamaviy esa: “Men dunyo kezdim, ammo Gurganj kabi go‘zal va buyuk shaharni ko‘rmadim,” – deb yozgan edi. Shahar ko‘chalarida hayot to‘xtamasdi. Har bir mahalla o‘z kasbi bilan mashhur edi: kimdir temirchilar hovlisida bolta quyayotgan bo‘lsa, boshqasida duradgorlar sandal yog‘ochidan san‘at asarlari yasardi. Ayollar atlas va adras to‘qir, zargarlar esa oltinni mayin ipday eritib, sirg‘a va uzuklarga jon bag‘ishlardi. Har kuni bozor rastalari odamlar bilan to‘lib-toshardi. Xitoy ipaklari, Hindiston ziravorlari, Erondan kelgan gilamlar, Dashti Qipchoq mo‘ynalari Gurganj bozorini jahon savdo markaziga aylantirgan. Bu yerda o‘zaro tillar aralashar, savdogarlar turli yurtidan kelgan mehmonlarga tovushlarini baland qilib narx aytishardi. O‘sha davr manbalarida Urganchda turli ipak gazlama ustaxonalari bo‘lgan. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, Xorazmda ishlab chiqarilgan va eksport qilinadigan ipak matolar paxta va jun matolari kabi ko‘p emas edi. Xorazm savdosining yana bir ko‘zga ko‘ringan tarmog‘i hayvonlar terisi savdosi edi. Qo‘zichoq, kalamush, tulki, ermin, silovsin va kiyik kabi hayvonlarning po‘sti ishlab chiqarilgan va eksport qilingan[4.305-331-b.]

Gurganchdan tashqari Xorazmshohlar davrida Ardaxushmisan, Xeva(Xiva), Darg'on(Darg'om), Mavakon, Govshfanj, Qos(Qiyot), Nuzkat, Hazorasp, Suburna(Suv burni), Saraqusta, Mang'ishloq singari shaharlarda savdo-sotiq, ilm-fan sohalari yaxshi taraqqiy qilgan. Yoqut Hamaviy bu shaharlarga o'zining asarlarida alohida to'xtalib o'tgan. Ardaxushmisan (Xushmisan) shahrining bozorlari gavjum, aholisi yaxshi yashar edi deb ta'kidlaydi [3. 232-b]. Mavakon shahri haqida ham to'xtalib, bu shahar Hazorasp va Ardaxushmisan oralig'idagi shaharcha, katta bozori bor, aholisi hunarmandchilik va dehqonchilik bilan kun kechiradi, deb to'xtalib o'tadi. Muqaddasiy bergan ma'lumotlarga ko'ra, Xorazmning kichik bir shahri Darg'omda ikki farsaxni qamrab olgan 500 ga yaqin uzumzorlar bo'lgan. Muqaddasiy bergan bu ma'lumotlar Xorazm vohasining uzumchilik salohiyatini ko'rsatishda juda katta ahamiyatga ega. Ta'kidlash joizki, uzum yetishtirish bilan birga viloyatda vino ishlab chiqarilgan va eksport qilingan. Qavat (Qavat qal'a) shahrida qilingan arxeologik qazishmalar natijasi ham vohada sharob ishlab chiqarish mavjudligini isbotlaydi. Qolaversa, arman muallifi Hayton, Korykos nomli vino Xorazmda ishlab chiqarilganligini aniq ta'kidlaydi [7. 103- b].



Xorazm vohasi dehqonchilik sohasida ham ancha rivojlangan edi. Xorazmning Kerderankhahs, Bezminiyye va Beratekin (Kara-Tekin) kabi kichik shaharlari qishloq xo'jaligi faol bo'lgan hududlar bo'lgan.[6. 80-b.] Umuman olganda, Xorazmshoh-Anushteginiylar davridagi iqtisodiy va savdo-sotiq ishlarida Xorazm vohasi shaharlari muhim o'rin egallagan.

Xorazm vohasining iqtisodiy va madaniy yuksalishi, avvalo, shaharsozlikning rivojlanishi bilan bevosita bog'liq edi. Savdo-sotiq nafaqat moddiy, balki ilmiy va ma'naviy hayotni ham jonlantirgan. Amir Ma'mun davrida tashkil etilgan Ma'mun Akademiyasi ilm-fan markaziga aylangan, matematika,

astronomiya, geografiya, tibbiyot va boshqa fanlar rivoj topgan. Shahar madrasalari diniy bilimlar markaziga aylangan va bu jarayon markazlashgan davlat barqarorligi hamda madaniyat yuksalishiga xizmat qilgan. Hunarmandchilik, kosibchilik, temirchilik, duradgorlik kabi kasblarning rivoji, Buyuk Ipak yo‘li orqali savdo va madaniy aloqalarning mustahkamlanishi Xorazm shaharlarining jahon sivilizatsiyasi tarixidagi o‘rni naqadar muhim bo‘lganini ko‘rsatadi. Shuningdek, quyidagi takliflarni ham muhim deb hisoblayman:

Xorazmshohlar iqtisodiy siyosatini chuqur o‘rganish – Xorazmshohlar davrida amal qilgan soliq tizimi, karvonsaroylar tarmog‘i va bojxona siyosatini zamonaviy iqtisodiy tahlil asosida qayta tadqiq etish zarur.



Arxeologik tadqiqotlarni kengaytirish – Qavat, Ardaxushmisan (Xushmisan), Mavakon va Darg‘om kabi kam o‘rganilgan shaharlarda iqtisodiy hayotga oid madaniy yodgorliklarini aniqlash maqsadida kompleks arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etish lozim.

Manbashunoslik yo‘nalishini chuqurlashtirish – Al-Istaxriy, Muqaddasiy, Yoqut Hamaviy, Zakariyo Qazvinii va Juvayniy kabi mualliflarning asarlarida keltirilgan iqtisodiy ma’lumotlarni zamonaviy ilmiy tahlil usullari bilan qayta o‘rganish foydali bo‘ladi.

Xorazm savdo yo‘llarining xalqaro ahamiyatini targ‘ib etish – YUNESCO va xalqaro ilmiy platformalarda Xorazm vohasining tarixiy savdo markazi

sifatidagi o'rni haqida maxsus tadqiqotlar, ko'rgazmalar va ilmiy anjumanlar o'tkazish taklif etiladi.

Qadimiy Urganch, Qavat qal'a va boshqa savdo shaharlari hududiy-iqtisodiy merosni turizm bilan uyg'unlashtirish joylashgan hududlarda tarixiy turizm yo'nalishlarini rivojlantirish orqali madaniy merosni asrash va iqtisodiy foyda olish mumkin.

Ta'lim tizimiga kiritish – Xorazmshohlar davrining iqtisodiy siyosati va savdo-sotiq tizimi oliy ta'lim muassasalarida tarix, iqtisod va madaniyat yo'nalishlari uchun alohida o'quv moduli sifatida kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Piter B. Golden, *Kaspiy tadqiqotlari*, trans. E.Ç. Mızrak, Selenge nashrlari, Istanbul 2006, s. 126; Husayin Kayhan, "Saljuqiylar davrida Qora dengiz atrofidagi shaharlarda savdo rivojlanishi", *O'tmishdan Bugungi kungacha Qora dengizda Transport*, zavq. Mehmet O'quvchi-ideallik Ko'ksal-Volkan Aksoy, *Karadeniz Texnik Universiteti nashrlari*, Trabzon 2020, 63-80,70-betlar.

2.Meri Mustahkam, "The Effektlar uf Ichki maydonlar Old The Iqtisodiyot uf Xorazmiy sulola (1097-1231)", Bogazdere, *Iqtisodiy Muammolar II, ECOEI*, Ed. Ishil Akgul-Selchuk Koch-Elshen, Baku 2020, 27,45, p. 38; Xuddi shu muallif, *Xorazmshohlar, Davlat Tashkiloti-Iqtisodiyot-Madaniyat*, Boğazichi nashrlari, Istanbul 2014, p. 233

3.Бунёдов З. Ануштагин Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231). Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1998. – 232-б.

4. Ya'qubiy, "Kitob al-buldon", b. 76; M. Mahfuz Söylemez, "Johiz risolasi, Et Tebessür Bi't-Ticâre", Anqara Universiteti, Adabiyot fakulteti Fakultet jurnali, 42-son, 305-331, 322-betlar.

5. Alaaddin Ata Melik Cüveynî, Tarih-i Cihangüşa, çev. Mürsel Öztürk, T.C. Kültür Bakanlığı Yayınları, Ankara, 1999.

6.Eren Izbul. orta çağ'da hârezm ticareti. Genel Türk tarihi. <https://dergipark.org.tr/en/download/article-file/2958623>

7. Kdyrniyazov, *Materiyalnaya Kultura Gorodov Khorezma*, s. 103

8.Hudûdü'l-Âlem, Mine'l-Meşrîk ile'l-Magrîb, çev. A. Duman-M. Ağarı, Ayışığı Kitaplığı, İstanbul 2018, s. 78.

TARIX CHINGIZIYLAR IMPERIYASI NOSTALGIYASI: “CHINGIZXON TURKIY” DA’VOSINING MANBALARI, SABABLARI VA ILDIZLARI

UO‘K 523.26



**BEKZOD
ABDIRIMOV,**
Respublika Ma’naviyat
va ma’rifat markazi
Xorazm viloyati bo‘limi
rahbari, Tarix fanlari
bo‘yicha falsafa doktori
(PhD)

***Annotatsiya:** So‘nggi paytlarda o‘zbek-qozoq mediya makonida chuqur o‘rganmasdan, tahlil qilmasdan, dunyoda qilingan ilmiy tadqiqot ishlaridan xabardor bo‘lmasdan, hech qanday akademik isbot va dalillarsiz Chingizxonni turkiy yoki o‘zbek bo‘lganligi haqidagi iddaolar paydo bo‘lmoqda. Mazkur maqolada mana shunday iddaolarning paydo bo‘lishi sabablari, tushunmovchilik ildizlari tahlil etiladi.*

***Аннотация:** В последнее время в узбекско-казахстанском медианпространстве распространяются утверждения о том, что Чингизхан был тюрком или узбеком, без какого-либо глубокого изучения, анализа, знания научных исследований, проведённых в мире, и без каких-либо академических доказательств. В данной статье анализируются причины возникновения подобных утверждений и корни этого заблуждения.*

***Annotation:** Recently, claims have been made in the Uzbek-Kazakh media space that Genghis Khan was Turkic or Uzbek without any in-depth study, analysis, or knowledge of scientific research conducted in the world, and without any academic evidence or evidence. This article analyzes the reasons for the emergence of such claims and the roots of misunderstanding.*

***Kalit so‘zlar:** Chingizxon, o‘zbek, O‘zbekxon, mo‘g‘ul, Amir Temur, Xorazmshohlar, Chig‘atoy ulusi, Oltin O‘rda.*

***Ключевые слова:** Чингизхан, узбек, Узбек-хан, ьонгол, Амир Темур, Хорезмшахи, Чигатайский улус, Золотая Орда.*

***Key words:** Genghis Khan, uzbek, Uzbek Khan, mongol, Amir Temur, Khorezmshahs, Chigatai Ulus, Golden Horde.*

Markaziy Osiyo davlatlaridagi o‘z milliy tarixini o‘rganish borasida qilinayotgan harakatlar ular o‘rtasida bu borada go‘yo musobaqa ketayotgandek ko‘rsatadi. Mazkur jarayonda nafaqat Turkiston zamini farzandlari, balki Ichki Osiyoning buyuk sarkardalari ham milliyalashtirish tendensiyalariga jalb etilmoqda. Xususan, mo‘g‘ul va turkiy qabilalarni birlashtirib Turkistonga

bostirib kirgan Chingizxonni ham turkiy, qozoq, o'zbek bo'lgan deya yetarli asosga ega bo'lmagan qarashlar paydo bo'lmoqda. Aksariyat hollarda bunday asossiz "Ilmiy yangiliklar" tarixchi bo'lmagan "mutaxassislar" tomonidan ko'tariladi. Bunday iddaolar ko'pincha qozoq, o'zbek, qirg'iz mediyamakonda qizg'in muhokama qilinmoqda. Quyida ushbu iddaolarning sabablari va ildizlarini tahlil qilamiz.

Chingizxonni "turkiy" deb talqin qilish tendensiyasining sabablari

- Identichlik va "katta meros" uchun raqobat. Mustaqillikdan keyin Turkistondagi xalqlar tarixini milliy ruhda yozish ehtiyoji yuzaga keldi. Bu jarayonda bir qator Markaziy Osiyo jamiyatlarida «ulkan tarixiy meros»ni o'z milliy tarixiga qo'shib olish jarayonlari kuchaydi. Jahon tarixida qudratli shahs bo'lgan Chingizxonni "bizniki" deya ramziy qiyofada o'zlashtirish bu kabi hikoyalarga simbolik kapital va legitimizatsiya beradi. Shu bois avval Qozog'iston va Qirg'iziston mediamuhitida, so'ngra o'zimizning axborot maydonimizda shunday da'volar faollashdi.

- Ommaviy axborot va ijtimoiy tarmoqlar dinamikasi. Ijtimoiy platforma algoritmlari sensatsiya va ziddiyatli kontentlarni tezlik bilan ommalashtirib yuboradi. "Qayta yozilgan tarix" kabi kontentlar e'tibor (engagement) to'playdi. Natijada tekshirilmagan iddaolar tez tarqaladi.

- Ilmiy kommunikatsiyadagi uzilishlar. Mavzu bo'yicha dissertatsiya, maqola va tezislar odatda cheklangan nashr aylanmasiga ega va murakkab ilmiy tilda yozilgani sabab keng ommaga yetib bormaydi. Shuningdek, mualliflar ommaviy media platformalarda kam ko'rinadi. Shunday bo'shliqni mutaxassis bo'lmagan blogerlar va inflyuenser-tarixchilik to'ldirib, auditoriya ehtiyojiga ilmiy bo'lmagan "xulosa"lar bilan javob qaytarmoqda.

- Genetik «sensatsiya»larning suiste'mol qilinishi. Gaplogruppa haqidagi yengil-yelpi materiallar etnik qatlamga asossiz generalizatsiya qiladi. Holbuki, genetik markerlar ko'pincha bir otalik chiziqnigina aks ettiradi. Til, madaniyat siyosiy aydentitetning tarixiy o'zgaruvchanligini qamrab olmaydi va etnosni "genetik mohiyat"ga aylantirishga moyil essensializmga olib boradi. Xulosa qilib aytganda, Chingizxonning mo'g'ul ekani haqidagi turli tillardagi birinchi qo'lyozma manbalar (XIII–XIV asrlar) va g'arb va sharqda bular yuzasidan qilingan ilmiy tadqiqotlarda barqaror xulosa mavjud. Undan voz kechib, uni "turkiy" deb talqin qilish tendensiyasi asosan: milliy identichlik siyosatlari, mediatizatsiyaning sensatsiyaga moyil logikasi, ilmiy kommunikatsiyadagi uzilishlar, genetik ritorikaning noto'g'ri qo'llanishi kabi omillar kesishmasida tug'iladi. Muammoning barqaror yechimi — manbashunoslikka tayangan ishlar, tilshunoslik-tarixshunoslik-genetika o'rtasidagi interdissiplinar muloqot va ommabop, biroq mustahkam ilmiy

kommunikatsiyani kuchaytirishdir. Shuningdek, YouTube video platformasidagi “Qurultoy”, “Fikrat” kabi sahifalarda ilmiy bahs va munozaralar amalga oshiriladi. YouTubedagi bu kabi sog‘lom ilmiy bahs-munozara olib boriladigan platformalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Fikrimizcha, bunday yondashuvlarning paydo bo‘lishiga turtki bo‘ladigan ba’zi jihatlarni bilishimiz kerak.

Chingizxon davrida sharqdan g‘arb sari sodir bo‘lgan migratsiya Turkistondagi etnik jarayonlarga qay darajada ta’sir qilgan?

Manbalarga ko‘ra Chingizxon Turkistonga 100-150 ming sonli qo‘shin bilan kelgan. Uning qo‘shini tarkibida Bo‘rjigin, Qiyat, Jadoran, Taychiut, Saljiut, Uruut, Mang‘ut, Bisut, Qonqotan, Tayjiut O‘yrat, Barlos¹, Qo‘ng‘irot, Jaloyir, Bayavut kabi mo‘g‘ul, mo‘g‘ullashgan turkiy yoki turkiylashgan mo‘g‘ul hamda Merkit², Uyg‘ur, Nayman, Tatar kabi turkiy va turkiylashgan mo‘g‘ul qabilalari vakillari bo‘lgan. Bu qo‘shin 1224-yilda Turkistonni to‘liq, Xuroson, Dashti Qipchoqda katta hududni egallab qaytib ketadi. Bu qo‘shinning kamida 20% shaharlarni qamal qilganini va yirik janglarda halok bo‘lganligini taxmin qilish mumkin. Qo‘shinning asosiy qismi egallangan hududlardan asirlar va ixtiyoriy qo‘shilganlarni Mo‘g‘ulistonga olib ketgach, bu hududda Jo‘ji (undan so‘ng Botu) va Chig‘atoyga ma’lum qo‘shin qoldiradi. Chig‘atoyga ajratilgan qo‘shinning bir xazorasi (minglik qo‘shin) Barlos, bir xazorasi Jaloyir va yana ikkita qaysidir urug‘lardan xazora bo‘lib, jami 4 ming kishilik qo‘shin ajratilgan. Shuningdek, Rashiddin yana mo‘g‘ul bo‘lmagan boshqa urug‘lardan askarlar qo‘shilgan bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi³. Ispan elchi va sayohatchisi Klavixodan esa Rashiddin bergan xabarga qo‘shimchani topamiz. Unga ko‘ra: U “*Chig‘atoylar shu qadar mashhur bo‘lganki, hozirda ko‘chmanchi aholining ko‘pchiligi garchi*

¹ Barloslar – mo‘g‘ullarning Nirun qabila ittifoqiga kirgan. Lekin ularning ajdodlari turkiy bo‘lib, keyinchalik mo‘g‘ullar orasida yashab, ularning odatlari va an‘analarini qabul qilgan. Zotan, Amir Temur ham o‘zini hech qachon mo‘g‘ul sanamagan, o‘zini turk ekanligini ta’kidlagan. Shunday bo‘lsa-da, hozirgacha ularning kelib chiqishi turkiy yoki mo‘g‘ul ekanligi xaqida munozara davom etmoqda. Xususan, A. Zuev, A. Asqarovlar Rashiddinga suyangani holda ularni oldin turkiy bo‘lib, keyin mo‘g‘ul odat va an‘analarini qabul qilgan, degan fikr bildiradilar. Qarang: Asqarov Ahmadali. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. Toshkent. “O‘zbekiston”. 2019. B. 444.

² Merkitlar – Ushniskiy tadqiqotlariga ko‘ra totemi burgut bo‘lgan va turkiy bayirgu qabilasi Chingizxon davriga kelib mo‘g‘ullarga qorishib ketgan. Qarang: Ushniskiy V.V. Zagadka plemeni Merkitov: problema proisxojdaniya i potomstva. Vestnik Tomskogo gosudarstvennogo universiteta. Istoriya. 2013. №1 (21). S. 194.

³ Rashiddin. Jamig‘ at-tauarix. Jild II. Xalqaro turk akademiyasi. Astana. 2018. B – 257.

bu qabilalardan bo'lmasa-da, o'zlarini chig'atoylar deb atayapti"¹ deb xabar beradi. Bu davrdan boshlab Chig'atoy nomi Chig'atoy qo'shinini tashkil qilgan dastlabki 4 ming kishilik qo'shin, keyinchalik butun ulusning nomi, so'ngra, ulus aholisining yozma tili bo'lgan turkiy til "Chig'atoylar", "Chig'atoy ulusi", "Chig'atoy tili" degan tushunchalar paydo bo'ladi². Demak, Chig'atoy ulusi qo'shinining asosiy yadrosini 4 ming mo'g'ul va turkiy qo'shin tashkil etganligi manbalarda qayd etilgan. Bu qo'shin u qadar ko'p bo'lmaganligini Amir Temur zamonigacha ularning turkiylashib ketganligidan ham bilishimiz mumkin.

Jo'jiga ham Chig'atoyga ajratilgani kabi 4 ming kishilik qo'shin qoldiriladi. Uning ming nafari Sijiuut³ (Saljiut) urug'i, ming nafari Ginigit⁴, ikki ming nafari Hushin urug'i askarlaridan iborat bo'lgan. Chig'atoy Ulusi va Oltin O'rda qo'shinining asosini mazkur urug'lar tashkil etgan degan qarorga kelishimizga yana bir sabab shudirki, Rashiddin XIII asrning o'rtalaridagi siyosiy jarayonlar haqida hikoya qilar ekan, Chingizxon davridagi qo'shin taqsimoti o'z kuchida

¹ Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403–1406) / Пер. со староисп. И.С. Мироковой. М.: Наука, 1990. С. 97.

² XV asrning ikkinchi yarmi – XVI asr boshlaridagi turkiy adabiyotning klassik bosqichini "chig'atoy adabiyoti", tilini esa "turkiy", "eski o'zbek tili" nomlari bilan yonma-yon "chig'atoy tili", "chig'atoy turkiysi" deb atalmoqda. Ushbu atamaning kelib chiqishi Chingizxonning o'g'li Chig'atoyxon otiga bog'lanadi. Ma'lumki, Chingizxon o'zi bosib olgan yerlarni o'g'illariga ulashganda O'rta Osiyo yerlari Chig'atoyga tekkan edi. Shunga ko'ra, bu yerlar "Chig'atoy eli", yerli xalqlar esa "Chig'atoy ulusi", xalqning tili esa "Chig'atoy tili" deb atalgan. Bu ot o'zining semantik taraqqiyoti davomida kishi otidan ma'muriy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy atamaga aylangan. Ta'kidlash kerakki, "Chig'atoy ulusi", "Chig'atoy tili" atamalarining mo'g'ullarga yoki ularning tiliga hech bir bog'liqlig'i yo'q. Chunki, bu o'lkada mo'g'ullar emas, turkiy ulus yashagan. "Chig'atoy tili" atamasi ham turkiy tilning (eski o'zbek tilining) nisbiy atamasidir. Čiğatay so'zi atama sifatida XIII asrdan boshlab qo'llanilgan. Manbalarga qaraganda, bu atama boshlab (XIII–XIV asrlarda) Chig'atoyxon sulolasi (turkmo'g'ullar), davlat hokimiyatining oliy tabaqa vakillari, shuningdek, cherikka nisbatan qo'llanilgan. Keyinchalik (XV asrda) butun Mavorounnahr va Xurosondagi turk ulusiga nisbatan, XVI asrdan boshlab Mavorounnahrda ham turkiy, ham forsiy tilli ulusga nisbatan qo'llanilgan XV–XVI asrlarda bu atamaning ijtimoiy-siyosiy vazifasi o'ta kengaygan bir sharoitda butun Mavorounnahr elini, uning xalqini, xalqining tilini ham ifodalay boshladi: yurtini, elini Čiğatay, Čiğatay eli, xalqini Čiğatay ulusi, uning tilini esa čiğatay türkisi deyildi. Qarang: Sodiqov Q. O'zbek tili o'tmishda qanday atalgan? <https://tsuos.uz/o'zbek-tili-o'tmishda-qanday-atalgan/>

³ Rashiddin Fazlulohning "Jome at-tavorix" asarining 1994 yil Tehrondagi Al-Barz nashriyotida chop etilgan nashri asosida Qozog'istonda chop etilgan faksimil nusxasida "Sijiuut" shaklida keladi. Qarang: Rashiddin. Jamig' at-tauarix. Jild II. Xalqaro turk akademiyasi. Astana. 2018. B – 567. Shuningdek, 1998 yilda ingliz tilida Garvard universitetida chop etilgan tarjimasida esa Tayjiuut deb keltiriladi. Qarang: Rashiduddin Fazlullah's Jami'u't-tawarikh: Compendium of Chronicles. English Translation and Annotation by W.M.Thackston. Published at Harvard University. 1998. P.279.

⁴ Ingliz tilidagi tarjimasida "Kinggut" shaklida tarjima qilingan. Qarang: Rashiduddin Fazlullah's Jami'u't-tawarikh: Compendium of Chronicles. English Translation and Annotation by W.M.Thackston. Published at Harvard University. 1998. P.279.

qolganligiga ishora qiladi¹. Bulardan tashqari, keyinchalik mo'g'ullar o'rtasida nizolardan Oltin O'rdaga qochib kelganlar ham bo'lgan². Rashididdinga ko'ra Jo'ji va uning vorislarining aksariyati qo'ng'iro't urug'idan chiqqan ayollarga uylanganligi ta'kidlanadi. Bu esa qo'ng'iro't urug'idan ham ma'lum miqdorda aholi ko'chib kelganligini anglatadi. Shuningdek, yana ulardan tashqari 1216 yilda Irg'iz daryosi atrofida³ Merkitlar mo'g'ullardan og'ir zarba olib, tirik qolganlari bu hududda qolib ketadi⁴. Botuxon davridan to O'zbekxon davrigacha bo'lgan davrda Dashti Qipchoq hududiga Mo'g'uliston va boshqa uluslardan bir qancha urug' va qabilalar ham kirib kelgan. Demak, Chingizxon Jo'jiga ajratilgan 4 ming kishilik mo'g'ul va turkiy qo'shinga, keyinchalik noma'lum miqdorda qo'shin kelib qo'shilgan. Jo'ji o'limidan so'ng Botuga G'arbga yurish qilish uchun markazdan 30 ming kishilik⁵ qo'shin ajratiladi. Lekin bu qo'shinning aksariyati, xususan, Tulining o'g'li Munqa (keyinchalik hoqonlik taxtiga o'tirgan) va qarindoshi Bo'jik, O'qtoyni o'g'li Kuyuk va qarindoshi Qadan, Chig'atoyning o'g'illari – Bo'ri va Baydar, no'yonlar - Jebe, Qo'liqan, Subutoylar mo'g'ullarning Yevropadagi yurishlarini oxiriga yetkazgach, ortga qaytib ketgan edi.

Demak, o'sha davr manbalariga ko'ra Chingizxonning Turkistonga (Chig'atoy qo'shini 4 ming) va Dashti Qipchoqqa (Jo'ji qo'shini – 4 ming kishilik qo'shin yadrosiga qo'shimcha) merkitlar, qo'ng'iro'tlar vaqt o'tib ko'payishadi, mahalliy turkiy aholi bilan qorishadi. Taxminimizcha, tarixiy manbalarda yozilmay qolgan ko'chib kelgan xalqlar, raqamlar u darajada ko'p bo'lmagan. Ularning tez orada Dashti Qipchoq va Turkiston turkiy muhitida mahalliy aholi tarkibiga singib ketganligidan ham bilishimiz mumkin. Tarixiy manbalarda bu taxminimizga asoslarni topishimiz mumkin. Hususan, Ibn Battuta O'zbekxon

¹ Rashididdin Hulaguning Eronga uyushtirilayotgan yurishga Chingizxon davrida qilingan qo'shin taqsimoti asosida Chingizxonning har bir o'g'il va nevarasiga berilgan qo'shinning har 10 nafaridan ikki nafarini Eronga jo'natilishi haqida Munqaning buyrug'i haqida hikoya qiladi. Qarang: Rashididdin. Jamig' at-tauarix. Jild IV. Xalqaro turk akademiyasi. Astana. 2018. B – 28

² Rashididdin. Jamig' at-tauarix. Jild II. Xalqaro turk akademiyasi. Astana. 2018. B – 257.

³ Markaziy Qog'og'iston hududida. Bu yerda 1216 yilda Merkitlarga Jo'ji va Subutoy boshchiligidagi qo'shin og'ir zarba beradi va tirik qolganlari Dashti qipchoq hududlarida qolib ketadi. Qarang: Sultanov T.I. K Istoriografii etnopoliticheskoy istorii Ulusov Djuchi i Chagataya. Zolotoordynskoe obozrenie. 2017. T. 5, № 1. DOI: 10.22378/2313-6197.2017-5-1.74-92. S. 76.

⁴ Султанов Т.И. К Историографии этнополитической истории Улусов Джучи и Чагатая. Золотоордынское обозрение. 2017. Т. 5, № 1. DOI: 10.22378/2313-6197.2017-5-1.74-92. С. 76.

⁵ Rashididdin. Jamig' at-tauarix. Jild III. Xalqaro turk akademiyasi. Astana. 2018. B – 16.

davrida poytaxt Saroyi Berka shahrida turklardan tashqari “o‘zga toifalarga mansub odamlar ham bo‘lib, ular orasida mo‘g‘ullar ham bor” degan ajablanarli ma‘lumotni beradi¹. Bu ma‘lumot aslida mo‘g‘ullarning u qadar ko‘p bo‘lmaganligidan dalolat beradi.

O‘zbekxon masalasi. Dashti Qipchoqqa mo‘g‘ullar hukmronligi davrida kirib kelgan urug‘ va qabilalar O‘zbekxon davriga kelib allaqachon Dashti Qipchoq muhitida turkiylashib ketgan edi. Xususan, bu yerda mo‘g‘ullarga qadar eng yirik etnosiyosiy uyushma Qipchoqlar bo‘lgan bo‘lsa, mo‘g‘ullarning hujumlari natijasida ularning bir qismi halok bo‘lgan, bir qismi g‘arb sari ko‘chgan, bir qismi mo‘g‘ul hokimiyatini qabul qilgan. Ya‘ni mo‘g‘ullar bosqinidan oldingi davrda mintaqada mavjud bo‘lgan qang‘li, qipchoq, qorluq, o‘g‘uzlarning ayrim toifalari parchalanib, Chingizxon vorislari va qo‘mondonlarining ismi bilan bog‘liq eponomik etnonimlar (o‘zbek, chig‘atoy, no‘g‘ay, chimboy kabi) atrofida yoki Chingizxon va chingiziylarning mo‘g‘ul va turkiy kelib chiqishli aristokrat urug‘ va qabilalari (qiyot, nayman, qo‘ng‘irot va boshqalar) atrofida birlashuvi sodir bo‘ladi². Shu bilan birga mo‘g‘ullar mahalliy aholi tarkibiga singib ketadi. Shu tariqa XIV asrga kelib Oltin O‘rda kelgan mo‘g‘ul qatlamlarining tili ham turkiylashadi. Bu xaqda al Umariy quyidagicha fikr bildiradi: “*Qadimda bu davlat qipchoqlar yurti edi. Keyin uni tatarlar egallab, qipchoqlar ularga tobe bo‘ldi. So‘ngra tatarlar qipchoqlar bilan qo‘shilib, qarindosh tutinishdi. Natijada, yer o‘zining tabiiy va irsiy xususiyatlari bilan tatarlardan ustunlik qildi. Mo‘g‘ullar qipchoqlarning o‘lkasida yashaganligi uchun va mahalliy aholi bilan qarindoshlik aloqalarini bog‘laganligi sababli ularning barchasi bir irqdan bo‘lganidek qipchoqlarga o‘xshadilar*”³. Mahalliy turkiy qavmlar va yangi ko‘chib kelgan turkiy hamda mo‘g‘ul qabilalari aralashuvi mahalliy aholining aksariyati e‘tiqod qiladigan islom dinini qabul qilinishi kuzatiladi.

“O‘zbek” etnonimi XIV asrda Oltin O‘rda hukmdori O‘zbekxon nomi bilan bog‘liq siyosiy-etnik ittifoq sifatida shakllangan. O‘zbekxon davriga kelib, uning atrofidagi urug‘ va qabilalar Shayboniyxonning Movaraunnahrni egallashi jarayonida va undan oldinroq Dashti Qipchoqdan Movaraunnahrga kirib keladi. Ammo bu qabilalarning Movaraunnahrga kirib kelishidan 4-5 asr oldin (aniqrog‘i

¹ Ибн Баттута. Саёхатнома. Таржимон: Неъматулла Иброҳимов. Тошкент: “Шарқ” 2012. Б. 354.

² Manz, Beatrice Forbes. *The Rise and Rule of Tamerlane*. Cambridge University Press, 1989. P – 31.

³ Golden Peter B. An introduction to the history of the Thrkic peoples :ethnogenesis and state formation in medieval and early modern Eurasia and the Middle East. -Wiesbaden :Harrassowitz, 1992. S – 292.

XI-XII asrda) o‘zbek elati xalq sifatida shakllangan edi¹. Dashti Qipchoqdan Shayboniyxon bilan kelgan urug‘ va qabilalar o‘zbek xalqi shakllanishida faqatgina etnik komponent sifatida ishtirok etgan. Shu nuqtai nazardan O‘zbekxon Chingizxon avlodi bo‘lganligi uchun bugungi o‘zbek millatini Chingizxon avlodlari deyish mutlaqo noto‘g‘ri bo‘ladi.

O‘g‘uzxon legitimizmi merosi.

Ko‘p hollarda Chingizxonning O‘g‘uzxon nasliga oidligi haqidagi nasabnomalar sababli Chingizxon turk bo‘lgan degan fikrni ilgari surishadi. Ya’ni, O‘g‘uzxon turk, demak Chingizxon ham turk bo‘lgan degan fikrga kelinadi. Aslida, Chingizxon nasli haqidagi zamondosh manbalar – Mo‘g‘ullarning sirli tarixi, Juvayniy, Rashididdin, Yuan Shi kabilarda mo‘g‘ullarning Bo‘rjigin silsilasiga bog‘lanadi. Mo‘g‘ul sulolalari islomlashgan va turkiylashgan hududlarda hukmronlik qilar ekan, aholining o‘z-o‘zini o‘g‘uz deb bilgan qatlamlari oldida siyosiy-huquqiy legitimatsiya kerak edi. Chingizxonni **O‘g‘uzxon silsilasiga** yaqinlashtirish — uni turkiy dunyosi uchun “o‘zimizniki” qilish, hukmdorning huquqini qadimiy turk merosi bilan bog‘lash usuli bo‘ldi.

XIII–XIV asrlarda qipchoq-chig‘atoy makonlarida elita va qo‘shinlar tez turkiylashdi. Tarixnavislik “O‘g‘uznoma” ruhida ommalashadi. Shu muhitda mo‘g‘ul afsonasi (Bo‘rte Chino, Alan-quva) islomiy-turkiy ramkalarga “moslanib”, ba’zan Chingizxonning nasabini O‘g‘uzxonga yaqinlashtirgan rivoyatlar paydo bo‘ldi. Rashididdinning *Jome’ at-tavorixi* kabi asarlari turk va mo‘g‘ullarni Nuh – Yofas silsilasi orqali bir shajaraga birlashtirdi. U Chingizni Bo‘rjigin sifatida aniq bersa-da, turk-mo‘g‘ul qarindoshlik g‘oyasi keyingi mualliflarga Chingizni O‘g‘uzxonga “yaqinlashtirish” uchun intellektual asos yaratdi. Anadolu-Ozarbayjon makonida o‘zini o‘g‘uz merosxo‘ri sifatida ko‘rgan sulolalar (Saljuqiylar, Qoraqo‘yunli, Oqqo‘yunlilar, keyinroq Usmoniylar) va Chingiziy xonadonlar o‘rtasida ramziy raqobat bor edi. Ayrim o‘g‘uznoma an‘analarda Chingizxon “o‘g‘uz birligi” ichiga joylanib, ikki legitimatsiyani bir ramkaga solishga urinish kuzatiladi.

XVI- XVII asr Xorazm xonligi muhitida O‘tamishxojining “*Chingiznoma*” asarida O‘g‘uznoma rivoyatlari va mo‘g‘ul rivoyatlari birlashtiriladi. Abul-G‘ozi Bahodirxonning *Shajara-i turk* va *Shajara-i tarokima*, asarida esa turk-mo‘g‘ul nasablarini bir universal shajarada tartiblaydi (asliy Bo‘rjigin silsilasini saqlagan

¹ Асқаров Ахмадали. Ўзбек халқининг келиб чиқиши. Тошкент: “Ўзбекистон”. 2009. Б. - 567.

holda). Bu kabi asarlar turkiy muhitda Chingizxonni “umumiy turkiy tartib”ga kiritish hissini mustahkamlagan. Shuningdek, mo‘g‘ullarning totemik Alan-quva hikoyasi islomiy ta’limotga “begona” ko‘ringani uchun ba’zi tarixchilar Chingizni islom dunyosiga yaqin afsona — O‘g‘uzxon doirasiga ulashni ma’qul ko‘rdilar. Demak, Chingizni bevosita O‘g‘uzxon nasliga qo‘shib yuborish — asosan keyingi, sinkretik (o‘g‘uznoma ta’siridagi) rivoyatlarda paydo bo‘lgan va bu siyosiy-madaniy kon’yunktura mahsulidir. Xulosa qilib aytganda, Chingizni O‘g‘uzxonga “borib taqash” ehtiyoji — islomiy-turkiy makondagi legitimatsiya, madaniy assimilyatsiya va umumiy nasabni izlash zaruratidan tug‘ilgan. Ilk manbalarda u Bo‘rjigin; keyingi turkiy-islomiy tarixnavislikda esa uni o‘g‘uz merosi bilan uyg‘unlashtirishga urinishlar paydo bo‘lgan.

Chingiziy legitimizmi merosi.

XIII–XVII asrlarda Markaziy Osiyo va unga tutash hududlarda “xon” taxtini faqat Chingizxonning erkak avlodidan (oltun urug‘) bo‘lgan shaxs egallashi mumkin, degan qoida de-fakto siyosiy normaga – tabuga aylangan. Shu bois hokimiyatni qo‘lga kiritgan chingiziy bo‘lmagan sarkardalar ham hukmronlikni Chingiziy nasab orqali hokimiyatini “qonuniylashtirish”ga majbur bo‘lishardi. Chingiziy bo‘lmagan hukmdorlar odatda, “xon” emas, amir, bek, mirzo, sulton kabi unvonlarni ishlatishgan. “Xon” unvonini ko‘pincha Chingiziy kelib chiqishga ega bo‘lgan Shayboniylar, Qozoq xonlari, Gireylar (Qrim), Qozon, Astraxan, Sharqiy Turkistondagi Mo‘g‘uliston xonlari ishlatgan.

Chingiziy bo‘lmagan hukmdorlar legitimlikka erishish yo‘llarini qilganlar. Masalan, Kuragon unvoni (xonning kuyovi) Chingiziy malikalarga uylanib, “Xon nasliga quda” sifatida siyosiy legitimlikka erishgan. Xususan, Turonning eng buyuk hukmdori Amir Temur ham shu yo‘lni tutadi. U Chig‘atoy ulusi Chingiziy malikasi Saroymulkxonimga uylanib, Amir Temur “Kuragan” unvonini oldi. Undan tashqari, Amir Temur Chig‘atoy ulusi muhitida “Qo‘g‘irchoq xon” tartibini yo‘lga qo‘ydi. Amaldagi Amir to‘liq hukmron bo‘lsa-da, tanga (zarb qilib) va xutbani rasmiy Chingiziy “xon” nomiga o‘qitib, legitimlikka erishgan. Ya’ni, Amir Temur 1370-yildan keyin Chig‘atoy nasabidan So‘yurg‘atmish (keyin o‘g‘li Sulton Mahmud)ni rasman xon qilib, davlat ishlarini o‘zi yuritgan. Yuqoridagi tabu XVIII–XIX asrlarda biroz yumshaydi. Natijada hukmdorlar Buxoroda “amir”, Xorazmda qo‘ng‘irotlar va Qo‘qonda minglar “xon” deb chingiziylarsiz hokimiyatni boshqaradilar. Shuni ham ta’kidlash joizki, XIV asr va undan keyin Turkiston muhitida hattoki Chingizxon naslli xonlar ham allaqachon til, madaniyat va boshqa an’analar jihatidan turkiylashib bo‘lgan edi.

Chingizxonning “Xon” unvoni bilan atalishi masalasi.

U 1206-yilda o'zini "Chingizxon", ko'chmanchilarning ulug' xoni deb e'lon qiladi. U o'z davlatida xitanlar tomonidan qo'llanilgan boshqaruv uslubini joriy qiladi¹. Shuningdek, mo'g'ullar siyosiy, diniy va ideologik tuqtai nazardan mazkur hududda oldingi turkiy davlatlar an'analariga amal qilganlar². Mo'g'ullar savodsiz bo'lgan bo'lsalar-da, ularning atrofida kelib chiqishi turkiy va xitoylik bo'lgan o'qimishli kishilar maslahatchi va kotiblari bo'lgan. Shuningdek, Chingizxon yoshligidan asli turkiy bo'lgan keraitlar ta'sirida yoki ittifoqchiligidan bo'lgan va ular bilan yaqin aloqada bo'lganligi muqarrardir. Shuning uchun u turkiy madaniyat ta'sirida "Xon" unvonini olgan³.

Chingizxonning o'g'illari va sarkardalari ismlarining turkiy deb da'vo qilinishi.

Mo'g'ul va turkiy tillar guruhi bir oilaga – Oltoy tillar oilasiga mansub bo'lganligi uchun o'xshash so'zlar bo'lishi tabiiydir. Shuningdek, Oltoyda faqatgina mo'g'ullar emas, ulardan-da ko'proq turkiylar yashagan. Tabiiy ravishda bir tildagi kishi ismlari boshqa tilda ham ishlatilgan. Nega bugungi kunda xalxa mo'g'ullari ismlari Chingizxon davridagi ismlarga o'xshamaydi degan savolga javob berish uchun xalq malaniyati transformatsiyasida diniy e'tiqodni hisobga olish kerak bo'ladi. Masalan, bugungi mo'g'ullar ismlarining 50-70% ularning bugungi diniy e'tiqodlari bilan bog'liq. Xususan, -dorj, -ochir, -dash/dashi, -lyvsan -jams, -amyan, -namsray, -choyjil, -syren, -rinchen, "ganj, -baljinnyam, Davaa, Nyam, Lxagva, Pyrev, Baasan, Byamba, Myagmar kabi ko'plab antroponim qismlari buddizm va lamaizmdan kelgan unsurlardir. Bunga o'xshash holat Turkistonda ham ro'y bergan. Masalan, Islomdan oldingi Dargoman, Spitamen, Xarshin, Chag'on, Chag'ribek yoki islomdan keyingi davrda urf bo'lgan Alptegin, Anushtegin, Davlatmalik kabi ismlar bugun o'zbek bolalariga qo'yilmayapti. Vaholanki, 2023-yilda O'zbekistonda eng ko'p qo'yilgan ismlar 10 taligida - Muhammad, Muhammadali, Mustafo, Abdulloh, Soliha, Yasmina, Muslima, Imron, Xadicha, Imona ismlari qo'yilgan⁴. Bu yerda

¹ Golden Peter B. An introduction to the history of the Thrkic peoples :ethnogenesis and state formation in medieval and early modern Eurasia and the Middle East /Peter B. Golden. - Wiesbaden :Harrassowitz, 1992. S – 286.

² Michal Biran. the Mongol transformation: from the steppe to Eurasian empire. *Edieval Encounters*, Vol. 10. 2004. S. 340.

³ Igor de Rachewiltz, "Turks in China under the Mongols: A Preliminary Investigation of Turco-Mongolian Relations in the 13th and 14th Centuries" in M. Rossabi (ed.), *China Among Equals* (Berkeley, 1983), pp. 281- 291.

⁴ <https://kun.uz/news/2024/01/05/ozbekistonda-2023-yili-chaqaloqlarga-eng-kop-qoyilgan-ismlar-malum-qilindi>; <https://t.me/davxizmat/12964>

10 ta ismning barchasi arab tilidan kelib chiqqan. Bu degani bu ism qo'yilgan 100 minglab o'zbek farzandlari arab, degani emas. Shu jihatdan ham Chingizxon davrida mo'g'ullar va turkiylar orasida urfda bo'lgan ismlarga qarab ularning kelib chiqishini aytib bo'lmaydi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, Mo'g'uliston zaminida faqatgina mo'g'ullar emas, turkiylar ham yashagan. O'rxun-Enasoy bitiklari bunga yetarli misol bo'la oladi.

Mo'g'ul atamasi.

Mo'g'ul (mogol) atamasi dastlab Chingizxon va uning vorislari davrida uning qavmi, vaqt o'tib ularning ittifoqchilarini anglatgan bo'lsa, XIV asrdan so'ng avvalgi ma'nosini to'liq yo'qotib, turkiy tilda so'zlashuvchi xalqqa aylangan. XIV asrda bu atama keng qo'llanilib, turli xil ko'chmanchi qabilalar, etnik, diniy qarashlaridan qat'iy nazar Mo'g'uliston¹ (مغولستان) aholisi sifatida belgilangan². Ya'ni, Yettisuv hamda Sharqiy Turkistonga Chingizxon va uning vorislari davrida ko'chib kelib o'rinishgan qabilalar – Dug'lat, Churas, Kerait, Arkenut, Qang'li, Barin, Qirg'iz, Bulgachi, Barlos, Sulduzlar, oldindan yashab kelayotgan Qang'lilar, Qorluqlar kabi turkiy aholi umumiy “mo'g'ul”³ deb atala boshlangan⁴. Bu degani XIV asrdan keyingi davrda Turkistonda ishlatilgan “mo'g'ul” so'zi etnik ahamiyatga ega bo'lmaganini anglatadi.

Chingizxon qo'shini nima uchun musulmon sharqida va g'arbda tartarlar deb nomlangan?

Xitoyda tatarlar – Chingizxon davriga kelib ommalashgan “mo'g'ul” nomidan oldinroq mashhur bo'lgan⁵. Shuningdek, g'arbdan Sharqiy Osiyo hududlariga kelgan savdogarlar bu hududdagi eng yirik, kuchli, nisbatan qadimiy bo'lgan tatarlarni taniganlar. Shu sababdan Chingizxongacha bo'lgan davrda Ibn Xo'rdobex, Ma'sudiy, Istaxriy, Idrisiy kabilarning asarlarida Turkistondan sharqdagi qavmlarni “Sharqiy cho'llardagi qavmlar” sifatida “tatarlar” deya nomlaganlar. Shu sababdan yuqoridagi mualliflarga ergashgan holda An-Nasaviy

¹ Bugungi Mo'g'uliston emas, Sharqiy Chig'atoy ulusi hududlari (Yettisuv) nazarda tutilmoqda.

² Султанов Т.И. К Историографии этнополитической истории Улусов Джучи и Чагатай. Золотоордынское обозрение. 2017. Т. 5, № 1. DOI: 10.22378/2313-6197.2017-5-1.74-92. С. 84.

³ Golden Peter B. An introduction to the history of the Thrkic peoples :ethnogenesis and state formation in medieval and early modern Eurasia and the Middle East. -Wiesbaden :Harrassowitz, 1992. S –304.

⁴ 1347-1570 yillar davomida Tug'luq Temur tomonidan asos solingan davlat. Yettisuv, Sharqiy Turkiston hamda Tiyonshon viloyati kirgan.

⁵ Xitoyliklar Chingizxon davrida oldin Mo'g'uliston va Ichki Mo'g'uliston hududlarida mo'g'ul va mo'g'ul bo'lmagan qabilalarni ham tatarlar deb atashgan. Qarang:Мункьева Н.Ц. Мэн-да бэй-лу (Полное описание монголо-татар). Мовква: “Наука”. 1975. С. 90.

ham ularni tatarlar, Juvayniy va Rashiddinlar esa ham mo'g'ul, ham tatar deya ataydi. Shu bilan birga Chingizxonning eng katta raqiblaridan bo'lgan tatarlarni yengib, ularni o'z qo'shini safiga kiritadi. Mo'g'ul nomi Chingizxon va uning vorislaridan so'ng ommalashadi. Lekin, shundan so'ng ham musulmon sharqida va g'arbda ularni tatarlar deya nomlayverishadi.

Sovetlar davrida turklar tarixini soxtalashtirish natijasida Chingizxon turk emas, mo'g'ul deb deb qarash paydo bo'lganmi?

Sovetlar davrida turklar tarixi buzilganligi, noto'g'ri talqin qilinganligini rad qilib bo'lmaydi. Ammo, Chingizxonning kelib chiqishi bundan mustasno. Bugun, media olamida sovetlar tomonidan Chingizxon tarixi soxtalashtirilishi natijasida turk tarixidan ajratilgan, degan noto'g'ri qarash mavjud. Vaholanki, sovetlarga qadar Fransua Petis de la Krua «Chingizxon tarixi» (*Histoire de Genghizcan*, 1710 y.), Antuan Gobil, «Chingizxon tarixi» (*Histoire de Gentchiscan*, 1777 y.), Jozef de Gin, «Hunlar, Turklar, Mo'g'ullar va boshqa G'arbiy Tatarlarning umumiy tarixi» (*Histoire générale des Huns, des Turcs, des Mongols...*, 1756–1758 yy.), D'Osson (Abraam Konstanten D'Osson), «Chingizxondan boshlangan Mo'g'ullar tarixi» (*Histoire des Mongols, depuis Tchinguiz-Khan...*, 1824–1834 yy.), Eten-Mark Katrmer, «Erondagi Mo'g'ullar tarixi» (*Histoire des Mongols de la Perse*, 1836 y.), Isaak Yakov Shmidt, «Sharqiy mo'g'ullar tarixi» (*Geschichte der Ost-Mongolen...*, 1829 y.) Henri H. Xovort, «Mo'g'ullar tarixi» (*History of the Mongols*, 1876–1888 yy.) asarlarida Chingizxon va mo'g'ullar haqida yirik tadqiqotlar amalga oshiradilar. Ularning barchasi Chingizxonni turk emas, mo'g'ul ekanligini tasdiqlashgan. Bu qarashlar Bartold va boshqa sovet tarixchilaridan ancha oldin shakllangan edi.

Ushbu maqolada ko'rsatilgan manbashunoslik dalillari va zamonaviy tadqiqotlar asosida Chingizxonni “turkiy” deb talqin qilish haqidagi da'volar barqaror ilmiy asosga ega emasligi aniqlandi. Ilk zamondosh yozma manbalar (XIII–XIV asrlar) Chingizxonni Bo'rijin sulolasiga mansub mo'g'ul hukmdori sifatida qayd etadi. Keyingi turkiy-islomiy muhitda paydo bo'lgan O'g'uzxonga yaqinlashtiruvchi rivoyatlar esa, asosan, legitimatsion ehtiyoj va siyosiy-madaniy kon'yunktura natijasi sifatida talqin etiladi.

Mavzu atrofidagi mo'g'ul, turk, diniy-mifologik rivoyatlarning qorishuvi, identichlik siyosati, platformalarning sensatsiyaga moyil algoritmlari va ilmiy kommunikatsiyadagi uzilishlar muhim o'rin tutmoqda. Bu jarayonlar “imperiyachilik nostalgiasini” deb ta'riflanadigan selektiv xotira va romantizatsiya orqali o'tmishni ideallashtirish tendensiyasini kuchaytiradi. Natijada tarixiy reallik soddalashtiriladi va ilmiy mezonlar soyada qoladi.

TARIX**MUHAMMAD SALIM OXUNNING XIVA XONLIGIDAGI
LAVOZIMLARI****UO‘K 211.4**

**MATYUSUF
SALIMOV,**
Urganch davlat
pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xiva xonligi qozikalonlari Muhammad Salim oxunning mutavalli, mudarris, mufti, qozi askar va qozikalonlik lavozimlariga tayinlanganligi va vafotidan keyingi jarayonlar haqida so‘z yuritiladi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются назначения Мухаммада Салима ахуна, казыкалана Хивинского ханства на должности мутавалли, мударриса, муфтия, кази аскера и казыкалана, а также события, происходившие после его смерти.

Annotation: This article discusses the appointments of Muhammad Salim okhun, kazykalon of the Khive Khanate, to the positions of muttawalli, mudarris, mufti, kazy asker, kazykalon, as well as the events that took place after his death.

Kalit so‘zlar: Xiva, qal’a, masjid, qavm, mutavalli, mufti, qozi askar, qozikalon, vaqfnoma, oxun, mudarris, madrasa, eshon, muhr.

Ключевые слова: Хива, крепость, мечеть, род, мутавалли, муфтий, казы аскер, казыкалон, вакфнома, ахун, мударрис, медресе, эшан, печать.

Key words: Khiva, fortress, mosque, clan, mutawalli, mufti, kazy asker, qazykalon, waqfnom, okhun, mudarris, madrasah, eshan, seal.

Muhammad Salim oxun 12 yil Buxoro shahridagi Ko‘kaldosh madrasasida tahsil olib, Sayyid Muhammad Rahimxon-Feruzning xonlik davrida Xorazmga kelib, dastlab xattotlik va oxunlik faoliyati bilan shug‘ullangan bo‘lsa, keyinchalik mutavalli vazifasiga tayinlangan. O‘zining xusnixati, mehnatsevarligi, rostgo‘yligi va ilmi bilan xonlikda hurmat-izzatga sazovor bo‘lib, mudarris, mufti, qozi askar va qozikalon lavozimlariga tayinlangan va umrining oxirigacha qozikalonlik lavozimida faoliyat olib borgan.

Xiva xonligida yuqori davlat lavozimlariga tayinlashda ham o‘zbek davlatchiligiga xos asriy an‘analarga amal qilingan. Shu jumladan mufti, a‘lam, shayxulislom, qozi, qozi-xos, qozi askar, qozikalon va boshqa lavozimlarga xonning maxsus farmoni bilan tayinlangan. Bu diniy lavozimlarga tayinlanganlarning ko‘pchiligi chet davlatlarning mashhur shaharlaridagi

madrasalarda tahsil olgan bo'lib, Xiva xonligidagi o'z davrining nomdor madrasalariga mudarris, ulug' avliyo maqbaralari, qadamjolar, masjid va madrasalarning mutavallisi ham bo'lishgan. Shuning uchun ham bu lavozimdagilarning ism-shariflarini qayd qilishda, shaxsiy va lavozimlariga tegishli muhrlarida domullo, oxun, qori, eshon so'zlari qo'shib qayd qilingan.

Muhammad Salim oxun ham hijriy 1274-yil (1858-yil)dan 1286-yil (1869-yil)gacha Buxoro shahridagi Ko'kaldosh madrasasida tahsil olib, o'z yurtiga qaytgach, dastlab maktab va madrasa toliblariga dars bergan va xattotlik bilan shug'ullangan. Hijriy 1293-yilning shabon oyida (1876-yil) masjid mutavallisi qilib tayinlangan. Bu tayinlov qozikalon Abdurahim qozi Muhammad Sharif eshon o'g'li va qozi askar Muhammad Latif oxun Eshniyoz oxun o'g'li muhrlari bilan rasmiylashtirilgan. Mutavallilik vazifasida o'zining rostgo'yligi, ilm-zakovati, mehnatsevarligi bilan xonga va xalq hurmatiga sazovor bo'lib, keyinchalik Xiva shahridagi Arabxon, Olloqulixon, Muhammad Aminxon, Muhammad Rahimxon-Feruz madrasalariga mudarris bo'lib tayinlangan va xonlikda davlat lavozimlariga tayinlangan bo'lsa-da, umrining so'ngigacha mudarrislik faoliyati bilan shug'ullangan.

Muhammad Salim oxun o'zining xotira kundaligida 1303-yil robbiul-soniy oyining 15-kuni (1886-yil 21-yanvar) Xiva xonligida muftiylikka tayinlanganligini, bu vaqtda Arabxon madrasasida mudarrislik qilayotganligini, 1313-yil (1896-yil) da "Madrasa kalon" ga mudarris bo'lganligini qayd qilgan. Shuningdek, muftiylik bilan birga Gurlan bekligidagi Palvon (Niyoz) mushruf¹ masjidi va Xivada Nurullobek qavmidagi madrasasi mutavallisi bo'lganligi ham qayd qilingan. Gurlan bekligidagi Muhammad Nazar qozi va yana to'rtta qozi nikohxonalarining nazoratini olib borgan. 1304-yil (1887-yil) Gurlan beklilikda jami 182 nikoh, shundan 54 tasi sayyiba² va qolgani bokira³ nikohligi, 1308-yil (1891-yil) nikohlarning 135 ta bokira va 60 ta sayyiba nikoh bo'lganligi, shuningdek 1887-1891-yillarda har oydagi nikohlar soni va pul tushumlarini qayd qilib borgan. Yana Xiva shahridagi Nurullobek qavmidagi madrasa vaqf yeri 1150 tanob, g'allasi 1725 botmon ekanligi keltirilgan. Bu muftiy-raislik lavozimida nikohxonalarni nazorat qilish qozi askarlikka tayinlanganga qadar davom qilgan.

Hijriy 1315-yilning 17-shavvol (1898-yil 11-mart) kuni Muhammad Aminxon madrasasiga mudarris bo'lib tayinlanganligi bilan bir vaqtda Xiva xonligining qozi askar lavozimiga ham tayinlangan. Qozi askarlik muhrida ham 1315-yil qayd qilingan bo'lib, "Qozi askar domullo Muhammad Salim oxund ibn

¹ Soliq yig'uvchi

² Qayta turmushga chiqishi.

³ Ayollarning birinchi marotaba turmushga chiqishi.

Muhammad Sa'id marhumi" deb qayd qilingan. Qozi askar mansabida ham 3 yil faoliyat olib borgan.

1900-yil Xiva qozikaloni Muhammad Amin vafotidan keyin xon farmoni bilan qozikalonlikka tayinlangan bo'lib, o'zining kundaligida hijriy 1318-yil Ramazon oyining 5-kuni (1900-yil 27-dekabr) deb, yana Sayyid Muhammad Rahimxon-Feruz madrasasiga ham mudarrislik qilganligi keltirilgan. Shuningdek, Qozikalonlik asosiy muhrida "qozi ul-quzot domullo Muhammad Salim oxund ibn Muhammad Sa'id maxdum marhumi, 1318" deb qayd qilingan. Qozikalonlik lavozimining yana ikkita muhri bo'lib, ular sakkiz burchak va avol shakllarida bo'lgan, ularga ham qozi ul-quzot deb yozilgan.

Qozikalonlik lavozimiga xonning farmoni bilan tayinlangan bo'lsa-da, shu davrning an'alariga amal qilingan. Yangi lavozimga tayinlanganligini Xiva aholisiga bildirish maqsadida non-osh berilgan, talaba va g'ariblarga xayr-ehson qilingan. Shu bilan birga suyunchi va sovg'a-salomlar tarqatilgan bo'lib, suyunchiga 60 tillo, yorlig' kotibiga 30 tillo, yorlig' muhriga 100 tillo, sarupo hazratga 130 tillo, sarupo arkoni davlat va shahri arkonlarga 114 tillo, yana ikkita sarupoga 20 tillodan, muhrkonga 60 tillo, jami xarajatlar 574 tillo ekanligi keltirilgan.

Muhammad Salim oxun qozikalonlik faoliyati davrida 1903-1905-yillarda Xiva shahrining "Ichon qal'a" sida madrasa va Shohimardonda qorixona qurdirgan. Bu haqda Muhammad Yusuf Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy" asarida Muhammad Rahimxon-Feruz targ'ibi bilan madrasa bino qilganlar orasida qozikalon Muhammad Salim oxun ham qayd qilingan bo'lib, madrasa "Qozikalon" nomi bilan atalgan. Tarixchi olim K. Xudoyberganovning "Xiva dunyodagi eng ko'hna qal'a" nomli 2012-yilda nashr qilingan kitobida qozikalon qorixonasi 1904-yilda madrasasi bilan bir vaqtda qurilganligi keltirilgan. Muhammad Salim oxunning estalik kundaligida qorixona sarf-xarajatlari va quruvchisi usto Xudoybergan bo'lganligi qayd qilingan.

Qozikalon madrasasi 1924-yilgacha faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1924-yil 13-avgust kuni Xorazm Respublikasining Maorif, madaniyat nazorat nozirligi huzuridagi O'quv sho'basi yig'ilishidagi qaroriga asosan 25 nafar o'quvchiga mo'ljallangan "Dorul-xattot" nomli o'quv yurti tashkil qilingan. Keyinchalik u 1938-1939-yillarda yog' zavodi omborxonasi, 1972-1982-yillarda "Amaliy san'at" muzeyi, 1982-1992-yillarda Oltin qo'llar ansambli idorasi va 1992-yildan hozirgi kunga qadar "Xorazm musiqa tarixi" muzeyi bo'lib faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Muhammad Salim oxun 16 yil xonlikning qozikaloni lavozimida adolatli faoliyat olib bordi. 60 yil madrasalarda mudarrislik qilib, 1000 nafarga yaqin shogirdlariga saboq berdi. Qoraqum hazrati Sirojiddin rahmatullohi alayhiga murid bo'lib, eshonlik ro'tbasini oldi. Muhammad Salim oxunning vafoti, o'g'li

Nizomiddin oxun xotira kundaligida hijriy 1334-yil rabbiul-soniyning 12-kuni (1916-yil 17-fevral) Xiva shahrida 92 yoshida deb qayd qilingan. Shohimardon qabristonidagi o‘zi qurdirgan qorixonasiga dafn qilingan. Bu xonga qarshi 1916-yilgi qo‘zg‘olon davrida bo‘lib, xon Junayid qozikalon Muhammad Salim oxunga bo‘lgan hurmati yuzasidan Xiva qamalini bekor qilib, Janoza namozi va ta’ziyaga kelgan fuqarolariga Xiva shahriga kelib-ketishi uchun ruxsat bergan.

Qozikalon Muhammad Salim oxun vafotidan keyin qozikalon lavozimiga domla Xudoybergan oxun tayinlangan. Qozikalonlik lavozimiga tegishli barcha ish hujjatlarini yangi tayinlangan qozikalonga Muhammad Salim oxunning ishonchli vakillari domla Muhammad Rizo oxun va mullo Jumaniyoz badrxonlilar tomonidan topshirilgan. Bu hujjatlar ro‘yxat qilinib, yangi tayinlangan qozikalon muhri bilan rasmiylashtirilib xat berilgan. Bu xatda quyidagilar zikr qilingan: “Sana 1334-yili robbi ul-soniyning 16-kuni Muhammad Salim oxun marhumidog‘i qozikalong‘o taalluqli ushbu ma’badda¹ mazkur ashyoni domullo Muhammad Rizo oxund devon bila domullo Jumaniyoz maxdumlar topshirdilar. Ollohqulixon marhumi madrasasining qozikalon asr mutavalli² mavqufatidin³ yer olinmoqchi bo‘lib, mua’ttal⁴ turg‘on mablag‘ 1709 tillo bila 2 tanga va yana hazratimiz domati davlatu⁵ning hazrat Pahlavon ota alayhi rahmaning juvorida bino etgan qorixonalarining vaqfnomasi bila xatmona va iftor uchun turg‘on 135 tillo bila 7,5 tangasi, va yana Muso to‘ra marhumi madrasasining xatmonasi va suvchisi va qorisi uchun 550 tillo bila vaqfnomasi, va yana to‘rt Shahboz bobo alayhi rahmaning ahli vazoifidin ortg‘on har yilg‘i 100 botmon g‘alla nisfi bug‘doy va nisfi jugari⁶ning qiymatidin yer olinib, shikasti rixt etulub va bisoti⁷ olunub boqiy qolg‘on mablag‘ 2597 tillo bila 1,5 tangasi, va yana Sayyid Niyozboy masjidi voizi⁸ning vaqfnoma, va 500 tillosi, va yana Xonaqohdagi Sayyid ota alayhi rahmaning⁹ voizining vaqfnomasi bila 500 tillosi, va yana Gurlan masjid kaloni voizining vaqfnomasi bila 500 tillosi, va yana Toshhovuz masjidi kalonining vaqfnomasi bila 500 tillosi, va yana Xivaq dorulsaltanasi¹⁰ masjidi kaloni voizining vaqfnomasi, va yana To‘rt shohboz bobo alayhi rahma masjidi voizining vaqfnomasi, va yana Urganch masjidi voizining

¹ Quyidagi zikr qilinganlar

² Qozikalonlik davrida mutavalli bo‘lgan

³ Vaqf qilingan mulk va mablag‘lar

⁴ Bekor turgan mablag‘

⁵ Asfandiyorxon davri

⁶ Jo‘xori

⁷ Hisob-kitob qilingan mablag‘

⁸ Voiz, xatib - faqat juma kuni masjidda ma’ruza qiladigan imom

⁹ Maqbarasi masjidi voizi

¹⁰ Bu yerda Nurulloboydagi saroy masjidining voizi

vaqfnomasi, va yana hazrat Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon marhumining hazrat Pahlavon ota alayhi rahmada sokin bo‘lg‘on a‘mo¹ qorilar uchun olgan vaqfnomasi, va yana masjidi kalonining imom va muazzini vaqfnomasi, va yana hazrat Pahlavon alayhi rahmaning qozikalon asr nozir bo‘lg‘on vaqfnomasi, va yana Muhammad Nazar inoq qorixonasining vaqfnomasi, va yana Asqar to‘ra marhumi qorixonasining vaqfnomasi bila 24 tillo bila 3 tanga, a‘ydi oshi² uchun, va yana Muhammad Vafoboy karvonboshi oqo³ning xon hazratimizning qorixonamizga vaqf etgan 500 tillosi bila vaqfnomasi, va yana olti qorixonaning vaqfnomasi, va yana uch quduqning vaqfnomasi, va yana Sayyid Asqar to‘raning vaqfnomasi, va yana Oq masjidning vaqfnomasi, va yana minoraning vaqfnomasi bila 100 tillosi, yana 10 tillosi, va yana Roziya bikaning iftor vaqfnomasi, va yana Shirvon⁴ qorixonasining vaqfnomasi, va yana qozikalon asr mutavalli bo‘lmay, mahzi muhafazatig‘o ma‘mur⁵ bo‘lg‘on 50 adad vaqfnomasi, va yana Ollohqulixon marhumining vaqf kitoblarining muhri, va yana Pahlavon ota alayhi rahmani shayxlarining uch adad yorlig‘i va uch adad hukmi xati va ikki adad rivoyati, va yana Muhammad Rahimxon marhumig‘a fuqarolarning yer sotgan xatlarining daftari⁶, va yana Ollohqulixon marhumi madrasasi uchun va voizlari uchun va masjid kalonining imom va muazzini vaqfi uchun olingan yerlar va To‘rt Shohboz bobo alayhi rahma uchun oling‘on yerlarning o‘kcha xatlari⁷, va yana Sayyid Muhammad Rahimxon marhumining ulug‘ madrasalarig‘a vaqf etgan kitoblar ro‘yxati, va yana bir mujallad yozma Kalomi Sharif Erondin kelgan va ikki mujallad qalami⁸ tafsiri kabir, va yana olti mujallad qolibi tafsiri kabir va bir mujallad qolibiy tafsir qozi Bayzoviy va ikki mujallad qolibi tafsir Shayxzoda bar qozi Bayzoviy, va yana bir mujallad qalami sharhi risolayi mullo Jalol, va yana bir mujallad qalami daftar soniy Hidoya, va yana bir mujallad qolibi kitob Birjandi sharhi Muxtasar Viqoya, va yana Sayyid Muhammad Rahimxon marhumining mavqufatidin bir mujallad qalami fatovoi Shayboniy, yana bir vaqf “Xo‘ja bog‘i” masjidining vaqfnomasi va 100 tillo, va yana Sayyid Aloviddin ota alayhi rahmaning 10 tillo vaqfnomasi”.

Yana bir tarixiy hujjatda: “tarix hijriy 1334 da mohi jamad ul-soniy avvalinda (1916-yil 5-aprel), seshanba kuni erdikim, jannatmakon qozi ul-quzot domullo Muhammad Salim oxund eshon marhumining odamlari domullo Jumaniyoz vaqfnomalarning muazzin⁹ bo‘lg‘on majmuyi kitobi va madrasa

¹ Ko‘zi ojjiz qorilar

² Hayit bayramlarida beriladigan osh

³ Xon qabulidagi soqchi

⁴ Harflari ko‘chganligi sababli Shirvon deb olindi

⁵ Mutavallilarni nazorat qilish yuklatilgan bo‘lib, mutavallilik uchun maosh olinmaydi

⁶ Bu yerda so‘z harflari ko‘chganligi sababli daftar so‘zi taxmin qilib olindi

⁷ Vaqf uchun sotib olingan yerlar xati

⁸ Nay qalam bilan yozilgan

⁹ Ziynatlangan, bezatilgan

Cho‘binning vaqfnomasining muazzin bo‘lg‘on kitobi va hazrati Ismi Maxmud ota¹ alayhi rahmaning vaqfnomasining muzayyani va bir ijozai shajarani kelturub bizga topshurdi, oni olduq, deb xat bitildi”- deb sakkiz qirrali qozikalon muhr bosilgan. Muhrda “qozi ul-quzot domullo Xudoybergan oxund ibn Nizomiddin xatib² marhumi 1334” deb qayd qilingan. Muhammad Salim oxun shular qatorida o‘zining qurdirgan Qozikalon madrasasi va qorixonalarining faoliyatlarini ham nazorat qilgan.

Xiva xonligida muftiy, rais, a‘lam va qozilik lavozimlariga tayinlanganlar madrasalarga mudarris qilib ham tayinlanganlar va madrasa, qadamjolar, qorixonalar va boshqa bino, inshootlarning mutavallisi va nazoratchisi bo‘lib ham faoliyat olib borgan. Muhammad Salim oxun ham o‘zining mudarris, muftiy va qozilik lavozimlari faoliyatida ko‘plab vaqf mulklarga mutavalli va nazoratchi bo‘lib tayinlangan. Xonlikdagi bu lavozimlarda faoliyat yuritishda, o‘zining ishonchli vakillari, kotiblari, yordamchilari va farzandlari yordamida amalga oshirgan. Madrasa va qorixona qurdirib, ta‘lim sohasiga katta e‘tibor qaratib, yoshlarning maktab, madrasa va yangi usul-jadid maktablarida ta‘lim olishiga ko‘maklashib, homiylik qilgan. Xiva xonligining taraqqiyoti uchun xizmat qilgan davlat arbobi va o‘z davrining ulamosi bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Salimov M. Qozikalon domla Muhammad Salim oxun hayoti va faoliyati. “Innovatsiya va taraqqiyot” jurnali, Urganch 2024-yil 4-son.
- 2.Muhammad Salim oxunning estalik kundaligi. Qo‘lyozma. Shaxsiy arxiv.
- 3.Muhammad Yusuf Bayoniy. Shajaraiy Xorazmshohiy. N. Jumaxo‘ja, I.Adizovalar tadbili. Toshkent. G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1994-yil.
- 4.Nizomiddin oxunning estalik kundaligi. Qo‘lyozma. Shaxsiy arxiv.
- 5.Xudoyberganov K. Xiva dunyodagi eng ko‘hna qal’a. Toshkent. 2012-yil.
- 6.Umid Bekmuhammad.Xorazm jadidchilik harakati ensiklopediyasi. “Milleniumus print” nashriyoti. Urganch, 2024-yil.
- 7.XVDA. F-123-fond, 1-ro‘yxat, 19-ish, 124- varaq.

¹ Turkiston shahridagi

² Voiz singari faqat juma kuni masjidida ma’ruza o‘qiydigan imom

TARIX**MUHAMMAD RAHIMXON SONIY-FERUZXONNING
TARAQQIYPARVARLIK SIYOSATI VA MATBAAXONANING
TASHKIL QILINISHI****UO‘K 211.4**

**DILMUROD
TILLAEV,**
UrDU akademik litseyi
o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xiva xoni Muhammad Rahimxon II ning taraqqiyparvarlik siyosati va Xorazmda madaniyat, ma’rifatni rivojlantirishga qo’shgan hissasi tahlil etiladi. Shuningdek, Xorazmda matbaaxonaning tashkil qilinishi va toshbosmada chop etilgan asarlar haqida mulohaza yuritiladi.

Аннотация: В статье анализируется прогрессивная политика хивинского хана Мухаммад Рахимхана II и его вклад в развитие культуры и просвещения в Хорезме. Также рассматривается создание типографии в Хорезме и произведения, напечатанные методом литографии.

Annotation: This article analyzes the progressive policy of Khan of Khiva Muhammad Rahimkhan II and his contribution to the development of culture and enlightenment in Khorezm. It also discusses the establishment of a printing house in Khorezm and the works printed in lithography.

Kalit so‘zlar: Xiva, Xorazm, xonlik, Feruz, taraqqiyot, islohot, matbaaxona, toshbosma, kitob.

Ключевые слова: Хива, Хорезм, ханство, Феруз, развитие, реформа, типография, литография, книга.

Key words: Khiva, Khorezm, khanate, Feruz, development, reform, printing house, lithography, book.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Xorazmda ilm-fan, adabiyot va san’at, matbaachilikning rivojlanishiga homiylik qilgan Muhammad Rahimxon II Xiva xonlari ichida eng ko‘p - 47 yil hukmronlik qilgan o‘z davrining ma’rifatparvar shaxsi edi.

Feruz 1844-yilning bahorida - qutlug‘ Navro‘z kunida Xiva xoni Sayid Muhammadxonning oilasida tavallud topgan. Xon o‘g‘liga Bobojon deya ism qo‘yadi. Bobojon Tarroh Azizov-Xodim o‘zining “Xorazm navozandalari” nomli qo‘lyozma asarida shunday yozadi: “Bobojon to‘ra Xiva shahrining ichkari qa’lasidagi Hasanmurod Qushbegi qo‘lidagi podshohlikning Ko’hna Ark degan joyida tug‘ilgan”.

Bobojon to‘ra dastlabki ta‘limni saroydagi mudarrislardan, keyin esa Xiva shahridagi Arab Muhammadxon madrasasida olgan. Davlat, huquq ilmini zamonasining mashhur mudarrisi, shoir va olim Doiy, Yusufxo‘ja oxun va boshqalardan o‘rgangan. Shoir va tarjimon Ogahiy Feruzga ustozlik qilgan, unga she‘riyat sirlarini o‘rgatgan, tarix, tarjima ilmidan saboq bergan.

Sayid Muhammadxonning 6 o‘g‘li va 1 qizi bo‘lgan. U 1863-yili qorason kasalligidan vafot etishidan oldin 19 yoshli shahzoda Bobojon to‘rani xon qilib ko‘tarishni Qushbegi Hasanmurodga tayinlaydi.

Ana shu sanadan boshlab Bobojon to‘ra Xiva xoni sifatida faoliyat ko‘rsata boshlaydi. Davlat ishlarini bajarishda Muhammad Rahimxon II nomini, yozgan she‘rlarida esa Feruz va Komron taxalluslarini qo‘llaydi.

“Agar o‘sha davr siyosiy ahvolini nazarga olsak, Feruzning xon sifatidagi ulkan siymosi aniq namoyon bo‘ladi. Mamlakatdagi chigal ichki ziddiyatlar, tashqi munosabatdagi xonlikka har daqiqa xavf solib turgan jiddiy muammolar aql-idrok, sabr-toqat bilan ish yuritishni talab etadi. Feruzning 1873-yilgacha-Xivaning ruslar tomonidan bosib olishigacha bo‘lgan davrdagi saltanat siyosati, davlatni qanday ahvolda qabul qilib olgani, ayniqsa Xiva xonligining tashqi muzofotlar bilan aloqasi tadqiqot doirasidan chetda qolib ketdi...U saltanat siyosati girdobida turib g‘azallar yozishga, qalbdagi oliy hislarni badiiy ifodalashga jur‘at etgan insondir. Shu bois uning ijodiga “Buyuk meros” deb qaralishi Feruz siymosiga bo‘lgan mehr-muhabbatning ifodasi sifatida qabul qilinadi. Insonda so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydigan hislar bor. Ular ohanglar tilidagina qalblarga yo‘l topadi. Bastakor Feruz ana shu xislati bilan boshqa shoh-shoirlardan ajralib turadi. U yaratgan kuylar - “Muxammasi Feruz”, “Peshravi dugohi Feruziy”, “Saqili Feruziy”, “Sog‘ usuli Feruziy”, “Muxammasi Feruziy” musiqa san‘atimiz xazinasiga qo‘shilgan munosib hissadir” (1).

Ana shunday iste‘dodli shoir Feruz o‘zi ijod qilibgina qolmasdan, ilm-fanga, she‘riyatga ixlosi baland bo‘lgani tufayli saroyga ko‘proq ijod bilan shug‘ullanuvchilarni - shoir, go‘yanda, bastakor, tabib, tarjimonlarni o‘z atrofiga to‘playdi. Har haftada 2 kun madaniy-ma‘rifiy kechalar o‘tkazib, unda ijodkorlarning muammolarini eshitadi, ularning sharoitlarini yaxshilashga harakat qiladi.

Laffasiy o‘zining “Tazkirai Shuaro” asarida Feruzning saroyidagi ma‘rifiy tadbirlarda ishtirok qiladigan ellikka yaqin shoirlar haqida ma‘lumot berib, ular iste‘dodining yuzaga chiqishida Feruzning roli beqiyos katta bo‘lganligini ta‘kidlaydi. Feruz nafaqat Xivadagi, balki butun xonlikdagi iqtidor egalarini

saroyga to'plashga harakat qiladi. Buni Laffasiy asaridagi shoirlarning turli joylardan ekanligi ham ko'rsatib turibdi.

Jumladan, gurlanlik, hazorasplik, qo'ng'iroqlik, shovotlik, urganchlik, to'rtko'llik shoirlar Feruzxon saroyidagi she'riyat kechalarida o'z iste'dodlarini namoyish qilganlar.

Feruz, shuningdek, boshqa soha vakillarining ahvoli bilan ham qiziqib turgan. Uning hukmronligi davrida Xivada barpo bo'lgan masjid, madrasa, bog'u rog'larning, minora va saroylarning qurilishida shaxsan xonning katta o'rni bor edi. Ganchkor usta Xudoybergan hoji, usta Nurmat, usta Bobojon, usta Ismoil, Otashayx, Mulla Vafo, Zayniddin, Odina Muhammad, Ro'zi Muhammad singari ganchkor naqqosh, o'ymakor ustalarning ishlari rivoji ham Feruz nomi bilan bog'liqdir. Shuningdek, Feruz ariq va yoplarning qazilishi va tozalanishlarida ham ishtirok etib, ularga rahbarlik qilgan.

1873-yil Xiva xonligiga Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufman boshchiligidagi Rossiya armiyasi hujum qilib, xonlikning asosiy shaharlari va poytaxtni bosib olgan. Gandimiyon shartnomasi (1873-yil, 12-avgust)ga ko'ra, Xiva xonligi podsho Rossiyasiga qaram bo'lib qolgan.

Ana shu davrda, ya'ni 1873-yilning 12-avgustidan e'tiboran Muhammad Rahimxon II Chor imperiyasining Xiva xonligidagi qo'g'irchoq hukmdori sifatida faoliyat ko'rsatdi. Bu muddat 1910-yilgacha -37 yil davom qildi.

Feruz mustamlaka davlat hukmdori bo'lishiga qaramay, mustaqil xonlik paytidagi ma'rifiy ishlarini davom qildirdi. 1876-yilda Feruzning sa'y-harakati bilan Xivada barpo qilingan toshbosma usulidagi bosmaxona nafaqat Xorazmdagi, balki Turkiston hududidagi ilk mahalliy matbaaxona edi.

Feruzning Peterburgga 1907-yilgi safari yanada xayrli bo'ldi. Safarda Feruzga yo'ldosh bo'lgan Xudoybergan Devonov xon buyrug'iga ko'ra yangi rusumdagi kino va fotoapparatlarda ishlashni o'rganib, Xorazmgga taraqqiyotning shu turini olib keladi. Buning natijasida Vilgelm Pennerdan keyin Xorazmda ikkinchi bo'lib Devonovning harakatlari tufayli XX asr boshlaridagi Xorazm hayoti, jamiyatdagi jarayonlar kino va suratlarga abadiy muhrlanib qoldi.

Shuningdek, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Xorazmda bunyod etilgan masjid, madrasa, minora, rus-tuzem maktablari, jadid maktablari, Rossiya tomonidan qurilgan sanoat korxonalarining qad rostlashida Feruzning juda katta xizmati bor.

Feruzxon xonlikni taraqqiy qildirish uchun xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish maqsadida 1885-yildayoq Rossiya orqali Yevropaga sayohat qilishni rejalashtirgan. 1891-yil avgustida Xivada rus-tuzem maktabi ham aynan

Feruzxon tashabbusi bilan tashkil etiladi va unga Toshkent o'qituvchilar seminariyasini tugatgan Husayin Ibrohimov taklif etiladi. 1893-yil bahorida Ryazan-Ural temiryo'l shirkati Uralsk shahridan Amudaryoga qadar temiryo'l qurishni loyihalashtirish rejasini Feruzxon bilan muhokama qiladi. 1893-yil 3-oktabrda Turkiston general-gubernatori baron Vrevskiy Petro-Aleksandrovska shahriga kelib, Feruzxon va valiahd Asfandiyor bilan uchrashadi va ular sharafiga ziyofat beradi.

Feruz 1896-yili Petro-Aleksandrovskdagi vakili Muhammadyusuf yasovulboshi orqali Qrimdagi Ismoil Gaspraliga o'zining hadyalarini yuboradi va "Tarjimon" gazetasini o'qib borishini aytadi. 1896-yilning 26-may kuni Feruzxon va valiahd Asfandiyorlar Sankt-Peterburgda imperator qabulida bo'lib do'stona hamkorlik va iqtisodiy aloqalar bo'yicha suhbat qurishadi. Iyun oyida Feruz va Asfandiyorlar Moskva shahrida bo'lib o'tgan davlatlararo tadbirda ishtirok etishadi. Moskvadagi tadbirlarda Feruzxon va Rossiyalik hukumat amaldorlari, irrigatorlari bilan Amudaryo suvlarini eski o'zandan Kaspiyga quyish masalasi ham muhokama qilingan. 30-iyunda esa Nijniy Novgorod shahridagi iqtisodiy ko'rgazmada ham qatnashgan. Ushbu shahardan matbaaxona uskunalarini sotib olgan va Xivadagi madrasa vaqfiga topshirgan.

Feruz hukmdorligi davrida kitobat ishlariga katta ahamiyat berilgan: devon tuzish, tarix yozish, tarjima ishlarini rivojlantirilgan. Xorazmda tarjima maktabi yaratilgan. U fors va arab adabiyotining eng nodir tarixiy, adabiy, ilmiy asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildirgan. Uning hukmdorligi davrida Ogahiy va Bayoniylar tomonidan Xorazm tarixiga oid asarlar yozilgan. Komil Xorazmiy mumtoz maqomlar uchun nota yozuvini ixtiro qilgan. Xivada bosmaxona (toshbosma) tashkil ettirgan. Unda Xorazm shoirlari haqidagi "Majmuat ush-shuaro" tazkisasi, Alisher Navoiy asarlari, Xorazm shoirlari devonlari nashr qilingan.

Feruz Hindiston, Arabiston, Eron, Turkiya savdogarlari orqali Xorazmga xorijdan noyob kitoblar keltirtirgan va ularni ko'p nusxalarda ko'chirtirgan, tarix va adabiyotga oid kitoblardan iborat boy kutubxona yaratgan. Feruz me'morlik, naqqoshlik, xattotlik kabi san'at turlarini ham rivojlantirgan. Bu davrda fotografiya va kino san'ati vujudga kelgan, obodonchilik ishlari amalga oshirilgan.

Feruz 1871-yilda Ko'hna Ark qarshisida o'z nomi bilan ataluvchi 2 qavatli madrasa qurdirgan. Muhammad Rahimxon II davrida Matniyoz devonbegi, Matmurod devonbegi, Ibrohimxo'ja, Yusup yasovulboshi, Husayin Muhammadboy, Do'st A'lam, qozikalon Salim oxun, Islom xo'ja, Muhammadpanoboy, Matrasul mirzaboshi va bir qancha amaldorlar xondan

oʻrnak olib koʻplab madrasalarni barpo etdilar. Xivadagi saroylar va qasrlar orasida eng mashhurlaridan biri Muhammad Rahimxon II tomonidan 1897-1910 yillari qurilgan Qibla Toza bogʻ qasridir. Qasr oʻzining kengligi, meʼmoriy uslubi, Xiva ayvonlarining turli-tumanligi, texnikasining betakrorligi bilan ajralib turadi. Saroy uchta katta majmuadan iborat: birinchi hovli xon va saroy ahli, xizmatkorlari uchun. Ikkinchi hovli- xon va uning oila aʼzolari uchun bir necha ayvondan, uchinchi hovli -Yevropa uslubida qurilgan ayvon va katta xonalardan iborat, oʻrtasida katta hovuz va gulzorlar bor. Qasrning gir atrofi bogʻ bilan oʻrab olingan. Xon bundan tashqari Koʻhna Arkda joylashgan haram hovlisini ham qayta qurdirgan. Feruzning bevosita rahbarligi va tashabbusi bilan 30 dan ortiq madrasa, masjid, minora, xonaqolar qad rostlagan. Feruz davlat mirobi Ogahiy tashabbusi bilan yerlarni suv bilan taʼminlash, bogʻ-rogʻlar barpo etish ishiga ham alohida ahamiyat bergan. Uning buyrugʻiga muvofiq, Qoʻngʻirot tumani sarhadida katta ariq bunyod etilgan. Hozirda ushbu ariq “Xon arigʻi” deb ataladi.

Feruz mumtoz sheʼriyatning anʼanaviy janrlarida lirik sheʼrlar yaratgan. Sheʼrlari asosan ishq-muhabbat mavzuida. Inson va hayot, sevgi va sadoqat Feruz ijodining gʻoyaviy asosini tashkil qiladi. Ular ohangdorligi, tasviriy-ifodaviy boʻyoqlarga boyligi va shaklan rang-barangligi bilan ajralib turadi. Uning koʻpchilik gʻazallari oʻz zamonasida sozandalar va goʻyandalar tomonidan kuyga solib, ijro etilgan.

Muhammad Rahimxonning 1898-yil 12-apreldagi farmoni bilan xonlik hududlarida qadimdan qolgan muzeybop buyumlar toʻplanila boshlandi. Xonning viloyat hokimliklariga yuborgan buyrugʻi shunday edi: “Qadimdan qolgʻon yodgor narsalarni yoʻq qildurmasunlar, har bir tariqa koʻhna joy va qalʼa va imorat boʻlsa ne tariqa bino boʻlgʻonlarni va koʻhna tilla va tanga va pullar boʻlsa topib, munda yuborsinlar” Shu farmonga asosan Xorazm osori-atiqalari 1890-yilda Toshkentda, 1895-yilda Nijniy Novgorodda oʻtkazilgan Butunrossiya koʻrgazmasida, 1900-yilda Parijda, 1904-yilda AQShning Missuriy shtatida oʻtgan xalqaro koʻrgazmalarda namoyish qilingan.

Aynan Feruzxon davrida matbaachilikning tashkil etilishi oʻz davri uchun taraqqiyparvarlik edi. Feruzxonga toshbosma tashkil etish tashabbusini Komil Xorazmiy bildirgan va maʼrifatli hukmdorning hayrihohligi bois bu gʻoya amalga oshgan.

Natijada Ibrohim Sulton 1874-yildan Xivaning Ichan qalʼasidagi Koʻhna Arkda toshbosma uskunalarini oʻrnata boshlaydi. Maʼlumki, toshbosma, texnik uskunalar bir kishining qiladigan ishi emas, unga zehni oʻtkir, texnikaga qiziquvchan shogird kerak edi. Matbaachilik tarixi boʻyicha yetuk mutaxassis Aziz Boboxonov va pedagog olim Soliy Hasanovning yozishlaricha, “1874-yili

Xivaga chet eldan ikkita toshbosma dastgohi keltirildi. Texnika jihatidan uncha mukammal bo'lmagan bu dastgohlarni eronlik Ibrohim Sulton ishlatdi. Lekin Ibrohim Sulton toshbosma ishlarini bir o'zi uddalashga qiynalib qoldi. Shunda 18 yashar xivalik Otajon Abdolovni shogirdlikka oldi. Otajon Abdolov bu zavqli hunarni sevib o'rgandi. Ibrohim Sulton yurtiga ketgach esa Xivada yagona matbaachi bo'lib qoldi. Uni odamlar hurmat bilan "Otajon matbaachi" deyishardi" (2).

Demak, Erondan keltirilgan toshbosma ikkita bo'lgan. Ma'lumki, o'sha davrlarda Eron yoki boshqa bir hududdan mahsulot, yoki biror uskuna, buyum tashish asosan tuya va ot karvonlari orqali savdogarlar tomonidan keltirilgan. Tabiiyki, Erondan bu tarzda olib kelingan toshbosmani Xivada qayta o'rnatish, ayrim joylarini jihozlash zarur bo'ladi. Shu bois ham Ibrohim Sultonga shogird kerak edi va bu ixlosli, zehni inson Otajon Abdolov bo'lgan.

Bu paytda Otajon Abdolov bir muddat Petro-Aleksandrovskdagi rus-tuzem maktabida tahsil olgan, o'sha vaqtda Pirnaxos qishlog'idagi amaldorning hujjatlarini rasmiylashtirish bilan shug'ullanardi. Saroy amaldori Komil Xorazmiyga, u esa Feruzxonga Otajonning zehni, idrokli ekanligini aytgani bois u matbaaxonaga ishga olinadi.

Otajon Abdolov 1856-yilda Beshariq noibligida (Xiva xonligida 20 beklik va ikkita noiblik bo'lib, Beshariq noibligiga hozirgi Yangiariq, Bog'ot tumanining ayrim hududlari qarashli bo'lgan. Nayman qishlog'i esa hozirgi davrda Bog'ot tumaniga qarashli ma'muriy hudud) kosib oilasida tug'ilgan, Ko'hna Arkdagi ishga kelganida 18 yashar navqiron yigit edi.

Xo'sh, toshbosma qanday tarzda ishlatilgan?

Ma'lumki, toshbosma, ya'ni litografiya bosma usullaridan biri hisoblanadi. Maxsus yassi tosh (forma) sirtiga maxsus bo'yoq, litografiya qalami yoki qalin tush' bilan matn yozilgach, tasvir ishlanadi va kimyoviy eritma yordamida ishlov beriladi. Toshbosma usuli garchi xattotlar ishini yengillashtirgan, o'z davri uchun taraqqiyot mahsuli bo'lsa-da, g'oyatda mashaqqatli jarayondan iborat bo'lgan. Qolaversa, toshlar Kavkazdan, Fransiya va Germaniyadan keltirilar, qalinligi 8-14 sm, sathi 50x 60, 90x120 sm qilib tayyorlanardi.

Bosma uchun maxsus toshning uzoq hududlardan, shuningdek kimyoviy eritmaning ham xorijdan keltirilishi kechikkan paytlar ham bo'lgan. Ba'zida bu ehtiyojlar Eron, ba'zida Rossiya orqali keltirilar va har ikkalasida ham ma'lum bir vaqt ketardi. Biroq shunday bo'lsa-da, ehtiyojni o'z vaqtida g'amlab qo'ygan

Otajon Abdolov toshbosmadagi kitoblarni sifatli, o'ziga xos bezaklar bilan chop qilar va bu tabiiyki hukmdor Feruzxonni, kitobxon ommani xursand qilardi.

Tarixiy fakt shuki, toshbosmani 1798-yilda Germaniyada A. Zenefelder ixtiro qilgan edi. Rossiyada esa toshbosma 1816-yildan Sankt-Peterburg shahrida joriy etilgan. Turkiston, xususan Xorazmda ilk bor 1874-yilda Otajon Abdolov tomonidan toshbosma o'rnatilgan.

XX asrga kelib toshbosma o'rnini ofset egallay boshladi va asta-sekinlik bilan toshbosmadan voz kechila boshlandi. Ofset bosma usulida rux va aluminiy taxtalardan foydalanilardi.

Tarix fanlari nomzodi, dotsent Ollanazar Sobirov va pedagog I.Otamurotovning izlanishlariga ko'ra, "Otajon Abdolov 1856-yili Yangiariq tumanining Nayman qishlog'ida tug'ilgan. Otajon oldiniga Pirnaxos qishlog'ining masjid qoshidagi maktabda, so'ngra Xivadagi madrasada tahsil oladi. Otajon Abdolov To'rtko'ldagi rus-tuzem maktabida o'qishga kirib, uni tamomlaydi. Otajon Abdolov yangilikni tez his etuvchi va uni ommaga yetkazishni istovchi ilg'or kishi edi" (3).

Naqqosh va muarrix Abdulla Boltaev (1896-1966) shaxsan Otajon Abdolov bilan tanish bo'lgan va uning yozishiga ko'ra "u asli yangiariqlik bo'lgan, bir yil rus-tuzem maktabida tahsil olgan, ruscha yozish, o'qish va gaplashishni o'rgangan" ("Xorazm haqiqati" gazetasi, 1965-yil, 10-fevral).

Shu tariqa o'zbek, rus tillarini bilgan Otajon Abdolov Eronning Tabriz shahridan bo'lgan Ibrohim Sultonga shogird tushgani bois, undan faqat toshbosma, texnika sirlarinigina emas, forsiy tilni ham o'zlashtirib oladi.

Natijada ustoz-shogirdning toshbosmani o'rnatish, Eron orqali yassi tosh, qog'oz, bo'yoq keltirish, kitobni nashrga tayyorlash, muqovalash, chop etish jarayoni boshlanadi. Ma'lumki, Ibrohim Sulton Eronlik, qolaversa toshbosmadagi harflar ham arab alifbosida bo'lgan. Ana shu harflarni arab alifbosidagi turkiycha qilish, harflarning bir-biriga yopishib ketmasligi uchun o'rtaga ingichka yog'och cho'p o'rnatish, umuman olganda toshbosmani turkiylashtirishga ma'lum bir vaqt ketadi.

Aynan shu bois ham 1874-yilda Erondan keltirilgan toshbosmani Ko'hna Arkga o'rnatish, harflarni turkiylashtirish, shuningdek, Forobiyning asarini harfda terish, umuman matbaa-noshirlik xizmatini yo'lga qo'yish uchun ikki yilcha vaqt ketadi. Toshbosmadagi bu jarayonni xon saroyidan mas'ul qilingan taraqqiyparvar Komil Xorazmiy, shuningdek Feruzxonning o'zi ham kelib kuzatib turishgan, maslahatlar berishgan. Negaki har ikkala shaxs ham ijodkor, biri hatto davlat rahbari edi. Ana shu tariqa nazorat, ishga mas'ullik bois ham nashriyot-matbaa korxonasining dastlabki nashri 1876-yilda chop etiladi.

Ya'ni, 1876-yili Forobiyning “Nisob-us-sibyon”(“Bolalar nasibasi”) asari Xiva toshbosmasida chop etilgan ilk asar bo'ldi. E'tiborli jihati Feruz hukmdor, shoir bo'lgani bois o'zi tashkil qilgan toshbosmada, aynan o'zining, yoki Ogahiy, Komil Xorazmiyning emas, sharq mutafakkiri Forobiyning asarini nashr qildirdi.

1880-yili esa Alisher Navoiyning “Xamsa” asari toshbosmada chop etiladi. Matbaashunos Aziz Boboxonovning tadqiq qilishicha, “katta hajmdagi toshbosma asarning nashr qilinishi O'rta Osiyo bo'yicha yagona milliy matbaachi-mutaxassis Otajon Abdolovning o'lkada litografiya sohasida yetuk matbaachi-noshir bo'lib yetishganligidan dalolat berardi” (4).

Shu tariqa Feruzxon tashabbusi, himmati va Ibrohim Sulton, Otajon Abdolovning mehnatlari bois Xiva toshbosmasi O'rta Osiyoda birinchi bora mahalliy matbaachilar tomonidan o'z mahsulotlarini kitobxonlarga taqdim qilina boshlandi.

1876-yili ikki yillik shartnoma muddati bitgach, Ibrohim Sulton Eronga qaytib ketgan va toshbosma ishlari Otajon Abdolov zimmasiga yuklangan.

Mahalliy aholi tomonidan “Otajon bosma” laqabini olgan Otajon Abdolovning xizmatlari bilan olam yuzini ko'rgan asarlar o'zbek xalqining ma'naviy xazinasidan joy oldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ne'matjon Solaev. “Feruzxon-ma'rifatparvar hukmdor”. “Xiva” jurnali, 1994 yil, № 5-6-sonlar, 4-bet.
2. A.Boboxonov, S.Hasanov. “Birinchi matbaachi”, “Guliston” jurnali, 1974-yil, № 10.
3. O.Sobirov, I.Atamurotov. “Birinchi o'zbek matbaachisi”, Xorazm haqiqati” gazetasi, 1982-yil, 22-yanvar.
4. A.Boboxonov. “Otajon bosma. Xorazmning birinchi matbaachisi”, “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasi, 2000-yil, 21-aprel.

TARIX**XIVALIKLARNING MAISHIY MAROSIMLARI VA UDUMLARI****(ERONLIK ASIR ISMOIL MIRPANJIY MA'LUMOTLARI ASOSIDA)**

**Shonazar
Matyakubov,
Tarix fanlari
bo'yicha falsafa
doktori**

UO'K 930.26(67/68.621.7/9)

Annotatsiya: Maqolada xivaliklarning maishiy marosim va udumlari eronlik asir Ismoil Mirpanjiy ma'lumotlari asosida yoritiladi.

Аннотация: В статье автор приводит информацию об обрядах и обычиях хивинцев на основе сведений иранского пленника Исмаила Мирпанджи.

Annotation: about the rituals and customs of the Khivans based on information from the Iranian captive Ismail Mirpanji.

Kalit so'zlar: Xiva, Eron, Saraks, Marv, Qo'ng'irotlar sulolasi, xon, Ismoil Mirpanjiy, Rusiya, Toshkent, Buxoro, Qo'qon, inoq, qushbegi, mehtar, devonbegi, qozi, to'y, bozor, chilim.

Ключевые слова: Хива, Иран, Марв, Династия Кунградов, хан, Исмаил Мирпанджи, Россия, Ташкент, Бухара, Кукан, инак, кушбеги, мехтар, диванбеги, судья, свадьба, рынок, кальян.

Key words: Khiva, Iran, Marv, Kungrad Dynasty, khan, Ismail Mirpanji, Russia, Tashkent, Bukhara, Kukan, inak, kushbegi, mehtar, divanbegi, judging, wedding, market, hookah.

Qo'ng'irotlar suloasiga mansub bo'lgan Xiva xonlari 1825-1855-yillar mobaynida bir necha bor Eronning Mashhad, Oqdarband, Marv, Saraks qal'alarini qo'lga kiritish uchun janglar olib borganlar. Eron generali Ismoil Mirpanjiy Marvda Eron qo'shinlari ichidagi ixtilof va isyon boshliqlariga nisbatan xiyonatlari bois turkman qo'shinlari tomonidan o'zi, to'pchilar Husayn Sulton, G'affor Sulton, Muhammadiyorbek Vakil, Noib Alibek, Ja'farbek Sarjuxa va besh nafar ta'bi (praporshik) to'pchi, to'qqiz nafar navkarlar va polkovnik o'g'li - jami yigirma bir kishi qo'lga olinib, Xiva xonining tutquniga aylanadi. Bu haqda Ismoil Mirpanjiy o'zining "Asirlikdagi xotiralar" deb nomlangan asarida: "Bularning hammasi navkarlarimni davlatga nisbatan hurmatsizligi va noshukurligi, menga nisbatan adovati tufayli edi. Agar shunday bo'lmasa, meni ham o'zlari bilan ketishga undashmasmidi? Binobarin, davlat ruxsatisiz ketayotgan kishi qilayotgan ishining xiyonat ekanligini nahotki tushunmasa? Ha, bu ishlar, shubhasiz, o'z vataniga xoinlik edi"[1], deb yozadi.

Ogahiy o‘zining “Jame’u-l-voqeati sultoniyy” tarixiy asarida bu haqda quyidagilarni yozib qoldirgan: “Ismoilxon sartib hibsga olindi” [2]. Ushbu voqea hijriy yil hisobi 1270-yil ramazon oyida (1854-yil) Marv yaqinidagi Qorayob qishlog‘ida sodir bo‘lgan edi.

Eron qo‘shinlari generali Ismoil Mirpanjiy Xiva xonlarining asiri sifatida saqlangan o‘n yil (1854-64-yillar) mobaynida Xorazm va uning atrofidagi shahar va qishloqlarda ko‘rgan-kechirgan voqealarini qamrab olgan kundaliklari asosida hisobot tayyorlab, o‘z davlatiga taqdim qiladi. Eron harbiy qo‘mondoni qojorlar sulolasi hukmdoriga hisobot tarzida tayyorlagan kundaligida voqealarni xolisona yoritgan. To‘g‘ri, Mirpanjiy ayrim siyosiy, tarixiy voqealarni o‘z nuqtai nazaridan Eron generali sifatida sharhlaydi va baholaydi. Biroq, Mirpanjiy Rusiya Xivaq va Qo‘qon xonliklari chegaralarida o‘ttiz-qirq qal’a-istehkomlar qurdi. Ruslar Toshkentni bosib oldilar, endi butun Turkiston va Xorazmni bosib olishni ko‘zlamoqdalar, degan fikri keyinchalik o‘z isbotini to‘liq topdi va u kishi bu masalada ming karra haq bo‘lib chiqadi.

Mirpanjiyning memuar asarini shartli ravishda uch qismga ajratish mumkin. Birinchi qismda Eron-Xorazm munosabatlari haqida, ikkinchi qismda Eron generali Ismoil Mirpanjiyning Marv va Xivada boshidan kechirgan sarguzashtlari, uchinchi qismda esa xorazmliklarning XIX asr o‘rtalaridagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, urf-odatlar va udumlari, qo‘shni mamlakatlardan Eron, Turkiya, Afg‘oniston, Rossiya, Buxoro bilan savdo, madaniy aloqalari to‘g‘risida fikr yuritiladi. Mazkur asarda bayon etilgan tarixiy voqealar Ogahiyning “Jome’ ul-voqeoti sultoniyy”, “Gulshani davlat”, Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy” kitoblaridagi tilga olingan ijtimoiy-siyosiy hodisalarni tasdiqlaydi va to‘ldiradi, ularga aniqlik kiritadi.

Mirpanjiy Xiva xonining ayrim rasm-rusumlarini ham kundaliklarida yoritadi. Uning yozishiga qaraganda, xon hazratlari libos kiyish jihatidan boshqa odamlardan unchalik farq qilmaydi. Ya’ni, xon kiyinishda o‘zgacha zeb bermaydi, faqat bosh kiyimida qimmatbaho jig‘asi bo‘ladi. Xon jig‘asining bahosi ellik-oltmish tuman bo‘lsa kerak. Otliq yurganida otning dumiga yaltiroq kumush bezaklar taqiladi. Otga minish oldidan uch marta surnay chalinadi. Otga minishi bilan bir bor karnay chaladilar.

Uning yozishicha, xonning g‘ayri odatiy qiliqlaridan biri shuki, uning o‘zi chilim chekmaydi. Mahram deb aytiluvchi xizmatchi chilimni yaxshi chekib, tutuniga kosa to‘lgandan so‘ng, tutunni chiqarmasdan xonning ro‘parasiga kelib o‘tiradi va chilimning nayini uning og‘ziga tutadi. Chilimning orqa tomonida bir kichik teshigi borki, o‘sha joyni mahram tutun tashqariga chiqmasligi uchun

barmog'i bilan berkitib turadi. So'ngra o'sha teshikka labini qo'yib puflaydi, xon hamma tutunni og'ziga to'ldirib, keyin nafas chiqaradi. Buni men xon huzurida bo'lganimda, ya'ni salomga kirganimda bir necha bor kuzatganman. Xon kelganlarni qabul qilish uchun devonxonada o'tiradi. Salomga kiruvchi shaxslar muayyan aniq kishilar emas. Balki kim hohlasa, o'sha odam bemaol uning oldiga kira oladi. Xon mehtar, to'ra va shunga o'xshagan katta martabali kishilarga o'tirishga izn beradi. Boshqa toifadagi kishilar esa xon huzurida salom berib, qoidaga ko'ra fотиha o'qib qo'lini yuzi va soqoliga tortib qaytib ketadilar. Agar biror kishi hadya olib kelsa, xon ochiq chehra bilan qabul qiladi. Masalan, birov o'n dona olma keltiradi, yana boshqa birov bir barra qo'zichoq. Xonga nimaiki hadya keltirsa, ayb sanalmaydi. Hatto men shunday bir hodisaning guvohi bo'ldimki, bir kuni qaysidir bir qassob xonga hadya tarzida qo'yning yurak-bag'ri va bir necha qo'chqor tuxumini keltirdi. Xon esa bundan bag'oyat xursand bo'ldi.

Mirpanjiyning yozishicha, Xiva bozoridagi qullar savdosi esa eng ko'p savdo qizg'in joy bo'lib, badavlat, o'zining qaysidir ishiga arzon ishchi kuchi kerak bo'lgan puldor yoki amaldor hohlagancha qulni sotib olishi mumkin ekan.

Ismoil Mirpanjiy o'z kundaliklarida yozib qoldirishicha, xon xizmatidagi eng mo'tabar shaxslarga inoq-valiahd, undan so'ng mehtar, qushbegi va devonbegilar kiradi. Ulardan keyin o'z ishi bilan mashg'ul mirob, rais, devon xodimi, qozikalon, askarlar qozisi va mahallalar mullolari kabi o'ttiz ikki amaldor bor. Bu kishilarni joy-joyiga qo'yishlar, o'z mansabidan tushirish yoki ko'tarish xonning vazifasiga kiradi. Faqat mahalla mullalari rais ixtiyorida. Shuningdek, bu shaxslardan bo'lak kishilar o'z rasmiy muhrlariga ega emas edilar. Mazkur uchala vazir o'ttiz ikki amaldordan boshqa shaxslarga ham mansab va nishon sifatida rasmiy muhr beradi. Xivaqda rasmiyatchilik shu darajada kuchliki, agar bir o'ymakor yoki hunarmandga yuz tuman pul berilishi lozim bo'lsa, xon ruxsatisiz muhr qo'yishmaydi. Agar biror kishining yer-mulk egasi ekanligi haqidagi hujjati yoki qarz olganligi to'g'risidagi tilxati bo'lsa, qozi muhr bosadi. Boshqa barcha zarur ishlar - nikoh varaqasidan tortib to xon, inoq, to'ra, mehtar va boshqa a'yonlarning vazifasigacha qozikalon zimmasidagi vazifalarga kiradi. Tasodifiy yoki baxtsiz hodisalar to'g'risida hukm chiqarish harbiy qozi zimmasidagi vazifalardan bittasi hisoblanadi.

Shuningdek, Ismoil Mirpanjiy xorazmliklarning yeyish-ichishi juda oddiyligi, to'y va ziyofatlarda ovqatning bir turi bilan qanoatlanishlari, ot va sigir go'shtini ko'p iste'mol qilishib, qo'y go'shtini kam iste'mol qilishlari haqida ma'lumotlar qoldirgan. Mirpanjiy ma'lumotlariga qaraganda, Xivada ko'pincha zig'ir yog'i va paxta yog'i ishlatiladi. Xon va katta amaldorlar dumba va kunjut yog'idan qilingan taomlarni tanovul qilishadi. Mol va qo'y yog'ini shirchoyga

solishadi. Palovni qobuliy deb ataydilar. Xon va amaldorlar har oyda bir, ikki martadan ko‘p qobuliy yemaydilar va ko‘proq ot yoki mol go‘shtidan pishirilgan qaynatma sho‘rvani xush ko‘radilar. To‘y-ma‘rakalarda eng ko‘p xarj etiladigan bazm xatna to‘yidir. Har qanaqa dabdaba va xursandchilik shu to‘yga xos. Xatna qilinadigan bolani xo‘b ziynatlab kiyintirishadi. Otga mindirib, uyiga yaqin bo‘lgan ko‘chalarni aylantirib kelishadi. To‘yda bir necha kun aysh-ishrat va xursandchilik qilishib, shodu-hurramlik bilan mashg‘ul bo‘lishadi.

Nikoh to‘ylarida qozi bir kosada suv to‘ldirib, qizning oldiga qo‘yadi: “o‘z taningni bu kishiga bag‘ishladingmi yo yo‘qmi?”deb so‘raydi. Qiz esa “bag‘ishladim” deb javob beradi. Shundan so‘ng qozi o‘sha suvdan ichib “bismillohu ollohu akbar” deydi. Yigit va qizdan keyin boshqa o‘tirgan guvohlar ham shu suvdan ichadilar va qozi nikoh bitimini joriy etadi. Ularning qalin puli to‘qqiz sonidan aylanadi. Masalan, ikki to‘qqiz tillo, uchta to‘qqiz tillo yohud to‘qqiz-to‘qqiz patir non kabi. Xon va boshqa a‘yonlarning qizlari uchun to‘qsonta to‘qqiz tillogacha qalin puli belgilanadi. Mirpanjiy birov qazo qilgan taqdirda bo‘lib o‘tadigan marosimlarni ham yozib qoliradi. Uning ma‘lumotlariga asosan aza-motam yig‘inlarida Erondagidek xatmi Qur‘on va boshqa ehtiromlar yo‘q.

Kimki ta‘ziyaga kelsa, yoddan bir-ikki oyat tilovat qilib ketaveradi. Mayitning rizoligi uchun hayrot qilish odat bo‘lib qolgan. Hayrotning mazmuni shundan iboratki, yig‘inga ikki-uch mullo keltiriladi. Mayitning qarindoshlari o‘rtaga bir qilich qo‘yib, uning dastasiga ro‘mol bog‘lab, ro‘molning bir burchagiga qudrati yetganicha pul o‘rab turadi. Shu tariqa o‘lgan kishining ado etilmagan ro‘za namozlarining gunohlarini o‘z gardanlariga olish uchun haligi mullolarni rozi qilishadi.

Mullolar pulni olib “mayyit qarzidan forig‘ bo‘ldi” deb fotiha o‘qiydilar. Mirpanjiy asirlik davrida Xiva shahri bo‘ylab harakati cheklanmagan, hatto bir necha bor xon huzurida qabul qilingan. U xon qabuli jarayonida ko‘rgan-kechirganlarini va xonlik turmushiga oid boshqa masalalarni ham o‘z kundaliklarida batafsil yozib qoldirgan. Jumladan, uning bozorlar haqidagi ma‘lumotlariga qaraganda: “Xorazmning barcha shaharlarida haftada ikki marta bozor bo‘ladi. Ba‘zi shahar va qishloqlarda dushanba va payshanba, ba‘zilarida shanba va chorshanba kunlari va yana har xil” [3]. Yana ul kishining ma‘lumotlariga qaraganda butun o‘zbek zoti hamisha maxsi bilan yuradi. Hatto xon ham ertalab chakmonini kiydimi, to yotish vaqtigacha yechmaydi. Tahorat qilganda maxsi yuzidan mash tortadilar. Qisqacha qilib aytganda, uyda o‘tirganda ham, salomga borganda ham, masjid va boshqa ehtiromli joylarda yurganda ham,

qo‘yingki, iflos, yomon joylarda ham maxsida yurishadi. Agar namoz o‘qimoqchi bo‘lishsa, maxsini gazlik (etik pichog‘i) bilan tozalab uyga kiradilar. Hukm chiqarganlarida hech kimni ayamaydilar. Har kimning xonga arzi bo‘lsa muayyan paytda, hech qarshiliksiz uning huzuriga kira oladi. Xonga taalluqli har nima bo‘lsa, uning o‘zi chuqur tekshirib ko‘rib hukm qiladi. Agar shariat qoidalar bilan bog‘liq ish bo‘lsa, qoziga murojaat etadi. Mahallalardagi mayda-chuyda ishlarni esa zikr etilgan kichkina mullolar hal etadi. Xon devonidan chiqadigan hukm va farmonlar hajman qisqa, mazmunan esa lo‘nda va aniq bo‘ladi. Mirpanjiy : “Faqir shu xolis so‘zlar ila yaxshi irim qilib kundaligimni poyoniga yetkazdim”[3] deb o‘zining kundaligini yakunlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Tehronda Ismoil Mirpanjiy tomonidan hijriy 1280, milodiy 1864-yilda hisobot tarzida yozib tugatilgan ushbu memuar asar Qo‘ng‘irotlar sulolasiga mansub xonlar davriga oid ko‘plab ma‘lumotlar beruvchi noyob ilmiy manba sifatida olimlar, shuningdek, tadqiqotchi va izlanuvchilar uchun qimmatli ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ismoil Mirpanjiy. Asirlikdagi xotiralar. Urganch. “Xorazm” nashriyoti, 1997, 33-bet.
2. Ogahiy. Jome’ ul-voqeoti sultoniyy. Toshkent. G‘. G‘ulom nashriyoti. 1980.
3. Ismoil Mirpanjiy. “Asirlikdagi xotiralar”. Urganch. “Xorazm” nashriyoti, 52-bet.
4. Ismoil Mirpanjiy. “Asirlikdagi xotiralar”. Urganch. “Xorazm” nashriyoti, 62-bet.

TARIX

XORAZM JADIDCHILIGI: O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA FARQLI JIHLATLARI



**Sayyora
SAMANDAROVA,**
Filologiya fanlari
nomzodi, dotsent



**Umid
BEKMUHAMMAD,**
Tarix fanlari bo‘yicha
falsafa doktori, dotsent

UO‘K 94(575.171)“1900/1924”

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm jadidchilik harakati hamda uning Buxoro va Turkiston jadidchilik harakatidan farqli jihatlari, o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, jadid namoyandalarining Xorazmdagi taraqqiyparvarlik faoliyatlari yoritib beriladi.

Аннотация: В статье анализируется хорезмское джадидское движение, его отличия от бухарского и туркестанского джадидских движений, его специфические особенности. Также освещается деятельность джадидистов в Хорезме.

Annotation: This article analyzes the Khorezm Jadid movement and its differences from the Bukhara and Turkestan Jadid movements, as well as its unique characteristics. It also highlights the developmental activities of Jadid representatives in Khorezm.

Kalit so‘zlar: Xorazm, Buxoro, Turkiston, Qrim, jadidchilik, maktab, gazeta, xonlik, islohot, sivilizatsiya.

Ключевые слова: Хорезм, Бухара, Туркестан, Крым, джадидизм, школа, газета, ханство, реформа, цивилизация.

Key words: Khorezm, Bukhara, Turkestan, Crimea, Jadidism, school, newspaper, khanate, reform, civilization.

Rossiya mustamlakachiligi davrida milliy uyg‘onishni yuzaga keltirgan harakat Qrimda Ismoil Gasprali tomonidan boshlangan jadidchilik harakati edi. Professor Begali Qosimov ko‘p yillik tadqiqotlariga asoslanib, haqqoniy ravishda xulosa qilganidek, “jadidchilik g‘oyalari erta bahorning shiddatli shamollari singari po‘panak bosib, biljirab ketgan o‘rta asrchilik turmushini eng pastki qatlamlarigacha ochib tashladi. Momoguldirak bo‘lib, Millat va Vatanning hayot-mamot masalasi kun tartibiga qo‘yilgani haqida bong urdi. Chaqmoqdek chaqnab, uning bag‘ridagi jarohatlarini yoritdi. Obirahmat bo‘lib, ona Turkiston ko‘ksidagi maorif, matbuot, teatr nihollariga hayot baxsh etdi. Bu g‘oyalarning asosida milliy uyg‘onish, milliy mustaqillik uchun kurash yotar edi. Jadidchilikning mohiyatini Millat va Vatanni anglashdan ular manfaati uchun kurashishgacha bo‘lgan qizg‘in

va hayajonli jarayon tashkil qildi. Ayni paytda bu harakat millatni ham tarbiyalab bordi. Uni o'z boshiga yog'ilgan har bir ofatni taqdir deb ta'bir etishdan tortib, untahlil qilib, chorasini izlay olish darajasiga ko'tardi. Xususan, jadidlarimiz millatning yashamog'i, taraqqiy topmog'i uchun, birinchi navbatda, ozod, mustaqil bo'lmog'i lozimligini anglab yetdilar va keng xalqni uyg'otishga alohida e'tibor berdilar" (1).

Begali Qosimov ta'kidlagan, mudroq g'ururni uyg'otishdek ushbu jarayonlar Xorazmni ham qamrab oldi va bu shiddatli harakat turkiy dunyo bilan yaxlitlikda kechdi. Tabiiyki, Qrimdan boshlangan Ismoil Gaspralining jadid maktabi, "Tarjimon" gazetasi va umuman ushbu harakatning jamiyatga ko'rsatgan ta'siri Xorazmga ham tegishli ediki, bu moziyning eng yorqin, shu bilan birga alamli sahifalaridan biridir.

Negaki, jamiyat hayotiga, xalq turmushiga kirib kelgan to'liqindek shiddatli ushbu harakat g'oyatda qiyinchiliklar, to'siqlar, to'sqinliklar bilan kechd

Jadidchilik harakati Xiva xonligida dastlabki davrda - ya'ni XIX asr oxirlarida ta'lim sohasidan boshlandi. Faqatgina XX asr boshlaridagina jadidchilik Xorazmda ijtimoiy-siyosiy jarayonga aylandi. Tabiiyki, bu jarayon nafaqat O'rta Osiyo, balki dunyo davlatlaridagi vaziyat bilan bog'liq edi.

E'tiborli jihati shundaki, Xorazmda jadid maktablarini tashkil etish, ushbu maktablarga Qozon, Toshkent shaharlaridan o'qituvchilarni taklif qilish, "Tarjimon" gazetasiga obuna bo'lish singari ezgu ishlarga bevosita Feruzxon, Asfandiyorxonlar hayrihohlik bilan qarashgan.

Hukmdorlarning bunday hayrihohligi esa Husaynbek Muhammadmurodov, Mamat mahram, Islomxo'ja singari amaldorlarning ham siyratidagi taraqqiyparvarligini yuzaga chiqardi. Natijada ular Xorazmning turli hududlarida jadid maktablari tashkil etibgina qolmay, o'qish-o'qitish ishlarini ham tahlil qilib borishgan.

Qolaversa, Feruzxon hukmronligining so'nggi 10 yili va Asfandiyorxon hokimiyatdaligining 3 yillik davrida, ya'ni 1900-1913-yillarda xonlikka bosh vazirlik qilgan Sayid Islomxo'ja (1872-1913) ham jadidlarning vohadagi rahnamosi darajasidagi nufuzli shaxsga aylandi. "Tarjimon" gazetasidagi maqolalardan ayon bo'lishicha, Islomxo'ja taraqqiyparvar bosh vazir sifatida Ismoil Gaspraliga bir necha bor xat orqali murojaat qilib, g'oyaviy maslahatlar olib turgan. Shu bois xonlikda jadidchilik g'oyalari nazariyadan amaliyotga aylana boshlanadi.

Natijada Islomxo'janing va Asfandiyorxonning ham 1913-yilgacha bo'lgan davrda ta'lim va ma'rifatparvarlikdan boshlangan jadidchilik g'oyalarini qo'llab-quvvatlashi tufayli xonlikda ko'plab islohotlar o'tkazildi.

Ma'lumki, jadidchilik davlat, tuzum, boshqaruvni isloh qilish va millatni rivojlantirish orqali jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishni maqsad qilib qo'ygan g'oya va aniq amaliy tadbirlarni o'zida mujassamlashtirgan tizim edi.

Tabiiy ravishda bu jarayon turkiy musulmon xalqlarni zamonaviy dunyo tamadduni, ma'rifati, ilg'or ilmiy salohiyati darajasiga ko'tarish g'oyasi bilan sug'orilgandi. Ya'ni, O'rta Osiyo xalqlari ijtimoiy taraqqiyotida o'zgarish bo'lgan jarayon faqatgina Qrimdagi Ismoil Gasprali ta'limoti bilangina emas, Usmoniylar saltanatidagi "Yosh turklar"ning islohotchilik faoliyatlari ta'siri ostida ham burilish bosqichi bo'ldi.

Aynan "Yosh turklar"ning ta'sirini shundan ham sezish mumkinki, O'rta Osiyodagi jadidlar "Yosh buxoroliklar", "Yosh xivaliklar" nomi bilan o'zlarining harakatini atagandilar. Vaholanki, bu safdagi taraqqiyparvarlarning ko'pchiligi o'rta yoshdagi shaxslar bo'lishgan. Masalan, Polvonniyozhoji Yusupov 1914-yilda "Yosh xivaliklar" harakatiga asos solingan davrda 53 yoshda, Boboovun Salimov 41, Xudoybergan Devonov 35, Nazir Sholikorov 33 yoshda bo'lishgan. Shundan ham bilsa bo'ladiki, ta'limdan boshlangan jarayonning harakat, kuch sifatida siyosiy maydonga kelishida "Yosh turklar"dan ta'sirlanish yuqori bo'lgan.

Professor Begali Qosimov ta'kidlaganidek, "Jadidlar Usmonli Turkiyadagi "Ganch (yosh) turk" "Ganch usmonli" ta'siri bilan "Yosh buxoroliklar", "Yosh xivaliklar", "Yosh turkistonliklar" deb ham nomlanadilar. Birinchi ikki nom rasmiy tashkilot darajasiga ko'tarildi " (2).

Shuningdek, Turkiston, Buxoro va Xivada kechgan bu jarayon chorizm mustamlakachiligi asoratidan qutilish imkonini ham yaratishga zamin yasagan edi. Ya'ni, najotni ta'limdan deb bilgan jadidlar, o'zlari yuritayotgan milliy uyg'onish jarayonini ham mustamlakachilikdan qutulish yo'lidagi najot, tarixiy imkoniyat deb anglagandilar.

Ta'kidlash joizki, xonliklardagi inqirozli ahvol, bu o'lkalarning umumjahon taraqqiyotidan tobora ortda qolayotgani, jamiyatni isloh qilish zarurati ham jadidchilik g'oyalarining amaliyotga aylanishiga sabab bo'ldi. Natijada jadidlar tomonidan bunday ezgu g'oyalarni amalga oshirish uchun faqatgina maktab, matbuot, teatr, turli ma'rifiy jamiyatlarga emas, hatto siyosiy partiyalar ("Yosh buxoroliklar", "Yosh xivaliklar")ni ta'sis qilish darajasiga erishildi.

Ana shunday jarayonda Xorazmdagi jadidchilik harakatining o'ziga xos farqli tomonlari mavjud bo'lib, u boshqa hududlardan ajralib turadigan jihatlariga ega bo'lgan.

Bu jihatlar quyidagilardan iborat:

1.Xivada 1874-yildan boshlab shaxsan Feruzxonning homiyligi bilan ko'plab badiiy va tarjima asarlar, hujjatlar chop etiladigan, eronlik Ibrohim Sultonning matbaaxonasi tashkil qilingandi. U o'z yurtiga qaytib ketgach, uning ishini shogirdi Otajon Obdalov davom ettirdi.

Biroq, XX asr boshlarida Turkistonning turli hududlarida ko'plab jadidchilik g'oyalari aks etgan gazeta-jurnallar nashr qilinsa-da, Xorazmdagi matbaaxonada to 1920-yil 8-martgacha bironta matbuot nashri faoliyat ko'rsatmadi. Ya'ni, matbuot to monarxiyaga asoslangan xonlik tugatilib, Xorazm Xalq respublikasi o'rnatilmaguncha tashkil etilmadi.

2. Xorazm vohasida azaldan musiqa va san'atga ixlosmandlik aholi orasida keng tarqalgan bo'lsa-da, bu borada san'atkorlarning teatrga jipslashishi va asarlar sahnalashtirishi ham ro'y bermadi. Turkistonning turli hududlaridagi kabi Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Hamza Hakimzodadek Xorazmda jadid dramaturglari yetishib chiqmadi va teatr ham xonlik tugatilgach -1922-yildagina tashkil etildi. Xorazmda dramaturgiya, teatr san'atining tashkil etilishi, shakllanishida Hamza Hakimzodaning roli katta bo'ldi.

Feruzxonning 1910-yildagi vafotidan so'ng hokimiyatga kelgan Asfandiyorxon ham shoir bo'lsa-da, bironta gazeta-jurnal, teatr tashkil etishga harakat qilmadi. Vaholanki, bu paytda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tezlashgan bo'lib, Turkistonning turli hududlarida Xiva xonligidan farqli ravishda ko'plab matbuot nashrlari, teatr truppalari faoliyat ko'rsatar, bu san'at turi xalq orasida ommalasha boshlagan edi. Ammo shuni ham e'tirof etmog'imiz lozimki, Asfandiyor hali taxtga chiqmay, valiahdlilik davridayoq "Tarjimon" va boshqa nashrlarni mutoala qilib turgani, jadid maktablarini tashkil qilish, o'qitish tizimini tahlil etib borgani Ismoil Gaspralining maqolalarida yoritib borilgan.

Shunday bo'lsa-da, XIX asrda Xorazmda yashab ijod qilgan shoir, tarixchi, tarjimonlarning ko'pligi, ularning asarlaridagi g'oyalar va tashqi savdo-madaniy aloqalar jamiyatda ilg'or fikrli, taraqqiyot tarafdorlari bo'lgan kishilar guruhi-ma'rifatparvarlarning shakllanishiga, ya'ni jadidchilik g'oyalarining yetishib chiqishiga zamin yaratdi.

Tarix fanlari nomzodi, dotsent Ne'matjon Polvonov o'zining "Xorazmdagi ijtimoiy harakatlar va siyosiy partiyalar tarixi" ("Akademnashr" nashriyoti, Toshkent, 2011-yil) risolasida Xorazm jadidchiligining boshqa hududlardan farqli jihatlarning yana birisi bu g'oyani qo'llab-quvvatlagan insonlarning boy-badavlat insonlar ekanligiga e'tibor qaratgan edi.

Ya'ni, xonlikda katta ta'sirga ega bo'lgan qozikalon Bobooxun Salimov, devonbegilar sulolasiga mansub Husaynbek Matmurodov, Asfandiyorxonning qaynotalari - shoir Komil Xorazmiyning mirzaboshi ekanligi, Islomxo'jadek islohotchining bosh vazirlik qilishi, Polvonniyozhoji Yusupov, Nazir Sholikorovlarning katta savdogarligi, Xudoybergan Devonov, Jumaniyozhoji Boboniyozov, Mulla Jumaniyoz Sultonmurodov va boshqalarning ham boy-badavlat tabaqaga mansub ekanligi, ulardagi ma'rifatparvarlik Xorazmdagi jadidchilik harakatining o'ziga xosligini tashkil etgan edi. Xorazm jadidchilik harakatining ushbu namoyandalari vaziyat taqozosi bois faqatgina maktablar tashkil qilishga, iqtisodiy islohotlar o'tkazishga harakat qilishgan.

Shu davrga oid manbalar, xususan Polvonniyozhoji Yusupovdek Xorazm jadidlari yetakchisining memuarini tahlil qilishimizdan kelib chiqadigan fikrimiz

shuki, qolaversa real tarixiy jarayonlar shuni ko'rsatadiki, boy-badavlat bo'lgan jadidchilik g'oyasidagi shaxslarning faoliyati Xorazmda asosan siyosiy kurashlar bilan kechdi.

Masalan, 1910-yilda o'zi ishlab chiqqan 10 bandlik dasturni Asfandiyorxonga imzolatgan Islomxo'ja va uning maslakdoshlari ham asosan jamiyatni isloh qilish, zamonaviylashtirish borasida siyosiy faoliyat bilan shug'ullanishdi.

Qolaversa, 1913-yildagi Islomxo'janing vafoti, Asfandiyorxon saroyidagi ziddiyatlarning kuchayishi va guruhbozlikning ortishi tufayli xonlikda konservativ kuch bo'lgan qadimchilar, mustamlakachilar mavqeining ta'siri oshib ketdi.

Natijada badavlat tabaqadan chiqqan xorazmlik jadidlar - Polvonniyozhoji Yusupov, Nazir Sholikorov, Husaynbek Matmurodov, Jumaniyoz Sultonmurodov, Bobooxun Salimov va boshqalarning asosiy faoliyati endi faqat Asfandiyorxon, mustamlakachilarga qarshi siyosiy kurash boshlashlariga sabab bo'ldi.

Otamurod Qo'shjonov va Ne'matjon Polvonov o'zlarining "Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harakatlar", (3) nomli hammualliflikda yaratgan asarlarida Xorazm jadidchiligidagi yana boshqa farqli jihatlariga e'tibor qaratishgan:

- Turkiston va Buxorodagi kabi xonlik hududida jadidchilik g'oyalarining yoyilishida turli sabablar bilan bu yerga kelgan tatar ziyolilari tashviqot va targ'ibotining ham katta ta'siri bo'lgan;

- shu bilan birga, jadidchilik Xiva xonligida muxolifat darajasida bo'lib, eski tartib tarafdorlariga qarshi yangilik, islohot tarafdorlari harakati edi;

- jadidchilik harakati qatnashchilari orasidan "Yosh xivaliklar" tashkiloti partiya sifatida o'sib chiqdi.

Xullas, Xorazm jadidchiligi ana shu kabi Turkiston va Buxorodan farqli o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ta'lim hamda ma'rifiy harakatdan ijtimoiy va siyosiy harakat darajasiga ko'tarilib borgan. Umuman olganda, Xorazm jadidchilik harakati, jadidlar namoyandalari faoliyati o'sha davr manbalari asosida boshqa hududlarga taqqoslangan holda tadqiq qilinishi bugungi davrning, ilm-fanning eng muhim mavzusi bo'lib qolmoqda.

Ta'lim sohasida yangi uslubda faoliyatini boshlagan qrimlik Ismoil Gasprali tashkil etgan maktab jadid maktabi deb atalgan. Maktab sohasidan boshlangan jadidchilik vaqt o'tib Qrimdan tashqari Rossiya imperiyasidagi turkiy musulmon xalqlari yashaydigan hududlarni ham qamrab oldi va faqatgina maktab ma'nosidagina emas, yangilik tarafdori, yangi tafakkur, yangi avlod singari keng ma'nolarni o'zida mujassam qildi. Jadidlar jamiyatning barcha qatlamlarini jalb

eta oldi va o'ziga xos harakat, uyg'onish mafkurasi bo'lib xizmat qildi hamda fenomen darajasiga yetdi.

Jadid maktabi o'z nomi, pedagogik uslubiga ko'ra dars beriladigan o'z davrining zamonaviy ta'lim dargohi edi. Xorazmda jadid maktablari esa aynan Feruzxon, Asfandiyor va bosh vazir Islomxo'ja, Mamat mahramlarning tashabbuslari va mablag'lari asosida tashkil etilgan va qisqa paytda o'z natijasini bergan jadid maktablari jamiyatdagi jarayonlarning taraqqiy qilishiga, harakatlanuvchi kuchiga aylandi.

Ismoil Gaspralining Qrimda nashr etilgan "Tarjimon" gazetasining 1887-yil 15-avgust sonida shunday xabar berilgan: "Xivada xon tarafidan maktab ochilib, unda bolalar rus tili o'rganadilar; maktab xon sarmoyasi bilan ta'minlanadi; maktab uchun 34 xonali bino qurilgan; 2 yil oldin Xiva xoni dunyoviy ilmlar ham o'qitiladigan yangi madrasa ochmoqchi edi, bu ishning boshi bo'lsa kerak"(4).

Professor Zaynobiddin Abdirashidovning tadqiqotiga ko'ra, "1898-yili Xivada orenburglik Muhammad Vafo va mulla Abdurahmon afandilar tomonidan usuli savtiya maktabi ochildi. Lekin bir oy davom etgan faoliyatidan keyin "taassubning ziyoda o'ldig'ini anglayib, Urganch shahrina ketdilar va u yerda usuli savtiya maktabi kushod etdilar".

1907-yil 30-martda "Tarjimon" gazetasi Asfandiyorning "Xiva valiahdi usuli savtiya maktabi ochdirish uchun Barudiy madrasasini tamomlagan ikki muallimni chaqirtirdi, 25-fevralda keldilar, kelishlari bilan maktabda dars boshlaganlari haqida" gi xabarini ham chop qilgan.


Shuningdek, 1905-yilda xon amaldori, taraqqiyparvar Mamat mahram tomonidan ham Deshonqal'adagi uyida jadid maktabi o'z faoliyatini boshlagan.

Xivada dastlab tashkil etilgan usuli savtiya ta'lim maskanlari "Maktabi Mahramiya" (Mamat mahramning maktabi), "Maktabi jadid" (Islomxo'janing mablag'iga barpo etilgan) deya xalq tomonidan nomlangan.

Tabiiyki, o'zlarining tashkilotchiligida faoliyat olib borayotgan ushbu maktablardagi ta'lim-tarbiya, o'qitish uslublari doimo nazorat qilib borilgan. Bu borada 1907-yilning 28-mayida Asfandiyor va Islomxo'ja, 31-may kuni qozikalon Salimoxun, mudarris, oxunlardan iborat hay'atga Xivadagi har ikkala maktabning 113 nafar o'quvchisi imtihon topshirishgan hamda a'lo baho olishgan.

Shu faktdan ko'rinadiki, Mamat mahram va Islomxo'jalarning jadid maktablarida jami 113 nafar o'quvchi zamonaviy jihozlangan sharoitda, yangi uslubda ta'lim olishgan. Dunyoviy fanlar asosida o'qitilayotgan bu maktab o'quvchilarining yutug'i valiahd Asfandiyor va bosh vazir Islomxo'jani g'oyatda ruhlantirgan. Natijada imtihondan so'ng Asfandiyor, Islomxo'ja va qozikalon Salimoxunlar o'zaro maslahatlashib, Qozon shahridan ushbu maktablar uchun yana ikki nafar o'qituvchi taklif qilishga qaror qilishadi. Xorazmda jadid maktablarini ko'paytirish, o'quv jihozlari, adabiyotlari bilan ta'minlash, ulardagi

ta'lim sifatini nazorat qilish uchun Ramazon Muhammad Karimzoda Xorazmdagi jadid maktablari noziri qilib tayinlangan.



Aytish mumkinki, keyinchalik sovet davrida xalq ta'limi bo'limi, boshqarmasi deya atalgan o'quv-uslubiy, ta'lim boshqaruvidagi idoraga ham aynan xorazmlik jadidlar tomonidan Xivada asos solingandi. Ramazon Muhammad Karimzodaga bosh vazir Islomxo'ja tomonidan jadid maktablarini faqat Xivadagina emas, xonlikning boshqa hududlarida ham tashkil etish, maktablar uchun joy tanlash, zamonaviy holatda qurish, o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash vazifasi qo'yiladi.

Ismoil Gasprali Qrimdan boshlangan jadid maktablarining Xorazmda tashkil etilishini, bu bilan bog'liq jarayonni "Tarjimon" gazetasida doimo yoritib, qo'llab-quvvatlab turgan. Jumladan, 1908-yil 18-yanvarda "Tarjimon"

gazetasida "Xivada usuli jadida maktablari" nomli maqola chop etilgan va undagi ma'lumotga ko'ra, 1898-yil dekabrda Orenburgdan Muhammad Rifo karvonboshi bilan muallim Abdurahmon afandi Xivaga keldi va bir oy turdi, taassub kuchliligidan Urganchga ketdi va usuli savtiya maktabi ochib, 1 yil bola o'qitdi, vafot etdi. Keyinroq Muhammad mahram (Mamat mahram) ochgan maktab xalq tarafidan yaxshi qabul qilindi va xalq 1907-yili valiahdga murojaat qildi, yana Muhammad Rifo karvonboshi vositasida Qozondan ikki muallim keltirdi, maktabi mahramiy va maktabi jadidaga muallim qilib tayinlandi, bu maktablarga nozir tayinlandi, may oyida imtihonlar bo'ldi, valiahd ularni ko'rib Qozondan bir muallim chaqirib yana 1 maktab ochdi, kelayotgan may oyida rushdiya maktabi ochiladi, uning sohibi vazirlardan Islomxo'ja, muallimi Ahmad Nuriddin. Valiahdning maorifparvarligi tarixga bitiladi".

Shu kabi Ismoil Gasprali 1908-yilning 4-aprelida yana "Tarjimon" gazetasida maqola chop qilgan va unga ko'ra, "O'tgan yil Xiva xoni Qozondan ikki muallim chaqirib 2 ta usuli jadid maktablari ochgan, muallimlar Yusuf va Husayn afandi, 4-5 oy o'tgach imtihonlar bo'ldi, Husayn afandining maktabi yaxshi natijalar ko'rsata olmadi, uni ishdan bo'shatdi, yangidan Qozondan uch muallim chaqirildi, ular ishga jiddiy kirishdilar"(5).

Ismoil Gasprali Xorazmda jadid maktablari ko'payayotgani, ularni bevosita hukmdor, valiahd va Islomxo'ja singari taraqqiyparvarlar qo'llab-quvvatlayotganini e'tirof etgan holda, "Tarjimon" gazetasining 1909-yilgi № 40-sonida "maktablarning ochilishi, ko'payishi lozim. Boqchasaroydan olingan dars kitoblari, Qozondan chaqirilgan muallimlar Xivaga endi to'g'ri kelmaydi, yarashmaydi. Endi Xivaning o'zidan muallimlar yetishtirmoq kerak va Xivada

chop etiladigan alifbolarni yaratmoq kerak. Bunda ham hech bir kimsa zarar ko‘rmaydi” degan vazifani qo‘yadi.

“Tarjimon” gazetasi taxlamlaridagi ma’lumotlardan ma’lum bo‘ladiki, Xorazmda jadid maktablari ochish 1887-yildan boshlangan va XX asr boshlariga kelib nafaqat Xiva va Yangi Urganch, balki Gurlan, Qo‘ng‘irot, Xo‘jayli, To‘rtko‘l shaharlarida ham yangi usuldagi jadid maktablari tashkil qilingan va uning bitiruvchilari orasidan Xorazmdagi siyosiy jarayonlarda faol qatnashgan Bekjon Rahmon, Nizomiddinoxun, Inoyatxon, Jumaniyoz Ollaquliev, Ibrohim Ollaquliev, Qurbon Beregin, Karim Boltaev, Maryam Sultonmurodova singari ko‘plab ilg‘or fikrli kishilar yetishib chiqdi.



Бухорон Шариф (“Благородная Бухара”),

Islomxo‘ja singari Xorazmdagi islohotchi amaldor - Mamat mahram degan nom bilan tarixda qolgan taraqqiyparvar shaxs edi. U xon amaldori sifatida “Tarjimon” (Qrim), “Taraqqiy” (Toshkent) hamda boshqa gazetalarga obuna bo‘lgan va qolgan amaldorlar, savodxon qatlamga ham gazetani targ‘ib qilgan. Shuningdek, Ramazon Saydashev, Ahmad Agiev singari tatar

o‘qituvchilarini qo‘llab-quvvatlagan holda ular bilan maslakdoshlikda Xorazmda jadid maktablari ochilishi uchun sa’y-harakat olib borgan. 1903-yilda Deshon qal’aning janubiy-g‘arbiy qismidagi Kaltaminor mahallasida masjid, madrasa, minora ham barpo ettirgan. Saroy amaldorlariga ibrat tarzida o‘z uyida jadid maktabini ham 1905- yilda tashkil etgan va unda Qozon shahridan kelgan tatar o‘qituvchilari ta’lim berishgan. Mamat (Muhammad) mahram 1909-yilda vafot etgan.

Xorazmdagi jadid maktablarini qo‘llab-quvvatlagan shaxslar orasida Muhammad Rifo karvonboshi ham bo‘lgan. U XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Xorazmda yashab o‘tgan bo‘lib, Eron, Rossiya hududlariga savdogarlarning yuklarini qatnaydigan karvonga va Orenburg, Qozon, Mashhad, Xiva, Yangi Urganchdagi savdo do‘konlariga egalik qilgan. Dunyo taraqqiyotini bevosita ko‘rib, kuzatgan va Xorazmni ham rivojlantirish istagida o‘z davri uchun zamonaviy do‘konlar tashkil qilgan. Daromadidan esa jadid maktablarini ta’minlab turgan. 1898-yilda Orenburg, 1907-yilda Qozon shaharlaridan Xorazmdagi jadid maktablari uchun o‘qituvchilarni olib kelishga boshchilik qilgan.

XX asr boshlarida Xorazmning turli hududlarida jadid maktablarining ko'payishi sababli ushbu ta'lim dargohlarini o'qituvchilar, zarur o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash, umuman olganda, barcha jadid maktablarining faoliyati bilan bog'liq ishlarga taraqqiyparvarlarni jalb etish uchun xayriya yo'nalishidagi jamoat tashkilotiga ehtiyoj paydo bo'ldi. Shu tarzda 1912-yilda Xivada "Ta'sisoti xayriya" jamiyatiga asos solindi.

TA'SISOTI XAYRIYA-Xorazm jadidlarining ta'lim, ma'rifatparvarlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash uchun bosh vazir Islomxo'ja tashabbusi bilan tashkil etildi.

"Tarjimon" gazetasida yozilishicha (1912-yil 24-fevral), Islomxo'ja Xivada "Ta'sisoti xayriya"ni vujudga keltirish uchun o'zidan 100 ming rubl iona qilgan". Bosh vazirning bu saxovati, ma'rifatparvarligi bois, Husaynbek Matmurodov, Boboovun Salimov, Xudoybergan Devonov va boshqa jadid mulkdorlari ham tashkilotni qo'llash uchun xayriya ishlarini olib borganlar.

O'sha davrda yana shu yo'nalishda jadidlar tomonidan "YANGI URGANCH SAVODXONLIGI JAMIYATI" tashkil etilgan edi. Jamiyat tashkilotchilari Islomxo'janing o'limidan so'ng uning taraqqiyparvarlik ishi ko'lamini kengaytirish, jadid maktablari sonini ko'paytirish, ularga o'qituvchilar taklif qilish, darslik va qo'llanmalar yaratish, maktab bitiruvchilarini xorijga yuborishni maqsad qilishgan. Bu maqsad yo'lida 1914-yilda Yangi Urganchdagi zamonaviy binoda Qozon shahridan kelgan o'qituvchilar ikkinchi jadid maktabini tashkil qilishgan. Biroq, 1916-yil qo'zg'olonlari va 1917-yildan keyingi tazyiqlar sabab Chorjo'y shahriga ketib, faoliyatlarini davom ettirishadi. Jamiyat ham 1917-yil kuzida o'z faoliyatini to'xtatadi.

Xulosa qilib aytganda, aynan Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida jadidchilik harakatining vujudga kelishi, xususan jadid maktablari, ta'lim tashkilotlarining tashkil etilishi, umuman jadidlar tomonidan islohotlar o'tkazilishi istibdodga qarshi kurash, milliy uyg'onish sari tashlangan dadil qadam edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.Qosimov. "Milliy uyg'onish", "Ma'naviyat" nashriyoti, Toshkent,2002-yil, 4-bet.
2. B.Qosimov. "Milliy uyg'onish", "Ma'naviyat" nashriyoti, Toshkent,2002-yil, 5-bet.
3. O.Qo'shjonov, N.Polvonov "Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harakatlar", "ABU MATBUOT-KONSALT" MChJ, Toshkent,2007-yil, 47-bet.
4. I.Gasprali."Tarjimon" gazetasi, 1887-yil, 15-avgust.
5. I.Gasprali. "Tarjimon" gazetasi, 1908-yil, 4-aprel.

TARIX

O‘ZBEK KINOSIDA SHARQ MINIATYURALARIDAN FOYDALANISH AN‘ANALARI



**Firdavs
ABDUXOLLIQOV,**
O‘zbekiston madaniy
merosni saqlash,
o‘rganish va
ommalashtirish
bo‘yicha Butunjahon
jamiyati boshqaruvi
raisi, san‘atshunoslik
bo‘yicha falsafa doktori

UO‘K 95.15

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek kinosining shakllanish jarayoni, unda foydalanilgan sharq miniatyuralari an‘analari tahlil etiladi. Shuningdek, o‘zbek kinosining oltin fondidan joy olgan kinofilmlar haqida mulohazalar yuritiladi.

Аннотация: В статье анализируется процесс становления узбекского кинематографа, традиции восточной миниатюры, использованные в нём, а также рассматриваются фильмы, входящие в золотой фонд узбекского кино.

Annotation: This article analyzes the process of formation of Uzbek cinema, the traditions of oriental miniatures used in it. It also discusses films that are part of the golden fund of Uzbek cinema.

Kalit so‘zlar: sharq, miniatyura, o‘zbek kinosi, aktyor, rejissor, dramaturg, tasvirchi.

Ключевые слова: восток, миниатюра, узбекское кино, актер, режиссер, драматург, иллюстратор.

Key words: oriental, miniature, Uzbek cinema, actor, director, playwright, illustrator.

O‘zbekiston tasviriy san‘ati uzoq asrlarga borib taqaladi. Bugungi o‘zbek kinematografiyasi rivoji zahirida ham o‘zbek xalqining qadimiy tarixga ega bo‘lgan san‘ati va madaniyati yotadi. Dunyoda ilk kino namunalari yaratilganidan so‘ng bir necha yil o‘tib, kinematografiya bugungi O‘zbekiston hududiga kirib keldi. Xiva xonligi delagatsiyasi tarkibida Sankt-Peterburgga kelgan xorazmlik ma‘rifatparvar ziyoli Xudoybergan Devonov shu yerda fotografiya va kinematografiya haqida dastlabki ko‘nikmalarga ega bo‘ladi va o‘zi bilan “Pate-593” kamerasini olib kelgan. 1910-yilda Xiva xoni Asfandiyorning faytonda sayr qilishi haqidagi ilk kinolavhani suratga olgandi. Shu tarzda o‘zbek kinosining tamal toshi qo‘ygan.¹

O‘tgan bir asrdan ko‘proq vaqt mobaynida O‘zbekiston hududida ko‘plab iste’dodli kinoijodkorlar yetishib chiqishdi va ko‘plab badiiy, hujjatli, animatsion va qisqa metrajli filmlarni suratga olishdi. Ular muntazam ravishda jahon kinematografiyasi yutuqlarini o‘zlashtirish barobarida ming yillarga borib taqaladigan badiiy san‘at an‘analaridan ham munosib ravishda foydalanishgan.

¹ Абдухоликов Ф.ва бошқ. Ўзбекистон кино санъати.Истанбул, Mega Basin. 2021. – Б. 14.

Kinematografiya O‘zbekistonga kiritib kelguniga qadar o‘zbek milliy teatri, tasviriy san’ati uzoq yo‘lni bosib o‘tgan. Xususan, Navoiy viloyatining Sarmishsoy, Surxondaryo hududidagi Zarautsoy daralaridan topilgan 10 minglab qoyatosh suratlari dunyodagi eng qadimiy tasviriy san’at asarlari qatoridan o‘rin olgan. Mazkur suratlarining yoshi 15 ming yilgacha boradi.¹

Surxondaryo viloyati Sherobod tumani hududidagi Tavka qo‘rg‘onidan topilgan devoriy suratlar, Termiz yaqinidagi arxeologik qazilmalar natijasida qo‘lga kiritilgan turli haykalchalar, Varaxsha, Panjakent va Afrosiyob devoriy suratlari ham yurtimizda azal-azaldan san’atning bu turi keng taraqqiy etganini ko‘rsatadi.

Sharq miniatyuralarini san’atshunoslikning alohida yo‘nalishi sifatida o‘rganish XIX asrning ikkinchi yarmida shakllana boshladi. Bir qator Yevropa va Rossiya ilmiy jurnallarida musulmon manbalaridagi suratlar, miniatyura davrining namunalari haqida qator maqolalar chop etila boshlandi. Taniqli avstriyalik sharqshunos olim Yozef fon Karabasek (1845-1918) 1882-yilda Misr papiruslari va ulardagi Misr miniatyuralari haqida o‘zining “Erschersog Rayner papiruslaridagi topilmalar” nomli risolasini chop etadi.² Bu risola Yevropada ilmiy jamoatchilik o‘rtasida Sharq miniatyura san’atiga qiziqishning oshishiga sababchi bo‘ldi.

Shved diplomati, kolleksioneri va tarixchisi Fredrik Robert Martin ham o‘zining Turkiya, Eron, Hindiston, Markaziy Osiyo bo‘ylab qilgan sayohatlari asnosida bu hududlarda keng yoyilgan miniatyura san’ati namunalari to‘plab, ularni tadqiq etadi. Jumladan, u 1894-yilda Buxoro amirligiga kelib, bu yerda kutubxonalardagi eski qo‘lyozmalar bilan tanishadi, kitob do‘konlarini aylanib, o‘zining tadqiqotlari uchun materiallar to‘playdi.³

F.R.Martin 1912-yilda Londonda “Eron, Hindiston va Turkiya tasviriy san’ati va musavvirlari” nomli asarini chop ettiradi. Mazkur ilmiy asarida fotimiylar, abbosiylar, mo‘g‘ullar, temuriylar, boburiylar, safaviylar, usmoniylar, qo‘jorlar, shayboniylar, Buxoro xonligi va amirligi paytidagi kitobat va miniatyura san’atining o‘ziga xos tomonlari haqida so‘z yuritadi. Sharq miniatyura san’atining bir qator eng qadimgi namunalarni o‘z kitobida keltirib o‘tadi. Kamoliddin Behzod, Mirak Naqqosh, Mahmud Muzahhib singari bir qator musavvirlar ijodiga alohida to‘xtaladi. Martin o‘z asarida Amir Temur, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur, Shayboniyxon, Ubaydullaxon singari

¹ Хужаназаров М., Реутова М., Болиев Б. Археологические и консервационные работы на памятнике Сармишсай// Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар, 2004-2005 йй. №5. – Б.321

² Karabacek J. Ergebnisse aus dem Papyrus Erzherzog Rainer. — Berlin., 1889. – P 38.

³ Martin E. R. , The miniature painting and painters of Persia, India and Turkey. - London, 1912.- P 7.

davlat va jamoat arboblari, ulugʻ mutafakkirlar qoʻl ostida temuriylar davri miniatyura maktabi rivojlanganini yozadi.¹

Oʻzbekiston sanʼati tarixi sovet mafkurasi talablari asosida, markazlashgan holda oʻrganildi. Bu soha koʻplab sovet olimlari tomonidan atroflicha oʻrganildi, oʻnlab ilmiy asarlar chop etildi. B. P. Denike², S. F. Oldenberg³, F. A. Rozenberg⁴, B. V. Krussman⁵, S. I. Tyulyaev⁶, B. V. Veymarn⁷, G. I. Kostygova⁸, O. F. Akimushkin⁹ singari bir qator olimlar miniatyura sanʼati, oʻrta asr miniatyura maktablari, musavvirlar hayoti va faoliyati, ijodiy usullari va mahoratini har tomonlama tadqiq etishdi. Ammo, sovet davrida Oʻzbekiston tasviriy sanʼati haqida yaratilgan ilmiy adabiyotlarda milliy rang tasvirning ildizlariga yetarlicha eʼtibor qaratilmadi. Mustaqillik yillarida ayniqsa, Yangi Oʻzbekiston davrida miniatyura sanʼati tarixini oʻrganishga jiddiy eʼtibor qaratila boshlandi. Jumladan, “Oʻzbekiston zamonaviy miniatyura sanʼati” kitobida miniatyura sanʼati tarixi va uning jahon tasviriy sanʼatida tutgan oʻrni, zamonaviy Oʻzbekiston badiiy ijodida tarixiy-madaniy meros va uning talqini chuqur tahlil qilinadi, miniatyura janrida ijod qilayotgan musavvirlar, naqqoshlar va xattotlar ijodidan namunalar beriladi.¹⁰

Soʻnggi yillarda Yangi Oʻzbekistonda mamlakat rahbari Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan sanʼat va madaniyatni rivojlantirish, Oʻzbekiston madaniy merosini saqlash va tadqiq etish, xususan milliy kinematografiyani jahon

¹ Martin E. R. , The miniature painting and painters of Persia, India and Turkey, London, 1912. Стр. 28-40.

² Денике Б. П. Сюжеты Низами Гянджеви в искусстве Азербайджана и Востока в XV-XVII вв. / Низами. Сб. 4. – Баку, 1947.

³ Олденберг С.Ф. Индийские миниатюры (К истории Эмира Хамзы). / «Восток». кн.1. - Москва, 1922.

⁴ Розенберг Ф.А. Об индоперсидской и новоиндийской живописи. / «Восток». кн.2. - Москва, 1923.

⁵ Крусман Б. В. Индийская живопись миниатюр эпохи Великих Моголов. / Труды Секции истории искусств Института археологии и искусствознания. РАНИОН. 4. - Москва, 1930.

⁶ Тюляев С.И. Миниатюры мемуаров Бабура. / «Литература и искусство Узбекистана». кн. 1. – Тошкент, 1938.

⁷ Веймарн Б. В. Искусство арабских стран и Ирана VII-XVII вв. – Москва, 1974.

⁸ Костыгова Г. И. Источник изучения истории культуры Средней Азии и Ирана. / Древность и средневековые народов Средней Азии (История и культура). Под. ред. Б. Г. Гафурова и Б. А. Литвинского. - Москва, 1978; Костыгова Г. И. Персидские и таджикские рукописи «Новой серии» Государственной публичной библиотеки им. М. Е. Салтыкова-Щедрина. Алфавитный каталог. - Ленинград, 1973.

⁹ Акимушкин О. Ф., Кулиев В., Миклухо-Маклай Н. Д., Мугинов А. М. Персидские и таджикские рукописи Института востоковедения АН СССР. - Москва, 1964; Акимушкин О. Ф. Лицевая рукопись из собрания Института народов Азии АН СССР. / Ближний и Средний Восток. Сборник статей. - Москва, 1962.

¹⁰ Оқилова К. Замонавий Ўзбекистон бадий ижодида тарихий-маданий мерос ва унинг талқини // “Ўзбекистон замонавий миниатюра санъати” китоб-альбомига сўзбоши. – Тошкент: “Санъат” журнали нашриёти, 2021. – Б. 13.

andozalari darajasida yuksaltirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, **“Agar biz ajdodlarimiz xotirasini ulug‘lamoqchi, shu asosda o‘zbek nomini, O‘zbekiston nomini butun dunyoga tarannum etmoqchi ekanmiz, bu ishni birinchi navbatda kino san’ati orqali amalga oshirishimiz kerak. Aynan kino san’ati orqali jahon ekranlarini zabt etishimiz, shu yo‘l bilan dunyo ahlining diqqat-e’tiborini qozonishimiz mumkin”**.¹

Tarixiy shaxslar haqida filmlar suratga olish o‘tgan asrning 30-40-yillaridayoq boshlangandi. Jumladan, “Nasriddin Buxoroda” (1943), “Tohir va Zuhra” (1945), “Alisher Navoiy” (1947) filmlarida tarixiy qiyofalar aynan Sharq miniatyuralaridagi manzaralarga mos tushadi. Xususan, 1947-yilda Komil Yormatov suratga olgan “Alisher Navoiy” filmida shoir obrazini O‘zbekiston xalq artisti Razzoq Hamroev mahorat bilan ijro etgan.² Rejissyor shoirning ekrandagi qiyofasini yaratishda Mahmud Muzahhib tomonidan 1500-yillarda yaratilgan Navoiy miniatyurasiga murojaat qiladi. Buni filmdagi va miniatyuradagi obrazlar uyg‘unligi orqali yaqqol ko‘rish mumkin.

Shuningdek, sovet yillarida yaratilgan “Abu Ali ibn Sino” (1956), “Ulug‘bek yulduzi”, “O‘tkan kunlar” (1969), “Semurg‘” (1971), “Abu Rayhon Beruniy” (1974), “Dahoning yoshligi” (1982) filmlarida Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek singari tarixiy shaxslar obrazlarini yaratishda qadimiy manbalar, xususan miniatyuralardan foydalanilgani aniq.

Zotan, ibn Sinoning o‘nlab suratlari hali uning hayotligidayoq chizilgan. Nizomiy Aruzi Samarqandiy “Chor maqola” risolasida Mahmud G‘aznaviy (999–1030) mashhur olim va hakim Abu Ali ibn Sinoni (980-1037) qidirtirgani haqidagi hikoya uchraydi. G‘aznaviylar hukmdori Xorazmga elchi jo‘natib, o‘sha paytlarda Ma‘mun akademiyasida faoliyat ko‘rsatayotgan ulug‘ hakimni o‘z huzuriga chorlaydi. Ammo negalir Ibn Sino hukmdor huzuriga borishni istamay, Xorazmdan chiqib ketadi. Mahmud G‘aznaviy mashhur matematik rassom Abu Nasr Arroqqa Ibn Sino portretini chizishni va undan 40 nusxa ko‘chirtirib, mamlakatning turli hududlariga jo‘natishni buyuradi. Bu paytda Gurgonga kelib qolgan Ibn Sino shahar hokimi Qobus ibn Vushmagirning jiyanini ishq dardidan davolaydi. Suratlardan biri Qobusning qo‘lida edi. Shu sababli u Ibn Sinoni tanib qoladi, ammo jiyanini davolagani uchun uni sulton Mahmudga topshirish fikridan voz kechadi. Ayni paytda mazkur kitobning Sherozda, temuriylar davrida XV asrda ko‘chirilgan nusxasining 43b-44a sahifalarida Ibn Sinoning Gelon hokimi Qobus ibn Vashimgirning jiyanini ishq dardidan davolayotgani tasvirlangan.³

¹ Мирзиёев Ш. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини ривожлантиришнинг мустаҳкам пойдеворидир // “Жаҳон адабиёти” журнали. 2017 йил, сентябрь №9.

² <https://www.kino-teatr.ru/kino/movie/sov/12107/titr/>

³ Низами Арузи Самарканди. Собрание редкостей или Четыре беседы. – Москва: Наука, 1963, - Стр. 114.

Beruniy surati o'rta asr manbalarida va miniatyuralarida uchramasa-da, alomaning 1000 yilligi arafasida uning turli portretlari ishlandi, uning surati maxsus pochta markalarida chop etildi. 1972-yilda o'zbek musavviri Qutlug' Basharov ishlagan Abu Rayhon Beruniy portreti olimning keyinchalik ishlangan suratlari, kino va videofilmlardagi qiyofalari uchun ikonografiya vazifasini o'tab kelmoqda. Rassom bu qiyofani yaratishda o'rta asrlarga xos olimlar va mutafakkirlarning umumiy ikonografiyasiga tayangan, deyishimiz mumkin.

Shu bois, o'tgan olti yil mobaynida O'zbekiston tarixi, xalqimizning mashhur sarkardalari, olim va mutafakkirlari, buyuk shaxslari haqida "Elparvar" (2018), "Imom at-Termiziy" (2019), "Avloniy", (2019) "Qo'qon shamoli" (2019), "Ibrat" (2020), "Muqimiy" (2021) singari badiiy filmlar suratga olindi. O'zbek adabiyotining 24 nafar zabardast vakili hayoti va ijodi haqida hikoya qiluvchi 24 qismli hujjatli kinoserial yaratildi. Bu serialda Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Rizo Ogahiy, Muqimiy, Furqat singari shoirlar haqida hikoya qilinadi.¹

So'nggi yillarda o'zbek animatorlari tomonidan xalq ertaklari, o'zbek klassik adabiyoti namunalari asosida, shuningdek tarixiy shaxslar hayoti haqida hikoya qiluvchi multfilmlar yaratildi. Ular qatorida "Qora saroy" (1997), "Zardusht" (2006), "Spitamen" (2010), "Sher ila Durroj" (2020), "Farhod va Shirin" (2010), "Shiroq haqida afsona" (2011), "Qari bilganni pari bilmas" (2011) singari multfilmlarni sanab o'tish mumkin.

Biz yuqorida tilga olgan filmlarni yaratish jarayonida kinoijodkorlar uzoq izlanishlar olib borishgan. Ayniqsa, tarixiy shaxslar va adabiy qahramonlar qiyofasini yaratishda qadimiy qo'lyozmalar, muzey eksponatlari, qo'lyozma manbalardan foydalanishgan. Buni ushbu filmlarni suratga olgan rejissyorlarning o'zlari ham e'tirof etishadi.

Masalan, 2019-yilda rejissyor Abduvohid G'aniyev tomonidan "Kinomaniya" studiyasida suratga olingan "Elparvar" badiiy filmi XIII asrda Markaziy Osiyoning mo'g'ullar tomonidan istilo qilinishi bilan bog'liq tarixiy voqealarni aks ettiradi. Filmدا aniq tarixiy shaxslar ko'rsatilmagan bo'lsa-da, uning syujeti uchun Chingizxon qo'shinlari tomonidan Xorazmshoh davlatining bosib olinishi ko'rsatilgan. Film lokatsiyalari, dekoratsiyalari, liboslar, qahramonlarning tarixiy qiyofasini tasvirlashda film ijodkorlari Sharq miniatyuralariga murojaat qilishgan.

Ma'lumki, Sharq qo'lyozmalarida mo'g'ullar bosqini Shahobiddin an-Nasaviy, Ibn al-Asir, Atomalik Juvayniy, Rashiddin Fazlulloh, Mirzo Ulug'bek, Abulg'oziy singari o'rta asr tarixchilari asarlarida batafsil yoritilgan. Shuningdek,

¹ Жабборов Р. Тошкент кинофестивали элларни ва дилларни бирлаштиради// "Халк сўзи" газетаси, 2022 йил, 24 сентябрь.

bir qator qo'lyozmalardagi miniatyuralarda mo'g'ul askarlari va ularga qarshi jang qilgan xorazmshohlar tasviri o'rin olgan.

“Sirot as-Sulton Jaloliddin Manguberdi” (“Sulton Jaloliddin Manguberding y
u
zri aks etgan ikkita tarixiy miniatyura ma'lum. Birinchi miniatyura 1540-yilda Samarqandda ko'chirilgani taxmin qilingan “Tarixi Abulxayxoniy” asaridan o'rin olgan. Asarda Abulxayrxon davlatiga asos solgan va XVI asr boshida qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz.

b Samarqandlik musavvir an-Nasaviy ma'lumotlariga tayanib, sultonning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatishga intilmaydi, rassom uchun asosiysi uning jasoratga to'la siymosini narigi qirg'oqda hayrat bilan unga qarab turgan Chingizxon boshchiligidagi dushmanning butun bir qo'shiniga qarama-qarshi qo'yadi. Ushbu qo'lyozma O'zbekiston Fanlar akademiyasining sharqshunoslik

k
yillarda Hindistonda Boburiylar davrida yaratilgan, Mirxond qalamiga mansub deb taxmin qilingan “Chingizxonoma” asaridagi suratdir. Unda Sulton Jaloliddin Manguberdi Sind daryosining suvlarini kechib o'tish uchun hech qo'rqmasdan, o'z oti bilan daryoga tashlangan payti tasvirlangan. Narigi qirg'oqdagi Chingizxon askarlari uni quvib yetish haqidagi buyruqni

'
Bu tasvirlardan o'zbek kinoustalari tomonidan turkilyalik hamkorlar bilan birga 2020-2022-yillarda suratga olingan “Mendirman Jaloliddin” serialida ham foydalanilgan.

l
i 2021-yilda Kinematografiya agentligi buyurtmasiga asosan, “Astir Animation” kinostudiyasi tomonidan suratga olingan “Xasis baqqol” multfilmi efirga chiqdi. Mazkur film Alisher Navoiyning “Lisonut-tayr” (Qush tili) dostonidagi bir kichik hikoya asosida suratga olingan. Hikoyada bir xasis savdogar tilla tangalarga haddan tashqari o'chgili, xasislik sabab insoniy qiyofasini yo'qotgani bois ayanchli qismatga duchor bo'lgani aks etadi.²

a
l Rejissyor filmni suratga olishda Kinematografiya agentligi Badiiy kengashi tomonidan rejissyor Abdulatif Haydarovga Alisher Navoiy asarlariga ishlangan

a
f

f Шихаб ад-Дин Мухаммад ибн Ахмад ан-Насави. Сират ас-султан Джалал ад-Дин Манкбурны: (Жизнеописание султана Джалал ад-Дина Манкбурны). Критич. текст, пер. с араб., предисл., коммент., примеч. и указатели З. М. Буниятова. Москва: Восточная литература, 1996. - С.288

² Алишер Навои. Язык птиц. Перевод С.Иванова. – Санкт-Петербург: Наука, 1993. – Стр. 141.

u

r

k



miniatyuralardan foydalanish tavsiya etilgan edi. Rejissyor multfilmni Sharq miniatyuralari uslubida qayta ishladi. Filmida o'sha davrdagi Sharq shaharlari, bozorlari, odamlarning kiyim-kechaklari va tashqi ko'rinishi aynan o'rta asr miniatyuralaridan olingan.

Ayni paytda tojikistonlik kinoijodkorlar bilan hamkorlikda suratga olinayotgan "Jomiy va Navoiy" badiiy filmi o'zbek va tojik xalqlarining buyuk mutafakkirlari – Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy o'rtasidagi do'stlik haqida hikoya qiladi. Film ssenariysida asar voqealarini jonlantirishda o'rta asr miniatyuralaridan unumli foydalanish alohida ko'rsatib o'tilgan. Jumladan, filmida mashhur rassom Kamoliddin Behzod ijodiga ham alohida e'tibor qaratiladi. Zotan, musavvir chizgan asarlar orasida bog'dagi bir guruh donishmand olimlar davrasi markazida Navoiy va Jomiy bir-biri bilan suhbatlashib turgani tasvirlangan.

Shu kunlarda "Hujjatli va xronikal filmlar studiyasi" tomonidan taniqli jurnalist Shahnoza G'aniyeva rejissyorligida va muallifligida suratga olingan "Kamoliddin Behzod" hujjatli filmida ham Sharq miniatyura san'ati, shuningdek, Behzod maktabi an'alariga alohida e'tibor qaratildi.

Umuman olganda, Sharq tarixi va taniqli siymolari haqida film yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan har qanday ijodkor miniatyuralarni chuqur o'rganishi, ulardan o'sha davr haqidagi muayyan tushunchalarni hosil qilishi lozim. Buning uchun oliy o'quv yurtlarida kinematografiya darslarida, xususan kino rassomlarini tayyorlashda Sharq miniatyura san'ati chuqur o'rgatilishi kerak. Chunki miniatyura san'atida tarix, o'tmishdagi ajdodlarimizning hayot tarzi, an'analari, intilishlari aks etib turadi.

TARIX

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK DIPLOMATIYANING OROLNI QUTQARISH XALQARO JAMG‘ARMASIDAGI O‘RNI VA ROLI



**ISMOIL
NURMETOV,
UrDU dotsenti,
tarix fanlari
bo‘yicha falsafa
doktori**

UO‘K 811.512.133’373.2:254.2-24

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada Markaziy Osiyo davlatlarining Orol dengizi va unga bog‘liq ekologik vaziyat, uni bartaraf qilishdagi xalqaro hamkorligi masalalari tahlil etilgan.*

***Аннотация:** В статье анализируются вопросы международного сотрудничества стран Центральной Азии по проблемам Аральского моря и связанной с этим экологической ситуации, а также по ее устранению.*

***Annotation:** This article analyzes the issues of international cooperation between the Central Asian countries in the Aral Sea and the related environmental situation, as well as in its elimination.*

***Kalit so‘zlar:** Markaziy Osiyo, Sirdaryo, Suv xo‘jaligi boshqarmasi (SXB), “Amudaryo” SXB ijroiya organlari, ODHD-3, Mo‘ynoq, Ribache, Jiltirbas suv omborlari.*

***Ключевые слова:** Центральная Азия, Сырдарьинское управление водного хозяйства (СУВХ), исполнительные органы Амударьинского управления водного хозяйства, ОДГХ-3, Муйнакское, Рыбачье, Жилтырбасское водохранилища.*

***The keywords:** Central Asia, Syrdarya Water Management Department (SWD), executive bodies of the Amu Darya Water Management Department, ODHD-3, Muynak, Rybache, Zhiltyrbas reservoirs.*

Suv muammosi Markaziy Osiyo xalqlarining asosiy masalalaridan biri bo‘lib kelgan. Odamlarning aql-zakovati bilan daryolardan unumli foydalanishga e‘tibor qaratilib, aholini suv bilan ta‘minlash maqsadida kanallar qazilgan, chekkaroq joylar ham tabiiy suv bilan ta‘minlangan va obod qilingan. Bunga tarixiy obidalar qatoridan joy olgan sardobalarni misol keltirish mumkin. E‘tiborli jihati, qadimdan aniq hisob-kitoblar asosida sug‘orishning mukammal tizimi yaratilgan bo‘lib, shu orqali keng dalalarga suvni kanal va ariqlar yordamida, ortiqcha xarajatlarsiz yetkazish imkoniyati bo‘lgan.

XX asrning ikkinchi yarmida ro'y bergan Orol dengizi inqirozi Markaziy Osiyo davlatlari uchun eng katta ekologik muammo hisoblanadi. Orol dengizi havzasida Markaziy Osiyoning 5 ta respublikasi joylashgan bo'lib, hududi 1550 ming km²ni tashkil etgani holda, sug'oriladigan maydonlar 7,95 mln gektarga teng. Mintaqada tiklanadigan suv resurslari hajmi yiliga o'rtacha 118-120 km³ni tashkil etadi. Ularning asosiy tarkibi Amudaryo, Sirdaryo suvlari hamda er osti suv zahiralar (14,7 km³)dan iborat. Suv omborlari hajmi - 60 km³ga teng[1]. Dengiz havzasida Orol dengiziga quyiladigan umumiy suv resurslarining 55,4 foizi -Tojikiston hududida, 25,3 foizi - Qirg'izistonda, 7,6 foizi - O'zbekistonda, 3,9 foizi - Qozog'istonda, 2,4 foizi - Turkmanistonda, qolgan 5,4 foizi - Afg'oniston hamda qisman Xitoy va Pokiston davlatlarida shakllanadi[2].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishning ijtimoiy-siyosiy jihatlariga bag'ishlangan qator ishlarda esa mamlakatda mavjud ekologik vaziyat, ekologik muammolarning kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish omillari xususida fikr yuritilishi bilan birga, davlat ekologik siyosatining tashqi siyosiy aspektlari ochib berilgan. Bunday ishlarga A.Berdimuratova, G.Abdullaeva, Sh.Fayziev, E.Usmanov, B.Bekimbetov, S.Davletov, B.Omonov, S.Turayevalarning tadqiqotlarini kiritgan holda, ularning muammoni o'rganishdagi ilmiy-uslubiy ahamiyati kattaligini ta'kidlash lozim.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy tahlil usullari qo'llanildi. Bugungi kunda dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari natijasida paydo bo'layotgan global, mintaqaviy va milliy ekologik xavflardan davlatni, jamiyatni va har bir fuqaroni himoya qilishga yo'naltirilgan O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati bevosita xalqaro hamkorlik masalalariga yo'naltirilgan. Zero, suv resurslari, daryolardan foydalanish, atrof-muhitni ifloslanishlardan himoya qilish, chegaralar delimitatsiyasi va boshqa masalalarda murosaning yo'qligi yillar davomida kelishmovchiliklarga sabab bo'lgan edi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Mintaqaning mustaqil davlatlari rahbarlari boshidanoq Orol dengizi va unga bog'liq ekologik ofatga e'tibor qaratdilar. Ular ushbu hodisa bilan yakka o'zlari kurashishlari mumkin emasligini anglab, bu vaziyatdan chiqish yo'llarini topish uchun o'zaro maslahatlasha boshladilar. Allaqachon, 1992-1993-yillarda Markaziy Osiyo "beshligini" birlashtirgan masalalar ham paydo bo'ldi, masalan, suvdan foydalanish sohasida besh tomonlama tuzilmalar yaratildi[3].

Muzokaralar natijasida, 1992-yil 18-fevralda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston davlatlari kelishuviga asosan, davlatlararo suv resurslari manbalaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishni birgalikda boshqarish to‘g‘risida bitim imzolandi[4]. Ushbu shartnoma doirasida “Sirdaryo” Suv xo‘jaligi boshqarmasi (SXB), “Amudaryo” SXB ijroiya organlari, Ilmiy axborot markazi (IAM) va Kotibiyat bilan Davlatlararo suv xo‘jaligini muvofiqlashtiruvchi komissiyasi (DSXMK) tuzildi.

Komissiya qariyb 30 yillik faoliyati davomida mintaqadagi suv xo‘jaligi siyosati, mintaq suv resurslaridan kompleks va oqilona foydalanish, uzoq muddatga mo‘ljallangan suv ta‘minoti dasturi, mintaqadagi har bir respublikaning suvdan foydalanishi uchun yillik me‘yorlarni ishlab chiqish bilan shug‘ullanib kelmoqda[5].

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining qaroriga (1993-yil mart) asosan, DSXMK va uning bo‘limlari Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi tarkibiga kirdi va xalqaro tashkilot maqomiga ega bo‘ldi[6]. Komissiya zimmasiga suv resurslari taqsimotini tashkillashtirish hamda suv berish va suv o‘tkazish grafiklari, suv sifati bo‘yicha qabul qilingan qarorlarni zudlik bilan amalga oshirish kabi vazifalar yuklatildi. Komissiyaning Ilmiy-axborot markazi sohaga oid ma‘lumot va axborotlarni yig‘ish, tahlil etish, ilmiy tadqiqotlar olib borish, uni keng jamoatchilikka etkazish kabi vazifalarni bajaradigan bo‘ldi.

Shuni ta‘kidlash joizki, aynan OQXJ faoliyati doirasida Orolbo‘yi mintaqasilda sog‘lom ekologik muhitni yaratish, mintaq aholisining genofondini saqlash va sog‘lom turmush tarzini ta‘minlash maqsadida bir qator loyihalar amalga oshirildi. Buning yaqqol misoli sifatida “Orol dengizining havzasida ekologik ahvolni yaxshilash bo‘yicha aniq harakatlar dasturi” (ODHD-1) qabul qilinib, 1995-yildan 2003-yilgacha amalga oshirildi[7]. Dasturning birinchi bosqichida Jahon bankining texnik va moliyaviy ko‘magi bilan to‘qqizta dastur amalga oshirildi. “ODHD-1” dasturining ikkinchi bosqichi sifatida suv resurslari va atrof-muhitni boshqarish loyihasi 1998-2003-yillarda Global ekologik fond, Niderlandiya va Shvetsiya hukumatlari mablag‘lari hisobidan amalga oshirildi.

Keyingi yillarda bu dastur uzviy ravishda davom ettirildi va moliyaviy yordam miqdori hamda dastur ko‘lami bevosita kengaytirildi. Jumladan, “ODHD-2” dasturi mintaq davlat rahbarlarining Dushanbeda 2002-yil 6-oktyabrda qabul qilingan qaroriga muvofiq ishlab chiqildi. Amalga oshirish muddati 2003-2010-yillarni, umumiy qiymati 1 933,9 million AQSH dollarini tashkil etdi. ODHD-2 dasturi OQHJ Kengashi tomonidan 2003-yil 28-avgustda tasdiqlanib, dastur quyidagi o‘n to‘rt ustuvor yo‘nalishni o‘z ichiga olgan.

Dastur doirasida Markaziy Osiyo davlatlarining har biri o'zi uchun aniq, puxta ishlangan reja ishlab chiqdi va shu asosda amaliy harakatlarni davom ettirishga kelishib olindi. Lekin moliviy muammolar sabab dasturda belgilangan loyihalar to'liq belgilangan reja bo'yicha amalga oshirilmagan. OQHJ Ijroiya qo'mitasi (Tojikiston) ma'lumotlariga ko'ra, dastur qisman amalga oshirilgan bo'lib, loyihani asosan mamlakatlarning o'zlari amalga oshirgan va moliyalashtirgan bo'lib, umumiy hajmi qariyb 50 million AQSH dollarini tashkil etgan.

OQHJning Qozog'istondagi Ijroiya Direksiyasi 2002-yildan 2007-yilgacha bo'lgan davrda byudjetdan badallar shaklida 687,95 million tanga (qariyb 4,9 million AQSH dollari) miqdorida mablag' oldi. Ushbu mablag'lar asosan Qizilo'rda viloyatining Orol va Qozali tumanlarining ustuvor ekologik va ijtimoiy muammolarini hal qilishga qaratildi. 2002-2007-yillarda ushbu viloyatda 51 ta loyiha amalga oshirildi.

2002-2007-yillarda OQHJning Qirg'izistondagi Ijroiya Direksiyasiga jami 8,3 million som yoki 230 ming AQSH dollari tushdi.

Tojikiston Respublikasida 2002-yildan 2007-yilgacha OQHJ Ijroiya qo'mitasi va uning Tojikiston Respublikasidagi filialiga 2272,30 ming somoniy yoki 1,22 million AQSH dollari miqdorida mablag' ajratdi, ular OQHJ Kengashi yig'ilishlarini, donorlarning to'rtta uchrashuvlarini tashkil etish uchun ajratildi. Turkmanistonda esa 2002-yildan 2007-yilgacha OQHJ Ijroiya qo'mitasining Toshhovuz filiali davlat byudjetidan 52793,83 million manat (10,15 million AQSH dollari) miqdorida mablag' oldi, ular o'z xodimlarini saqlash va Orol dengizi mintaqasining turkman qismining ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik xarakterdagi loyihalari dasturlarni amalga oshirishga yo'naltirildi.

O'zbekiston Respublikasida 2002-2007-yillarda OQHJ Ijroiya Qo'mitasining Nukus filiali suv ta'minoti, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik dasturlar va Orol dengizi mintaqasining O'zbekiston qismining tabiati yaxshilash loyihalarini saqlash va amalga oshirish uchun davlat byudjetidan 15,57 million AQSH dollar miqdorida mablag' oldi. Ushbu dastur bo'yicha O'zbekistondagi eng yirik loyihalardan biri O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 10-apreldagi № 03/105-406-sonli buyrug'i asosida boshlangan. 2003-yilda "UzGIP" MCHJ Amudaryo deltasida kichik mahalliy suv havzalarini yaratish bo'yicha texnik-iqtisodiy asosni ishlab chiqdi. Loyihaning I bosqichi doirasida Mejdureche, Mo'ynoq, Ribache suv omborlari va Jiltirbas suv omborlarida asosiy inshootlar qurilishi ta'minlandi[8]. Ushbu ishlarning 2004-2008-yillarda amalga oshirilishi natijasida Mejdureche suv omborini 200 million m³ gacha, Jiltirbas suv omborini 161 million m³ gacha to'ldirishga, shuningdek

Mo'ynoq va Ribache suv omborlarini suv bilan ta'minlashni yaxshilashga imkon berdi. Loyihani amalga oshirish uchun 2000-2012-yillarda O'zbekiston davlat byudjetidan 11 399,1 million so'm (6,1 million AQSH dollari) miqdorida mablag' ajratildi va sarflandi.

2003-2008-yillarda OQHJ Ijroiya Qo'mitasi Tojikistonda loyiha va dasturlarni amalga oshirish uchun jami 6,8 million AQSH dollar miqdorida mablag' jalb qildi. Ushbu loyihalar mintaqaviy darajada suv resurslarini boshqarishni qo'llab-quvvatlashga, ularni samarali boshqarish uchun havzaviy tashkilotlarning salohiyatini oshirishga qaratilgan. Mintaqaviy gidrologiya markazi mintaqada davlatlari o'rtasida prognozlash tizimini va ma'lumotlar almashinuvini takomillashtirish uchun tashkil etilgan.

Umuman olganda, Markaziy Osiyo mamlakatlari doimo Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi doirasida hamkorlik qilib kelmoqdalar. Darhaqiqat, 1992-yildan to hozirgi kungacha hamkorlik tezligining ayrim vaqtlar pasayishi kuzatilgan bo'lsa-da, hamkorlikda bironta ham uzoq tanaffus bo'lmagan.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan qo'shni mamlakatlar bilan bevosita hamkorlik siyosati mintaqaviy hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar oynasini ochdi. Bugungi kunda OQXJ mintaqada davlatlarini suvdan foydalanish va barqaror rivojlanish masalalarida birlashtirgan mintaqaviy tuzilma bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Jamg'armani Orol dengizi inqirozining salbiy oqibatlarini kamaytirish bo'yicha qo'shma tashabbuslar, dasturlar va loyihalarni amalga oshirishning haqiqiy platformasi deb biladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Jahon sivilizatsiyalari tarixida o'ziga xos o'rin tutadigan, tabiiy va mehnat resurslariga boy Markaziy Osiyo sayyoramizning muhim mintaqalaridan biri sanaladi. XX asr oxirida ushbu mintaqada bir qator ekologik muammolar majmui shakllandi. Ayniqsa, Orol va Orolbo'yi muammolari mintaqada yaqqol namoyon bo'ldi.

Markaziy Osiyoning yangi iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy va siyosiy realliklari sharoitida suv, er, mineral resurslari barqaror mintaqaviy rivojlanishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, ayniqsa, yaqin kelajakda mintaqada rivojlanish ko'p jihatdan mavjud suv resurslari, ularning miqdoriy va sifatli holati, suv resurslariga bo'lgan ehtiyoj, suvdan foydalanish darajasi va jamiyatning suvga bo'lgan munosabati, suvdan foydalanish madaniyati bilan bog'liq bo'ladi.

Markaziy Osiyo quyosh energiyasi resurslari borasida ulkan salohiyatga ega. Ammo energiyadan samarali foydalanilmayapti. Qazib olinadigan yonilg'ilarning ulkan zahiralari mavjud, iqtisodiy energiya sig'imining yuqori darajasi, energetika infratuzilmasi eskirayotganligi bilan bog'liq muammolar kuzatiladi.

Hozirgi va kelajak avlodlarning turmush tarzi sifatini yaxshilash uchun munosib iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy rivojlanishni nazarda tutgan barqaror rivojlanish g'oyalari mintaqa mamlakatlarida katta tushunish va qo'llab-quvvatlashga ega bo'ldi. Mintaqada OQXJ Ijroiya qo'mitasi, Barqaror rivojlanish bo'yicha davlatlararo komissiya, Suv resurslarini muvofiqlashtirish bo'yicha davlatlararo komissiya va Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik markazi kabi mintaqaviy tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan mintaqaviy harakatlar va tashabbuslar amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Рахимов Ш.Х., Хамраев Ш.Р. Водные ресурсы в бассейне Арала // Экология и статистика. Сб. статей, (www.ireco.rii).
2. Водные ресурсы бассейна Аральского моря. 06.06.2009. <http://ee-ifas.org/index.php/ru/2010-05-17>
3. Троицкий Е.Ф. Центральная Азия в системе международных отношений (1992 - 2009 гг.): Автореф. дисс. д.и.н., – Томск, 2010. – С. 16.
4. Agreement between the Republic of Kazakhstan, the Kyrgyz Republic, the Republic of Tajikistan, Turkmenistan and the Republic of Uzbekistan on Cooperation in the Field of Joint Management on Utilization and Protection of Water Resources from Interstate Sources//www.icwc-aral.uz/statute1.htm.
5. Абдуллаев И. Марказий Осиёдаги сув муносабатлари: тарих ва истиқбол. 2.06.2020 // www.uzanalytics.com.
6. ЎзМА, М-114-фонд, 1-рўйхат, 123-йиғма жилд, 55-варақ.
7. ЎзМА, М-114-фонд, 1-рўйхат, 123-йиғма жилд, 56-варақ
8. Шеров А., Ризаева В. Табиий ресурсларни оқилона бошқариш – атроф-муҳит муҳофазасининг устувор йўналиши // Экология хабарномаси, 2017. – № 6. – Б. 5.

FILOLOGIYA

XORAZM TURKIY TARIXNAVISLIGI MANBALARIDA ERONIY QATLAM SO‘ZLARI



**Madamin
ESHMURODOV,**

**Urganch innovatsion
universiteti rektori,
filologiya fanlari
doktori, dotsent.**

**Turon Fanlar
akademiyasi
akademigi**

UO‘K 811.512.133’373.2:254.2-24

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm turkiy tarixnavisligi manbalarida qayd etilgan eroniy qatlam so‘zlari tahlil qilinadi. Ushbu so‘zlarning davlatchilik terminologiyasidagi tarixiy ildizlari tadqiq etiladi.

Аннотация: В статье анализируются слова иранского пласта, зафиксированные в источниках тюркской историографии Хорезма. Исследуются исторические корни этих слов в терминологии государственности.

Annotation: This article analyzes the words of the Iranian layer recorded in the sources of Khorezm Turkic historiography. The historical roots of these words in the terminology of statehood are explored.

Kalit so‘zlar: Xorazm, eroniylar, Eron, davlat, boshqaruv tuzilmasi, Xiva xonligi, tarixiy asar, hukmdor.

Ключевые слова: Хорезм, иранцы, Иран, государство, административное устройство, Хивинское ханство, историческое сочинение, правитель.

The keywords: Khorezm, Iranians, Iran, state, administrative structure, Khiva Khanate, historical work, ruler.

Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalar leksikasida eroniy qatlam eng salmoqli o‘rin tutuvchi qatlam hisoblanadi. Chunki tarixiy asar yozish an‘analariga ko‘ra, hamd, na‘t, xonlarga qasida va maqto‘v qismlarining alohida ahamiyatga molikligi ushbu o‘rinlarda qofiyali nashrdan foydalanish an‘ana tusiga kirganligi, yuqori pafos bilan yozilgan o‘rinlarda badiiy-tasviriy vositalar yuzaga chiqishiga berilgan e‘tibor hamda, albatta Ogahiy tarjimashunoslik maktabining o‘rni va ahamiyatini alohida ta‘kidlash zarur. Bu davrda muarrixlar nafaqat o‘zlari tarixiy asar, solnomalar yozdilar, balki fors tilidan o‘nlab asarlarni turkiy tilga tarjima ham qildilar. Ushbu fors tilidagi tarixiy asarlarni tarjima qilish jarayonida muarrixlarning ulardan ijodiy foydalanishlari va ulardan ilhomlanganliklari ham tabiiy holatdir. Shu nuqtai nazardan Xorazm turkiy

tarixnavisligiga oid manbalar leksikasida eroniy qatlamga mansub davlatchilik atamaları ko‘p qo‘llangan. Quyida ana shu guruhga oid davlatchilik atamalaridan ayrimlarining tarixiy-lingvistik izohlarini keltirib o‘tamiz.

Devon – mirza, kotib, ish yurituvchi. Xon huzurida maxsus devon bo‘lib, u xonning rasmiy kotibi hisoblangan. “Mamlakatda asosiy boj-xiroj yig‘uvchilar devonbegilar, qushbegi va mehtar hisoblanadi. Ularning har qaysi birida o‘z mahkamasi va ularda uch-to‘rttadan devonlari, ular orasidan biri boshliq bo‘ladi. Devonlar kirim va chiqim daftarlarini yurgizadilar”. Devon (mirza)lar 4 tildan 15 tillagacha maosh olishgan.

Kadxudo (forscha) - qishloq oqsoqoli, boshliq, rahbar degan ma‘nolarni ifodalaydi. So‘nggi o‘rta asrlarda Xiva xonligida mavjud bo‘lgan urug‘ boshliqlari lavozimi.

Ulamolar va darveshlik tariqatlarining rahnamolari bo‘lgan eshonlar alohida guruhni tashkil etishgan.

Sarhang – qal’a atrofida mudofaa istehkomlarini qurish va hozirligi uchun javobgar shaxslar, ya’ni istehkom nazoratchisi. XIX asrda Xiva xonligida qo‘llanadigan harbiy tarixiy atama. O‘sha davrda xonlikdagi qal’alar atrofiga dushman otliqlari yo‘lini to‘shish maqsadida yog‘och qoziqlar qoqilgan. Mazkur vazifani bajaruvchilarga rahbarlik qilgan shaxs sarhang deb atalgan. Yuzboshilar ro‘yxatida sarhanglarni uchratamiz.

Sarkarda – qo‘mondon, lashkarboshi. Urush vaqtidagi harbiy boshliq, bu mansab qo‘shin urush safariga chiqqan davrda tuziladi. Manbalardan ma’lum bo‘lishicha, sarkardalar, qoida bo‘yicha, o‘z urug‘laridan tayinlanmasdi. Xonlar buni ehtiyotkorlik deb hisoblagan bo‘lsalar kerak. Mingboshi va yuzboshilar singari sarkardalar ham bevosita xonning yorlig‘i bilan tayinlanar edi.

Sarkarda harbiy mahkama kishilari bo‘lmasligi ham mumkin edi. Masalan, miroblar sarkarda bo‘lishi mumkin edi.

Garchi Xiva xonligida qo‘shin bosh bo‘limi bo‘lmasa-da, lekin vazifasi jihatidan shtab boshlig‘iga o‘xshash mansab bor edi, bu vazifani **naqib** bajarar edi.

Navkar – xon, podshoh, sulton va yirik feodallarning doimiy harbiy xizmatchisi. Navkarlar asosan hukmdorlarning mol-mulkini qo‘riqlashgan va harbiy yurishlarda ishtirok etgan.

Navkarlarning ko‘pida jangda minadigan ot bo‘lgan. Ularga qurolni davlat bergan, buning uchun maxsus soliq solingan¹. Soliq miqdori oltin hisobida 60 tiyin bo‘lgan.

¹ Баёний. Хоразм тарихи, 247^a вар.

Yurishda navkarlar birgalashib, **“qo‘shin”** tashkil etgan, bularda bitta-ikkitadan tuya bo‘lgan, tuyaga qo‘shinning barcha qurol-aslahasi: gilam, ko‘rpa, kiyim-bosh, idish-tovoq, qozon, suv solingan idish, oziq-ovqat, porox va shu kabilar ortilgan. Tayyorgarlikni tamom qilgan navkarlar bek boshchiligida qal’a yoniga jangovar saf tortib chiqqanlar. O‘zbek navkarlaridan tashqari, turkman, jamshid, qoraqalpoq va Orol o‘zbeklari qabilasining navkarlari ham qal’ada shu tartibda saf tortib turganlar.

Xon va xon xonadonining a’zolari o‘zlarini ko‘p sonli otryadlariga ega bo‘lganlar. Bayoniy Xiva xoni Muhammadaminning safarga chiqishini tasvirlar ekan, xon oldidan ungacha hukmronlik qilgan barcha qo‘ng‘irotlarning, so‘ngra yovmut, jamshid, qoraqalpoq, orolliklar va shu kabi (jami 25 ta) qabilalarning bayroqlarini ko‘tarib o‘tganlarini yozadi.

Bundan tashqari, kam qurollangan shahar va qishloq aholisidan ko‘pgina kishi yurishga safarbar qilingan, ular **“qorachirik”**¹ (ko‘ngilli qo‘shin) deb atalgan.

Katta yurishlar vaqtida turkman va qoraqalpoqlarning birlashgan qo‘shinlariga shu qabilalarning boshlig‘i emas, ehtiyotkorlik uchun xon tomonidan tayinlangan o‘zbeklar boshchilik qilgan².

Navkarlar va tinch aholi safarbar qilingan bunday har yilgi yurishlar Xorazmning tinch yashayotgan aholisiga bo‘lgan harbiy xavfni qaytarish, nafaqat mamlakatni birlashtirish va ichki nizolarni bartaraf etish, balki tinch axaltakaliklarga hujum qilish, Shimoliy Eron viloyatlarini talon-toroj qilish uchun ham uyushtirilar edi.

Urushda qo‘lga tushgan o‘ljaning beshdan biri bevosita xonga tegishli bo‘lgan.

Xiva xonligi qo‘shinidagi qurol-aslahalar quyidagicha bo‘lgan:

Navkarlar – qilich, nayza, xanjar, ba’zan shamshir bilan qurollanar edilar. XIX asrning ikkinchi yarmida Xiva askarlari turli xil miltiqlar, to‘p va sovuq qurol-aslahalar bilan qurollanganlar. Manbalardan olingan ma’lumotlarga qaraganda, ular chaqmoqli, piltali hamda poroxli miltiq va to‘pponchalar bilan ham qurollangan edilar. Manbalar va muzey fondlaridagi hujjatlarda ta’kidlanishicha, Xiva qo‘shinlaridagi askarlar sovut, dubulg‘a, qilich, qalqon, pichoq, oybolta, nayza, yoy va o‘q, shoshpar, xanjar, bolta, borutdon, kamar hamda Yevropada ishlab chiqilgan beshotar va oltiotar **“berdan”** sistemali miltiqlar bilan qurollangan edilar.

¹ Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий, 335^a вар.

² Баёний. Хоразм тарихи, 333^b, 334^a вар.

“1324-yil 22-jumod us-soniy Sayid Islomjo‘ja 300 navkarni saylab olgandan so‘ng ularga katta miqdorda pul va qurol bergan. Shu navkarlarga “Berdan” sistemali **“beshotar”** va **“oltiotar”** hamda qilichlar berilgan. Shu hujjat ma‘lumotlariga qaraganda, jami 368 ta “Berdan” sistemali qurol berilgan”¹.

Markazlashgan davlat boshqarmasi organi xon saroyida, ya‘ni XIX asrda Oллоhqulixon tomonidan solingan Toshhovlida joylashgan edi. Toshhovli saroyi faqat xonning va bola-chaqasining turar joyigina bo‘lmasdan, balki xonlikni boshqarish markazi ham edi. Bu yerda ham qonun chiqaruvchi, ham ijro etuvchi hokimiyat organlari joylashgan edi.

Qonunchilik, sud va ma‘muriy hokimiyat, soliq, moliya va harbiy tuzilish hamda turli mahkamalar to‘g‘risidagi yuqorida keltirilgan ma‘lumotlardan kelib chiqib, XIX asrdagi Xiva xonligi markazlashgan davlatlar jumlasiga kirishiga amin bo‘lamiz.

Xonlikdagi barcha davlat boshqaruv idoralari va rasmiy davlat hayoti Xiva shahridagi xon saroyida mujassamlashgan.

Davlat mansablari ma‘muriy, diniy va harbiy lavozimlarga bo‘linar edi. Bu vazifalarni bajaruvchilarga davlat tomonidan tegishli maosh va mukofotlar berilgan².

XIX asrda Xivada moliya-soliq, harbiy va boshqa mahkamalar juda muntazam amal qilardilar.

Mehtar, qushbegi va devonbegilar boshliq bo‘lgan markaziy moliya-soliq mahkamasining tuzilishi juda muntazam edi. Bu tuzilish shu mahkamaning o‘z vazifalarini yaxshi bajarishni ta‘minlardi. Ushbu mahkama turli-tuman soliq to‘lovchi tabaqalarning hisobini olish, soliq solish va soliqlarni yig‘ib olishda juda samarali ishlardi. Mahkama idorasi hashar ishlariga ham boshchilik qilardi.

XIX asrda Xiva xonligida harbiy tuzilish tizimi ham birmuncha yangilandi. Qo‘shinning asosiy qismini navkarlar tashkil qildi. Muntazam qo‘shinning bo‘linmalari kuchaytirildi.

Demak, XIX asrning birinchi choragi Xiva xonligi tarixida muhim o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Xiva xoni Muhammadrahimxon o‘tkazgan islohotlar tufayli davlat hokimiyati markazlashdi. Ma‘muriy boshqarishning ancha takomillashgan tizimi qaror topdi, xonlikning iqtisodiy va harbiy qudrati mustahkamlandi. Lekin bu jarayon uzoqqa bormadi. 1873-yilda Xiva xonligi ham O‘rta Osiyoning boshqa xonliklari qatori, chor Rossiyasi qo‘shinlari tomonidan bosib olindi. Xiva xonligi chorizmning sof mustamlakasi bo‘lib qoldi. Xonning butun faoliyati Rossiya hukumati nazorati ostiga o‘tdi. Xonning muntazam harbiy

¹ Ўз.МДА, ф — I – 125, рўйхат 1, йиғма жилд 515.

² Madamin Eshmurodov. Xorazm manbalarida davlatchilik tarixi. Monografiya. Xorazm. “Ogahiy” nashriyoti. 2024. 40-bet. https://www.uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/3.pdf

qo‘shinlari tarqatib yuborildi. Xivada maxsus rus qo‘shinlari saqlandi. Xonlikning moliyaviy ishlari, soliq tizimi va xazinasini rus harbiylari nazorati ostiga olindi. Oliy Kengash ishida ham rus ofitserlari qatnashadigan bo‘ldi. Hukumat lavozimlariga ham ular ma‘qullagan amaldorlarga tayinlangan. Xiva xoni davlatni idora qilishda o‘z mustaqilligidan batamom mahrum bo‘lgan edi¹.

Sardor – O‘rta Osiyo xonliklarida xon qo‘shini qo‘mondoni, xalq lashkarboshisi. Xiva xonlariga tobe bo‘lgan ko‘chmanchi turkman, qoraqalpoq, qozoq aholisi qabila va urug‘lari tomonidan saylangan shaxs. Bu unvon ham harbiy-ma‘muriy vazifalarga ega bo‘lgan².

Davlat hokimiyati sudlar, qamoqxonalari va boshqalar kabi faqat zo‘rlash muassasalaridagina iborat emas edi, hokimiyat qurolli kishilardan, ya‘ni mirshablik, armiyadan ham iborat edi.

Mirshab – 1. Tungi soqchi, tungi soqchilarning boshlig‘i. 2. O‘rta Osiyo xonliklari shaharlarida jamoat tartibini saqlovchi lavozim bo‘lib, odatda shaharning kechki xo‘jayini (miri-shab) deb ham yuritilgan. Mirshab asosan o‘z ishiga kechqurun soat 6 dan keyin kirishgan, chunki bu davrda barcha shahar bozorlari yopilib, bir soatdan so‘ng shahar darvozalari berkitilib, shahar suv quyganday jim-jit bo‘lgan. Mana shu vaqtdan boshlab, hech kim uyidan chiqmasligi va shahar ko‘chalarida yurmasliklari kerak bo‘lgan. Ushbu qoidani buzgan barcha shaxslar mirshablar tomonidan ushlanib, mirshabxonaga keltirilgan.

Tadqiqotchi S.Saburova aniqlashicha, Xivada turli-tuman mirshablar bo‘lgan³:

1. Xiva shahar bosh darvozalarida turuvchi mirshablar. Ular orasida quyidagi darvoza mirshablari bor: a) Pahlavon darvoza mirshablari; b) Shayx darvoza mirshablari; v) Mahmud ota darvoza mirshablari; g) Hizir Bobo darvoza mirshablari. Maosh to‘lash ro‘yxatida bu mirshablarning har qaysisi 4 tildan maosh olganligi ko‘rsatilgan. Umuman olganda, mirshablar 4 tildan 44 tillagacha maosh olganlar.

¹ Madamin Eshmurodov. Xorazm manbalarida davlatchilik tarixi Monografiya. Xorazm. “Ogahiy” nashriyoti. 2024. 40-bet. https://www.uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/3.pdf

² Madamin Eshmurodov. Xorazm turkiy tarixnavisligida davlatchilik terminologiyasi. Monografiya. Xorazm. “Ogahiy” nashriyoti. 2024. 20-bet. https://uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/5.pdf

³ Сабу́рова С. XIX аср ва XX аср бошларида Хива хонлигининг давлат тизими. Тарих фан. ном. дисс. – Тошкент., 2002. – Б. 120 ва кейингилари.

2. Safarga boradigan mirshablar. Mirshab askarboshigina emas, jallodboshi ham edi. Hazorasp shahriniki singari, shahar va daha mirshablari bo'lgan.

XIX asrda Xivada agrar ishlab chiqarish munosabatlarining o'zgarishi faqat moliya-soliq tizimini emas, balki moliya soliq idoralarining tuzilishini ham o'zgartirib yubordi. Shu bilan birga, davlatning harbiy tuzilishida ham o'zgarishlar yuz berdi¹. Agar ilgari qo'shin ayrim tobe urug'larning lashkarlaridan iborat bo'lsa, XIX asrga kelib, xonlikning qurolli kuchlari markazlashgan davlat apparatining tarkibiy bir qismiga aylandi. XIX asrda xonlikda jami 13 ming kishilik muntazam qo'shin paydo bo'ldi.

Tinchlik vaqtida xon qo'shini shaharni muhofaza qilishdan tashqari, boshqa vazifalarni ham bajarardi.

Xiva xonlari arxivining 60-daftarida Xiva tumani va boshqa joylardagi yuzboshilarning nomlari yozilgan ro'yxat bor. Bu daftarda qo'shinning qo'mondon tarkibi sifatida 186 ta mahramning nomi ham ko'rsatilgan.

Xiva qo'shini, asosan, navkarlardan tuzilardi. 1840-yillarda Xivaning asosiy tumanlarida 6445 navkar bo'lgan. Bundan tashqari, Hazorasp, Beshariq va Pitnakda yana 2396 navkar bo'lgan. XIX asrning o'rtalarida navkar qo'shinning umumiy soni taxminan 9-10 ming kishi bo'lgan. Bu qo'shinning tabaqaviy tarkibi qanday bo'lganligini ham aniqlash mumkin. Masalan, navkarlar yerlari miqdori jihatidan 66 foizi **a'lo**, 17 foizi **avsat** (o'rta), 17 foizi **adno** (past) darajadagi tabaqaga tegishli edilar. Navkarlarning o'rta hisobda 20 tanobdan yeri bo'lgan va bu yerlar ijaraga berilgan².

Sarbon – karvon boshlig'i. Odatda, sarbon karvon oldida birinchi tuyada yurib, u yo'lni to'g'riligiga hamda to'xtash joylarida ot-ulovlarni ozuqa va suv bilan ta'minlanishiga javobgar shaxs bo'lgan. Arxivdagi ayrim daftarlarda ular **tuyachilar** deb yozilgan. Tuyalarni boqib, parvarish qiluvchilar shunday deb atalardi. Sarbonlar tuyalarda urush safarlarida qatnashganlar. Saroyda "tuya urishtirish" tomoshalari bo'lgan. "1288-yilning ramazon oyida "tuya urishtirish" tomoshasi bo'lganida sarbonlarga 7 tilla berilgan".

Yana saroyda ko'mirchi, kuchanchi (egar-jabduqchi), chodiriy (xayma xizmatkorlari), soatsoz, tamakisoz, loykash, kulol, xodimchi, ro'molchi, selobchi (jom ushlab turuvchi), poyaki (chilimchi), aravachi, noschi, qilichkor (qilich va

¹ Madamin Eshmurodov. Xorazm turkiy tarixnavisligida davlatchilik terminologiyasi. Monografiya. Xorazm. "Ogahiy" nashriyoti. 2024. 20-bet. https://uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/5.pdf

² Madamin Eshmurodov. Xorazm turkiy tarixnavisligida davlatchilik terminologiyasi. Monografiya. Xorazm. "Ogahiy" nashriyoti. 2024. 20-bet. https://uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/5.pdf

shamshir yasovchi), oshpaz, tovoqchi, darakchi (otchopar), yo‘nuvchi (duradgor), bojbon (zakotchi)lar bo‘lganlar. Bularning davlat xazinasidan maosh olganlari hujjatlarda o‘z aksini topgan¹.

Boshqa hukmdorlarning saroyida bo‘lgani singari, Xiva xoni saroyida ham davlatni boshqarish ishiga juda katta ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lgan xon mahramlari ham ko‘p bo‘lgan.

Sarboz – O‘rta Osiyo xonliklaridagi muntazam qo‘shin askari. Xiva xonligida sarbozlar urush vaqtida to‘plangan va ularning soni 30-100 ming oralig‘ida bo‘lgan².

So‘zning asl ma’nosi *bosh o‘ynatuvchi*, ko‘chma ma’nosi *boshin, jonini fido qiluvchi*. Shu ma’no asosida o‘z shohiga jonini fido qiluvchi, ya’ni *sodiq askar* ma’nosi yuzaga kelganligi aniq. Ushbu so‘z ham eski o‘zbek adabiy tiliga fors tilidan kirib kelgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikasining tarixiy qatlamiga mansub. Eski o‘zbek tilida birmuncha keng qo‘llangan. Xususan, Ogahiy tarixiy asarlarida bu so‘zni *piyoda askar* ma’nosida qo‘llanganini kuzatish mumkin. Chunonchi, “Riyozi-d-davla”da o‘qiymiz: *O‘zining mulozimi nusratlozimlari bila qal’adorliq umurig’a jahd-u jidol-u ishtig’ol ko‘rguzub, burj-u borularg’a sarboz va qodirandoz o‘qchilar va atrof-javonibig’a nayzaboz va sarandoz mutahavvirlar ta’yin etib...*³ Qolaversa, Ogahiy tarixiy asarlari leksikasida ushbu so‘z ma’lum so‘z yasalishiga asos bo‘lmaganini, “Gulshani davlat”ning bir o‘rnida *sarbozi lashkariy* izofiy birikmasida qo‘llanganini, *sarboz toyifasi*, *sarboz guruhi* kabi so‘z birikmalarida esa birmuncha faol ekanini kuzatish mumkin.

Sarboz tarixan ikki qismdan tashkil topgan: avvalgi qism *sar* bo‘lib, *bosh* ma’nosini anglatadi. Ushbu so‘zning genezisi “Avesto” bilan bog‘lanadi. “Avesto”da bu so‘z *sarah*⁴ shaklida qo‘llangan va *bosh* ma’nosini ifodalagan. Keyinchalik pahlaviyda *asar* yoki *sar* shaklini olgan va *boshsiz*, ya’ni *adoqsiz* ma’nosida istifoda etilgan. Ko‘rinib turganidek, bu avestoviy *sarah*ning ma’no kengayishi natijasida hosil bo‘lgan. Qadimgi hindiy tilida *çiras* so‘zi mavjud bo‘lib, u avestoviy *sarah* bilan bir asosga ega. Qadimgi arman tilidagi *sar*, kurdiy,

¹ Воҳидов Ш., Сабурова С. Хива хонлигида унвон ва мансаблар, уларнинг вазифалари. (XIX-XX асрнинг бошларида) // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1998, №3. – Б. 39, 46.

² Madamin Eshmurodov. Xorazm turkiy tarixnavisligida davlatchilik terminologiyasi. Monografiya. Xorazm. “Ogahiy” nashriyoti. 2024. 20-bet. https://uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/5.pdf

³ Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. IV жилд. Риёз уд-давла. Нашрга тайёрловчи А.Ўрозбоев. – Тошкент. Шарқ. 2020. – Б.. 121.

⁴ Bartholomae Chr. Altiranisches Werterbuch. Strassburg, 1904 (repr.: Berlin-NewYork, 1979). –P. 1565.

afgʻoniy, balujiy, sarikoʻliydagi *sar*¹ va shu kabi Eronning turli lahjalarida uchraydigan *sār*, *saer* kabi *bepoyon*, *tepa*, *uch* maʼnosini ifodalaydigan soʻzlarni avestoviy *sarah* bilan bogʻlashimiz mumkin. Ikkinchi qism *boz* – oʻ*ynatuvchi* umumeroniy asosli *bāz* – oʻ*ynatmoq* bilan bogʻlanadi. Xiva xonligida sarbozlar urush vaqtida toʻplangan va ularning soni 30-100 ming oraligʻida boʻlgan. Ular ham ayni damda muntazam yoki yollanma boʻlishi mumkin edi. Xususan, Xiva xonligida yollanma sarbozlar asosan turkmanlarda yollangan va ularga maxsus maosh tayinlangan².

Turkman navkarlariga harbiy xizmati uchun har bir otliqqa yarim tanobdan 30 tanobgacha yer ajratib berilgan³. Arxiv maʼlumotlariga qaraganda, 1909-yil noyabr-dekabr oyida askarxonada turli viloyatlardan kelib xizmat qilayotganlarga quyidagicha haq berilgan: gʻoziobodlik 80 nafar otli navkarga bir oyda 5 tildan, 2 yuzboshiga 7 tildan, Gʻoziobod hokimiga oyiga 15 tildan haq toʻlangan. Manoq navkarlari esa oyiga 5 tilla, 5 ta yuzboshiga 35 tilla, hokimiga 15 tilla, jami 450 tilla haq berilgan. Yana koʻpgina navkarlarga 40 tildan “ot fuli” berilgan⁴.

Koʻchmanchi (turkman, qoraqalpoq va qisman hali oʻtroq boʻlib qolmagan oʻzbek)lardan chiqqan navkarlar qoʻshinning koʻpchilik qismini tashkil etsa-da, lekin ular ishonchli kuch emas edilar. Xonning markazlashtirish va yagona hokimiyatga intilish yoʻlidagi urinishini ular qoʻllab-quvvatlamagan. Ammo navkarlarning bu qismi oʻzining urushqoqligi, chidamliligi bilan boshqalardan farq qilar va ogʻir safar davomidagi turmush tarziga juda yaxshi koʻnikkan edi. Shu sababdan xonlar ulardan qoʻliga oʻzga mamlakat va xalqlarni talash uchun qilinadigan urush safarlarida foydalangan.

Xiva xonligi qoʻshinlarida, navkarlarning maxsus harbiycha kiyimlari, davlat mukofot nishonlari va medallari boʻlmagan. Xizmat koʻrsatgan harbiylar va amaldorlar pul, yer-suv, mol yoki qimmatbaho buyumlar bilan mukofotlanar edilar. Turli-tuman choponlar kiygizish juda keng tus olgan edi. Ayrim hollarda esa pichoq, qilich va qurol inʼom qilinardi.

Muhammadrahimxon II mamlakati ichida amalga oshirgan ulkan xizmatlari uchun rus podshohlari tomonidan bir necha bor mukofotlangan. Jumladan, 1883-yil 11-mayda “Muqaddas Anna” ordeni bilan, 1896-yil fevralda “Janobi oliylari” unvoni bilan taqdirlandi. Shu yili 14-mayda yozilgan Rossiya podshosi Yorligʻida, jumladan, shunday soʻzlar bor: “Janobi Oliylari, Siz

¹ شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶. جلد دوم. ص ۱۱۱

² Ўзбекистон Марказий Давлат архиви. Фонд 125, Рўйхат №1, Ўйғма жилд №510. 183, 189-в.

³ Ўз.МДА, ф -I- 125, рўйхат 1, йиғма жилд 510. 183, 189 вар.

⁴ Ўз.МДА, ф -I- 125, рўйхат 1, йиғма жилд 519, 20^a, 21^b вар.

boshqarayotgan xalqning tinch va farovon turmush kechirayotgani, xonlikdagi rus va mahalliy xalqlarning a'lo darajadagi munosabatlari va Sizning samarali faoliyatingizni hisobga olib, Sizga O'zimning iltifotimni bildirib, Siz Janob Oliylarini O'zimning Shonli Armiyam ro'yxatiga General-Leytenant qilib kiritdim.

Sizga bo'lgan ezgu iltifotimning alohida belgisi sifatida Siz Janob Oliylariga ko'kragingizga taqib yurish uchun brilliantlar bilan yozilgan O'z Ismim tasvirini yubordim. Nikolay"¹.

Muhammadraximxon II yana I – darajali “Muqaddas Stanislav” ordeni va brilliantlar bilan bezatilgan, toj kiyish marosimi medali, brilliantlar bilan bezatilgan jig'a, oltin soat va uzuk bilan mukofotlangan.

Xivaliklardan yigirmadan ortiq kishi Rossiya podshosining mukofotlarini olgan. Bular ichida eng ko'p mukofotlanganlari Sayyid Islom xo'ja va Sayyid Asfandiyor (Isfandiyor) edi. Mukofotlanganlar qatorida, shuningdek, Komil Xorazmiy, Matvafo Yusuf Baqqolov va boshqalar ham bo'lgan.

Xon sulolasining namoyandalari, atoqli amaldorlar faxriy mukofot tariqasida oltin va qimmatbaho toshlar qadalgan kamar olar edilar.

Xiva xonligida harbiy safar vaqtida davlat tomonidan tibbiy xizmat ko'rsatilmagan. Yarador bo'lgan jangchilar davolanish uchun o'zlari tabibga murojaat qilardilar. Askarlar yarador bo'lib qolgan taqdirda davolatish uchun ularga zarur miqdorda mablag' ajratilar edi.

Otlari yarador bo'lgan navkarlarga ham pul bilan yordam berilardi. O'ldirilgan navkarning beva qolgan xotiniga bir yo'la beriladigan nafaqa ajratilgan, ba'zan bu bevaga pul o'rniga bir qul berilgan. Agar urush xonning isyon ko'targan fuqarolariga (qozoq va turkmanlar ham xon fuqarosi edi) qarshi olib borilayotgan bo'lsa, butun xizmat davrlarida navkarlarga maosh to'lab turilgan. Bunday hollarda navkarlar bekami-ko'st ta'minlangan edi.

Chet mamlakatlarga, ya'ni Eronga, Buxoroga va shu kabilarga qarshi harbiy yurish qilinsa, xon navkarlariga maosh to'lmas edi. Har bir askar o'z kunini o'zi ko'rishi lozim edi. Bundan tashqari, navkar qo'lga tushirgan o'ljasining beshdan birini xonga berishi kerak edi.

Xonlikning chegara qo'shini navkarlar qo'shini singari tashkil etilardi. Chegara tumanlarda navkarlarga yer-suv berilardi. Chegara xizmatining boshlig'i qorovul begiga 50 tilla miqdorida maosh to'langan.

¹ Хива «Ичон-Қалъа» музей-қўриқхонаси фонди. инв. №3621.

Xonlikda **oliy harbiy hokimiyat xon qo'lida** edi. Xon qo'shinga yo bevosita o'zi yoki amiral-umaro orqali farmon berardi. Har bir mulkdor yoki amaldor, hatto harbiy lavozim egasi bo'lmasa ham, sarkarda etib tayinlanishi mumkin edi. Buning sababi ravshan, chunki Xiva sharoitida, haqiqatda, har bir mulkdor "harbiy kishi" edi¹.

Devonbegi – devon boshlig'i. O'rta asrlarda soliq yig'uvchi muassasa boshlig'i bo'lib, keyinchalik unga mamlakatning barcha moliya ishlari yuklatilgan. Devonbegi gumrukxona (bojxona) va pul zarb qiladigan ustaxonaning boshlig'idir. Bu unvon va amal 1807-yili joriy etilgan. "Muhammadrahimxon I o'z amakivachchasi Muhammad Murodbekka bosh devonbegilik mansabini, ya'ni daromad-buromadlarni boshqarish vazifasini topshirdi. Shu bilan birga, xon Muhammad Murodbekka mehtar Yusufni sherik qilib tayinlaydi². Shu yo'sinda ular hamjihat bo'lib, katta ish olib bordilar, bu ish shu sohada yaxshi natija berdi va yangilik bo'ldi", - deb yozadi Bayoniy³ "Xorazm tarixi" asarida. Ta'kidlash lozimki, devonbegilik bilan birga amaldorlarga "muzakkiylik" vazifasi ham berilgan. Muzakkiy tekshiruvchi, nazoratchi sifatida devonda (viloyatlar va butun xonlik bo'yicha) faoliyat olib borgan va faqat⁴ xonga hisobotlarni bergan⁵.

Darg'alar – aslida dorug'a. Saroy mutasaddisi. Ushbu atama ikki xil ma'noni anglatadi: 1. Hokim. Mo'g'ullar, temuriylar va shayboniylar hukmronligi davrida dorug'alar viloyat, shahar hokimi bo'lishgan. Ularning zimmasiga viloyat va shaharni idora qilish, aholi ro'yxatini olish, uni hisob-kitob qilish va ulardan soliq undirish vazifalari yuklatilgan. 2. Mirshablar boshlig'i. So'nggi feodalizm davrida O'rta Osiyo xonliklarida mirshablar boshlig'i dorug'a deb yuritilgan. Ular saroyda amaldorlik vazifasini bajarish bilan birga, davlat ishlari, ma'muriy ishlarni ham bajarar edilar.

¹ Madamin Eshmurodov. Xorazm turkiy tarixnavisligida davlatchilik terminologiyasi. Monografiya. Xorazm. "Ogahiy" nashriyoti. 2024. 20-bet. https://uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/5.pdf

² Madamin Eshmurodov. Xorazm turkiy tarixnavisligida davlatchilik terminologiyasi. Monografiya. Xorazm. "Ogahiy" nashriyoti. 2024. 20-bet. https://uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/5.pdf

³ Баёний. Хоразм тарихи. – Б. 142.

⁴ Madamin Eshmurodov. Xorazm turkiy tarixnavisligida davlatchilik terminologiyasi. Monografiya. Xorazm. "Ogahiy" nashriyoti. 2024. 20-bet. https://uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/5.pdf

⁵ "Beshinchi jumod uc-coniy (1281) kechacikim juma oqshomi erdi hazrati zilli cubhoni (Muhammadrahim II – M.E.) caltanat umuri intizomi va mamlakat macolihi ictikmoli uchun Xudoynazar devonbegini devonbegilik va muzakkiylik mancabidan ma'zul etib, aning o'rniga Muhammadmurod mahramni ... jamii atrof va aknofdag'i viloyatlardan kelaturg'on tujjor va karvonning amvol va amtaa va aqmishaci zakotin olmoqqa muzakkiy qilib, izzat va e'tibori boshin cipehri davvor avjiddin oshurdi". Ogahiy. Shohid ul-iqbol. 15a var.

FILOLOGIYA

ALISHER NAVOIY VA TURKIY XALQLAR FOLKLORI

UO‘K 512.71



**RUSTAM
JABBOROV,**
Filologiya fanlari
bo'yicha falsafa
doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodi va unda aks etgan turkiy xalqlar folklori tahlil etiladi. Shuningdek, bu borada Navoiy asarlaridan misollar keltirilib, mavzu ochib beriladi.

Аннотация: В статье анализируется творчество Алишера Навои и отраженный в нем фольклор тюркских народов. Приводятся примеры из произведений Навои для пояснения темы.

Annotation: This article analyzes the work of Alisher Navoi and the folklore of the Turkic peoples reflected in it. It also provides examples from Navoi's works to explain the topic.

Kalit so'zlar: Adabiyot, she'r, folklor, turkiy xalqlar, kitob, Hirot, Xuroson.

Ключевые слова: Литература, поэзия, фольклор, тюркские народы, книга, Герат, Хорасан.

Key words: Literature, poetry, folklore, Turkic peoples, book, Herat, Khorasan.

Alisher Navoiy nafaqat o'zbek, balki 300 millionlik turkiy xalqlarning faxru iftixoriga arziqli buyuk mutafakkirdir. Shu paytga qadar turk dunyosida navoiychalik katta va sarmazmun merosga ega bo'lgan shoirni uchratish qiyin.

Navoiy nafaqat shoir va mutafakkir, balki yirik davlat va jamoat arbobi ham edi. U o'zining 60 yillik umri davomida juda ko'p xayrli ishlar qildi: ilm-fan, san'at va madaniyat ahliga har jihatdan homiylik ko'rsatdi. Xuroson mamlakatida yuzlab binolar, shifoxonalar, maktablar, ko'priklar, hammomlar, kutubxonalar bunyod etdi. Uning nomi asrlar osha xalqlarning tilida, dilida qoldi. U haqda bir qancha rivoyatlar, ertaklar, dostonlar to'qildi.

Navoiy o'zidan juda katta ma'naviy meros qoldirdi. U to'rt devondan iborat "Xazoyinul-maoniyy" to'plami, turkiy tildagi besh dostonidan iborat "Xamsa", shuningdek "Lisonut-tayr", "Muhokamatul-lug'atayn", "Majolisun-nafois", "Nasoyimul-muhabbat" singari yirik ilmiy asarlarni ham yaratib qoldirgan.

Navoiy va o'zbek folklori masalalari ayni paytga qadar mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Xususan, A. Hayitmetov, N. Mallaev, M. Alaviya, M. Hakimov, M. Jo'raev singari olimlar bu yo'nalishda qator tadqiqotlar olib borganlar¹. Mazkur maqolada Alisher Navoiy shaxsiy va adabiy merosining butun turk dunyosi bilan bog'liq jihatlariga e'tibor qaratiladi.

¹ Хайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари. Тошкент: Ўқитувчи, 1993; Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. - Тошкент, Фан, 1974; Алавия М. Ўзбек халқ маросим кўшиқлари. – Тошкент: Фан, 1974; Жўраев М.

Navoiy o‘z asarlarini yaratishda o‘zidan avval yashab ijod qilgan buyuk Sharq shoirlari - Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Jaloliddin Rumiy, Xusrav Dehlaviy, Shayx Sa‘diy ijodidan yaxshi xabardor bo‘lgan, ulardan bahra olgan. Shu bilan birga Navoiy arab, fors va turkiy xalqar og‘zaki ijodini puxta bilgan. Navoiyning “Xamsa” asaridagi doston va rivoyatlar syujeti yuz yillar davomida arab, fors va turkiy xalqlar tilida, folklor namunalarini ko‘rinishida yurgan. Keyinchalik ularni Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy singari shoirlar adabiy asar ko‘rinishida qayta ishlab, turkiy tilda qog‘ozga tushirgan. Navoiy esa, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Bahrom va Dilorom” singari qissalarni ilk bor masnaviy ko‘rinishida, aruz vaznida, doston shaklida bitgan. Navoiy ushbu syujetlarni o‘z tafakkuri, dunyoqarashi asosida qayta ishladi. Ularga o‘ziga xos, nafas, ruh ato etdi.

Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida butun turkiy xalqlarni o‘ziga yaqin bilishini e‘tirof etadi:

*Agar o‘n qavm, gar yuz, yo‘qsa mingdur,
Muayyan turk ulusi xud meningdur.
Ko‘ngul bermish so‘zimga turk jon ham,
Na yolg‘uz turk, balki turkmon ham¹.*

Qadim turkiy adabiyot haqida gap borar ekan, Navoiyning turk asotir va rivoyatlariga munosabati ham muhim ahamiyatga ega. Turk folklorining mashhur qahramonlaridan biri Alp Er To‘ngadir. Bu qahramon ismi fors adabiyotiga Afrosiyob nomi bilan kirgan. Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asarida Afrosiyob eronliklarning asosiy raqibi, bu mamlakatga bir necha bor hujum qilib, uning kulini ko‘kka sovurgan Turon hukmdori sifatida tasvirlanadi.

Bugungi kunda ayrim forsiyzabon olimlar Afrosiyob va Alp Er To‘nga boshqa-boshqa shaxslar degan fikrlarni ilgari surishadi. “Afrosiyob” so‘zi turkiy o‘zak ka ega emas deb hisoblashadi². Ilk o‘rta asrlarda forsiy va turkiy xalqlarning o‘zaro yaqinlashuvi hamda afsonaviy qahramonlarning sintezlashuvi natijasida Afrosiyob Alp Er To‘ngaga nisbat berilgan bo‘lishi mumkin, degan qarashlar ilgari suriladi. Ammo, bu tadqiqotlar zahirida ilmiy yondashuvdan ko‘ra milliy iddaolar yotganini anglash qiyin emas.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” (1069—1072) asarida xabar berilganidek, Afrosiyob Turon hukmdori bo‘lib, Eron mamlakatini bosib olgan va juda ko‘p vaqtini jangu jadallarda o‘tkazgan. “Devonu lug‘otit turk” asarida yozilishicha, “Turklarning ulug‘ xoni Afrosiyobni To‘nga Alp Er deb atar edilar. Bu yo‘lbars kabi kuchli, bahodir odam demakdir”. Shuningdek, To‘nga so‘zining “metindek qattiq, qo‘porib bo‘lmas darajada mustahkam” degan ma‘nolari ham mavjud.

Эл деса Навоийни / Навоий ҳақида афсона ва ривоятлар. – Тошкент, “Юлдузча”, 1991; Ҳакимов М. Алишер Навоий лирикаси ва халқ оғзаки ижоди. Тошкент, “Фан”, 1979.

¹ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами, 20 жилдлик. Фарҳод ва Ширин, 8-Т. – Тошкент, “Фан,” 1991. – Б. 525.

² <https://mazdo.wordpress.com/2014/09/30/ирон-турон-ва-туркон-2/>

Koshg‘ariy uning o‘limidan keyin xalqning qattiq qayg‘uga, tashvishga tushganligi, marsiyalar aytib uzoq vaqt yig‘laganligi xususida bir talay ishonchli ma‘lumotlar keltirgan:

*Alp Er To‘nga o‘ldimu,
Yomon dunyo qoldimu,
Zamon o‘chin oldimu?
Emdi yurak yirtilur...¹*

Turkiy xalqlar adabiyotining buyuk vakili Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida ham bu xususda to‘xtalib o‘tilgan:

*Bu turk beklarindan, oti belgulik,
To‘ng‘a Alp erdi, quti belgulik.
Tajiklar ayur oni Afrosiyob.
Bu Afrosiyob oldi ellar talob².*

Navoiy Mahmud Koshg‘ariy va Yusuf Xos Hojib keltirgan ma‘lumotlar bilan tanish bo‘lmagan ko‘rinadi. Buyuk mutafakkirning Afrosiyob haqidagi qarashlari Firdavsiyning “Shohnomasi”ga asosan shakllangan. Navoiy “Xamsa”, “Tarixi anbiyo va hukamo” asarlarida bu hukmdor xususida o‘z fikrlarini bildirib o‘tgan:

*Chu Afrosiyob o‘ldi olam shahi,
Emas erdi ish sirrining ogahi.
Jahon mulkin o‘z mulki qildi gumon,
Ani ham chiqardi arodin jahon³.*

(Afrosiyob olamga hukmdor bo‘ldi, ammo har bir ish siridan ogoh emasdi, jahon mulkini o‘ziniki deb o‘yladi, ammo jahonning o‘zi uni oradan chiqardi.)

Navoiy Afrosiyobni Peshdodiylar sulolasi vakili ekanini ta’kidlab, Faridun avlodidan degan taxminni ilgari suradi. Faridunning uch o‘g‘li bor edi: Salm, Eraj va Tur. Faridun farzandlariga o‘z mulkini taqsimlab beradi. Rum va Mag‘ribdin Yaman hududig‘acha Salmga, Turkiston va Chin hududini Turga, Fors, Iroq va Xurosonni Erajga beradi. Bu voqe Nuh (a. s)ning butun dunyo to‘fonidan so‘ng Yer yuzini uch o‘g‘li Som, Hom va Yofasga bergani haqidagi rivoyatni esga soladi. Juda ko‘p diniy va tarixiy asarlarda keltirilishicha, arablar va ajamlar Somdan, hindlar va qora tanlilar Homdan, turkiy va osiyolik boshqa xalqlar Yofasdan tarqalgan. Bu qaysidir jihatdan antropologik qarashlar – insoniyatning uch asosiy irq - yevropeoid, negroid va mongoloidga bo‘linishiga monand ham keladi.

¹ Mahmut Kaşgarlı. Divanü Lügati’t – İstanbul; Türk Tarih Kurumu Basımevi, 2006. Vol. 1. — P. 41.

² Дониёров Х. Афсонами ёки тарихий шахс. – “Шарқ юлдузи” журналы, №7, 1991. – Б. 82.

³ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами, 20 жилдлик. Тарихи мулуки ажам. 16-Т. – Тошкент: “Фан”, 2000. – Б. 200.

Shu o'rinda turkiy xalqlar, mo'g'ullar orasida qadimdan mashhur bo'lgan Alanquva nomi bilan bog'liq afsonani eslash ham joiz. "Sab' ai sayyor" dostonida Navoiy Sulton Husayn Boyqaro madhiga to'xtalar ekan, quyidagi baytni keltiradi:

*Anga Chingiz ulug' ato kelgan,
Anosi xud Alanquvo kelgan¹.*

Ma'lumki, temuriylar o'zlarining mo'g'ul xonlariga yaqin tutganlar. Sulolaning asoschisi Amir Temur Qozonxonning qizi Saroymulkxonim – Bibixonimga uylangan edi. Navoiyning o'ziga zamondosh temuriy podshoh – Sulton Husayn Boyqaro haqida gapirib, uning onasini xuddi Alanquvaga o'xshatadi va mashhur afsonaga ishora qiladi². Bu afsona haqida Rashididdin, Mirzo Ulug'bek, Mirxond, Abulg'oziy kabi ulug' muarrixlarning asarlarida qimmatli ma'lumotlar bor.

Alanquva — mo'g'ullarning afsonaviy ajdodi. Rashiduddinning yozishicha, barcha mo'g'ul qabilalari Dobunbayon va uning xotini Alanquvadan tarqagan. Alanquva oqila ayol bo'lib quralas qabilasidan, ba'zi manbalarga ko'ra Xo'rilar to'y merganning qizi bo'lgan. Ularning Belgunutoy va Bugunutoy ismli o'g'illari bo'lgan. Dobunbayon yoshlik paytida vafot etgan. Beva qolgan Alanquva, rivoyatlarga ko'ra, tushida tuynukdan nurga burkangan malla sochli, ko'k ko'zli kishi unga asta-sekin yaqinlashib, so'ng qaytib ketganligini ko'rgan. Alanquva ilohiy mo'jiza bilan homilador bo'lib qolgan va uch o'g'il farzand tuqqan. Katta o'g'li — Bukun Qatag'andan qatag'an qabilasi, o'rtanchasi — Saljidan saljiut qabilasi tarqagan, kenjasi — Bodoncharqoon (Budanjir Munqaq) bo'lib, Chingizxon nasabi unga borib taqalgan³.

Navoiy turkiy xalqlarning matal va maqollaridan ham unumli foydalangan:

*May batining ko'r nishot afzoliq'in huzn ahlig'a,
Kim kuyar o'lu qurug' chun nayistong'a tushti o't.*

Baytda mayning dard-g'am, ishq ahliga baravar ta'sir qilishi aytilib, "o'rmonga o't ketsa, ho'lu quruq baravar yonadi" maqoliga ishora qilingan. Yana bir bayt bor:

*Hajr qolmas yoshurun ohu fig'on chek, ey ko'ngul,
Kim yashurmoq birla hargiz qolmadi pinhon o'lum.*

Ko'rinib turibdiki, bu baytda "kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi" degan maqol aruzga solib aytilgan. Boshqa turkiy xalqlarda ham bu maqolning turlicha ko'rinishlarini topish mumkin. Masalan, ozarbayjonlarda bir maqol bor: dərqli gözü gizlətmə, yaşı axır bəllədir⁴.

Yoki boshqa bir baytda "taqdirdan qochib qutulib bo'lmaydi" degan xalqona hikmat aksini ko'ramiz:

*Har ne yozmish ollingga qilki qazo ko'rmak kerak,
Ey Navoiy, qochmoq o'lmas tengrining taqdiridin.*

¹ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами, 20 жилдлик. Сабъаи сайёр. 10-Т. – Тошкент: "Фан", 1992. – Б. 60.

² Хайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари. Тошкент: "Ўқитувчи", 1993. – Б. 191-192.

³ <https://uzsmart.uz/ensiklopediya/ensiklopediya/alanquva.html>

⁴ <https://www.testbook.az/proverb>

Bunday taqdirga tan berish bilan bog'liq maqol va iboralar ko'plab turkiy xalqlarda uchraydi. Masalan, qozoqlar qayday ne jazsa sonı koremez deyishadi. Ozarbayjonda ham Tanrı yazani banda buza bilmez deyishadi.

Yoki mana bu baytda ham:

Ko'ngilni tuz, tilosang foyiz o'lsa tuz ma'ni,

Nedinki, egri esa egri ko'rguzur ko'zgu.

Ikkinchi misradagi “egri esa egri ko'rguzur ko'zgu” so'zlari ortida “Basharang qiyshiq bo'lsa, oynadan o'pkalama” degan maqol yotibdi¹.

Shuningdek Navoiyning:

Orazin ko'rdum nihon, ashk ayladi sirrimni fosh,

*Yoshurun qolmas o'g'urluq uy arokim bo'lsa yosh.*²

Ya'ni yuzingni yashirinch a ko'rgandim, lekin ko'z-yoshim sirimni fosh qilib qo'ydi. Yosh bola bor uydagi o'g'irlik fosh bo'lmay qolmas ekan, degan mano yashiringan. Ikkinchi misradagi husni ta'lil ham aslida xalqdagi “bolali uyda sir yotmas” maqolining bir ko'rinishi. Bu maqol qozoqlarda “Balalı yude otirik jatpaydı” maqoliga ham o'xshab ketadi³.

“Mahbub-ul qulub” asarida “oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra—qatra yig'ilib daryo bo'lur”, degan hikmat keladi. Bu maqol o'zbeklar orasida hozir ham bor: “Toma-toma ko'l bo'lur”. Bugungi turk tilida esa “damlaya-damlaya göl olur”, degan maqol bor.

Mazkur asarda xalq maqollari bilan bog'liq yana ko'plab maqollarni ko'rish mumkin. Jumladan, Navoiyning “bilmaganni so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim” degan hikmatini olaylik. Bu o'zbeklar orasidagi “so'raganning aybi yo'q” maqoliga uyg'un keladi. Bu turklarning “bilmemek ayıp değil, öğrenmemek ayıp” maqolini mazmunan takrorlaydi.

Navoiy o'zining aruz vazni qoidalariga bag'ishlangan “Mezon ul-avzon” asarida o'sha paytdagi turkiy folklordagi aruz va barmoq vaznidagi qo'shiqlar, lapar va o'lanlar haqida to'xtalib o'tgan:

“Yana turk ulusi, bataxsis chig'atoy xalqi aro shoyi' avzondurkim, alar surudlarin ul vazn bila yasab, majolisda ayturlar. Birisi «tuyug'»durkim, ikki baytqa muqarrardur va sa'y qilurlarkim, tajnis aytilg'ay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdur, mundaqkim:

Yo rab, ul shahdu shakar yo lab mudur?

Yo magar shahdu shakar yolabmudur?

Foilotun foilotun foilon...

¹ Умарова Н. Абдувалиева Н. Алишер Навоий асарларида мақол ва ибораларнинг маъновий хусусиятлари. - "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (3) III/2020. - Б. 111.

² Холматова О. Ўзбек халқ мақолларининг семантик хусусиятлари. – Магистрлик диссертацияси. Фарғона, 2013. – Б. 47-52.

³ <https://erketai.kz/makhal-matelder/makhal-matelder/>

Yana “qo‘shiq”durkim, arg‘ushtak usulida shoyi’dur va ba’zi advor kutubida ul usul zikr bo‘lubdur va ul surud a’robining teva surar hudilari vazni bila madidi musammani solimda voqe’ bo‘lur, aning asli bu nav’durkim, b a y t:

Vahki, ul oy hasrati, dardu dog‘i furqati,
Ham erur jonimg‘a o‘t, ham hayotim ofati.
(Foilotun foilun foilotun foilun)

Turkiya Madaniyat va turizm vazirligining rasmiy veb-sahifasida arg‘ushtakka quyidagicha ta’rif berilgan: “Osiyodagi turkiy xalqlar raqslaridan biri. Bu nom qadimgi fors lug‘atlariga ham kiritilgan. Turkiya sharqida hozir ham bu raqs va o‘yin turi arkushta deb nomlanadi. Qadimgi turkiy tilda “arg‘ish” so‘zi sehr-jodu, afsus ma’nolarini bildirgan. “Tak” yoki “toq” qo‘shimchasi ham turkiy tillarda keng qo‘llaniladigan so‘z yasovchi qo‘shimchalardan hisoblanadi (o‘rtoq, o‘toq, hushtak, ertak, kurtak va hokazo)”¹.

Shuningdek, Navoiy bu boradagi fikrlarini davom ettirib, kelin to‘ylarida kuylanadigan qo‘shiqlarga to‘xtalib o‘tadi. Bugungi kunda ham o‘zbek, uyg‘ur, turkman, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq xalqlarida bunday qo‘shiq yor-yor deyiladi. Navoiy bu qo‘shiq turini “chinga” deb ataydi. “Chinga”lar ham aruzda, ham barmoq vaznida aytilganiga urg‘u beradi. Asar aruz vazniga oid bo‘lgani uchun vaznga tushadigan “yor-yor”lardan birini misol keltiradi:

“Yana “chinga”durkim, turk ulusi zufof va qiz ko‘churur to‘ylarida ani ayturlar, ul surudedur bag‘oyat muassir va ikki nav’dur. Bir nav‘i hech vazn bila rost kelmas va bir nav‘ida bir bayt aytilurkim, munsarihi matviyi mavquf bahridur va yor-yor lafzini radif o‘rnig‘a mazkur qilurlar, andoqkim:

Qaysi chamandin esib keldi sabo, yor-yor,
Kim damidin tushti o‘t jonim aro, yor-yor?
(Muftailun foilon muftailun foilon)

Shuningdek, Navoiy o‘sha paytlarda xalq orasida mustazod, muhabbatnoma, turku nomli qo‘shiq va laparlar bo‘lganini yodga oladi. Jumladan, Iroq turkmanlari orasida “aruzvori” deb nomlangan xalq qo‘shiqlari borligi, bunday qo‘shiqlar hazaji musammani solim (mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun), ramali musammani mahzuf (foilotun, foilotun. Foilotun, foilun) bahrida aytilganini eslab o‘tadi.

Navoiy “Mezon ul-avzon”da faqat aruz bilan hamohang qo‘shiqlarni terib, ularga sharh berib o‘tadi. Ma’lumki, arablar kirib kelgunga qadar adabiyot va san’at asarlaridagi she’rlar barmoq yoki hijo vaznida yozilardi. Navoiy shu o‘rinda xalq baxshilari tomonidan o‘lan va laparlarga to‘xtalib, asari aynan aruz masalalariga bag‘ishlangani uchun barmoq vaznidagi qo‘shiqlarga to‘xtalishni lozim topmaydi².

“Chun o‘zonlarning o‘zmog‘i va o‘zbaklarning budi-budoyi hech vazn bila rost emas erdi, anga taarruz qilinmadi, agarchi asarlari bordur, ammo aning aruz ilmig‘a daxli yo‘qtur”, deydi Navoiy.

¹ <https://ekitap.ktb.gov.tr/TR-78880/argustak.html>

² Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами, 20 жилдлик. Мезон ул-авзон. 16-Т. – Тошкент: “Фан”, 2000. – Б. 91-93.

Xalq qo‘shiqchilari, baxshilar bugungi turk tilida ozan deyiladi. O‘zbeklar, turkmanlar, uyg‘urlar o‘zanlarni bugungi kunda baxshi deb ataydilar. Shuningdek, bu tushuncha ozarbayjonlarda ashig, qoraqalpoq va qozoqlarda jirov, qirg‘izlarda aqin deb ham ataladi. O‘zan so‘zi “Devonu lug‘otit-turk”da ham uchraydi. Unga ko‘ra, o‘zan turkcha o‘zmoq fe‘dlidan yasalgan bo‘lib, musobaqalashish, o‘zib ketish, qo‘shiq aytish ma‘nolarini ham bildirgan.

Ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy fors tilida yozgan bo‘lsa ham, o‘z xalqi bo‘lgan turklarning folklori, xalq og‘zaki ijodidan yaxshi xabardor edi. U “Xamsa” dostonida Iskandar saroyidagi ziyofat haqida yozarkan, o‘zanlarning qo‘shiqlari, o‘lanlarini ham eslab o‘tadi:

Nishasta ba romish zi har kishvare,

G‘arib ustodevu romishgare.

Navosoz xunyogaroni shigarf,

Ba qonuni o‘zan barovarda harf.

(Ya‘ni, ziyofatda har o‘lkadan kelgan xonandayu sozandalar jam bo‘lishdi. Ajoyib o‘lan aytuvchi o‘zanlar qonunlarini chalib, kuylashardi.)

Demak, Navoiy ishlatgan “o‘zmoq” so‘zini “qo‘shiq” deb tushunish kerak bo‘ladi. Shuningdek, Navoiy saroyda, podshohlar huzurida kuylanadigan dilkash, sho‘x, go‘zal qo‘shiqlar “turkiy” deb atalishini, bunday qo‘shiq ijrochilari saroylarda maxsus tayyorlanishini aytadi.

Baxshi atamasi esa bugungi o‘zbek, turkman, qoraqalpoq, uyg‘ur xalqlari orasida keng tarqalgan. Qozoq qirg‘izlarda ham bu atama baqsi, baqshi ko‘rinishida tarqalgan. Bu so‘zni qadigi sanskritcha “bxiksu” (darvesh), mo‘g‘ulcha “bagsh” (ustoz) so‘zlari bilan bog‘lovchilar ham bor. O‘rta asarlarda saroylardagi uyg‘ur xatida ishlaydigan kotiblarga ham “baxshi” deyilgan. Navoiyning ota-bobolari ham ana shunday turkiy xat bilimdonlaridan bo‘lishgani uchun baxshi nomini olgan.

“Yana surudedurkim, ani “turkiy” debdurlar, bu lafz anga alam bo‘lubdur va ul g‘oyatdin tashqori dilpisand va ruhafzo va nihoyatdin mutajoyiz aysh ahlig‘a sudmand va majolis oro suruddur, andoqki, salotin ani yaxshi aytur elni tarbiyatlar qilibdurlar, turkigo‘ylik laqabi bila mashhurdur”.

Bugun ham zamonaviy turk tilida bu xildagi xalq qo‘shiqlari “turku” deb ataladi. Olimlar allalar, to‘y-marosim, mehnat, mavsum, tabiat qo‘shiqlari, marsiyalarni ham turkular qatoriga kiritadilar.

Navoiy xalq ertaklaridan yaxshi xabardor bo‘lgan. Turkiy xalqlarda ertaklar “bir bor ekan, bir yo‘q ekan” deb boshlanadi. Bu an‘ana Navoiy davrida ham bo‘lgan. Uning “Badoyi‘ul-vaqoe” devonidagi bir fardida o‘qiymiz:

Belu og‘zidin, dedilarkim, degil afsonae,

Boshladim filholkim: «Bir bor edi, bir yo‘q edi».

“Sab‘ai sayyor” dostoni ham bitta yaxlit hikoya ichiga joylashtirilgan yettita mustaqil hikoyadan iborat. Dostondagi qissalar ham xalq ertaklarini yodga soladi. Chunonchi, “avvalg‘i iqlimdan kelgan musofir” o‘z hikoyasini shu tartibda boshlaydi:

Boru yo‘q chun duoki bildi, dedi,
Dedi: «Bir bor ediyu bir yo‘q edi...».

Alisher Navoiy turk eposlari, ulardagi qahramonlar haqida ham yetarlicha ma’lumotga ega bo‘lgan. Chunonchi, Qo‘rqut ota haqida ham Navoiyning “Nasoyim-ul muhabbat” asarida ma’lumot uchraydi:

“Turk ulusi arosida shuhrati andin ortug‘roqdurki, shuhratqa ehtiyoji bo‘lg‘ay. Mashhur mundoqdurki, necha yil o‘zidin burunqini, necha yil o‘zidin so‘nggi kelurni debdurlar. Ko‘p mav‘izaomiz mag‘izliq so‘zlari aroda bor.”

Navoiyning bu e’tirofi Qo‘rqut ota nomi o‘sha davrlarda turkiy xalqlar orasida juda mashhur bo‘lgani sababli ortiqcha shuhratga ehtiyoj sezmagani anglatadi¹.

M.Hakimov fikricha, Navoiy ijodida folklor janrlari va namunalari “Xamsa”dagi “Hayrat-ul abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, Bahrom Go‘r, Iskandar haqidagi dostonlardan o‘rin olgan. Xususan, “Hayratul-abror”, “Saddi Iskandariy”, “Lison ut-tayr”, “Mahbub ul-qulub”, “Nasoyim ul-muhabbat”da ko‘plab hikoyatlar va rivoyatlar kiritilgan. “Majolis un-nafois”, “Xamsat ul-mutahayyirin” kabi asarlarida xalq latifalari, hazil va mutoyibalardan foydalanilgan. Navoiy qissaxonlar va qissasozlar haqida “Mahbub ul-qulub” asarida ham to‘xtalib o‘tgan. Ammo ularni u qadar maqtamagan².

Navoiy “Hayrat ul-abror”da ham turkiy qo‘shiqlar, xalq og‘zaki ijodidan yetarlicha xabardor bo‘lganini aytib o‘tadi:

Turk surudi bila solib qo‘lum,
Qilsam ado hay tulum hay tulum.
Ul qila olmasa hamovozliq,
Qilsa ayolg‘u bila damsozliq.³

Qadimgi turkiy xalqlarda echki terisidan meshga o‘xshatib yasalgan, puflab chalinadigan cholg‘u asbobi tuluk yoki tulum deb atalgan. Bu asbobdan hozir ham xakas, yoqut, tuva singari shimol turklari foydalanishadi. Turkiyada yashovchi lazlar ham bu cholg‘u asbobini ishlatishadi. Shu birgina bayt orqali Navoiy davrida ham ana shunday cholg‘ular bo‘lganini va shoir undan foydalana olganini payqash mumkin.

Demak, shoir (Navoiy) “hey tulugum, hey tulum” deb qo‘l uzatib yoki tulum chalib, qo‘shiq aytsa, raqibning unga jo‘rovozlik qilishga kuchi yetmaydi. Loaqal ayolg‘u bilan uning ijrosiga qo‘shilib tursa ham yetarli bo‘ladi.

Navoiy bazmda raqibi unga teng kelolmasligini ta’kidlar ekan, “ayolg‘u” so‘zini tilga oladi. Bu so‘z Navoiy asarlarida o‘nlab marotaba tilga olingan. Masalan, Navoiy oshiqning ayriliq holatidan azob chekayotganini tasvirlar ekan, qo‘shiqning cho‘ziq nolasini qalbninig ayolg‘usiga o‘xshatadi:

*Holimg‘a hajr bazmi aro tortsam surud,
Bor navha maddi telba ko‘ngulning ayolg‘usi.*

¹ Ҳакимов М. Алишер Навоий лирикаси ва халқ оғзаки ижоди. Тошкент, “Фан”, 1979.

² Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. - Тошкент, “Фан”, 1974.

³ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами, 20 жилдлик. Ҳайрат ул-аброр. 7-Т. – Тошкент: “Фан”, 1991. – Б. 63.

Olimlar ham bu soʻzni turlicha sharhlaydilar. Xususan, M.Alaviya bu soʻzni turkiy “aytmoq” feʼlidan olingan boʻlib, lirik qoʻshiq maʼnosida kelishini taʼkidlaydi.¹ Turk tadqiqotchilariga koʻra, ayolgʻu - bu nota, yanayam toʻgʻrirogʻI, nota yozilgan daftardir.

XIII asrda Eronda, elxoniylar davrida fors tilida bitilgan “Tansuqnomai Elxoniyy dar ulumi fununi xitoyi” asarida Xitoy hududidagi musulmon boʻlmagan turkiy xalqlar madaniyati haqida soʻz boradi va unda shunday deyiladi:

“Turklar musiqa ilmida juda koʻp yutuqlarga erishganlar, quyidagi holat ham shunga misol boʻladi: Sozanda yo xonanda oʻziga notanish boʻlgan qoʻshiq yoki musiqani ijro etmoqchi boʻlsa, bir necha kun tayyorgarlik koʻrishi kerak boʻladi. Turklar bunday paytda gʻaroyib bir usulni qoʻllaydilar va bu usulni “ayolgʻu” deb ataydilar. Musiqa ustalari har bir ohang uchun alohida belgi oʻylab topishgan. Maʼlum bir asarni shu shakllar yordamida qogʻozga tushiradilar. Cholgʻuchilar shu belgilarga qarab, musiqani chalaveradilar. Shu tariqa ikki-uch urinishda sozanda musiqiy asarni bexato, xuddi ilk ijodkori singari chala oladi. Shu ishni biladiganlardan biri yoniga oʻz shogirdini olib, mamlakat rahbarlari huzurida kuy ijro etganini va tinglovchilarni hayratga solganini oʻzim koʻrganman. Turklar bunday usullar va hunarlarga juda usta boʻlishadi. Men ularning sanoqlilarini koʻrganman, xolos”².

Ilk notalarni muomalaga kim kiritgani masalasi musiqashunoslikda bahsli masalalardan biri. Zamonaviy koʻrinishdagi notalar Yevropa mamlakatlarida yuzaga kelgani haqiqatga yaqin boʻlsa-da, Sharqda arablar ham Abjad hisobiga asoslangan notalar tizimiga ega boʻlgani haqida maʼlumotlar bor.

Demak, turkiy xalqlar, xususan sharqiy turkistonda musiqiy asarlarni notaga solishni – Ayolgʻu tuzishni ancha avval uddalashgan. XIV asrda yashagan Haydar Xorazmiy oʻzining “Mahzan ul-asror” asarida bu haqda eslab oʻtgandi:

Turk surudini tuzuk birla tuz,

*Yaxshi ayolgʻu bila koʻkla qoʻboʻz*³.

Bundan koʻrishimiz mumkinki, Navoiy oʻsha davrdagi eski turk ohanglari, musiqa asboblari, hatto nota tizimidan ham xabardor boʻlgan.

Navoiy va turk folklori haqida soʻz ketganda, yana bir masalaga alohida urgʻu berish kerak. Yaʼni, Navoiy siymosining turkiy xalqlar folkloridagi oʻrni olimlar tomonidan anchadan beri tadqiq etib kelinadi.

Oʻzbek xalq ertaklari, rivoyat va afsonalarida Navoiy obrazi koʻp marotaba uchraydi. Bunday ertak va rivoyatlar Oʻzbekistonda bir necha bor toʻplab, nashr qilingan. Xususan, filologiya fanlari doktori, marhum folklorshunos Mamatqul Joʻraev shoir haqidagi rivoyatlar, afsonalar va ertaklarni toʻplab, “El desa Navoiyni”, “Dono Alisher” singari toʻplamlarni nashr qildirgan. Jumladan, bu afsonalardan birida Navoiy Guli ismli bogʻbon qizni sevib qolgani, bu qizni

¹ Алавия М. Ўзбек халқ маросим қўшиқлари. – Тошкент: “Фан”, 1974. – Б. 41.

² Dursun Ünüvar. Türk müzikterimlerden ayalgı sözcüğünün tarihsel gelişimi. Çeşmi Cihan Bartın universitesi tarih, kültür ve sanat araştırmaları dergisi. cilt 3, sayı 2 s. 28-35. kış, 2016.

³ <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-mumtoz-sheriyati/haydar-xorazmiy/>

podshoh ham yoqtirib, uni saroyga olib kelgani, qiz esa, o'z muhabbatiga sodiq qolish uchun zahar ichib joniga qasd qilgani aytiladi. Navoiy va Guli to'g'risidagi rivoyatlar keyinchalik adabiyot va san'at asarlariga ham ko'chgan.

Boshqa turkiy xalqlar og'zaki ijodida ham Navoiy obraziga tez-tez duch kelish mumkin. Xususan, turkmanlar orasida Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy haqidagi latifalarda Mirali va Sulton Suyun nomi bilan tarqalgan. Jumladan, Alisher Navoiy va sulton Husayn o'rtasidagi do'stona munosabatlar turkman xalq og'zaki ijodidagi Mirali va Sultonsuyun obrazi latifalarida o'z aksini topadi¹. Bu latifalarda hukmdor va shoirning bolalikdan do'st bo'lib kelgani, ular orasidagi turli kulgili holatlar, oqilona savol-javoblar aks etadi. Bu rivoyat va latifalarni mashhur turkman yozuvchisi Berdi Kerboboyev to'plagan va Ashxobodda 1948-yilda "Mirali" nomi bilan nashr qilgan.

Shuningdek, turkman xalqining "Gulfam" dostonida ham Navoiy siymosi qardosh turkman elining qalbidan mustahkam joy egallaganini ko'rsatadi. Turkman hofizlari Navoiy g'azallarini kuyga solib, xonish qilishgan. Ularning repertuarida "Navoiy" deb ataladigan maxsus maqom va kuy ham mavjud bo'lgan².

Alisher Navoiy haqidagi "Gul ila Alisher hikoyasi" deb nomlanuvchi turk xalq dostoni shu jihatdan xarakterliki, A.Navoiy haqidagi ko'pgina xalq afsonalari ulug' shoirning donoligi, olijanob ishlari, xalqparvarligi, adolatgo'yligi haqida bo'lsa, bu doston ishqiy-romantik bo'lib, Alisher va Guli o'rtasidagi muhabbat va uning taqdiri haqidadir. Dostonni mashhur turk folklorshunosi Partav Noili Baratov 1941-yilning 27-fevralida baxshi Mudomiydan yozib olib, 1946-yilda Anqarada nashr qilingan "Xalq hikoyalari va xalq hikoyachiligi" kitobida e'lon qilgan.

*Tarixi moziydan topdik bir varaq,
Mutolaa ayladim, xo'p ettim maroq.
Zulmatli qalbimda yondi bir chiroq,
Dedim, nashr o'lsin bu hikoyatimiz.*

Bu dostonidagi voqealar ham boshqa rivoyatlar syujetiga o'xshab ketadi. Navoiy va podshoh bitta qizni sevib qolishadi. Navoiy podshohga bo'lgan hurmati tufayli sevgisidan voz kechadi. U o'z sevgisining uyiga podshoh Boyqaro nomidan sovchi bo'lib boradi. Qiz ikki xil dori keltirishni buyuradi. Ulardan birini o'zi, ikkinchisini Alisher ichishi kerak edi. Shu shart evaziga u sultonga tegishini aytadi. Shart bajariladi. Ammo, qiz ichgan dori sekin ta'sir qiluvchi zahar, Navoiy ichgan dori esa, erkaklik urug'ini kuydiruvchi og'u edi. Shu tariqa qiz podshoh haramiga borganda jon taslim qiladi. Navoiy esa butun umr uylanmay o'tadi.³

¹ Брагинский ва бошқ. Туркмен эдебияты тарихы. – Ашгабат. Туркменистан, 1975. – Б. 281.

² Ҳакимов М. Навоий шеърятининг халқ орасида тарқалиши // Адабий мерос, №2(52), 1990. – Б.20.

³ Алимбеков А. Навоий ҳақидаги турк достони // "Алишер навоий дунё шарқшунослари нигоҳида мавзусидаги халқаро конференция илмий тўплами. – Тошкент, 2021. – Б. 361-364.

Shu misollarning o‘ziyoq Navoiy allaqachon butun turkiy dunyoning eng mashhur va katta ta’sir doirasiga ega siymalaridan biriga aylanganini yaqqol ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami, 20 jildlik. Hayrat ul-abror. 7-T. – Toshkent: “Fan”, 1991. – B. 63.
- 2.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami, 20 jildlik. Farhod va Shirin, 8-T. – Toshkent: “Fan”, 1991. – B. 525.
- 3.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami, 20 jildlik. Sab’ai sayyor. 10-T. – Toshkent: “Fan”, 1992. – B. 60.
- 4.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami, 20 jildlik. Mezon ul-avzon. 16-T. – Toshkent: “Fan”, 2000. – B. 91-93.
- 5.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami, 20 jildlik. Tarixi muluki ajam. 16-T. – Toshkent: “Fan”, 2000. – B. 200.
- 6.Alaviya M. O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari. – Toshkent: “Fan”, 1974. – B. 41.
- 7.Alimbekov A. Navoiy haqidagi turk dostoni // “Alisher Navoiy dunyo sharqshunoslari nigohida” mavzusidagi xalqaro konferensiya ilmiy to‘plami. – Toshkent, 2021. – B. 361-364.
- 8.Braginskiy va boshq. Turkmen edebiyati tarixi. – Ashgabat. Turkmenistan, 1975. – B. 281.
- 9.Doniyorov X. Afsonami yoki tarixiy shaxs. – “Sharq yulduzi” jurnali, №7, 1991. – B. 82.
- 10.Mallaev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. - Toshkent, “Fan”, 1974.
- 11.Umarova N.Abduvalieva N. Alisher Navoiy asarlarida maqol va iboralarning ma’naviy xususiyatlari. - "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (3) III/2020. - B. 111.
- 12.Xolmatova O. O‘zbek xalq maqollarining semantik xususiyatlari. – Magistrlik dissertatsiyasi. Farg‘ona, 2013. – B. 47-52.
- 13.Hakimov M. Alisher Navoiy lirikasi va xalq og‘zaki ijodi. Toshkent, “Fan”, 1979.
- 14.Hakimov M. Navoiy she’riyatining xalq orasida tarqalishi // Adabiy meros, №2(52), 1990. – B.20.
- 15.Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. Toshkent: “O‘qituvchi”, 1993 – B. 191-192.
- 16.Ünüvar D. Türk müziklerinden ayralgu sözcüğünün tarihsel gelişimi. Çeşmi Cihan Bartın universitesi tarih, kültür ve sanat araştırmaları dergisi. cilt 3, sayı 2 s. 28-35. kış, 2016.
- 17.Mahmut Kaşgarlı. Divanü Lügati’t – İstanbul; Türk Tarih Kurumu Basımevi, 2006. Vol. 1. — P. 41.
- 18.<https://mazdo.wordpress.com/2014/09/30/iron-turon-va-turkon-2/>
- 19.<https://uzsmart.uz/ensiklopediya/ensiklopediya/alanquva.html>
- 20.<https://www.testbook.az/proverb>
- 21.<https://erketai.kz/makhal-matelder/makhal-matelder/>
- 22.<https://ekitap.ktb.gov.tr/TR-78880/argustak.html>
- 23.<https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-mumtoz-sheriyati/haydar-xorazmiy/>

FILOLOGIYA**MODERN SHE’R — REBUS EMAS...**

**Anvar
ALLAMBERGENOV**

*shoir Bahrom Ro‘zimuhammad
bilan suhbat*



SAVOL: *Bahrom og‘a, mening nazarimda, hozirgi adabiy jarayonda milliylik va milliy o‘zlik masalasi dolzarbday. Aytingchi, XX asr boshlarida asta-sekinlik bilan o‘zbek adabiyotiga kirib kelgan va o‘z uslubiga ega bo‘lgan hozirgi o‘zbek modern she’riyatida milliy o‘zlik qanday tarzda va usulda hamda kimlarning ijodida yaqqol namoyon bo‘lmoqda?*

JAVOB: Buyuk adib Abdulhamid Cho‘lpon qalamiga mansub bo‘lgan “Ulug‘ hindiy” sarlavhali maqolada yigirmanchi asr boshlarida shakl o‘zgarishlariga ehtiyoj sezilgani, aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, ziyoli qatlam bir necha yuz yillardan beri an’anaga aylanib kelayotgan mumtoz she’riyatdan toliqqanini g‘alati iboralar bilan ifodalagan. “...O‘zbeklar eskidan (Sharq mumtoz nazmi nazarda tutilmoqda. B.R.) – hech sababsiz! – arazlag‘on, xafa; yangiga – endigina suqulib kirmoqda. U adabiyot maydonida yangilikka nisbatan: yosh bola, go‘dak, chaqaloq, eskilikka nisbatan yetim, kimsasiz...” Mazkur mulohazalar, bizning nazdimizda, boshqacha adabiyotni kutish zaruratga aylanganini tasdiq etadi.

Cho‘lponning maqolalarida G‘arb simvolizmining Emil Verxarn, Moris Meterlin kabi yetakchi namoyandalarining nomlari qalamga olingan. Tasmollash mumkinki, Abdurauf Fitrat ham, Abdulhamid Cho‘lpon ham G‘arb simvolizmi vakillarida ijod buloqlaridan “chanqog‘ini” qondirishga kirishganlar. Xususan, Abdurauf Abdurahim o‘g‘li 1909-1913-yillarda Turkiyada ta’lim olgan paytlarida turk yangi she’riyati namunalari bilan yaqindan tanishdi va Fitrat (ma’nosi:

“tug‘ilish”) taxallusi bilan she‘rlar bitdi. Bunda Cho‘lponning poetik tili Fitrat ta‘sirida shakllanganini ilg‘aymiz. Deylik, “Vahm” sarlavhali she‘ri “ko‘ngli yangilik qidirganini” anglatadi:

Kechasi oydinga, oyning
ham xiraroq vaqtida
Na uchun ko‘zimga
haybatli ko‘rinding,
Ey, mening ayvonim
oldida tek turgan
Birgina tup archa?

Fitrat va Cho‘lponlar ta‘sirida 1935-yillarda o‘zbek simvolizm she‘riyati shakllana boshlagan. Oybek, Usmon Nosir kabi shoirlar ularning izidan ergashib, yangicha usullarda qalam tebratganini esa milliy estetik qarashlar inqilobi deyish mumkin. Afsuski, 1937-yillarda voqelikka ko‘chgan sotsrealizm yakkahokimligi modern she‘riyatning murg‘ak nihollarini uzib, chekkalarga uloqtirib tashlagan.

Modernistik oqimlarga (jumladan, simvolizmga) qarshi sho‘ro mafkurasi darg‘alarining kurashi badiiy tafakkurdagi erkinlikka qarshi kurashning ayni o‘zi bo‘ldi. Kurash to‘lqinlarining inersiyasi yaqin kunlarimizgacha davom etdi. Tanaffuslar ila yuz yillik tarix... Bu hazilakam gap emas-da. Kamina Germaniyada chiqqan “Ich habe meih Selbst vergesseh” (“Men o‘zimni unutdim”) nomli kitobimning oxirgi 50-betidan o‘rin olgan qaydnomamda asarlari meni ruhlantirgan uch shoir nomlarini qalamga olganman: Fitrat, Cho‘lpon, Rauf Parfi. Modernistik she‘riyatimizdagi idrokka o‘zbekona usulda zarb berishni shu shoirlarning bitiklari ta‘sirida o‘rgandik. Milliy o‘zlik Abduvali Qutbiddin ijodida so‘fiyona tarzda ko‘rinsa, Faxriyor she‘rlarida esa shaklga sharqona nigoh tashlash zaylida ko‘zga tashlanadi. Go‘zal Begim she‘rlarida esa tabiat ko‘rinishlariga nisbatan ehtirosning o‘ta nozik ifodalari bilan go‘yo “ko‘ngil ko‘zi” to‘qnashadi. Rossiyalik shoir, tadqiqotchi Sanjar Yanishev o‘zbek modernizmini “issiq modernizm” degan. Amerikalik olim Reychel Xarel fikricha, o‘zbek modern she‘riyati Amerikada ham o‘z muxlislariga ega, ya‘ni: bo‘lishi mumkin. “O‘zbek modern she‘riyati amerikalik o‘quvchilar uchun ham qiziqish tug‘dirishi tabiiy. Barcha “modernizmlar” va ularning davomchilari bo‘lgan oqimlar (shu jumladan, amerika postmodernizmi ham) ba‘zi umumiy impulslardan oziqlanadi – tilning “charchaganligi”ga, o‘z ifoda imkoniyatlarini “tugatganligi”ga reaksiyasi, shaklning o‘zi bilan ham an‘anaviylikka isyon, zamonaviy dunyoning ilgari nazardan chetda qolgan jihatlariga e‘tibor, ruh bezovtaligi va h.k. Shunday bo‘lsa ham, o‘zbek modernizmi boshqa o‘quvchilar doirasi, boshqa til sharoiti va shoirlarning o‘z o‘tmishdoshlari bilan boshqacha

munosabatlariga muvofiq ravishda o'ziga xos yo'nalishda rivojlanmoqda". Hayratlanarli jihati shundaki, Reychel xonim bu maqolasini o'zbek tilida yozib, "Jahon adabiyoti" jurnalida e'lon qildirgan. Men Reychel xonim bilan Toshkentda o'zbek tilida suhbatlashganman. U kaminaning va Go'zal Beginning bir qancha she'rlarini aslyatdan ingliz tiliga mahorat bilan o'g'irgan.

Olim, nasrnavis Ma'rufjon Yo'ldoshev, Husayin Baydemir, Yilmaz O'zqoya bilan hammualliflikda Turkiyada o'zbek va turk tillarida nashr qildirgan "Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti" (She'r, hikoya, roman) nomli 560 betlik antologiyaning so'zboshisida modern she'riyati haqida fikr bildiradi. Uning fikricha, o'zbek modern she'riyati yigirmanchi asrning 80-yillarida rus va kunbotar shoirlari ta'sirida shakllana boshlagan. Xullas, o'zbek modern she'riyati xalqaro miqyosda e'tirof etilayotgani bizni mamnun qilmoqda. Agarda modernistlar ijodida milliy o'zlik aksini topmagan bo'lsa, xorij noshirlari, tadqiqotchilari o'sha bitiklarga bunchalik ishtiyoq bilan qaramagan, aksincha esa, ular G'arb adabiyotiga taqlid, deb qo'l siltab qo'ygan bo'lar edi.

SAVOL: O'zbek modern adabiyoti haqidagi bahslar 2000-yillarda juda ham qaynoq tus olgan. O'sha paytda modern yo'nalishida yozuvchi ijodkorlar soni ham avvalgi va hozirgi vaqtga qaraganda ko'pchilikni tashkil qilgan. Ayni paytda esa bu bahs-u munozara anchagina bosilganday yoki modernistman deguvchilar ham sukut saqlab jimiganday, nazarimizda. Davr haqida, ijodkor haqida, bo'lib o'tgan qizg'in bahs-munozaralar hamda modern adabiyotining bugungi ahvoli haqida to'xtalib o'tsangiz?

JAVOB: Anvarbek, bahslashuv yaxshi narsa. Adabiyotda bahs-u munozaralar qizg'in bo'lsa, ijodkor zerikmaydi. Chindan ham yangi asr arafasida adabiy yig'inlarda, badiiy nashrlarda tortishuvlar aks-sado berib turgan. O'sha paytlarda xafa bo'lganlarni ham ko'rganman. Ya'ni, adib Shukur Xolmirzayevning "moderniylar" (Shukur akaning iborasi) deb masxara ohangida yozgan "Kechirasiz, janob Carpenter, vaqtim ziqroq" nomli maqolasi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida bosilib chiqqach, shunda men darhol "Suvni tarozida tortib bo'lmaydi" degan maqola yozib, tahririyatga olib bordim. Maqolam boshqa sarlavha ostida yorug'lik yuzini ko'rdi (sarlavha esimda qolmabdi). Shundan so'ng davralarda shov-shuv boshlandi... adabiyotshunos Suvon Meli bahsni davom ettirdi. Men uning mulohazalarini rad qilib "Dekadentlikning ildizi qayerda?" nomli maqola yozdim. Hajm jihatidan kattaligi bois ushbu maqolam "Yozuvchi" gazetasiga o'tkazib yuborildi. Shukur aka ancha vaqtgacha mendan arazlab, salomlashmay, ko'rishmay ham yurdi. Esimda, bosh muharrir Murod Abdullayevning topshirig'iga binoan uning dala hovlisiga bordim. Avvaliga undan-mundan gaplashib o'tirdik, keyin esa gurungimiz qovushib ketdi. O'rtamizdagi sen-u men, araz ko'tarildi. Sh.Xolmirzayev bilan

bo'lgan suhbatimiz "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida bosilgach, yaxshi ma'nodagi ovozga aylandi. Alohida ta'kidlayman: mening adabiy tanqidchilikka aralashuvimga Ahmad Otaboy sababchi bo'lgan. Agarda siz "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 1996-2005-yilgi taxlamlarini varaqlab ko'rsangiz, modernizm to'g'risidagi ko'plab maqolalarimga ko'zingiz tushadi. Eshitishimcha, hatto qaysidir noshir bahs-u munozaralarimizni yig'ib, kitob qilmoqchi ham bo'libdi. Yaxshi niyati amalga oshmadi chog'i... Ha, darvoqe, bahsni Sh.Xolmirzayev yakunlab berishi rejalashtirilgan edi. Biroq, bahs kulminatsion nuqtaga chiqqach, negadir uzildi-qoldi...

Ba'zi taxminlarga ko'ra, modernizm haqida bahs-u munozaralar realistlarning emas, balki modernistlarning foydasiga ishlagan, qabilidagi fikr "tepa"dagilarga yoqmagan. Ana shuning uchun ham shov-shuvlarga nuqta qo'yilgan. Darvoqe, shoir, tarjimon Shermurod Subhon bilan hamkorlikda tayyorlab, nashr qilgan – "O'zbek modern she'riyati" bayozi faqat "Darakchi" gazetasida targ'ib qilindi. Ammo nufuzli badiiy nashrlarda bu xususda lom-mim deyilmadi. Modernizm mavzusidagi tadqiqotlar cheklab qo'yilgani haqida ham eshitganman. Realistlar nufuziga soya tushishi mumkin, deb xavfsiradilar, shekilli. Yana bilmadim, Alloh bilguvchi.

Butunlay boshqacha adabiy shakl ro'parasida talmovsirab qolish – bu juda ham tabiiy hodisa. Deylik, jahon modernistlarining qiroli Jeyms Joys hikoyalari ko'p yillar mobaynida badiiy jurnallar tahririyatining g'aladonlarida chang bosib yotgan. Muharrirlar "Tushunmagan narsamizni bosmaymiz" deyishgan. Adibning betakror "Uliss" romani 1922-yilda Parijda kitob holida nashr etilgan. Mana, oradan salkam 100 yil o'tdi. Mazkur romanning o'zbek tilida nashr etilishi madaniy hayotimizdagi ulkan hodisa bo'ldi. Demak, mintaqamizda modernizmga qiziqish va ishtiyoq kuchayib bormoqda. Asarning ilk satrlaridanoq shakl, ifoda o'zgachaligi ko'zga tashlanadi: "Biqqi Bak Malligan sovun ko'pirtirilgan idish ustiga ustma-ust qo'yilgan oyna bilan ustarani qo'lida ko'targancha pillapoyaning yuqori sahniga ulug'vorona bir qiyofada chiqib bordi. Belbog'i o'tkazilmagan sariq xalatining etaklari yengil tong shabadasida ohista hilpirardi" (Jeyms Joys. "Uliss sarguzashtlari". Rus tilidan Ibrohim G'afurov tarjimasini. Toshkent, 2013. 22-bet). "Hech shubhasiz, "Uliss" ba'zilar o'lgudek yomon ko'radigan, ammo yana eng ko'p o'shani o'ylaydigan roman" deb yozadi so'zboshisida professor Akmal Saidov. Demak, modern, postmodern usulida bitilgan asarlar kimlargadir hayratbaxsh bo'lib ko'rinadi va kimlardir bu usul hosilalari bilan tanishib, jahliga erk beradi. Bugungi kunda adabiyot shinavandalarining didi bir-biridan keskin farqlanmoqda.

Yaqinda adib Nazar Eshonqul qalamiga mansub “Bahovuddinning iti” nomli hikoyani o‘qib chiqdim. Gapning rosti, musiqa tinglayotgandek bo‘ldim. Avvallari hikoyani odamga shu qadar kuchli ta’sir o‘tkazishi mumkinligi xususida o‘ylab ham ko‘rmagan ekanman. Bu – o‘zgarayotgan shakllar mo‘jizasi...

Milliy she’riyat va nasrimizdagi shakliy yangilanishlar adabiyotshunos olimlarning oldida imkoniyatlar eshiklarini ochib berishi shubhasizdir. Binobarin, endilikda olimlarimiz o‘zlarini ko‘rsatishga, adabiyot ahliga tubdan yangilangan estetik qarashlarini taqdim etishga shaylanmoqliklari kerak. Zotan, dono xalqimiz qars ikki qo‘ldan chiqadi, deganlar.

SAVOL: O‘zbek modern she’riyati rivojida Rauf Parfi ijodining ahamiyati to‘g‘risida nimalar deya olasiz?

JAVOB: Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjon va Rauf Parfi... Bu to‘rt nafar zabardast shoir ijodi, estetik qarashlari, kashfiyotlari haqida kelajakda ko‘p va xo‘b yoziladi. Shu avlod vakili bo‘lgan Omon Matjon bilan 1986–1987-yillarda “Yoshlik” jurnalida birga ishlashganim, murakkab, ziddiyatli shaxsiyat egasining suhbatlariga quloq tutganim men uchun anchayin qiziqarli bo‘lgan. Eshlasam hamon ta’sirlanaman, ruhlanaman. To‘rt shoirimiz ham davlatimizning yuksak unvonlariga munosib ko‘rildilar – demak, ularning ijodi rasmiy doiralarda tan olingan, e’tirof etilgan. Ammo Rauf Parfi o‘z avloddoshlariga nisbatan boshqacharoq yo‘lni tanladi. Ustozning ijod namunalari orasida modernistik mezonlarga mos va monand keladigan bitiklari bor. Ayniqsa, sarbast she’rlarida, jumladan, “Verlen” sarlavhali she’rida modernistik uslub bo‘y ko‘rsatib turibdi. Ustozga modernizm haqida savol berganimda u: “Modernizm Sharqda tug‘ilib, G‘arbda pasport olgan” deya mutoyiba yo‘sinida javob qaytargan edi. Kuchli falsafaga yo‘g‘rilgan ushbu javobni men ustoz ko‘zi ochiqqligida Mamadali Eronov bilan bo‘lgan muloqotimizda ishlatganman – suhbat “Fidokor” gazetasida nashr etilgan. Rauf Parfini Fitrat va Cho‘lponning vorisi sifatida o‘zbek modern she’riyatining asoschilaridan biri desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz. Kamina va maslakdoshlari ularning tajribalarini davom ettirishdi.

SAVOL: Akademik Matyoqub Qo‘shjonovdan modernizmga munosabatini so‘raganda “kelajak oqimi” deb javob berganligini suhbatlarimizning birida ta’kidlagan edingiz. Aytingchi, modernizmning kelajagini qanday tasavvur qilasiz?

JAVOB: Qo‘shjonov domla masalasini eshlasam, rosti, qiynalaman. Chunki suhbatimizda men “qovun tushirib” qo‘yganman. 2003-yillarda bir fikrnoma bahonasi sabab domla bilan tez-tez muloqotga kirishadigan bo‘lib qoldik. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi tahririyatida ishlab yurgan kezzarimda

u kabinetimga ko‘p kelardi. Bir gal: “Bahromboy, tumanlarga ijodiy uchrashuvlarga borganimda o‘quvchilar, domla, modernizm nima o‘zi, qabilida savol berishadi. To‘g‘risi, modernizm haqida tasavvurim oz. Modernizm – kelajak oqimi deb zo‘rg‘a qutulaman. Sen menga modernizmni qisqagina qilib tushuntirib ber”, dedi. Shunda domlanning hokisor ko‘rinishiga ishonib hazillashgim keldi. “Matyoqub aka, qancha vaqtingiz bor?” dedim. Qo‘l soatiga qaradi-da, o‘n besh minut, dedi. “Men o‘n besh yil izlanib, modernizm nima ekanligini bildim. O‘sha bilimni o‘n besh minutda sizga qanday qilib tushuntiraman”, debman. Domlaga esa hazilim yoqmadi, rangi oqardi. Xayol surib o‘tirib: – “Xo‘p, mayli. Bo‘lmasa, falonchi-falonchi (buyuk shoirlarning ism-shariflarini aytdi)lar ijodi haqidagi mulohazalaringni ayt”, dedi. – “Mening nazarimda ularning yozganlari jo‘n”. – “Bo‘lmasa, turag‘oyin?” – “Nega?” – “Men ham o‘sha jo‘nchilardan biri bo‘laman”. Xullas, hazilning “zili” chiqdi. Shu ketishida domla qayta meni yo‘qlamadi.

Davron Rajab Qo‘shjonov domlanning dala hovlisiga borib, u-bu yumushlariga qarashib yurardi. Bir gal unga voqeani tushuntirib, domlanning modernizm haqida fikrini bilib keling, dedim. U so‘rabdi. Qo‘shjonov domla uzoq xayol surib, “To‘g‘risi, modernizmni uncha xush ko‘rmayman” deb javob qilibdi.

Ancha vaqtgacha domla bilan yarashishga payt poylab yurdim. Kunlarning birida Davron: “Matyoqub aka frontdaligida rus qizlaridan olgan maktublarini saqlab qo‘ygan ekan. Shuni menga tarjima qilish uchun berdi”, deb qoldi. O‘sha vaqtlarda men O‘zbekiston Favqulodda vaziyatlar vazirligining “Vaziyat” va “Muhofaza plyus” Birlashgan tahririyatida ishlayotgan edim. “Shu xatlardan maqola yasasak-chi?” dedim Davronga. Taklifim unga ma‘qul tushdi. 2005-yilda, “Muhofaza plyus” jurnalining G‘alabaning oltmish yilligiga bag‘ishlangan sahifasida Davron Rajabning maqolasini yoritdik. Domlanning frontdagi suratlarini ham joyladik. Ana o‘sha maqolani bahona qilib domlanning uyiga borganmiz.

Esimda, domla uyni qorong‘ilatib jimgina o‘tirgan ekan. Ovoz berdik. Kiraveringlar, dedi. Ko‘zimiz qorong‘ilikka ko‘nikkach, domla ko‘rindi. “Issiqni yoqtirmayman”, dedi u. Keyin esa mening ishlarim bilan qiziqdi. “Adabiyot-san‘at”dan (“O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasi demoqchi. – B.R.) ketmasliging kerak edi. Bilaman, redaktorlaring sal jizzaki. Lekin baribir ketmasliging kerak edi. Yaxshi ishlarni boshlagan eding”. Undan-bundan gurunglashib qo‘zg‘aldik. “Xozyayka bozorga ketuvdi. Endigi kelganlaringizda palov damlataman”. O‘tiravering, deyishimizga qaramasdan domla bizni kuzatib eshik bo‘sag‘asigacha chiqdi. “Yozaveringlar. Yozganlaringiz qoladi”, dedi. Bu Qo‘shjonov domladan eshitgan eng so‘nggi gap sifatida xotiramga muhrlangan.

Ancha vaqtgacha o‘z-o‘zimni koyib yurdim. Modernizm mavzusida domla bilan suhbat tayyorlasam bo‘lmasmidi, deb armon ham qildim.

Ha, darvoqe, qizlar urush bo‘lib turgan joyga yaqinroq qishloqlardan frontga maktub jo‘natishar ekan. Konvert tepasiga ular “Xatni olgan birinchi soldatga” deb yozishar ekan. Shularni o‘ylar ekanman, inson ma‘lum ma’noda baribir zerikadi, qabilidagi xulosaga keldim, albatta, bu noshukrlik emas. So‘z dunyosida ham zerikish bor shekilli. Malomat toshlari qanchalik yog‘ilmasin, shakllarni o‘zgartirishga kirishmak amali ham zerikishga taqaladi. Cho‘lpon mumtoz she‘riyatimizdagi ma‘no-mazmundan emas, balki shaklning o‘zaro yaqinligidan zerikkan. “...Navoiy, Lutfiy, Boyqaro, Mashrab, Umarxon, Fazliy, Furqat, Muqimiylarni o‘qiymen: bir xil, bir xil, bir xil! Ko‘ngil boshqa narsa, yangilik qidiradir...” deb yozgan u “Ulug‘ hindiy” sarlavhali maqolasida. Rabindranat Tagorni esa “Sharq va G‘arb o‘rtasidagi oltun ko‘pruk” deb atagan.

Taxminimcha, hozirgi davrda Amerika, Yevropa qit‘alaridagi adabiyot ixlosmandlari ifodalar shaklidan zerika boshladi. Endilikda ular Sharqqa “yurish” uyushtirmoqdalar. Shu bahonada biz g‘ariblarning bitiklari ham G‘arbgga chiqib qolsa ajabmas.

SAVOL: Modernist ijodkorlar va ularning asarlari tadqiqiga kirishgan yoki munosabat bildirib turgan adabiyotshunoslar haqida gapirsangiz?

JAVOB: Yozishlaricha, Artyur Rembo 15-19 yoshlar orasidagina ijod qilgan. So‘ng esa she‘riyatdan butunlay voz kechgan. Ammo u jahon adabiyoti tarixidan muqim joy oldi. Shunga qiyosan aytsak, bir-ikki yoki butun modernistlar guruhining ijoddan to‘xtashidan fojia yasamaslik joiz. Hamma gap yaratilgan asarlarda. U qachon yaratilgan - buning ahamiyati yo‘q. Men Xurshid Do‘stmuhammad, Olim Otaxon, Nazar Eshonqul, Salomat Vafo, Isajon Sulton, Abduvali Qutbiddin, Aziz Said, Boltaboy Bekmatov, Shamshod Abdullayev (rusiyzabon o‘zbek shoiri), Larisa Dabija (toshkentlik rusiyzabon shoir), Faxriyor, Shermurod Subhon, Davron Rajab, Murod Chovush, Go‘zal Begim, Oydinniso, Tillaniso kabi so‘z san‘atkorlari qachonlardir o‘zbek adabiyotining faxri, deb e‘tirof etilishiga astoydil ishonaman. Bu ijodkorlarning har biri mashaqqatli yo‘lni bosib, manzil sari intilmoqda. Ularni modernist deymizmi, yoki postmodernistmi – bu ham ahamiyatsiz. Eng asosiysi, muhimi shuki, ular ijodda kashfiyotlar yaratmoqda.

Tadqiqotchilar xususida gap ochsam, adabiyotshunoslikda o‘zini ko‘z-ko‘z qilmaydigan, lekin estetik qarashlari bilan alohida ajralib turadigan Ahmad Otaboy haqida to‘xtalishimga to‘g‘ri keladi. Ahmad Otaboy 1996-yilda “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasida “Istilohlar” ruknini tashkillashtirib, modernistik oqimlar to‘g‘risida qaydnomalar e‘lon qilib bordi. Yodimda, “Modernizm” sarlavhali qaydnomasiga san‘atshunos Norsaid Oydinov hamda

men fikr bildirgan edik. Ahmad aka professor Ozod Sharafiddinov bilan ham suhbat uyushtirgan. “Modernizm – jo‘n hodisa... emas” sarlavhali o‘sha suhbat go‘yo adabiy muhitni bir qalqitib qo‘ygan edi. Eshitishimcha, modernizm haqidagi bahs-u munozaralarga ham u “turtki” bergan ekan. Yana men Ulug‘bek Hamdam haqida gapirmoqchiman. Ulug‘bek – ko‘p qirrali ijodkor. Nasrnavis, shoir, tarjimon, o‘zbek adabiyoti targ‘ibotchisi. Yangicha shakllar, badiiy did tadriji haqidagi tadqiqotlari, professor Umarali Normatov bilan qilgan suhbatlari hamon kechagidek yodimizda. Shermurod Subhon ham modernizm, postmodernizm haqida tadqiqotlar qilib, modernistlarimizning she‘rlarini turkchaga, turk postmodernistlarining she‘rlarini esa ona tilimizga o‘girib, ancha xizmat qilmoqda.

Omma orasida, ba‘zi adabiyotshunoslar davralarida ham modern she‘r – rebus, qabilidagi gaplarni eshitamiz. Yo‘q, modern she‘r — rebus emas. Faqat realizmning “ko‘zoynaklari” ila qaralganda, rebusga o‘xshab ko‘rinadi. Modernizm, postmodernizm kabi oqimlarga mansub she‘rlar ongosti qavatlaridagi nuqtalarni qo‘zg‘ashga mo‘ljallangan. Ongosti qavatlariga chiroyli tushlar xush yoqadi. Demakki, tushmonand she‘rlar ongosti mulkidir. Ana o‘sha obyekt masalasiga nazariyotchi olimlar oydinlik kiritmog‘i kerak.

Men hozir faqatgina modern, postmodern she‘riyat tarixi, ta‘sir o‘tkazish usullari bilan shug‘ullanadigan tadqiqotchini adabiyotshunosligimizda ko‘rmayapman. Xo‘sh, eng qadimgi turkiy she‘riyat shakli qanday bo‘lgan; toshbitiklardagi yozuvlar qanaqa estetik qarashlarning mahsuli; o‘zbek modernist shoirlarining deylik, turk, ozarbayjon modernist shoirlaridan farqli jihatlari nimalarda ko‘rinadi; fors modernistlaridan farqi-chi; qit‘a doirasida, jahon doirasidagi o‘rnimiz; kunimiz modernistlarini Fitrat, Cho‘lpon, Oybek, Parfi she‘riyati bilan xolisona solishtirilganda nimalar oydinlashadi... Bu kabi ko‘plab savollarga javob axtarib ko‘riladigan davr yetib keldi, deb o‘ylayman. Darvoqe, nukuslik olim Oqulbay Gayliyeva o‘zbek, turkman, qoraqalpoq modernist shoirlarining ijodi tadqiqiga kirishgani quvonarli hol bo‘ldi. Ana o‘sha usul ko‘pchilikka namuna bo‘lishi lozim.

Bugungi kunda biz ko‘proq modernizm oqimi to‘g‘risida suhbatlashyapmiz. Lekin modernizmdan oldingi oqim — simbolizm haqida nega gapirmaymiz? Cho‘lpon, Oybek kabi “qaldirg‘ochlariga” ega bu yo‘nalishning Rauf Parfi, Xosiyat Rustamovadek vorislari bo‘lgan. Postmodernizm xususida ham gurunglashmoq kerak. Ayniqsa, modernizm bilan postmodernizm chegarasini aniqlash ajabtovur qiziqarli ish. G‘arbda modernizm eskirganidan keyin uning o‘rniga kirib kelgan oqimni “postmodernizm” deyishgan. Mazkur yangilanishlar nazariyotchi tadqiqotchilar oldida bahs-u mavzular miqyosini

oshiradi. Men o‘zim “izmlarga” o‘ralashib qolish amalini yoqtirmayman. Ammo nazariyotchilar ham ishsiz qolmasligi kerak-da.

SAVOL: *O‘zbek modern she‘riyatining ilk shabadalari Cho‘plon, Usmon Nosir ijodida elas-elas ko‘rinadi, bu she‘riyatning adabiyotimizga kirib kelganiga bir asr vaqt o‘tishiga qaramasdan negadir, yoyilib ketmadi, keng jamoatchilik va o‘quvchilar orasida ommalashmadi. Buning sababi nimada?*

JAVOB: Bir shoirni birvarakayiga ko‘pchilik olqishlashi tarixda hech kuzatilmagan. Chunki xalqning didi, saviyasi, kechina(chekina) bilish layoqati, so‘zga munosabati turlicha. Saviyasi asta-sekin o‘sishi yoki o‘smay turg‘un bo‘lib qolishi mumkin narsa, odatiy hol. Nokamtarlikka yo‘ymasangiz, o‘zimdan misol keltirsam. Dadamning chog‘roqqina shaxsiy kutubxonasida Uyg‘un qalamiga mansub jildliklarni topib, o‘qib zavqlanardim. O‘tgan asrning 70-yillarida men uchun she‘riyat Uyg‘un domladangina iborat edi. So‘ng dadam bizlarga malla muqovali “Sinszyan shoirlari” nomli kitobni ko‘rsatdi. O‘sha kitob ishxonamda... Bir she‘rni ukalarim bilan yod olib, doim aytib yurganmiz. Uyg‘ur shoiri Turdi Somsoq qalamiga mansub o‘sha jajji she‘r biz, o‘smirlarning didimizga juda mos tushgan:

Cho‘g‘dek lovillab turmasa,

Yuragim bor demagin.

Yuraging to‘lqin urmasa,

Tilagim bor demagin.

Tilak amalga oshmasa,

Bilagim bor demagin.

Ishing elga yoqmasa

Keragim bor demagin.

(“Sinszyan shoirlari”. Uyg‘urchadan Adham Rahmat va Usmon Mamatov tarjimalari. Toshkent, 1957-yil).

Bir kuni dadam “O‘qituvchilar gazetasi”ni o‘qib o‘tirib, menga, malla kitobni olib kel, dedi. Mazkur gazetada bir otaxonning she‘riy turkumi chiqqan ekan, o‘sha she‘rlar dadamga tanish tuyulibdi. Kitobni berdim. Dadam tezgina varaqlab, otaxonning she‘rlari bilan taqqoslab ko‘rdi-da, achchiq kulimsirab, bu odam uyg‘ur shoirlarining she‘rlarini nuqta-vergulgacha ko‘chiribdi, dedi. “O‘qituvchilar gazetasi”ga o‘g‘ri shoir to‘g‘risida xat yozib yubordi; lekin javob kelmadi. Shu voqeani hozir o‘ylab o‘tirib, uyg‘ur shoirlari bayozini minglab nazm shavandalariga ma‘qul tushganini (bayoz 10.000 nusxada chop etilgan) tasavvur qilyapman.

1976-yilda dadam menga Erkin Vohidovning “Muhabbat” nomli kitobini sovg‘a qilgan. Oq qog‘ozga o‘ralgan. “Do‘konchi bu kitobni yashirib sotayotgan ekan. Ustiga bir so‘m qo‘shdim. O‘zing o‘qi, hech kimga berma!” degan. Bu kitob

mutolaasiga kirishar ekanman, Erkin Vohidovning muxlisiga aylana boshladim. Uning Sergey Yesenindan qilgan tarjimalari menda kuchli his-hayajon uyg‘otgan. Keyinchalik Toshkentda tahsil olganimda Yeseninning “Zamin darg‘asi” nomli kitobini zavq-u shavq og‘ushida berilib mutolaa qilganim esimda.

O‘smirlik vaqtlarimda Alisher Navoiy ruboiylarini, g‘azallarini o‘qib, gapning rosti, hech balo tushungan emasman. Biz Navoiy nomli maktab o‘quvchisi edik. Shoirning sallali portretiga har gal ko‘zim tushar ekan, bu shoirni o‘tmishda yashagani uchun “buyuk” desalar kerak, ammo, nimasi buyuk ekan, degan xayolga cho‘mardim. Ayniqsa, Navoiy ruboiysidagi “g‘urbat”, “shodmon” degan so‘zlar menga yoqmas, g‘ashimni keltirardi. Erkin Vohidovning so‘zlari esa idrokimga yog‘day yoqqan: “Ey zakiy she’rparast oshno”; “dildosh do‘stim”... Vohidov g‘azallari matni ichiga shu qadar “sho‘ng‘ib ketdimki”, unga taqlidan o‘zim ham g‘azallar yoza boshladim. Shoirning “Ruhlar isyoni” dostoniga taqlid qilib, chex jurnalisti Yulius Fuchikka bag‘ishlab “doston” qoraladim. Dadam “doston”imni o‘qib chiqdi. Uyimizga kelgan bir muallimaga o‘sha “narsam”ni maqtagan.

Endi Usmon Nosir masalasi... Sho‘ro shoirlari antologiyasini varaqlayotib, uning “Naxshon” poemasi dan parchada to‘xtaganman. “Kiprigi ko‘ksiga soya solgan qiz” misrasi, mana, qariyb yarim asrki, idrokimda yashayapti. Ammo, o‘sha davrlarda Usmon Nosir maqomini bugungiday tasavvur qila olmaganman.

1980-yillarda domla Najmiddin Komilov rag‘bati ila fransuz simvolist shoiri Artyur Remboning halok bo‘lgan jangchi to‘g‘risidagi ajabtovur she’rini tarjima qildim. (Ruschani yaxshi bilmaganim uchun domla so‘zlarning ma’nosini aytib turgan). Varaqni mamnuniyat ila domlaga uzatdim. O‘qib chiqdi-da, “Baromjon (menga shunday murojaat qilardi), tarjimangiz durust. Agarda o‘z ustringizda qattiq ishlangiz, sizdan mohir tarjimon chiqishi mumkin” degan. Shovot tuman “Sovet paxtakori” gazetasida ishlab yurgan paytlarimda men bu tarjimamni shu gazetada e‘lon qildirganman. Qizig‘i shundaki, tahririyat xodimlari Rembo she’ri borasida hech qanaqa fikr bildirmaganlar.

Saksoninchi yillarda fransuz simvolistlari muxlisiga aylandim. Universitet kutubxonasida Oybek jildliklarini varaqlayotib, belgiyalik simvolist shoir Emil Verxorn qalamiga mansub bitta she’r tarjimasini o‘qidim. O‘sha she’r, ta’bir joiz bo‘lsa, qarshimda simvolizm eshiklarini lang ochib yubordi. Keyin bilsam, Verxorn she’riyatiga Abdulhamid Cho‘lpon ham qiziqqan ekan. Bir maqolasida “balchiqli shoir Verxorn” degan. Javobim cho‘zilib ketgan bo‘lsa uzr. Men sizga saviyam yillar mobaynida tadrijiy o‘sib borgani xususida hikoya qilib berdim. Saviyam o‘sgani sari avval hayratlanib o‘qiganlarim — o‘zbek va xorij shoirlarining realistik uslubda bitgan she’rlari o‘z sirlarini oshkor qilishga

kirishdilar. Va faqir bulardan ortiq hayajonlanmay, hayratlanmay qo'ydim. Endi o'zingiz o'ylab ko'ring. Agarda qishloqdan jilmasdan eski saviyam bilan yashayversam, bugungi kunda modernist shoirni ko'rarmidingiz-lar? Albatta, yo'q.

Men dadamdan Alisher Navoiyning "Xazoyin-ul maoniy" chor devonining uchinchisini so'rab olib, kattakon sumkamda Toshkentga olib kelganman. Ijarama-ijara ko'chib yurganimda ko'p kitoblari yo'qolib ketgan; o'shani ko'z qorachig'imday asradim. "Ma'nolar xazinasi" darvozalarini qanchalik chiransamda ochib bilolmaganman. Shunda bahor vaqtlarida, o'qishdan keyin sinfdosh do'stlarim bilan kolxozda ishlaganim, solma (ariq) qazganlarim yodimga tushgan. Tabelchi har birimizga solmaning bir qismini o'lchab, cho'p qoqib berardi. Goho Samandar ota ismli keksa kolxozchi bilan yonma-yon tushardik. Kuchanib-kuchanib qo'lim qavarib ketardi. Samandar ota esa deyarlik kuchini sarflamas, belni harakatlantirishi bilanoq ulkan kesaklar go'yoki yog'dek ko'char edi. Buning sababini so'rasam, Samandar ota kulimsirab: "Boxromboy, kesakning juyini top, juyini!" der edi. O'sha vaqtlarda men juyni nima ekanligini tushuna olmaganman. So'ng bilsam juy – tayanch nuqtasi ekan. 1990-yillarda men ustoz Matnazar Abdulhakim ko'magida Navoiy g'azallarining, dostonlarining juyini topdim. Yillar mobaynida niyat qilib yurganimday birovlarining sharh, izohlarisiz "o'z kalam bilan" Navoiyni tushunishga kirishdim. 1994-yilda "Navoiyga tatabbu" sarlavhali she'r yozib, hazratning bir baytini o'zimcha sharhlaganman. Navoiy haqida 5-6 ta maqola yozdim. Bularning ayrimlari mamlakatimizning nufuzli gazetalarida chiqqan. Maqtanishga yo'ymasangiz, bir gap aytaman. Yozuvchilarning hisobot anjumanida adib Omon Muxtor "Ma'rifat" gazetasida e'lon qilingan "Ziddiyatlar chorrahasida" sarlavhali maqolam haqida fikr bildirayotib, "men shu vaqtga qadar Navoiy ijodi haqida bunday serqirra maqolani o'qimagan edim" debdi.

Alisher Navoiyni ko'pchilik ko'r-ko'rona maqtaydi. Agarda ularning ba'zilaridan, Navoiyning qancha g'azalini o'qigansiz? "Lison ut-tayr" dostoni haqida gapirib bering-chi?... qabilida so'rasangiz, sukut saqlashlari aniq. Ochig'ini aytaman – men Navoiyning hamma g'azallari-yu dostonlarini o'qimaganman. Hazrat asarlari mutolaasi ruhiy sokinlikni talab etadi. Ammo, shuni ishonch ila tasdiqlashim mumkinki, men uchun Navoiy – sirli, maftunkor, jozibali cho'qqi. Modern deysizmi, postmodernmi, viziul she'riyat... xullas, bugungi kun jahon shoirlarining kashfiyotlari Navoiyda bor. Ollohga shukurki, bobomiz turkiy tilda yozgan. Aks holda u qo'llagan so'zlar ifori aslicha ongimizga, ongosti qavatlarimizga yetib bormagan bo'lur edi. Ming yilning nari-berisidagi turk-o'zbek she'riyatini shartli ravishda uch davrga ajratish mumkin. Birinchisi – qadimdan Navoiygacha bo'lgan she'riyat. Ikkinchisi – Navoiydan

Feruzgacha bo‘lgan she‘riyat. Uchinchisi – Fitrat, Cho‘lpon, Oybek, Usmon Nosirlardan to kunimizgacha bo‘lgan she‘riyat. Yuqorida ism-shariflari zikr etilgan shoirlar so‘z maydonida chinakamiga MO‘JIZA ko‘rsatgan. Bu Til ichidagi tovlanishlar, asalguftorlik... O‘zbek tili musiqasini, ayniqsa, Cho‘lpon va Usmon Nosir she‘rlarini o‘qigachgina anglab, lazzatlanasiz.

Shukrullo domladan eshitganim bor: Abdulhamid Cho‘lpon va Usmon Nosir she‘rlari 1936-yillarda, qatag‘ondan sal avval texnikum, institut talabalari orasida juda ommalashib ketgan ekan. Domlaning hovlisiga borganimda u Usmon Nosir she‘rlaridan, uning Lermontovdan qilgan tarjimalaridan yod o‘qib berardi. “Usmon Nosirni o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman. U o‘sha paytlarda biz uchun ideal shoir edi!” deya xitob qilib ko‘p yig‘lardi. Qatag‘ondan avval Abdulhamid Cho‘lponni ko‘klarga ko‘targan, hattoki Shekspir bilan tenglashtirgan. Cho‘lpon bor-yo‘g‘i 40 yil yashagan; Usmon Nosirning ozodlikdagi umri 25 yilni tashkil etadi. U Lermontov yoshini ham yashay olmagan.

Siz aytganingizday, bu buyuklarimiz she‘riyati hozirgi vaqtda keng jamoatchilik va o‘quvchilar orasida ommalashib ketgani yo‘q. Buning asosiy sababi umumsaviyaning pastligidadir. Saviya o‘stirish amalini oilada farzand dunyoga kelgan vaqtlardan boshlamoq kerak. Yosh bolaning idroki toza bo‘ladi. Ular eshitgan she‘rlarining so‘zlarini, ohanglarini eslab qoladilar. Taniqli shoir Yo‘ldosh Eshbek bir suhbatida: “Men nevaralarimni yig‘ib she‘r o‘qib beraman. Diqqat bilan quloq soladilar. O‘qishni to‘xtatsam, o‘qing, deydilar” degan edi. Doimo ismli rassom (Fransiyada yashab, Yevropa mamlakatlarida ham tanilgan) chaqalog‘ini ko‘tarib devordagi kartinalarni tomosha qildirarkan. Pirovardida, o‘sha qizaloq ulg‘aygach, mashhur musavvir bo‘lib yetishgan.

Yosh Alisherbekning tog‘alari Mir Said (Kobuliy) va Mavlono Ali (G‘aribiy) zabardast shoirlar edi. Ularning davrasida she‘r tinglab Alisherbekning saviyasi tez o‘sgan. To‘qqiz-o‘n yoshlarida hazrat Attor qalamiga mansub “Mantiq-ut tayr”ni yod olib, shu nazm ummoni ostiga “sho‘ng‘iydi”:

Manga ul holatda tab‘i bulhavas,
 “Mantiqut tayr” aylab erdi multamas.
 Topdi sokin – sokin ul takrordin,
 Soda ko‘nglum bahra ul guftordin.
 Ta‘b ul so‘zlarga bo‘lg‘och oshno,
 Qilmadi mayl o‘zga so‘zlarga yano.

Ustoz Matnazar Abdulhakim bir suhbatida: hazrat Navoiy o‘qigan kitoblari ro‘yxati tuzilsa, ehtimolki o‘sha ro‘yxatning o‘zi bir necha jildliklarga jo bo‘lar, degan edi. Qarang — tug‘ma iste‘dod bir yon, mutolaa bir yon.

Men xizmat taqozosiga ko'ra yosh qalamkashlar bilan ko'p suhbatlashaman. Ayrimlariga, kimlarning kitoblarini o'qigansiz, deb savol bersam, Abdulla Oripov, Muhammad Yusufdardan nariga o'ta olishmaydi. Yigirmanchi, yigirma birinchi asrlar Yevropa shoirlarining, hattoki, ism-shariflarini ham bilishmaydi. Demak, saviyalari turg'un, sust.

SAVOL: Adabiyot ixlosmandlariga, kitobxonlarga aytar so'zlaringiz?

JAVOB: Adabiyot ixlosmandlariga, kitobxonlarga aytar so'zim shuki, ular Sharq mumtoz adabiyoti namunalari bilan G'arb modern, postmodern adabiyoti namunalarini yondosh zaylda mutolaa qilsin. Shundagina asl so'z san'ati nima ekanligini yaxshi anglab yetadi.

Hozirgi davrda pul topishga bo'lgan ishtiyoq o'sib, ma'naviyat yumushlari bir chekkada qolib ketmoqda. Millat taraqqiyotiga esa buning ziyoni tegadi. Maktab o'quvchilari, ayniqsa, oliygoh talabalari kitob mutolaasiga vaqt ajratishlari shart. Goho qo'l telefoniga mukkasidan tushgan yosh yigit-qizlarni ko'rsam, hayron qolaman. Buncha ko'p gapirishmasa bular, deb o'yg'a tolaman. Kitob do'konlariga kirsam, goho yoshlarning vijirlashib, shovqin solayotganiga guvoh bo'laman. Ich-ichimdan zil ketaman. To'g'ri, xato qilmaydigan bandaning o'zi yo'q. Biz ham qayerlardadir yanglishganmiz. Ammo mutolaa jarayoni o'sha nuqsonlarni yuvib tashlagan. Oz bo'lsa-da, ruhimiz tozargan, kengaygan.

Bugungi kunda adabiyot ahli oldida jahon miqyosiga chiqishdek zalvorli vazifa ham turibdi. Fitrat, Qodiriy, Cho'lpon kabi ulug' bobolarimiz orzusini ushaltirish amali hozirgi davr adiblari chekiga tushgan. Men bu borada adabiyot ixlosmandlari va kitobxonlari faol bo'lishini istayman. Biror yangilik ko'rsalar quvonsinlar, dadil hamda aniq fikrini aytsinlar. Axir dono xalq "hayt" degan tuyaga madad, demishlar.

FILOLOGIYA

VIKTOR GYUGO – KATTA YURAKLI YOZUVCHI **(“Kulayotgan odam” romanini o‘qishdan keyingi o‘ylar)**



*Ulug‘bek Hamdam, filologiya fanlari
doktori, professor*

Viktor Gyugo asarlarini talabalik imtihonlarida matn fabulasini topshirish uchun chala-chulpa o‘qiganim bor edi. Endi qayta o‘qirkanman, xayolimda muqimlashgan ilk muhim ta’rif shu bo‘ldi: “KATTA QALBLI YOZUVCHI!”

Keyingi fikr esa savolsimon tug‘ildi: “Gyugoning yuragi kimsan – Tolstoyu Dostoyevskiy yuraklaridan ham kattaroq hodisa ekanmi?!..”.

Mayli-da, goho mana shunday hissiyotlarga ham berilib turish zarar qilmaydi. Ayniqsa, u jiddiy asosga ega bo‘lsa.

Asos shuki, Gyugo hayotga katta, shu bilan birga, ezgu qalb bilan qaraydi.

Tolstoyning ham, Dostoyevskiyning ham yuraklaridan bunchalar ezgulikni topish qiyin. Biri odamzodga ishonqiramay, uni mudom so‘roqlab, tanbehlab ijod qilgan bo‘lsa, ikkinchisi, bolalikda olgan ruhiy jarohatlari iskanjasida qolib ketib, insoniyatni bus-butun holda seva olmagan.

Yo‘q, bu bilan men Tolstoyu Dostoyevskiyning mundayroq yozuvchilarga chiqarayotganim yo‘q. Aslo! Ular shubhasiz buyuk yozuvchilar, ustoz adiblardir. Ko‘p bo‘lmadi, nari borsa, ikki yilcha burun televideniya bir o‘zbek adabiyotshunosi Tolstoy va Dostoyevskiyning o‘zaro solishtirib, Tolstoy Dostoyevskiy yetib borgan darajalarga yetib borolmagan, degan qat’iy fikrni o‘rtaga tashladi. Gurungdoshlari ham uni ma’qullagandek bo‘lishdi. Menda esa ayrim e’tirozlar tug‘ildi. Umuman, “kim ustun?” degan qiyoslarga qarshi bo‘lganim holda, har bir ijodkorning o‘ziga xosliklarini taqqoslash mumkin, deb hisoblayman. Agar masalaga shu nuqtai nazardan yondashib qiyos qilinganda, Dostoyevskiyning Tolstoydan kuchli tarafi bo‘lgani kabi, Tolstoyning ham Dostoyevskiydan baland parvozlari bor: masalan, Dostoyevskiyda bosh qahramon rus bo‘lsa, Tolstoyda inson, Dostoyevskiyda nasroniylikning provoslav

qanoti himoya qilinsa, Tolstoy islom va boshqa dinlar qadriyatlarini ham tan olib, e'tiqodni, avvalo, botinda shakllantirish haqida qayg'uradi. Ya'ni shaklga emas, mohiyatga e'tibor qaratadi. Albatta, Dostoyevskiy inson ruhiyati yerto'lalarini ag'dar-to'ntar qilib, kelgusi adabiyot, ayniqsa, psixoanaliz uchun yangi yo'llar ochib bergan. Tolstoy bobo asarlarida esa tasvirga olinayotgan hayot qamrovi juda katta bo'lib, u shafqatsiz realizm pozitsiyasidan turib badiiy tadqiq etiladi. Tolstoy asarlarida deyarli hech qaysi qahramonga rahm qilinmaydi, qahramonlar ideallashtirilmaydi, ularning barchasi qaerdadir "sinadi", to'g'rirog'i, yozuvchi tomonidan "sindiriladi". O'quvchi qaysi qahramonning etagini tutishni bilmay dovdirab qoladi. Tolstoy buni go'yo atay qiladi. Bu bilan u: "insonning holini, hatto qahramonlikka da'vo qilayotganning holini ko'rib qo'y!" deydi va o'quvchini achchiq, shafqatsiz hayot haqiqati bilan yuzma-yuz qoldiradi. Shu ma'noda, Tolstoy asarlarining qahramonlari emas, balki g'oyalari birlamchi ahamiyat kasb etadi... Xullas, barchasini bir maxrajga to'plab keltirsak, Dostoyevskiyda chuqurlik, Tolstoyda kenglik bor. Kenglikning ko'lami shu darajadagi, hatto ayrim adabiyotshunoslar Tolstoyning asarlarida hayotning o'zidan ko'ra ko'proq hayot bor, deyishgacha borishgan. Albatta, bu gap ham oniy kayfiyat mahsuli bo'lib, hech bir ijodkorning asari Yaratganning asari bo'lmish hayot bilan bellasha, ayniqsa, tenglasha olmaydi. Biroq, keyinroq, Tolstoy hatto ijodni ham bir yoqqa yig'ishtirib qo'yib, undan ulug'roq qadriyatlarni qidirishga tushgani alohida e'tiborga molik. Xuddi, bizning A.Oripov **"Nimanidir axtaraman — she'rdan ham ulug', Nimanidir axtaraman — nondan azizroq" deganidek.** "Men endi yozmayapman, ayniqsa, "Urush"ga o'xshash uzundan-uzun be'mani narsani qaytib yozmayman. Aybdorman, xudo haqqi, boshqa yozmayman" deydi u 1871-yilning yanvarida A.Fetga bitgan maktubida "Urush va tinchlik" romanini nazarda tutib. Ehtimol, shuning uchundir, ehtimol shaxsiyatidagi o'ziga xosliklar tufaylidir (xususan, shaxsiy mulkidan voz kechib, darveshlardek ko'chaga chiqib ketib o'lim topishi kabilar), ayrim jahon adabiyotshunoslari Tolstoyni kelib ketgan barcha yozuvchilardan ustun qo'yishga chog'lanadilar. Chunonchi, "Biz bilmagan Tolstoy" nomli ikki qismdan iborat ko'rsatuvning muallifi falonchining piston rasmida Tolstoy shunday tasvirlanganki, yelkasida, bo'ynida, sochlarida boshqa yozuvchilar chumolidek o'rmalab yurishadi, deydi. Bu qarashda ham mubolag'a ko'pchib yotibdi.

Xususan, Tolstoyni olasizmi yoki Dostoyevskiyni, farqi yo'q, ular jahon, jumladan, G'arb adabiyotidan juda ko'p va xo'p o'rganishgan. Flober yo Mopassan deysizmi, Balzak yo Merime deysizmi, Stendal yo Gyugo... bularning hammasining ijodiga syujet, qahramon, uslub bobida ergashishgan. (Albatta, o'z navbatida, ayrim g'arblik va umuman, dunyo adiblari ham Turgenev, Tolstoy,

Dostoyevskiy, Chexov ijodini yuksak baholashgan, kezi kelganda, ularning tajribalariga havas bilan qarashgan, shuningdek, ta'sirlanishgan ham). Faqat bizda bularni tushuntirib ko'rsatib beradigan adabiyotshunoslar juda kam, hatto yo'q hisobi. Bas, shunday ekan, qanday qilib Mopassan, Balzak, Stendal yoki Gyugo Tolstoyning "yelkasida chumoli kabi o'rmalab yurishi" mumkin? Axir, Dostoyevskiy ham, Tolstoy ham o'sha "chumoli"lardan o'rganib, ularga ergashib shakllangan-ku! Anna Dostoyevskaya o'zining "Esdaliklar" asarida Dostoyevskiyning Gyugoning "Xo'rlanganlar" (aslida, "Rad etilganlar" deya tarjima qilinishi kerak) romanini 1867-1868-yillarda qayta-qayta o'qib yurganini eslaydi.

F.Dostoyevskiyning o'zi ham bir xatida: "bizning barcha bilimdonlarimizning fikr-mulohazalariga qaramay, "Xo'rlanganlar" "Jinoyat va jazo"dan baland turadi" deb yozgan. Qanday baland, mardona e'tirof! Shunday emasmi?!.. Qolaversa, Dostoyevskiyning "Xo'rlanganlar va haqoratlanganlar" romani mavzu, syujet va yo'nalishi nuqtai nazaridan, - garchi birida avtobiografik, ikkinchisida esa biografik voqealar asos qilib olingan bo'lsa-da, - Gyugoning "Xo'rlanganlar" romaniga o'xshab ketadi. Gyugoning "Mahkumning so'nggi kuni" romanini esa rus adibi "fantastika bilan chegaradosh realizm" deb ta'riflab, rus tiliga tarjima qilgan. Bularning hammasi Gyugo kabi yozuvchilar Dostoyevskiyu Tolstoylarga o'ziga xos yo'lchiroqlar vazifasini o'taganidan darak beradi.

Demak, ilgari surilayotgan har bir fikr, mulohaza mustahkam asosga ega bo'lsagina yashab qoladi. Shu uchun ham ilmiy tahlillarga zo'r beraverish kerak. Shunday qilinganda, hamma davrlar uchun yagona va eng buyuk yozuvchi, shoir, umuman, san'atkor bo'lmasligini tushunib yetamiz. Agar chindan ham u iste'dodli bo'lsa, davr zimmasiga yuklagan vazifani sharaf bilan ado qiladi. Shuning o'zi ulug' ish. Bas, yangi davr vazifasi yangi nasl iste'dodlarining gardaniga tushadi. Albatta, iste'dod bilan iste'dodning ham farqi bor. Oralarida kimdir daho bo'lishi va ko'proq vazifani udda qilishi mumkin. Shu ma'noda, Dostoyevskiyu Tolstoyni daho der ekanmiz, shubhasiz, Gyugo ham haqli ravishda ularning safida turadi. Ammo negadir bizda rus adiblari doxil butun boshli jahon adabiyotiga o'ziga xos zamin vazifasini bajargan XIX asr Ovrupa adabiyoti ko'p o'qilmaydi, ularning xizmatlari yetarlicha e'tirof etilmaydi, bil'aks, ularga tegishli bo'lgan ko'pgina xizmatlar Tolstoy, Dostoyevskiy, Chexovlarga olib borib bog'lanadi. Shu ma'noda, yurtimizda jahon adabiyotini Tal'at Solihov kabi "suv qilib ichgan" olimlaru mutaxassis pedagoglarni yetishtirish davr talabidir.

Shunday qilinganda, ulug‘ fransuz adibi va shoiri Viktor Gyugoni ijodkor sifatida yangidan kashf etib, uning ulkan qalbi qarshisida bir zum to‘xtagan bo‘lur edik.

O‘zi ko‘pdan beri chinakam ijodkorning vazifasi aynan shunday qalbni ko‘rsatish, ulug‘lash, uning fazilatlarini o‘quvchilarga yuqtirish, deb o‘ylab yurardim. Gyugo bilan qayta tanisharkanman, o‘sha o‘ylarim boshimda yana charx urib qoldi.

Bugungi inson, zamondosh aynan mana shunday yuksak darajada kamol topgan qalbdan tobora uzoqlashib bormoqda. Uzoqlashib, faqat aql bilan, hisob bilan, manfaat bilan yashayman, demoqda. “Nega?” deysizmi? Chunki qulay-da.

“Kulayotgan odam” romani (fransuz tilidan Shoazim Minovarov o‘girmasi) bosh qahramoni Guinplenda shunday aql bor edi. U shu aqli bilan boshiga “baxt qushi qo‘ngan”ini ham anglab yetadi, biroq men nazarda tutayotgan katta yuragi bilan bunday baxtdan voz kechadi. Voz kechadigina emas, xuddi Majnun kabi, Romeo kabi sevgilisining ortidan u dunyoga ravona bo‘ladi. Xo‘sh, agar Guinplen o‘sha mulohazakor aqli bilan o‘zga yo‘lni tanlaganda nima bo‘lardi?.. Boylikka, shavkatga burkanib hayotda yashab qolardi. Yana qirolichaning singlisiga uylanib deng. Biroq Guinplen boy va go‘zal malikani emas, balki kambag‘al va ko‘r qiz esa-da, o‘zi bilgan, o‘zi sevgan Deyani tanlaydi. Tanlaydigina emas, uning ortidan ketadi – joniga qasd qiladi. Romantizmmi? Romantizm!.. Biroq romantizm deganda biz nimani tushunamiz?.. Odatda, bo‘lmag‘ur hoyu havasga berilishni “romantizm” deb o‘ylaymiz. Aksariyat o‘quvchida shunday tasavvur bor. Biroq jahon adabiyoti tarixida adabiy yo‘nalish sifatida shakllangan romantizmning ta‘rifi unday emas. Romantizm achchiq, shafqatsiz, konservativ hayotga qasdma-qasd, unga isyon tarzida tug‘ilgan ijtimoiy-psixologik kayfiyat bo‘lib, unda insonning ideallari emotsional tarzda ulug‘lanadi.

O‘quvchi e‘tiroz bildirib, “suitsidga yo‘l qo‘yish ahmoqlik, uni yoqlash esa ikki karra ahmoqlik!” deyishi hamda bu iddiolarida o‘ta haqli bo‘lib ko‘rishini tabiiy. Albatta, xudkushlik yoqlanmaydi, yoqlanmasligi kerak. Biroq masalaning tub mohiyatiga teranroq nazar tashlaganimizda, ayon bo‘ladiki, Gyugo romanga joylagan asl g‘oya – badiiy g‘oya romantizm davriga g‘oyat xos bo‘lib, bu yerda yuksak ideal himoya va targ‘ib qilinmoqda. Bir vaqtlar Suqrot “inson yeyish uchun yashamaydi, balki yashash uchun yeydi”, deganidek, romantizmda ideal uchun jonlar qurbon etiladi, aslo jonlar rohati uchun ideallar payhon qilinmaydi. Gyugo romantizmi ilgari surgan insonlikning, inson bo‘lishning mazmun-mohiyati o‘zini shu yo‘sin namoyon qiladi.

Bugun sal do‘ppi tor kelib, birinchi variantdan ikkinchisi foydaliroq chiqib qolsa, shartda birinchidan voz kechib, ikkinchining etagini o‘pish hollariga qiyos

qilinganda, Guinplenning tutimi naqadar yuksak, inson degan mavjudodga naqadar yarashiliq ekani ayon bo'ladi.

Yo'q, men bu yerda xudkushlik emas, aslo, har qanday vaziyatda bir-birini tanlash, bir-biri uchun jonlarini jabborga topshirishga qodir va hozir qahramonlar va ularning qahramonliklari haqida so'zlamodaman.

Buning uchun esa qahramonlarga romantizm davrining kattakon yuragi kerak bo'ladi.

Katta yurak!

Bugun san'at, adabiyot shu haqda ko'proq bong urmog'i lozim. Har turli g'oyalar aks etgan, turli eksperimentlarga to'la, mulohazakor ijod ham kerak, albatta. Biroq ularning hammasini to'plab kelsangiz ham, nazarimda, katta yurakka ega qahramoni bor adabiyot qadar bugungi insonga yordam berolmaydi. "Insonni so'z ayladi judo hayvondin" deganmidi Navoiy. Ulug' ustoz so'ziga ergashib biz ham bir so'z aytsak: insonni inson qilguvchi bosh unsurlardan biri bu – uning ko'ngli, yuragi. Bas, u qancha katta bo'lsa, inson shuncha insondir. Katta qalb egasi degani, bu, ayni damda, ulkan mutafakkir degani hamdir. Aslo yuzaki hissiyotga berilib ketaveradigan yengiltak degani emas. Zero, faqat sovuq aql bilan uzoqqa borib bo'lmaydi. Aql yurak bilan birlashgandagina inson o'zini-o'zi saqlab qolishga qodir maqomga chiqadi. Nafaqat o'zining, balki yer sharining ham (tabiiy ofatlarni hisobga olmaganda) chinakam qo'riqchisiga aylana biladi.

Bas, shunday ekan, o'quvchiga uning inson ekanligini hamda bu maqom juda oliy martaba bo'lib, u hech qachon mana shu shohsupasidan tushib ketmasligi kerakligini uqtirib turadigan Viktor Gyugodek yozuvchilar bugun suv bilan havodek kerak.

Asarning bosh qahramoni Ginplen. U asli lordning o'g'li bo'lib dunyoga keladi. Lekin saroy intrigalari tufayli otasi lord Linney Klencharli quvg'in qilinib, o'zini (Fermen Klencharli) esa murg'ak yoshida kelajakda masxaraboz bo'lishi uchun yuzida jarrohlik amaliyoti o'tkazadilar. Natijada u (Guinplen) har qanday vaziyatda ham kulayotgan odamga o'xshab qoladi. Qalbi yig'laydi, lekin yuzi "kuladi". Uning ustidan qirol va uning gumashtalari shunday kulishadi. Biroq vaqti-soati yetgach, bularning hammasiga achchiqma-achchiq u saroyda, qirol va o'sha milordlar huzurida, ularning qarshisida otashin nutq irod qiladi. Shu nutq asarning kulminatsion cho'qqisidir, ehtimol. U yerda Guinplen zodagonlarning asl basharasiga oyna tutadi: "Qo'rqinglar! Milordlar, osmonning bor lojuvard qismi sizlarniki. Cheksiz olamda ko'zingizga faqat xursandchilik ko'rinadi, ammo unutmang, olamda zulmat ham bor. Huzuringizda men lord Fermen

Klencharliman, ammo mening haqiqiy ismim bir qashshoqning ismi: Guinplen... Xudoyim meni qashshoqlar ichiga tashlab, boylarga ular to'g'risida gapirib berishga undadi. O, rahm qiling! O, ishoning, sizlar yashayapmiz deb xato o'ylagan, olam halokatda ekanini bilmaysiz. Sizlar shunchalik balanddasizki, uning sarhadlaridan chiqib ketgansiz. Sizlarga o'sha olam to'g'risida gapirib beraman. Tajribam yetarli. Men ezilayotganlar tomonidan keldim. Sizlarga ezilish nima ekanini aytib berishim mumkin..." (2, 377 va 378-b.).

Nutqni o'qib, boy va kambag'al, ekspluatatsiya qiluvchi va ekspluatatsiya qilinuvchi sinflar ziddiyatiga barham beruvchi sotsializm g'oyasi to'g'risida Ovrupada nafaqat K.Marks va F.Engels kabi iqtisodchi faylasuflar, balki adiblar ham zo'r berib mushohada qilganligining guvohi bo'lamiz. Shu bilan birga, ushbu otashin nutq Dostoyevskiyning "Jinoyat va jazo", Tolstoyning "Tirilish", Kamyuning "Begona", Cho'lponning "Kecha va kunduz" kabi asarlarida tasvirlangan sudlar va ularda qahramonlar so'zlagan nutqning parchalarini yodga solib yuboradi. Albatta, zikr etilgan asarlarning baridan avval yozilgan Stendalning mashhur "Qizil va qora" romani qahramoni Jyulen nutqi ham yoddan chiqqani yo'q. Umuman olganda, mazkur nutqlar alohida tadqiqot obyekti bo'la oladi.

Viktor Gyugo ijodkor sifatida o'z davrining farzandi edi. Davrga xos serso'zlik unga ham begona emas. Asarlarida odamni zeriktirib yuboradigan, keraksiz demayin-u, ortiqcha tafsilot to'lib-toshib yotibdi. Nima ham deymiz, serso'zlikdan davrning ulkan ustunlari Tolstoyu Dostoyevskiylar ham xoli emas. Ushbu fikrga monand bir hayotiy lavhani eslab o'tsam: kunlardan bir kun rus adabiyotshunoslaridan biri mendan "Ulug'bek, hozir nima o'qiyapsiz?" deb so'rab qoldi. Men "Urush va tinchlik"ni qayta o'qiyapman, deb javob berdim. "Nahotki?...Hozirgi zamonda bunday katta hajmli asarni qayta o'qish mumkinmi?" deb hayratini izhor qildi u. Ya'ni, chindan ham yostiqlikdek hajmli asarlar XX asr o'rtalarigacha normal qabul qilingan bo'lib, bugungi tezkor davrda ular andak tanqidiy ruhda kutib olinayotgani bor gap. Mayli-da, asar hajmi katta bo'ladimi yoki bundayroq, alal-oqibat, unda qanday badiiy g'oya qay yo'sin aks etgani muhim sanalmog'i lozim. Chunki o'quvchi Gyugo va avloddoshlariga xos uzundan-uzoq tafsilotlarni "yengib" o'tib, asarning asl mag'ziga kira olsa, bir umrga tatigulik ma'naviy, estetik va badiiy ozuqa bilan to'yinishi shubhasiz.

Asarda shunday fiklar borki, o'quvchi ularni yodlab olib, she'rdek aytib yurgisi keladi. Masalan, "San'atga munosabat muhabbatga e'tibordan kam bo'lmasligi kerak" (2, 225), "Mardonavor ishlarini gapirib berib, odamlar ularning qadrini tushirib qo'yadilar" (2, 282), "Ichingizdan qay biringiz bugun ertalab bolasining uyg'onayotganini ko'rgan bo'lsa, u yomon odam bo'la

olmaydi” (2, 381), “Buyuklikdan voz kechaman. O‘zimdagi bor imtiyozlardan mahrum bo‘lish barcha zanjirlarni uzib tashlashni anglatadi. Barchasini uzib tashlash, hammaga xitob tashlash, hamma narsani o‘zingcha qayta qurish – haqiqiy hayot ana shudir” (2,282-283), “Oldinga iloji boricha tezroq borgan! Hatto Parvardigorning huzurida ham sensiz baxtiqaro bo‘laman. Meni uzoq vaqt yolg‘iz qoldirma, azizim, Guinplen!” (2, 471), “Qarshingizda tarozu turganini, uning bir pallasiga qudratingiz, ikkinchi pallasiga mas’uliyatingiz qo‘yilganini nahotki ko‘rmayapsiz? Bu tarozuni Parvardigorning O‘zi ushlab turibdi” (2, 380) va h.k...

“Katta adabiyot na ezguligu na yovuzlik tomonida turadi, u faqat idrok etadi”, degan, chindan-da o‘ta chiroyli bir qarash bor. Agar hayotda ezgulik va yovuzlikning posongisi teng bo‘lsa, adabiyot o‘zini shunday tutishi mumkindir, ehtimol. Biroq, posongi o‘ynab yotgan bo‘lsa-chi? O‘ynab, yovuzlikning qo‘llarida toshu ezgulikning ko‘zlarida jiqqa yosh bo‘lsa, adabiyot, katta-kichikligidan qat’iy nazar, o‘zini bunday tuta olmaydi. Bunday tutishga haqqi yo‘q uning! Adabiyot yovuzlikning qo‘llaridan toshni tortib ololmasa ham, hech yo‘q, ezgulikning ko‘zyoshlarini artgan ko‘yi, uni kuchli bo‘lib, jami tirik mavjudot tomon uchayotgan yovuzlik toshlarini zararsizlantirishga undamog‘i, bu qutlug‘ ishga o‘z hissasini qo‘shmog‘i lozim. Adabiyot bunga hatto burchli.

Yozuvchi haqida do‘stim telefonda aytib qoldi: “Men Gyugoni Attor, Rumi, Navoiylar bilan bir qatarga qo‘yib o‘qidim”. Nazarimda, do‘stim ham adibning katta qalbi bilan yuzlashgan ko‘rinadi.

Ha, Gyugoning katta yuragi bor. Eng muhimi, bu yurak ezgulik tomonida uradi. Men bilgan bugungi katta adabiyot o‘quvchida, hech shubhasiz, mana shunday yurakni tarbiya qiladi, tarbiya qilmog‘i zarur. Zero, ezgulikning ko‘zlari bugun achchiq yoshga to‘lgan.

FILOLOGIYA**SHARQ VA G'ARB POEZIYASIDA AYOL QALBI VA RUHIYATI**

**Panayeva O'g'iljon,
Urganch
Innovatsion
Universiteti
o'qituvchisi,
f.f.n. v.b. dots**

UO'K 512.71

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq va G'arb poeziyasida ayol qalbi va ruhiyatining badiiy talqini Halima Xudoyberdiyeva va Anna Axmatova ijodi misolida qiyosiy tahlil etilgan. Muallif ikki shoira ijodida ayol ruhiyatining turli madaniy, tarixiy va estetik omillar ta'sirida qanday shakllanganini ochib beradi. Maqolada "Begim" va "Sevgim, so'ramam, bas" she'rlari orqali sevgi, sadoqat, vijdon, ma'naviyat va ayollik timsolining badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Xudoyberdiyeva poetikasida milliylik, epiklik va obrazli kenglik ustuvor bo'lsa, Axmatova lirikasi ixcham, falsafiy va ichki sukunatga yo'g'rilgan. Tadqiqotda ayol obrazining Sharqona iftixor va G'arbona qat'iyat o'rtasidagi badiiy uy'g'unligi yoritilgan.

Аннотация: В данной статье проведён сравнительный анализ художественного отражения женской души и психологии в поэзии Востока и Запада на примере творчества Халимы Худойбердиевой и Анны Ахматовой. Автор раскрывает, как различная культурная и историческая среда сформировала образы женщины в их поэзии. На основе стихотворений «Бегим» и «Любви не прошу — довольно» рассматриваются темы любви, верности, совести и духовности. В поэтике Худойбердиевой доминируют национальные мотивы, эпичность и эмоциональная широта, тогда как поэзия Ахматовой отличается лаконизмом, философской глубиной и внутренней сдержанностью. Исследование демонстрирует гармоничное сочетание восточной гордости и западной стойкости в образе женщины.

Annotation: This article provides a comparative analysis of artistic representations of the female soul and psychology in Eastern and Western poetry, using the works of Khalima Khudoyberdieva and Anna Akhmatova as examples. The author reveals how different cultural and historical environments shaped their portrayals of women. Drawing on the poems "Running" and "I Don't Ask for Love—It's Enough," the author explores the themes of love, fidelity, conscience, and spirituality. Khudoyberdieva's poetry is dominated by national motifs, epicness, and emotional breadth, while Akhmatova's poetry is distinguished by its laconism, philosophical depth, and inner restraint. The study demonstrates a harmonious blend of Eastern pride and Western resilience in her portrayal of women.

Kalit soʻzlar: *Halima Xudoyberdiyeva, Anna Axmatova, ayol ruhiyati, sevgi va sadoqat, qiyosiy tahlil, Sharq va Gʻarb poeziyasi, estetik tafakkur.*

Ключевые слова: *Халима Худойбердиева, Анна Ахматова, женская душа, любовь и верность, сравнительный анализ, поэзия Востока и Запада, эстетическое восприятие.*

Key words: *Khalima Khudoyberdieva, Anna Akhmatova, female soul, love and fidelity, comparative analysis, poetry of the East and West, aesthetic perception.*

Sharq va Gʻarb poeziyasida ayol qalbi va ruhiyatini ifodalashda turlicha dunyoqarash va estetik mezonlar namoyon boʻladi. Halima Xudoyberdiyeva va Anna Axmatova — ikki turli sivilizatsiya va ikki turli maʼnaviy muhitda yashagan, ammo ayol taqdiri, inson ruhi va vijdon azobi haqida gapirgan ikki buyuk shoira. Ularning sheʼrlarida umumiy nuqtalar boʻlsa-da, farqli jihatlar ana shu muhit va tarixiy voqelik taʼsirida yaqqol koʻzga tashlanadi.

Halima Xudoyberdiyeva sovet davridagi milliy uygʻonish ruhini ifoda etgan, ayollik izzati va vatanparvarlikni maʼnaviy ustuvorlik darajasiga koʻtargan boʻlsa, Anna Axmatova totalitar zulm va shaxsiy fojia sharoitida vijdon va soʻzning muqaddasligini himoya qilgan.

Sheʼrning muhiti va ruhi. Anna Axmatovanning “Shamol, meni dafn qil, shamol!” satrlari bilan boshlanuvchi sheʼri shoiraning ichki fojeasi, yolgʻizlik va iztirob holatini ifoda etadi. Bu asarda tabiat bilan ruhiy drama birlashib ketgan: shamol, tuproq, baxor, tun — barchasi inson qalbidagi ezgulik va ogʻriq kurashini aks ettiradi. Anna Axmatova bu sheʼrni urushdan keyingi ruhiy boʻshliq va charchoq paytida yozgan. Sheʼrdagi “men murdaman, sovuq” degan ifoda uning ruhiy oʻlimi, umidsizlik holatini bildiradi.

Halima Xudoyberdiyevaning “Oʻzbekning ayoli” sheʼriyatida esa aksincha, ruhiy iztirob emas, ruhiy iftixor va millatning tirik ruhi gavdalanadi. Uning soʻzlarida hayotga ishonch, maʼnaviy qadriyatlarga sadoqat, ona zaminga muhabbat bor. Xudoyberdiyeva ayol yuragi orqali millatning kuchini, moddiy va maʼnaviy barqarorligini yoritadi:

“Qora koʻzi bor, yurakka ishq solgan,
Togʻlardagi jayronidir oʻzbekning.”

Bu misralarda Vatan va inson bir butun, ayol esa millatning nurli yuragi sifatida namoyon boʻladi.

Ayol obrazi va ruhiy holat. Anna Axmatova she'rlarida ayol obrazi ko'p hollarda fojeaviy tusda — u yolg'iz, muhabbat va hayotdan charchagan, ruhiy ozorga dosh berayotgan shaxs.

“Bir payt men ham edim sen yangliq,
Yashar edim xushhandon, erkin.
Endi esa murdaman, sovuq,
Yuzlarimni silamas hech kim.”

Bu satrlarda hayotdan uzilgan ayol, muhabbatdan ayrilgan inson ruhi gavdalanadi. Anna Axmatova uchun muhabbat va hayot bir paytlar nur bo'lgan, ammo zulm, jamiyat va taqdir uning qalbini muzlatib qo'ygan.

Halima Xudoyberdiyevada esa ayol obrazi — Vatanning sha'ni va nomusi. Uning she'rlarida ayol so'zsiz iztirob emas, balki ma'naviy quvvat manbai: u millatning onasi, millatning yuragi. She'rdagi “Nodirasidan to Xalimasigacha” misrasi ayolni madaniyat va ma'naviyat timsoli sifatida ko'rsatadi.

Vatan va inson munosabati. Anna Axmatova tabiat va inson munosabatini so'fiyona emas, balki fojeaviy tarzda ko'rsatadi. “Shamol meni dafn qil” degani — u tabiat bilan so'nggi muloqotini bildirmoqda, go'yo yer uni qabul qilsin, shamol uning ruhini olib ketsin degandek. Bu yerda Vatan — jismoniy makon emas, sukutli qabr sifatida namoyon bo'ladi.

Halima Xudoyberdiyevada esa Vatan tirik, ruhiy va nurli makondir. U Vatanni ona timsolida ko'radi:

“Onamning mozorini yod etib turar,
Yotmoqqa bundan-da issiq joy yo'q.”

Bu misralarda Vatan hayotning ma'nosi, muhabbatning maskani sifatida talqin etiladi. Demak, Anna Axmatova uchun Vatan — azobli xotira, Halima Xudoyberdiyeva uchun esa — muhabbat va muqaddas mehr.

Uslub va poetik ifoda. Anna Axmatova uslubi — tiniq, sukutga yaqin, jonli, lekin og'riq bilan to'la. U so'zni ko'paytirmaydi, har bir satr og'riqning zich qatlami. “Shamol, meni dafn qil” so'zlari faqat tabiat obrazi emas, balki sukut orqali o'limga chaqiriqdir.

Halima Xudoyberdiyevada so'z musiqaga o'xshaydi, u xalqona, ritmli, ruhiy zavq bilan to'la. Uning uslubida iftixor va she'riy ohang uyg'unlashgan.

“Bilmam, Alloh gul berganmi, xas bergan,

Halimasi, bihronidir o‘zbekning.”

Bu yerda so‘z ham duo, ham madh sifatida yangraydi.

Anna Axmatova she‘rlarida falsafa — insonning ruhiy azobi orqali ochiladi. Uning uchun hayot — og‘riq, so‘z — yurakning oxirgi pana joyi.

Halima Xudoyberdiyevada falsafa — umid, yashash va ishq. U insonni Alloh va Vatan muhabbati bilan tirik tutadi.

Sharq va G‘arb she‘riyatidagi bu ikki ayol — turli yo‘llar bilan bir haqiqatni so‘zlaydilar. Anna Axmatova iztirob orqali vijdonni uyg‘otadi, Xudoyberdiyeva muhabbat orqali ma‘naviyatni uyg‘otadi.

Anna Axmatova she‘riyati — sukutdagi og‘riq, Halima Xudoyberdiyeva she‘riyati — sukutdagi nur. Birining so‘zi — fojeadan so‘ng qolgan na‘ra bo‘lsa, ikkinchisining so‘zi — ishq va sabrdan tug‘ilgan duodir.

Galda tahlil qilinayotgan Halima Xudoyberdiyevaning “Begim” she‘ri bilan Anna Axmatovaning “Sevgim, so‘ramam, bas” she‘ri bir mavzuni — sevgi va sadoqatni gapiradi, lekin ular gapirish uslubi, kayfiyati va yuzlanishi jihatidan butunlay turlicha. Halima Xudoyberdiyeva ko‘proq ochiq, tasviriy, milliy yodgorliklarni olib keladi, u katta obrazlar bilan, keng metaforalar bilan ish qiladi — “osmon”, “bag‘ir”, “Farhod” va “Shirin” kabi ramzlar orqali she‘riga tabiat va tarixni qo‘shadi. Anna Axmatova esa ichki ahdga tayangan, jim, ixcham ovoz, u qisqa, qat‘iy iboralar bilan sevgi qanday insoniy qarorga aylanishini ko‘rsatadi. Shunday ekan, bu ikki she‘rni yonma-yon qo‘ysa — biri ichkaridan portlaydigan, keng va dramatik, ikkinchisi esa nazokatli va mustaqil ovoz bo‘lib chiqadi.

Halima Xudoyberdiyeva she‘rida har bir band — yangi tasvir, yangi epizod. Masalan, u sevgilisini tabiat bilan qiyoslaydi: “Sizni tabiat raso qilib yaratgan” deyishi bilan birinchi tasavvurni beradi — shunda o‘quvchida shaxsiy go‘zallik emas, balki butun bir olam jo‘sh uradi. Keyin u ruhiy ziddiyatni qo‘shadi: aql, kamol bilan birga hasad ham bor — bu sevgining ham yorqin, ham azobli ekanini bildiradi. So‘ngra bag‘ir, osmon, mix, zardob tasvirlari keladi — bu yerda sevgi epik e‘lon qilinadi, so‘zlar kengayadi, hissiyotlar ulkan fazoga cho‘ziladi.

Anna Axmatova esa har bir jumlani kesib, ixcham bir haqiqat aytadi: “Sevgim so‘ramam, bas, dilimdan — bu ahd”. Bu yerda hamma narsa qat‘iy, xuddi kimdir jimjitlikda o‘z ahdini e‘lon qilayotgandek — ortiqcha bezak yo‘q. Keyingi bandlarda u “Ishongil, men sening yoringga hech vaqt...” deb o‘z ahdini sodda qilib bayon qiladi, lekin bu sodda so‘zlarning ichida katta qat‘iylilik bor. Anna Axmatova hisni ichkariga berkitadi, o‘quvchiga esa shu ichki qat‘iylilikni his ettirishni istaydi.

Til va metaforalar. Halima Xudoyberdiyeva ancha rang-barang metafora ishlatadi — osmonni, bag‘irni, zardobni sevgi bilan to‘ldiradi; bu uslub milliy-madaniy ramzlarni uyg‘unlashtiradi va o‘quvchini millat tarixi, folklori bilan bog‘laydi. Shu boisdan uning she‘ri o‘qilganda ko‘z oldimizga katta sahna keladi — bu sahnada sevgi ham epos, ham shaxsiy kurash sifatida namoyon bo‘ladi. Tilda takrorlar, uzun iboralar, g‘oyat ko‘p tasviriylilik bor — bu esa hisni ko‘proq ko‘rsatadi.

Anna Axmatova esa kamroq metafora ishlatadi, lekin har bir ibora og‘ir, uning tasviri oddiy bo‘lsa-da, ma‘nosi chuqur. U ichki qat‘iyat va sadoqatni “ahd”, “ishon” kabi so‘zlar bilan mustahkamlaydi. Shu soddaligi tufayli uning satrlari uzoq o‘ylantiradi — nima uchun shoira so‘ramaydi, nima uchun u shu qat‘iyatda? Bu savol o‘quvchini o‘z-o‘ziga savol berishga undaydi.

Hissiyot va psixologiya. Halima Xudoyberdiyeva o‘quvchiga go‘yo “Men sevaman, yonaman, bag‘rimni osmonga yoyaman” deb o‘z fidoyiligini oshkora e‘lon qiladi va azobini ham ochiq ko‘rsatadi. Shu bois mazkur she‘rni o‘qitishda talabalarga uning sevgi epikasi, obrazlar va milliy kontekst muhimligi g‘oyalarini singdirish mumkin.

Anna Axmatova esa “Men o‘zimning ahdimni saqlayman, so‘ramayman, kimdir boshqa yerdan kelib ham meni buzolmaydi” degandek bo‘ladi. Bu yerda sadoqat ichkarida, u shaxsiy qadriyat va mustaqillik belgisi. Anna Axmatova ijodini o‘rgatishda uning mazkur she‘ri — ichki prinsip, ixcham va nazokatli intonatsiya bilan o‘qilishi kabi unsurlarga e‘tibor qaratish zarur.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Halima Xudoyberdiyeva va Anna Axmatova ijodiy yo‘nalishlari, madaniy-estetik muhitlari turlicha bo‘lsa-da, ularni birlashtirib turuvchi asosiy nuqta — ayol ruhiyatining nozik, ammo qat‘iy ifodasi, sevgi va sadoqat masalasiga badiiy munosabatdir. Halima Xudoyberdiyevaning “Begim” she‘rida lirika o‘zbek xalqona tafakkuri, epik obrazlar va poetik tasvirlar bilan yo‘g‘rilgan bo‘lib, unda his-tuyg‘u kenglik, tashqi ifoda va fidoyilik orqali namoyon bo‘ladi. Shoira sevgini tabiat, osmon, zardob, bag‘ir kabi obrazlar orqali tasvirlab, uni milliy-estetik qadriyatlar bilan uyg‘unlashtiradi. Natijada uning she‘riy tili emotsional, jozibali va ko‘p qatlamli ramzlar bilan to‘yingan.

Anna Axmatovaning “Sevgim, so‘ramam, bas” she‘rida esa hissiylik tashqi ifodadan ichki qat‘iyat va irodaga siljigan. Bu she‘rda muallif sevgi masalasini dramatik hisdan ko‘ra ruhiy intizom, axloqiy mustahkamlik, ichki qaror sifatida talqin etadi. Uning poetik nutqi ixcham, sintaktik jihatdan silliq va ifoda jihatidan minimalistikdir. Har bir so‘z ma‘nosiga og‘irlik yuklangan, har bir ibora ichki sukunat va mantiqiy qat‘iylilikni mujassam etadi. Shunday qilib, Anna Axmatova lirikasida sadoqat va muhabbat — hissiy to‘lqin emas, balki ongli tanlov sifatida namoyon bo‘ladi.

Estetik nuqtai nazardan, “Begim” va “Sevgim, so‘ramam, bas” she‘rlari ayol lirik qahramonining ikki qutbini ifodalaydi: biri — hisni ochiq ifoda etuvchi romantik lirika, ikkinchisi — hisni ichga singdirgan, nazokatli, intellektual lirika. Bu ikki uslub bir-birini to‘ldiradi va ayol ruhiyatining murakkabligini turlicha badiiy vositalar orqali yoritadi.

Zamonaviy adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan, bu ikki asarni o‘qitish jarayonida estetik idrokni rivojlantirish, hissiy tafakkurni chuqurlashtirish va poetik tafakkur farqlarini anglashga yo‘naltirilgan metodlar qo‘llanishi maqsadga muvofiqdir. Chunki ular orqali talaba nafaqat matn mazmunini, balki turli madaniyatlarda ayolning ruhiy holatini ifoda etish uslubini tahlil qila oladi.

Shunday qilib, Halima Xudoyberdiyevaning “Begim” she‘ri va Anna Anna Axmatovaning “Sevgim, so‘ramam, bas” she‘ri o‘zaro madaniy va poetik tafovutlarga qaramay, ayol qalbining mustaqilligi, sevgi oldidagi mas‘uliyat va sadoqatning badiiy talqini nuqtai nazaridan bir-birini boyituvchi, zamonaviy dars jarayonlarida qiyosiy-estetik tahlil uchun juda qulay, ilmiy va didaktik ahamiyatga ega bo‘lgan asarlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Karimov B. Poeziya va istiqlol tafakkuri. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001.
2. Haqqul I. Ruh va nazar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011.
3. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: adabiy masalalar. – Toshkent: Sharq, 1994.
4. Normatov U. Shoir va zamon. – Toshkent: Fan, 1982.
5. Sarimsoqov B. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Navro‘z, 2015.
6. Rahimjonov N. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006.
7. Jumaniyazov X. Sharq va G‘arb adabiy muloqotlari. – Toshkent: Fan, 2012.

FILOLOGIYA**“FARHOD VA SHIRIN” DOSTONI TARJIMASIDA MAZMUNY
TAFOVUT VA BADIY UYG‘UNLIK**

**Azilova Zuhra,
Ajiniyoz nomidagi
Nukus davlat
pedagogika instituti
o‘qituvchisi,
filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa
doktori**

UO‘K 511.1

Annotatsiya: Maqolada Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni qoraqalpoq tiliga tarjima qilinishi to‘g‘risida so‘z boradi. Shuningdek, “Farhod va Shirin” dostoni tarjimasida mazmuniy tafovut va badiiy uyg‘unlik” haqida fikr yuritilgan. Mazkur doston asliyat bilan qiyosiy tahlil qilinib, asar g‘oyasi va mazmuniga ko‘ra tafovutlar tahlilga tortilgan va qiyoslangan.

Аннотация: Навои «Фарход и Ширин» Аннотация: В статье рассказывается о переводе на каракалпакский язык эпоса Навои «Фарход и Ширин». Кроме того, в переводе эпоса «Фархад и Ширин» обсуждаются «смысловые различия и художественная гармония». Этот эпос был сравнительно проанализирован, а по замыслу и содержанию произведения проанализированы и сопоставлены различия.

Annotation: The article discusses the translation of Alisher Navoi’s epic “Farhod and Shirin” into the Karakalpak language. It also examines issues of semantic divergence and artistic harmony in the translation of “Farhod and Shirin.” The epic is subjected to a comparative analysis with the original text, and differences are analyzed and compared in terms of the work’s idea and content.

Kalit so‘zlar: o‘xshatish, mazmun, shakl, radif, bayt, she’riy san’atlar, muraddaf (radifli) baytlar

Ключевые слова: сравнение, содержание, форма, редиф, бейт, поэтическом искусстве, мураддаф бейты (с редифом).

Key words: simile, content, form, refrain (radif), couplet, poetic devices, muraddaf (refrain-based) couplets

“Farhod va Shirin” – “Xamsa”dagi yirik she’riy dostonidir. Asarning boy g‘oyaviy mazmuni, adabiy-estetik mohiyati o‘zbek adabiyotshunosligida keng o‘rganilgan. Doston qoraqalpoq tiliga tarjima qilingan bo‘lib hozirga qadar u ilmiy ishga obyekt bo‘lgan emas. “Farhod va Shirin” dostoni M.Daribayev (4, 5, 6, 7, 18, 23, 24, 25, 26, 27, 28, 29, 30, 31, 37-boblar); J.Aymurzayev (1, 2, 3, 19, 20, 21, 22, 32, 33, 34, 35, 36, 38-boblar); N.Jaraqov (8, 9, 10, 11, 39, 40, 41, 42, 43, 44- boblar), A.Shamuratov (8, 15, 16- boblar); R.Majitov (12, 13, 14- boblar),

K.Jumaniyazov (17-bob) tomonidan qoraqalpoq tiliga o'girilgan va 1941-yilda kitob holida nashr qilingan.

Adabiyotlar tahlili

Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonining badiiyati navoiyshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan. “Farhod Shirin”ni 1947-yili akademik Alfred Kurella nemis tiliga, Lev Penkovskiy rus tiliga o'girgan. Dostonning qardosh qoraqalpoq tiliga tarjima qilinishi muhim hodisa sifatida baholanadi. Biroq, “Farhod va Shirin” dostonining qoraqalpoqcha tarjimasi bo'yicha maxsus tadqiqot yaratilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

“Farhod va Shirin” dostoni qoraqalpoqcha tarjimasi asliyat bilan qiyosiy holda tahlil qilinadi. Maqolada badiiy tahlil, statistik tahlil metodlaridan ham foydalaniladi.

Tahlil va natijalar

Ta'kidlash kerakki, dostonda keltirilgan ta'rif-tavsiflar, o'xshatishlarda o'zgarish yuz beradi. Xususan, asliyatdagi dostonning birinchi bob avvalidagi *“Qalamdan hech kim Ganjada yashovchi Nizomiy Ganjaviydek foydalanib orzusiga yetishgan emas”*ligi ta'rifi *“Bunnan payda tappadi hesh kim hesh qanday, Ganja shaharindegi g'aznashilarday”*, – deya berilishi natijasida ma'noda o'zgarish sodir bo'ladi.

Quyidagi mashhur bayt esa qoraqalpoq tilida asliyatdagidek jaranglaydi:

Emas oson bu maydon ichra turmoq,
Nizomiy panjasiga panja urmoq (19-bet).

Tarjimada:

Emes jeñil bul maydan ishinde turmaq,
Nizamidin panjesine panje urmaq (18-bet).

Asliyatda Navoiyning mahbuba uchun to'kkan ko'z yoshlariga farishtalar rashk qiladi, yorning o'zi esa dev uchun ko'z-yosh to'kishi tasvirlanadi:

Malak hayli esa ashkim uchun rashk,
To‘kubon ul rari har dev uchun ashk (24-bet).

Bu bayt quyidagicha tarjima qilingan:

Yar ushın kóz jastı perishte surter,
Gozzalım yar ushın ol-da jas toger (21-bet).

E’tibor bersak, yor uchun farishta ham yosh to‘kar shaklida tarjima qilingan. Keyingi baytda asliyatda shuncha zeb-ziynatlari tovuş, boyqushlar do‘st bo‘lsa netayin, ma’nosi beriladi. Tarjimada esa qofiya yuzaga keltirish uchun do‘st so‘zi o‘rniga “dus” so‘zi qo‘llangan va mazmun yaqinlik kasb etadi.

Mıń-mıń ziynet penen taranǵan tawıs
Ne qılayın bayulıǵa bolsa dus (21-bet).

Zero, “Biz so‘zga tarjima nazariyasi sohasida maxsus problema deb qarar ekanmiz, uni shunchaki leksik elementgina emas, balki, shu bilan birga, badiiy asar yaratishning birinchi shartlaridan biri bo‘lgan badiiylikni ro‘yobga chiqarishning asosiy vositalardan biri deb talqin qilamiz [4;4].

Asliyatdagi IX bob tarjimasida Eng baland uchadigan qush – “Nasr toyir” himmat qanotini ochgandan so‘ng kechasi osmonda sayr qilib yuradi deb ta’riflaydi. Tarjimada “Nasr toyir” yulduzi tushirilib: “Qaqqannan soñ juldız baqıt qanatın, jaqtılaydı neshe koktıń qabatın” deya keltiriladi. “Nasr toyir” yulduzi tushirilganligiga qaramasdan asliyat mazmuni aks etgan.

Asliyatda:

Nizomiy dedi, Xusrav bo‘ldi payrav,
Agar ul shoh edi, bu erdi xusrav. [1;76]

Tarjimada

Nzamiǵa Xsırau jaqsı unadı,
Xsırau – Xsırau, Nzami shah boladı (29-bet).

Avvalambor, yuqorida keltirilgan baytdan ma’lumki, tarjimada so‘zlarning yozilishida ham ayrim xatolar ham uchraydi, xususan, Nzami, Xsırau tarzida yozilgan. Aslida Nizamiy, Xusrav tarzida yozilishi kerak edi. Navoiy Nizomiyni

shoh, Xusravni – xusrav ya’ni hukmdor deb ta’riflaydi. Tarjimada Xsıraw deb uch marta takrorlanishi sababli mazmun to’liq ask etmay qolgan.

“Zero, asliyat mansub bo’lgan xalq turmush tarzini, urf-odatlarini, adabiyoti va madaniyati tarixini, diniy va milliy qarashlarini, mamlakati siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tuzumini puxta uzlashtirib olmasdan turib, asarda tasvirlangan voqea-hodisalar to’g’risida batafsil tasavvur hosil qilish va, natijada, shakl va mazmunning uyg’unligidan iborat to’laqonli tarjima yaratish amri mahol. Negaki, har qanday asliymonand tarjima zaminini shakl va mazmunning dialektik birligi tashkil etadiki, mazmunning yetakchi ahamiyatini pesh qilgan holda, unga ortiqcha imtiyoz berib, shaklga e’tiborni susaytirish asar badiiy va milliy xususiyatining, tarixiy o’ziga xosligining siyqalanishiga olib keladi.” [3;3]

Shirinni Farhod bunyod etgan qasrga mahmilda eltib qo’yishadi. Dostonda bu tasvir quyidagicha keltiriladi:

Falakni oyg’a mahmil ayladilar,
Chamanni gulga manzil ayladilar.
Quyosh ul jonfizo ayvong’a bordi,
Pari sarchashmayi hayvong’a bordi (337-bet).

Tarjimada mahmil – “kebeje” deb keltiriladi:

Kokti ay juzlige kebeje qıldı,
Makanın gul menen tayarlap qoydı.
Mısalı aywanğa kun nuri keldi.
Bulaqtın boyına peridey qondı (329-bet).

“Kebeje – agash sandıq”, “mahmil – mahofa, kajava”. Dostonning boshqa o‘rinlarida kajava so‘zi “kúyme” deb o‘giriladi. “Kúyme Ústi qır dógeregi bılgarı hám de basqa hár túrli materiallar menen qorshalıp bastırılğan, kórkem etip bezelgen jeńil arba, bógenekli arba”. [2; 262] Bu so‘z mahmil so‘ziga to‘g‘ri keladi. Bu baytda falak-tog‘, oy-Shirin, chaman-bog‘, gul-Shirin, Quyosh-Shirin, jonfido ayvon – qasr, pari – Shirin, chashmayi hayvon – Farhod qazigan ariqni anglatib, istiora san’ati qo‘llaniladi. **Tarjimada:** kok-tog‘, ay – Shirin, gul –

Shirin, aywan – qasr, kun – Shirin, bulaq – Farhod qazigan ariq, peri – Shirin deb tushinilsa, sakkizta istioraning yettitasi qayta yaratilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa tarjimonning yutug‘i hisoblanadi. Chaman istiorasi tarjimada aks etmagan.

Navoiy asarlarida qo‘llanilgan radiflar uning benazir mahoratidan darak beradi. Ayniqsa, “Farhod va Shirin” radiflarga boy doston. **Asliyatda doston** – jami 5 ming 782 qo‘shmisradan iborat. Shundan, 965 tasi – 17 foizini muraddaf (radifli) baytlar tashkil qiladi. Bu radifning dostonidagi eng asosiy badiiy unsurlardan biri ekanini ko‘rsatadi. Radiflarning ishlatilishi jihatidan shoirning boshqa biror dostoni uning “Farhod va Shirin”idek rang-baranglikka ega emas.

Qoraqalpog‘cha tarjimada – asar jami 5 ming 125 qo‘shmisradan iborat. Shundan, 110 tasi – 2 foizini muraddaf (radifli) baytlar tashkil qiladi.

Doston jami 54 bobdan iborat. Quyidagi jadvalda biz uning asliyat va tarjimadagi o‘zaro taqqosini raqamlarda ko‘rsatib o‘tdik:

№	Boblar		Baytlar soni		№	Boblar		Baytlar soni	
	Asliyat	Tarjima	Asliyat	Tarjima		Asliyat	Tarjima	Asliyat	Tarjima
1	VI	I	62	60	23	XXXI	XXIII	153	149
2	VIII	II	96	95	24	XXXII	XXIV	72	72
3	IX	III	110	110	25	XXXIII	XXV	100	101
4	XII	IV	82	82	26	XXXIV	XXVI	97	94
5	XIII	V	87	87	27	XXXV	XXVII	164	161
6	XIV	VI	78	79	28	XXXVI	XXVIII	100	99
7	XV	VII	111	111	29	XXXVII	XXIX	103	103
8	XVI	VIII	99	100	30	XXXVIII	XXX	98	97
9	XVII	IX	133	134	31	XXXIX	XXXI	90	87
10	XVIII	X	138	138	32	XL	XXXII	108	115
11	XIX	XI	92	94	33	XLI	XXXIII	168	175
12	XX	XII	79	78	34	XLII	XXXIV	107	112
13	XXI	XIII	128	128	35	XLIII	XXXV	128	131
14	XXII	XIV	121	119	36	XLIV	XXXVI	155	154
15	XXIII	XV	118	117	37	XLV	XXXVII	126	119
16	XXIV	XVI	104	102	38	XLVI	XXXVIII	123	120
17	XXV	XVII	167	157	39	XLVII	XXXIX	87	89
18	XXVI	XVIII	109	101	40	XLVIII	XL	86	86
19	XXVII	XIX	91	83	41	XLIX	XLI	220	223

20	XXVIII	XX	116	115	42	L	XLII	172	172
21	XXIX	XXI	151	160	43	LI	XLIII	151	150
22	XXX	XXII	127	126	44	LII	XLIV	178	140

Doston tarjimasida bir qator qator she'riy san'atlar qayta yaratilishga erishilgan. Jumladan, quyidagi baytda qofiyadan oldin hojib san'ati muvaffaqiyatli aks etgan:

Xiyalga kelmegen tilekler menen
Aqlga kelmegen maslikler menen (76-bet)

“Farhod va Shirin“ dostonida ko'p uchraydigan she'riy san'atlardan biri ruju'dir.

Yuzida xol o'lub, gulbarg uza zog',
Va yo ter ostida suv ichraki bog'.
Dema suvkim, ziloli zindagoni,
Ne Xizr-u, ne Sikandar topib oni (204-bet).

Shirin yuzidagi xol gulbarg ustiga qo'ngan zog', yuzidagi terlar esa bog'ni suv bosganiga qiyoslanadi. Uni oddiy suv emas Xizr va Iskandarga topolmagan tiriklik suvi desa bo'ladi.

Tarjimada:

Juzinde qal, gulge qongan zaqshaday,
Teri misal bagdi suw alip atqanday.
Bul tirilik suwi Farhad tatpagan,
Izlep Xizir, Iskender-de tappagan (196-bet).

Baytlar asliyatdagidek jaranglaydi, ruju san'ati ham saqlangan. To'g'ri, tarjimada bunday misollardan ko'plab keltirishimiz mumkin. Yaxlit dostonning ayrim o'xshatishlari qisqartirilgan bo'lsa ham, lekin mazmun va sujetning butunligi, voqealarning mantiqiy rivojiga xalal yetkazmagan. Har bir epizod tarjimada qayta yaratilgan. Biz, asosan, tarjimasi nomutanosib bo'lgan o'rinlarga ko'proq to'xtaldik.

Shuni ham e'tirof etish lozimki, doston tarjimasida jupar-jufar, pok-fak tarzida qo'llanilgan. Shuningdek, ayrim o'rinlarda asar qahramonlari nomlari:

Nizomiy-Nzami, Xusrav-Xsırau, Moniy-Mani, Boniy-Bani, Qoran-Qarin, Jomasp-Jamasip, Suqrot-Suhrat, Surat kabi yozilgan. Qof tog‘i “Kap” deya berilgan. Buni qoraqalpoq adabiy tilining og‘zaki so‘zlashuv uslubiga yaqinligi bilan izohlash mumkin.

Ta’kidlash kerakki, *“Tarjima san’ati ijodiy jarayon bo‘lib, mazmunni qayta tiklash, asarni qayta yaratish san’atidir. She’r tarjimasi juda murakkab ruhiy jarayondir. Bu jarayonga ijodkorning kayfiyati, qarashlari, malakasi kabi juda ko‘p omillar o‘z izini qoldiradi. Shu sababli tarjima asl nusxa bilan qiyoslanarkan, yuz foiz moslikni talab qilib emas, balki qanchalik asliyatga yaqinligiga qarab fikr yuritish lozim. Tarjimadan ko‘zlangan maqsad – asl nusxaning o‘rnini batamom qoplash emas, balki uning asosiy qiymati to‘g‘risida to‘la tasavvur berishdan iborat”* [5;5]. “Farhod va Shirin” dostoni tarjimasida ham tarjimonlar imkon boricha asliyatdagi mazmunni ochib berishga harakat qildilar va dostonning qoraqalpoq tiliga o‘girilishi muhim hodisa sifatida baholandi.

Doston tarjimada 44 bobni tashkil etadi. “Farhod va Shirin” dostoni tarjimasida baytlar soni ham o‘zgarib qolmagan. Shuning o‘zi ham doston tarjimasi to‘liq ekanligini yaqqol ko‘rsatadi. Ya’ni asliyat bilan tarjima o‘rtasida unchalik katta tafovut yo‘q. Asosiy qism voqealari 12-bobdan boshlanadi va 52-bobda tugaydi. Dostonning 1-5, 7, 10-11, 53-54-boblari tarjima qilinmagan. Ehtimol, bu boblar mazmuni doston sujetiga kirmaganligi bois tarjimonlar bu boblarni o‘girishni lozim topmagandir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Алишер Навоий. Хамса. Қайта тузувчилар: Ҳайитметов А., Мирзааҳмедова М. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986, 424 б.
2. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. 4-том. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2023, 399 б.
3. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Фан, 2005. – 352 б.
4. Саломов Ғ. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966. – 385 б.
5. Султанова Д. А., Ҳалимова Ф.Р. Шеър ва таржима. – Самарқанд: СамДЧТИ наشري, 2009, – 144 б.

FILOLOGIYA

TARIXIY ROMANDA BADIY MASOFA, FAKT VA IJODIY MOHARAT



**Kenjayev Farxod,
O‘zR FA O‘zbek
tili, adabiyoti va
folklori instituti
kichik ilmiy xodimi**

UO‘K 512.71

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarixiy roman janrida badiiy masofa (ijodiy distansiya) tushunchasining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Tarixiy fakt va badiiy to‘qima o‘rtasidagi nisbat, yozuvchining tarixiy voqelikka munosabati hamda ijodiy mahorati masalalari yoritiladi.

Аннотация: В статье анализируются теоретические и практические аспекты понятия художественной дистанции (творческой дистанции) в жанре исторического романа. Освещаются вопросы соотношения исторического факта и художественного вымысла, отношения писателя к исторической реальности, а также проблемы творческого мастерства.

Annotation: This article analyzes the theoretical and practical aspects of the concept of artistic distance (creative distance) in the genre of the historical novel. Particular attention is paid to the relationship between historical fact and artistic fiction, the writer's attitude toward historical reality, and issues of creative mastery.

Kalit so‘zlar: tarixiy roman, badiiy masofa, ijodiy distansiya, tarixiy fakt, badiiy to‘qima, tarixiy shaxs obrazi, realizm, Jaloliddin Manguberdi, janr genezisi.

Ключевые слова: исторический роман, художественная дистанция, творческая дистанция, исторический факт, художественный вымысел, образ исторической личности, реализм, Джалолиддин Мангуберди, генезис жанра.

Key words: historical novel, artistic distance, creative distance, historical fact, artistic fiction, image of a historical figure, realism, Jaloliddin Manguberdi, genre genesis.

Kirish. Tarixiy romanlarda **badiiy masofa** (ijodiy distansiya) asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Tarixiy roman deb hisoblanishi uchun asarda tasvirlangan davr va yozuvchi yashayotgan davr o‘rtasida ma’lum masofa bo‘lishi zarur. Bu masofa nafaqat vaqt jihatidan, balki madaniy, ijtimoiy tafovutlar bilan ham belgilanadi. Chunki badiiy masofa yozuvchiga o‘tmishni zamonaviylikdan ajratib, betaraflik bilan tahlil qilish imkonini beradi. Shu sababli tarixiy

romanning davri va yozuvchining zamonasi orasidagi masofa badiiy asarning tarixiylik darajasini aniqlashda muhim omil hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqotda tarixiy roman janriga oid nazariy qarashlar va amaliy tahlillar asos qilib olindi. D. Quronovning roman genezisi va epik tafakkurga oid ilmiy mulohazalari tarixiy roman va epos o'rtasidagi farqlarni aniqlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qildi. G. Lukachning *The Historical Novel* asarida tarixiylik, badiiy reallik va tarixiy shaxs obrazining shakllanishiga doir konsepsiyalari tarixiy roman mohiyatini yoritishda tayanch manba sifatida foydalanildi. O'zbek adabiyotshunosligida G'. Karimovning tarixiy tematika haqidagi tadqiqotlari milliy romanchilikda tarixiy voqelik va badiiy talqin masalasini ochib beradi. E.Samandar va Sh. Isaxonovanning Jaloliddin Manguberdi obraziga bag'ishlangan romanlari va ular haqidagi ilmiy yondashuvlar tarixiy shaxsni badiiylashtirishda folklor va tarixiy manbalardan foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Shuningdek, Mahmud Qoshg'ariy, Mirzo Ulug'bek va Alisher Navoiy asarlari tarixiy manba sifatida tahlil qilinib, ularning zamonaviy tarixiy romanlar bilan badiiy aloqadorligi aniqlanadi.

Tahlil va natijalar. O'zbek adabiyotida ilk tarixiy romanlardan biri sifatida e'tirof etilgan Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari tahlil qilinganda asarda tasvirlangan zamon va yozilgan davr o'rtasidagi oraliq vaqt kamida bir avlod almashinuvi, ya'ni taxminan 60-70 yillik masofa mavjudligini ko'rsatadi. Demak, tarixiy janr voqealar tasvirlangan davr va yozuvchining zamoni o'rtasida ma'lum masofani talab qiladi. Bu davr yozuvchiga voqealarni tashqi rakursdan ko'rish, ijtimoiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlarni obyektiv tahlil qilish imkonini beradi. Bundan ko'rinadiki, bir avlodning almashinuv vaqti (taxminan 60-70 yil) bu masofa uchun yetarli.

Bu jihat Valter Skottning tarixiy voqealarni realistik ruhda yoritgan, birinchi haqiqiy tarixiy roman (Waverley) "Ueverli" asarida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Roman 1745-yilda Shotlandiyada Yakobit qo'zg'oloni (Charlz Edvard Styuart) davridagi voqealarni yoritadi. Asarning 1814-yilda birinchi qismi e'lon qilinganligini inobatga olsak, muallif bilan uning qahramonlari, voqealari yoki

tasvirlanayotgan davr o'rtasidagi masofa 60 yildan ortiq vaqt oralig'ini tashkil qiladi.

Tarixiy davr va qahramonlarni obyektiv tasvirlashda badiiy distansiya muhim ahamiyatga ega. Chunki bu vaqt oralig'ida ijodkor jarayondan uzilib, unga tashqi rakursdan qarash imkoniga ega bo'ladi. Tarixiy romanning bu xususiyati ijodkorning asarga subyektiv va obyektiv yondashuviga ta'sir qiladi.

Shuningdek, muayyan tarixiy shaxs siymosini badiiy asarda gavdalandirish prinsiplari, janrlar genezisi va qamrov doirasiga ko'ra ma'lum farqlanishlarga ega. Chunonchi, dastlab xalq dostonlarida madh etilgan turli qahramonona harakatlari bayon qilingan tarixiy, shuningdek, afsonaviy obrazlarning keyinchalik romanlarda uchrashi epik turning tasvir imkoniyatlari kengligi bilan izohlansa-da, har bir janrning muayyan va o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini unutmasligimiz kerak.

Jumladan, bu borada adabiyotshunos Dilmurod Quronovning mazkur fikrlarini keltirish o'rinli: “Roman genezisi haqida gap borganda uning eposdan o'sib chiqqani, taraqqiyotining muayyan davrlarida o'zida eposga xos xususiyatlarni ko'proq saqlab kelgani, shundan so'nggina “zamonaviy epos” maqomini olgani ta'kidlanadi. Epos bilan romanni farqlashda turlicha asoslarga tayaniladi: eposning asosiy tamoyili – butunlik, romanniki – tarqoqlik; eposda jamoaviylik, romanda individuallik ustuvor; epos monologik, roman dialogik tafakkur asosiga quriladi”¹.

Epos qadim ming yilliklardan buyon dunyo xalqlarining badiiy-estetik ehtiyojini qondirib kelgan bo'lsa, nega bugungi kun xalqlari epos emas, roman janridagi asarlarga ko'proq ehtiyoj sezmoqda? Badiiy ehtiyojdan kelib chiqib, butun dunyo xalqlarining holatiga baho berish, insoniyatning “urib turgan bosh tomiriga tashxis barmog'ini qo'yish”² mumkin. Bu borada tarixiy realistik romanlar faqat adabiyotshunoslikning ulkan kashfiyoti emas, dunyo xalqlarining

¹ Quronov D. Roman haqida ayrim mulohazalar // Sharq yulduzi, 2011. № 5. – B. 114.

² Ulug'bek Hamdamning O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida o'tkazilgan “To'rtko'cha” romani taqdimotidagi o'z nutqidan. 2024.11.29.

jamoaviylikdan individuallikka siljish natijasidir. Chunki ayni tarixiy realistik romanda o'tmishda yashab o'tgan yakka-individual shaxs qahramonligi fonida boshqa voqeliklar tasvirlanadi.

Demak, jamiyatlarning jamoaviylikka ehtiyoji yuqori darajaga yetganda epos paydo bo'lgan, individuallik kurtak ochganda epos dostonlari jadal ortib borgan, individuallik yuqori darajaga yetganda roman, ayniqsa, tarixiy roman janri yuzaga kelgan. O'zbek adabiyotida esa ko'proq tarixiy realistik romanlarga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotganligi, ayni xalqning individual, ya'ni o'ziga xos bo'lgan ijtimoiy-siyosiy erkinlikni qayta qo'lga kiritganligi, ayni istiqlolni mustahkamlashda ulug' o'tmishimizni millat ruhiga kuch bo'la oladigan shonli tariximizni qayta jonlantirish zarurati sifatida namoyon bo'layotganligi yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Ushbu jarayonni badiiy ehtiyoj doirasidan kelib chiqib talqin qilish orqali xalqlarning madaniy va ma'naviy taraqqiyotidagi umumiy tamoyillarga nisbatan "badiiy tashxis" qo'yish mumkin. O'zbek adabiyotida roman janrining shakllanishida tarixiy roman alohida o'rin tutgan bo'lib, u mazkur janrning rivojlanishi uchun muhim asos yaratgan.

Tarixiy roman o'ziga xos tarzda tarixiy shaxslar obrazlari orqali yangi romanlarning voqeliklar tizimini boyitib, ularning badiiy dinamikasini kuchaytirgan. Adabiyotda "moziyg'a qaytib ish ko'rish" tamoyili har doim samarali bo'lib kelgan. Bu tamoyil, ayniqsa, yangi janrlarning shakllanishida, badiiy usullar yordamida o'tmishni qayta talqin qilish va tarixiy asos yaratishda prinsipial ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy romanlar shunisi bilan ham ahamiyatga egaki, ular yo'qolib borayotgan axloqiy qadriyatlarni aks ettirish, ularning ahamiyatini yoritish va ularni qayta tiklash uchun badiiy vositalar orqali jamiyat e'tiborini jalb qiladi. Asrdagi tarix fakt sifatidagi voqea endi obrazli tasvirga aylanib, bugungi kun insoniyatiga ko'proq daxldorlik kasb etadi, ya'ni "tarix" atamasi faqat XIX asrda oddiy o'zgarish uslubi yoki universal o'zgarish jarayonini emas, balki hozirgi

vaqtni tushunish uchun hal qiluvchi kontekstni bildiradi”¹.

Tarixiy romanlar syujeti inqiroz jarayonlari va millatning parchalanish sabablarini tasavvur qilish imkonini beradi. Tarixiy qahramon voqealar markazida namoyon bo‘lib, tarixiy-ijtimoiy kurashlar fonida aniq va ravshan gavdalanadi. Tarixiy romanlarda syujet rivojlanishida intriga asta-sekin kuchayadi. Voqealar zanjirida turli to‘qnashuvlar muayyan nuqtaga yetganida qahramon shaxsining shakllanishi va uning tarixiy vazifasi yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu vazifa tarixiy muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan bo‘lib, qahramonning o‘ziga xos badiiy talqini orqali ochib beriladi.

Tarixiy roman janrida badiiy reallikka dramatik hodisalar va qarama-qarshiliklarning tarixiy haqiqatga asoslangan tarzda tasviri orqali erishiladi. Konfliktning yechimi esa voqealar rivojining yakunida bosh qahramon sifatida gavdalangan tarixiy shaxsning faoliyati orqali umumlashadi. Ushbu strukturaviy yondashuv orqali tarixiy romanlarda nafaqat o‘tmish voqealari, balki ularning insoniy va ijtimoiy ahamiyati ham ochib beriladi. Bosh qahramon esa tarixiy romanda voqealar markazida joylashgan asosiy harakatlantiruvchi kuchdir.

Tarixiy romanlar o‘tmish voqeligi bilan birga insoniyat hissiyotlari va ichki kechinmalarining davrlar osha evolyutsiyasini ham ochib beradi. Bu janrda inson turli kasb va ijtimoiy maqomlarda gavdalanib, xarakter jihatidan o‘zgaruvchan qiyofalarda harakat qiladi. Ushbu insoniy xislatlar va murakkab xarakterlar tarixiy haqiqat bilan bir qatorda yoritilib, badiiy voqelik orqali hayot haqiqatini kashf etishga xizmat qiladi. Tarixiy roman janri inson va jamiyatning turli ko‘rinishlarini oydin tasvirlash imkoniyatiga ega bo‘lib, o‘quvchini universal haqiqatlarga olib boradi. Ya’ni “Tarixni keng ko‘lamda, ijtimoiy taraqqiyot jarayonida tasvir qilish o‘z-o‘zidan xalq ommasini tarixda faol kuch sifatida ko‘rsatishga, uning yaratuvchanlik qudratini namoyon etishga olib keladi”².

Tarixiy roman janriga keng murojaat qilinishi faqat ijtimoiy-siyosiy omillar

¹ Raymond Williams. A Vocabulary of Culture and Society. – New York, Oxford University Press, 1976. – P. 19.

² Karimov G‘. Prozamizda tarixiy tematika // Sharq yulduzi. 1979. № 3. –B. 196.

bilan izohlanmay, balki uning mazmunida absurdlikdan yiroq, mavhum voqealarni aniq va izchil tasvirlash orqali realistik xarakter shakllanishida namoyon bo‘ladi. Ushbu xususiyat tarixiy faktlarning buzilishi xavfidan yiroq bo‘lib, aksincha, tarixiy davr va shaxslarning xarizmasi hamda ichki dunyosini yoritishda alohida vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, tarixiy romanlar insoniy munosabatlarning davriy o‘ziga xosligini ochib, tarixiy kontekstda ajdodlar va avlodlar o‘rtasida badiiy dialog o‘rnatadi. Tarixiy realistik romanlarda tasvirlash murakkab epizodlardan biri – real o‘tmishda oppozitsiyada bo‘lgan, ammo deyarli uchrashmagan qahramonlar o‘rtasidagi muloqotni badiiy talqinda yaratishdir. Bu o‘rinda ko‘plab ijodkorlar tomonidan “Markazida (odatiy qahramon) turgan (tarixiy roman) syujeti orqali ekstremal, qarama-qarshi ijtimoiy kuchlarni bir-biri bilan insoniy munosabatlarga olibkeladigan neytral zamin izlanadi va topiladi”¹. Jaloliddin Manguberdi haqidagi tarixiy realistik romanlarda neytral(betaraf) zamin vazifasini tush epizodlari, qahramonning o‘y-xayollari yoki to‘laqonli to‘qima epizodlar orqali muloqot jarayonidagi munosabatlar tashkil qiladi.

“Sulton Jaloliddin” romani orqali Jaloliddin Manguberdi qahramonliklarini bugungi o‘quvchilarga badiiy-estetik shaklda yetkazib, o‘tmish voqeliklari bilan ayni davrga murojaat qilgan Erkin Samandarning yangiliklaridan biri Sultonning ruboiy yozganligini va eronlik alloma Rizoqulixon Hidoyat manbasi bilan dalillagani bo‘lsa, Shahodat Isaxonovanning badiiy yangiliklaridan biri bu – tarixiy romanlarda deyarli hali qo‘llanmagan yangi faktlarni badiiylashtiradi, aynan shulardan biri “yada toshi” hisoblanadi. Ko‘plab tarixiy manbalarda bu tosh haqida ma’lumotlar mavjud. Roman davomida adiba bu ma’lumotni ikki o‘rinda epizodik tarzda qo‘llab, Jaloliddin obraziga sinkretiklik baxsh etadi. Birinchi epizod asar boshida “Ketar chog‘lari o‘rtada turgan, hajmi mushtday, rangi yashil, ko‘k va qo‘ng‘ir tovlanuvchi g‘alati toshni ko‘rib qolgan Ahror Kamoliddinning ko‘zlari birdan o‘ynadi.

–Yada toshimu? – dedi beixtiyor, unga uzanarkan, – ushlab ko‘rsam

¹ Georg Lukacs. The historical novel. –New York: Humanites press, 1695.

bo‘ladirmu?

–Bo‘ladur! – dedi shahzoda...– Bul tosh yomg‘ir toshidur, Yomg‘ir birlan yovga ersa tilak tilanmaydir!...Mullavachchalar Sulton Jaloliddinning yada toshi bilan yomg‘ir chaqirishini eshitib, hayron qolishdi”¹ shaklida kelsa, ikkinchi o‘rinda fabula shaklida keladi: “Esingizdamu, shahzoda Mengtusshoh birlan cho‘lga chiqib, yada toshi ila yomg‘ir yog‘dirib erdik...”². Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, badiiy asarlarga Jaloliddinning “Yada” toshi haqidagi ma’lumotlar xalq orasida og‘izdan og‘izga ko‘chib yuradigan rivoyatlardan olingan, ammo tadqiqot davomida bu toshning haqiqatdan mavjud ekanligini va bugungi kunda Angliyaning “Britaniya” muzeyida saqlanishi aniqlandi. “Yada toshi” haqidagi ilk ma’lumot Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘ot it-turk” (“Turkiy tillar lug‘ati”) asarida keltiriladi. Muallif يت – jat so‘zini keltirib, uni “yomg‘ir, shamol va boshqalarni talab qilish uchun maxsus toshlar (yada toshi) bilan fol ochish odatidir”– deb izohlaydi.

Qoshg‘ariy buni o‘z ko‘zi bilan ko‘rganligini ham ta’kidlaydi: “Men buni yag‘molar shahrida o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. U yerda paydo bo‘lgan bir yong‘inni so‘ndirish uchun shunday fol qilingan edi, xudoning amri bilan yozda qor yog‘di. Ko‘z oldimda yong‘inni so‘ndirdi”³. Ushbu odat haqida Mirzo Ulug‘bek o‘zining “To‘rt ulus tarixi” nomli asari Chingizxon tarixi bayon qilingan qismining “Dushmanlarning O‘ngxon va Temuchinni jodu qilganlari zikri”da shunday yozadi: “Buyruq, Toyonxon nayman, nayman qavmi hokimi Nangxon ular bilan dushmanlik munosabatida edi. Ular bilan jang qilmoq niyatida lashkar to‘pladi. Jadachilarga jada qilmoqni buyurdi. Turklar jada qilmoqni “yoy

¹ Isaxonova Sh. Sulton Jaloliddin Manguberdi yoxud Chingizxon tuzog‘iga tushgan malika. – Toshkent: Sano standart. 2018. – B. 170.

² Isaxonova Sh. Sulton Jaloliddin Manguberdi yoxud Chingizxon tuzog‘iga tushgan malika. – Toshkent: Sano standart, 2018. – B. 375.

³ Qoshg‘ariy Mahmud. Turkiy so‘zlar devoni (Devonu lug‘otit turk). – uch tomlik. – III tom. /tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov/. – Toshkent, O‘zfanakadnashr, 1963. – B. 8.

etar” deyishadi”¹. Bu tarixiy ma’lumotlardan yada (jada) odati yada toshi ishtirokida amalga oshirilgani anglashiladi. Alisher Navoiyning “Badoyi’ ul-bidoya” asarida يدا تاش yada toshi quyidagi shaklda uchraydi:

*Yada toshig ‘a qon yetgach, yog ‘in yoqqandek, ey soqiy,
Yog ‘ar yomg ‘urdek ashkim chun bo ‘lur la ‘ling sharobolud*²

Bu tosh tarixi haqidagi ma’lumotlar juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Mirzo Ulug‘bek o‘zining “To‘rt ulus tarixi” asarida u Nuh alayhissalom davridan mavjudligi haqida ma’lumot keltiriladi. Jaloliddin Manguberdiga mansub yada toshi bugungi kunda Britaniya muzeyida saqlanadi (Carved stone inscription of Jalal al-Din Khwarazm-Shâh. – The British Museum). Mazkur tosh o‘ymakor va gravyurali ishlanish texnikasiga ega bo‘lib, sangtaroshlik uslubida tayyorlangan. U islom madaniyatiga oid memoriy ahamiyatga egadir. Bo‘yi 29,00 sm, kengligi 50,00 sm, qalinligi 32,00 sm, og‘irligi 42,50 kg bo‘lgan ushbu tosh Eron hududidan topilgan va auksionda sotib olingan. №1990.06.12.1 raqami bilan qayd qilingan ushbu eksponat milodiy 1230/1231-yilda ishlangan deb qaraladi. Eksponatga “mazkur toshning 1230/1231-yillarda, ya’ni Jaloliddin Xorazmshoh umrining oxirgi kunlaridagi sharqiy Turkiya, shimoli-g‘arbiy Eron va Ozarbayjondagi harbiy yurishlaridan xabar beradi”, — degan ta’rif berilgan³. Bu toshga sangtarosh Mahmud bin Muhammad ismli Rashid nomi bilan mashhur bo‘lgan muhrkan va zargar ishlov bergan. Rashid asli kelib chiqishi Sharqiy Eronning uzoq Nishopur shahridan bo‘lib, aftidan mo‘g‘ullar bosqinidan G‘arbiy Eronga qochib kelgan bo‘lishi mumkin.

¹ Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. – Toshkent, Cho‘lpon nashriyoti, 1993 (1994). – B. 81.

² Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. – Yigirma tomlik. – Birinchi tom: Badoyi’ ul-bidoya. – Toshkent, O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti, 1987. – B. 114).

³ <https://artsandculture.google.com/asset/carved-stone-inscription-of-jalal-al-din-khwarazm-sh%C4%81h/twFpIo7WtIN52A>

Shahodat Isaxonova yuqoridagi kabi tarixiy faktlardan unumli foydalanib, romanda Jaloliddin nafaqat tengsiz jismoniy quvvatga ega, balki ilohiy kuchga ega sehrli anjom (tosh)ni ishlata oladigan qudratli sulton va oldidagi hech qanday xavf-xatardan cho‘chimaydigan alp sifatida gavdalanadi. Asarda Jaloliddin faqat o‘zi ishlata oladigan ushbu sehrli tosh orqali alohida ajralib turadi. Umuman olganda, “...xalq og‘zaki ijodi va mumtoz adabiyotda oynayi jahonnamo, sehrli ko‘zgu, sirli sandiq, sirli taroq kabi sehrli anjomlar sarguzasht asarlarda ko‘p tasvirlangan”¹.

Tarixiy roman janriga keng murojaat qilinishi faqat ijtimoiy-siyosiy omillar bilan izohlanmay, balki uning mazmunida absurdlikdan yiroq, mavhum voqealarni aniq va izchil tasvirlash orqali realistik xarakter shakllanishida namoyon bo‘ladi. Ushbu xususiyat tarixiy faktlarning buzilishi xavfidan yiroq bo‘lib, aksincha, tarixiy davr va shaxslarning xarizmasi hamda ichki dunyosini yoritishda alohida vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, tarixiy romanlar insoniy munosabatlarning davriy o‘ziga xosligini ochib, tarixiy kontekstda ajdodlar va avlodlar o‘rtasida badiiy dialog o‘rnatadi.

Xulosa. Zamonaviy o‘zbek adabiyoti, ayniqsa istiqlol davri tarixiy romanlari dastlabki bosqich tarixiy asarlariga nisbatan shiddat bilan yuksalib bormoqda. Bu holat, avvalo, tarixiy manbalarning ochiqlanishi va ilmiy izlanishlarning izchil kuchayib borishi bilan izohlanadi. Ikkinchidan, ijodkorlar va o‘quvchilarda o‘z tarixi va milliy ildizlarini anglash, o‘tmish voqeliklaridan badiiy-estetik zavq olish, ma’naviy-ruhiy tarbiyaga e’tiborning ortishi hamda kelajak avlodni ajdodlar merosi bilan bog‘lashga bo‘lgan ehtiyojning kuchayishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu jihatdan, tarixiy roman janrining bugungi taraqqiyoti o‘zbek adabiyoti va milliy ong rivojida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi.

¹ Barakayev R. Ma’rifatga tashna millat kerak yurtga. –Toshkent.: Muharrir nashriyoti, 2024. – B. 177.

Umuman olganda, tarixiy romanlarda badiiy masofa ijodkorning o‘tmish voqeligiga xolisona baho berishi, voqealar doirasidan ma’lum darajada tashqarida turib, ularning umumiy va individual jihatlarini yoritishi hamda o‘z davri uchun muhim xulosalar chiqarishi uchun ulkan ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda tarixiy fakt va ijodiy mahorat bir-birini o‘zaro to‘ldirib, badiiy asarning original va ta’sirchan chiqishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Quronov D. Roman haqida ayrim mulohazalar // Sharq yulduzi, 2011. № 5. – B. 114.
2. Ulug‘bek Hamdamning O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida o‘tkazilgan “To‘rtko‘cha” romani taqdimotidagi o‘z nutqidan. 2024.11.29.
3. Raymond Williams. A Vocabulary of Culture and Society. – New York, Oxford University Press, 1976. – P. 19.
4. Karimov G‘. Prozamizda tarixiy tematika // Sharq yulduzi. 1979. № 3. – B. 196.
5. Georg Lukacs. The historical novel. –New York: Humanites press, 1695.
6. Isaxonova Sh. Sulton Jaloliddin Manguberdi yoxud Chingizxon tuzog‘iga tushgan malika. – Toshkent: Sano standart. 2018. – B. 170.
7. Qoshg‘ariy Mahmud. Turkiy so‘zlar devoni (Devonu lug‘otit turk). – uch tomlik. – III tom. /tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov/. – Toshkent, O‘zfanakadnashr, 1963. – B. 8.
8. Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. – Toshkent, Cho‘lpon nashriyoti, 1993 (1994). – B. 81.
9. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. – Yigirma tomlik. – Birinchi tom: Badoyi’ ul-bidoya. – Toshkent, O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti, 1987. – B. 114).
10. <https://artsandculture.google.com/asset/carved-stone-inscription-of-jalal-al-din-khwarazm-sh%C4%81h/twFpIo7WtIN52A>
11. Barakayev R. Ma’rifatga tashna millat kerak yurtga. –Toshkent.: Muharrir nashriyoti, 2024. – B. 177.

FILOLOGIYA

LOFNING KULGI BILAN BOG'LIQ JANR SIFATIDA SHAKLLANISH ASOSLARI

UO'K 512.71

Mexliyeva Dilnoza,
Filologiya fanlari
bo'yicha falsafa
doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodiga mansub lof janrining xalq kulgi san'ati bilan bog'liqligi, uzoq tarixiy bosqichlari, janr sifatida shakllanish asoslari jahon va turkiy xalqlar manbalari asosida tahlil qilingan. Xalq kulgi san'atining Yevropa va Markaziy Osiyo madaniy tarixida tutgan o'rni Aristotel, M.Baxtin, M.Koshg'ariy, M.Kazimo'g'li, K.Imomov kabi olimlarning asarlarida qiziqarli faktlar, xalq og'zaki ijodi namunalari bilan keltirilgan bo'lib, maqolada lof janrining paydo bo'lish va rivojlanish bosqichlari ham ana shu manbalarga tayanib tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье анализируется связь узбекского жанра народного искусства лоф с народным юмором, его длительные исторические этапы и основы формирования как жанра, опирающегося на мировые и тюркские источники. Место народного юмора в культурной истории Европы и Центральной Азии представлено в работах таких ученых, как Аристотель, М. Бахтин, М. Кашигари, М. Казимоглу и К. Имамов, с интересными фактами и примерами народного искусства, а также анализируются этапы возникновения и развития жанра лоф на основе этих источников.

Annotation: This article analyzes the relationship between the Uzbek folk art genre lof and folk humor, its long historical stages, and the foundations of its formation as a genre grounded in both global and Turkic sources. The role of folk humor in the cultural history of Europe and Central Asia is examined through the works of scholars such as Aristotle, M. Bakhtin, M. Kashgari, M. Kazimoglu, and K. Imamov, supported by notable facts and examples from folk art. Based on these sources, the stages of the emergence and development of the lof genre are systematically analyzed.

Kalit so'zlar: Folklor, xalq kulgisi, maydon tomoshasi, uydirma, lof janri.

Ключевые слова: Фольклор, народный смех, площадное зрелище, небылица, жанр лоф.

Key words: Folklore; folk laughter; public spectacle; fiction; lof genre.

O'zbek xalqi jahondagi eng qadimiy madaniy an'analarga ega xalqlardan biri bo'lib, o'ziga xos uzoq tarixiga, boy madaniyatiga va betakror san'atiga ega millatdir. Shunday boy nomoddiy madaniy merosning bir qismini xalq og'zaki poetik ijodi tashkil etadi. Og'zaki ijodning tarkibiy qismlarini o'rganish, tadqiq etish va tadbiq qilish kun sayin o'zligiga qaytayotgan o'zbek xalqi va yangi O'zbekiston uchun nihoyatda dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Xususan, xalq kulgisi va u bilan bog'liq muammolarni hal etish, lof janrining paydo bo'lishi, xalq orasida ommalashishining sabablarini aniqlash orqali o'zbek xalqiga xos tarixiy haqiqatlarning ochilishiga zamin yaratiladi.

Bizga ma'lumki, kulgi va alam, shodlik va g'am xalq hayotining negizi va yashash tarzining asosini tashkil etadi. Boisi, g'am va qayg'uni tabiiy hodisalar, ijtimoiy tuzumlar keltirib chiqarsa, ularni yengib o'tish hamda yashashga kuch topish uchun xalq kulgi yaratadi. Aristotelning fikricha: "Komediya yomon kishilarni butunlay badnom qilish ma'nosida bo'lmasa-da, gavdalandirishdir. Zero, kulgili holat xunuklikning bir qismigina xolos. Aslida, kulgili narsa – bu hech kimning dilini og'ritmaydigan va hech kimga zarar keltirmaydigan ba'zi bir nuqson va kemtiklikdir. Shuni aytish kerakki, kulgili niqob azob (ifodasi)siz yo'l bilan, xunuklik va ayniganlikni tasvirlashdir" [2.14]. Darhaqiqat, aslida kulgining tagida ba'zan uqubat bo'lib, inson undan uzoqlashish va o'zni chalg'itish maqsadida foydalanadi. Binobarin, kulgi g'amni unutib kelajakka umid beradi. Zero, M.Baxtin aytganidek: "Kulgi – dunyoga qo'rqmay munosabatda bo'lishning asosini tayyorlashda muhim omildir" [4.241].

Mazkur tadqiqotda folklorshunoslik va madaniyatshunoslikka xos tarixiy-tipologik, qiyosiy-tahliliy hamda struktur-semantik metodlardan foydalanildi. Lof janrining xalq kulgisi bilan bog'liq holda shakllanish jarayoni jahon va turkiy xalqlar folklori materiallari asosida qiyosiy o'rganildi. Shuningdek, lof namunalarining genezisi va funksional xususiyatlarini aniqlashda folklor matnlarini tahlil qilish, kontekstual yondashuv hamda interpretativ usullardan foydalanildi.

Xalq kulgisining tarixi nihoyatda qadimiy bo'lib, bu kulgining zaminida diniy e'tiqodlar asosida yuzaga kelgan rituallar yotadi. "Ibtidoiy odamlar folklorida jiddiy kultlar yonida ma'budni masxara qiluvchi va tahqirlovchi kulgi kultlari, qahramonlar yonida ularning parodik hamkasblari bo'lgan. Ammo sinfiy jamiyat va davlatchilik tuzumigacha bo'lgan davrda ma'budning jiddiy va kulgili tomonlari, odam va olam bir xilda ko'rilgan. Bu ba'zi individual marosimlarda saqlanib qolgan. Masalan, Rimda davlatchilik bosqichida g'alaba qozonishda jonbozlik ko'rsatgan qahramonni g'alaba marosimida ham ulug'lash, ham masxara qilish, dafn marosimida ham xuddi shunday marhumni ham ulug'lash ham masxara qilish mavjud bo'lgan. Ammo davlat tuzumi sharoitida ikki jihatning to'liq tengligi imkonsiz bo'lib qoladi va kulishning barcha shakllari norasmiy shaklga o'tadi, qayta o'ylab topiladi, murakkablashadi, chuqurlashadi va xalq madaniyatini ifodalashning asosiy shakliga aylanadi" [4.640]. Ko'rinadiki, xalq e'tiqodiy qarashlarida kulgi va jiddiylik yonma-yon qo'yilgan. Buning birinchi sababi ibtidoiy tasavvurdagi mif va ma'budlarga ta'sir etish bo'lsa, ikkinchi sababi kulgi orqali xalq o'z g'amini biroz bo'lsa-da unutishidir. Kulgi ibtidoiy folklorning o'yin-kulgi madaniyati bilan bog'liq holda, mavsumiy, diniy va nikoh marosimlarida o'z aksini topgan. Inson va tabiatning kurashi, ezgulik va yovuzlikning to'qnashuvi, hayotning turli e'tiqodlar bilan talqin qilinishi hazil va o'yin-kulgi uchun munosib zamin yaratgan. Etnograf olim A.Ashirovning ta'kidlashicha: "Qadimiy diniy e'tiqodlar, marosimlarning rang-barangligi va ilmiy qimmati shundaki, ular hukmron sinflar yoki biror-bir shaxs tomonidan o'ylab topilmagan, balki o'tmish davrlarning o'ziga xos tarixiy burilish davrida – insoniyat taraqqiyotining ma'lum bosqichida yangi ma'naviy va ruhiy zarurat, fikriy va hissiy izlanishlar ehtiyojiga javob sifatida paydo bo'lgan" [3.220].

Kulgi o'zi mansub bo'lgan jamiyatning madaniy dinamikasi bilan an'analar doirasida rivojlanib, har bir davrda vujudga kelgan jamiyatning ko'zgusiga aylangan. Shuning uchun u jamiyatning ijtimoiy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy

tuzilishini ko'rsatadigan qadriyatlarga ega. Ularni ochib berish orqali har qanday jamiyatning o'ziga xosligini ko'rish mumkin. O'zbek xalq hajviy folklor namunalari shuni ko'rsatadiki, qadimgi insonlar kulgini hayot va yashash manbai deb bilgan. Shu sabab xalq kulgisining o'ziga xos tizimi vujudga kelgan. Bu tizim yozma adabiyotdagi kulgi bilan hamisha ham mos kelavermaydi. Xalq kulgisi doimiy ravishda uning hayotiy tajribasi, e'tiqodi va qarashlari asosida yuzaga keladi, uning zaminida ko'pincha inonch va e'tiqod yotadi.

Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'otit turk" asarida kulgini "kug" deb atab, u haqda: "Kug" – bu bir xil kulgiki, turli shahar xalqi orasida mashhur bo'lib aytib yuriladi. Bu yil bu kug keldi – bu yil bu kulgi chiqdi", – deydi [8.368].

Dastlabki xalq tomoshalari marosim shaklida o'tkazilgan bo'lib, hech qanday tanqidiy vazifani bajarmagan. Eng qadimgi, ilk sahna parodiyalari so'zsiz (imo-ishoralar orqali) amalga oshirilgan. Parodiyalar qadim zamonlarda diniy maqsadlar yo'lida o'tkazilgan. Bu mifologik parodiyalar ham tabiiyki kulgiga asoslangan. Ammo bu kulgi satirik holatda bo'lmay yumor va hazil-mutoyiba harakatlarda ko'rsatilgan, chunki bu marosimlarda bevosita din peshvolari va ruhoniylar ishtirok etgan, ma'bud va xudolarga taqlid qilingan. Bu marosimlar mifologik parodiyaga asoslangan.

Mifologik parodiyaning mohiyatini ochishda ikkilamchi komik obrazlar (dvoynik)larning o'rni beqiyos sanaladi. Bu haqda ozarbayjonlik folklorshunos olim, akademik Muxtor Kazimo'g'li shunday deydi: "Dorboz" o'yinidagi dorboz bilan birgalikda pastki maydonda yana bir obraz "yolg'onchi pahlavon" harakatlanadi. U tomoshabinlar e'tiborini turli taqlidiy harakatlar bilan o'ziga jalb qilib, go'yoki, dorbozni yomon ko'zlardan qo'rish uchun odamlarni chalg'itib turuvchi, dorbozning yerdagi o'rindoshi vazifasini bajaradi" [7.30]. Ko'rinadiki, dastlabki sahna tomoshalaridagi taqlidchilar ma'budlarning qiyofadoshi bo'lib, ular jiddiy ma'budlar taqlidchisi – aktyorlardir, ya'ni ularning aks suvrati, harakatlaridagi kulgili hodisalar esa jiddiylilikning teskari shaklidir. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, kulgili elementlar arxaik miflarda ham uchraydi. Folklorshunos olim B.Suvonqulov o'zbek xalq latifalari tadqiqiga

bag‘ishlangan dissertatsiyasida M.Baxtinning fikriga shunday izoh beradi: “Haqoratlash – ambivalent inkor etishning qadimiy shakllaridan”. Ambivalent so‘zi ma’nosida u pastga tushirish, ya’ni hamma ulug‘lik, ma’naviylik, mavhumlikni materiallashtirish – jismga aylantirishni ko‘zda tutadi. “Pasaytirish qaytadan yaralish uchun jismga go‘r qaziydi, u bir vaqtning o‘zida ham inkor etadi va yangi narsani tasdiqlaydi.” Olim komik tuzilmani karnaval o‘yinlaridan topadi. Bu o‘yinlar yordamida o‘zini boshqa odam qilib ko‘rsatish uchun kiyimini o‘zgartirib, niqob kiyish holatlari kulgi yaratishning asosiy usuli hisoblangan. Karnavaldagi kulgi usullari arxaik miflarda ham uchraydi. Ayniqsa, qahramonning o‘zi niqobini o‘zgartirish usuli ommabop bo‘lgan” [9.153]. Darhaqiqat, bozor, ko‘cha va bayram tomoshalarida azaldan niqobli yoki bo‘yangan masxarabozlar askiya vositalariga alohida urg‘u berilgan qiziqchiliklar bilan birga bo‘rttirma tashqi qiyofalar, taqlidlar, kulgili sahnaviy hatti-harakatlar, qiliqlar bilan tomosha ko‘rsatganlar. (Bu holatni bugungi kunda ham dorboz o‘yinlari, sirk tomoshalarida kuzatish mumkin). Masxarabozlik, dorbozlarning e’tiqodiy qarashlari, qadimiy ajdodlarning an‘analari va udumlariga inonchi asosida saqlanib qolgan. Dorboz go‘yo ikki olam oralig‘ida harakat qiladi va unga tomoshabinlar nazari tegsa, falokat sodir bo‘ladi. Shu bois masxaraboz birlamchi olam vakillarini kiyimi, harakatlari va gap-so‘zlari bilan chalg‘itib turadi. Aslida masxaraboz ham o‘sha etiqodiy qarashlar zaminidagi mifologik obraz sanaladi. Yana ham aniqrog‘i, masxaraboz mifologik obrazlarning taqlidchisi, ikkinchi nusxasidir. “Ambivalent tuzilma komik hodisaning elementar shakli bo‘lib, u yumoristik janrlar paydo bo‘lishidan ham avval uzoq qadimiy davrlarda mavjud bo‘lgan” [9.154]. Demak, xalq tomoshalari, sayl va marosimlarida dastlab mifologik obraz sifatida individual niqobdagi shaxs asosida xalq kulgisi yuzaga kelgan. Keyinchalik bu tomoshalar tarkibida kulgiga asoslangan folklordagi satirik va yumoristik xarakterdagi qiziqchilik, lof, latifa, askiya kabi janrlar shakllangan.

Taqlid uchun muhim bo'lgan bu ikkilik funksiyasining ildizini taniqli folklorshunos olim O.M.Freydenberg shunday izohlaydi: “Ikkiilik mohiyati hukmdorlarni umrboqiy qilishga qaratilgan rituallardan hosil bo'lgan. Hukmdor “yolg'ondakam o'lim”dan so'ng yengilmas kuch sohibiga aylanishi uchun u “o'lim paytida” qul qiyofasida gavdalanadi. Initsiatsiya jarayonidan o'tib, yangi hayotni qo'lga kiritgan hukmdor misolida “o'tish” jarayonidan so'ng tamoman xususiy va yangi bir obraz yuzaga keladi. Bu obraz hukmdorning o'xshashi, “dvoynik”idir. Hukmdor jiddiy, uning “nusxasi” bo'lmish qul esa kulgilidir. Qul qurbon qilingach, hukmdorga yangidan hayot baxsh etiladi [11.490–497]. Bu fikrni ingliz folklorshunosi J.Frezer ham o'z tadqiqotlarida qayd etadi: “Hukmdorning “qalbaki (uydirma) hukmdor” bilan o'rindosh bo'lishi qadimiy rituallardan. Qalbaki hukmdor o'limi evaziga chin hukmdorning sog'ligini, kuch-qudratini qo'riqlash, saqlab qolishga bo'lgan ishonch ibtidoiy folklor mahsulidir. Qadimgi Bobilda yilda bir marotaba besh kunlik bayram o'tkazilgan. Bayram kunlarida navkarlar navkarboshilar bilan o'rin almashishgan, navkarlar buyruq bergan, navkarboshilar bajarganlar. O'limga mahkum qilingan biror kishiga podshoning libosi kiydirilib, taxtga o'tqazilgan. Unga podsho yeydigan taomlardan yeb-ichishga, hatto shohning joriyalari bilan aysh-ishrat qilishga ruxsat berilgan. Bayram tugagach qalbaki hukmdorning liboslari yechilib, qatl qilingan, shu yo'l bilan chin hukmdor (va u orqali jamiyat) yovuz kuchlardan, o'limdan qo'riqlangan, saqlab qolingan. Ishonchga ko'ra hukmdorning tanasiga yangi ruh kirib uni quvvatlantirgan. Ba'zi manbalarda qayd etilishicha, qalbaki hukmdor taxtga o'tirgach uni kuldirish maqsadida masxaraboz va komik qiyofali qahramonlar taxt oldida turli tomosha ko'rsatganlar. Qalbaki hukmdorga esa kulish qat'iy ta'qiqlangan. Shu orqali haqiqiy hukmdorning jiddiyligi va kuch-qudratini namoyish etishi lozim bo'lgan” [12.831]. Hukmdorni qo'riqlash uchun ma'budlarga qurbonlik qilish kerak degan tushuncha ibtidoiy inson tafakkuridan mustahkam o'rin olgan. Bunday inonch turli davrlarda turlicha kechgan. Qadim zamonlarda hukmdorning o'zi o'ldirilgan va uning kuch-quvvati keyingi hukmdorga o'tganiga ishonilgan bo'lsa, qalbaki hukmdorning o'ldirilishi ham

xuddi shu ishonchni o‘zida saqlagan. Keyinchalik qurbon keltirishning yangi formalari yuzaga kelgan bo‘lib, tirik odam o‘rnida uning shaklidagi qo‘g‘irchoqlarni, ya’ni qalbaki hukmdorlarni suvga bosish, o‘tda yoqish kabilar yuzaga kelgan [12.831].

Folklor asarlarida chalg‘ituvchi aytimlar bo‘lib, ular ham mana shu marosimlar fonida yuzaga kelgan desak, yanglish bo‘lmaydi. Bunday aytimlar ertak, latifa, askiya, dostonlar tarkibida kulgili vaziyat yaratish uchun qo‘llanadi. Shunday paytda ijrochi aytmoqchi bo‘lgan gapini yolg‘on yoxud haqiqat ekanligini ochiq-oydin bildiradi: “Osti yo‘q qozonda quyoning go‘ishtini pishirdim. Hammamiz yedik, to‘ydik, ortib ham qoldi, ortganini to‘rvamizga soldik. Bir xo‘rozga duch keldik, mindik hammamiz, yo‘lda davom etdik, oldimizdan bir soy chiqdi. Soydan bir xurjun topdik, xurjunni ochib qarasak bir kitob chiqdi. O‘qib ko‘rsak hammasi yolg‘on ekan” [1.262]. Aytuvchi “hammasi yolg‘on ekan” ifodasini ishlatmasa ham, aytayotganlari yolg‘on ekanligi ijro davomida ko‘rinib turadi. Keyinchalik bu ijrolar xalq sayllarida ijro etiladigan askiya, qiziqchilik, masxarabozlik, umuman, maydon tomosha madaniyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan.

Tadqiqotchilar marosimlar tarkibidagi kulgi xursandchilik va shodlik ato etuvchi sirli kuch-magiyasini tashiganligi, magik kulgi nikoh, bola tug‘ilishi yoki Navro‘z kunlarida yuz bergan o‘yin-kulgilar, ko‘ngilxushliklarda amal qilganligini, kishilarga hayot baxsh etuvchi magik vosita bo‘lganligini alohida ta’kidlashgan” [5.40]. Haqiqatdan ham, kulgi dastlab e’tiqodiy tushunchalar asosida shakllanib, keyinchalik xalq maishiy hayotining bir qismiga aylangan. Xalq yaxshi niyat bilan mavsumiy marosimlarda kulgan, quvongan, raqsga tushib ashula aytgan, kulgini avjiga chiqargan. “Bu xil kulgilar amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, yangi yilda mo‘l-ko‘lchilik keltirishi bilan bog‘liq tuyg‘ularni ifoda etish orqali mo‘l hosil unishini istash “xudoga yolvorib ezgulik ato etishini” iltijo qilish, mehr-muruvvat ko‘rsatishga chaqirish ma’nolarini mujassam qilgan. Ko‘rinadiki, Navro‘z bayrami, mavsumiy marosim bilan bog‘liq magik kulgi

tabiatga ta'sir ko'rsatish, osmon va yer ma'budlarini shodlantirish vazifasini o'tagan. Ma'budlar tabiatga ta'sir ko'rsatib, hosildorlikni ta'minlaydi deb, tushinilgan" [5.41]. Demak, dastlabki e'tiqodiy inonchlar o'zining mohiyatini batamom yo'qotmagan holda xalqning shodlik va xursandchilik kunlarida ijro etiladigan so'z san'ati shaklini ola boshlagan. Qadimiy e'tiqodiy marosimlar o'z vazifasini yo'qotsa ham, o'sha marosimlar o'z o'rnini qaysidir ma'noda xalq bayramlari, xalq sayllarida saqlab qolgan. Shunday shodiyona kunlarda turli ko'ngilochar o'yinlarning shakllanish jarayonida xalq kulgisi ham rivojlana borgan.

1. Xalq kulgisi asosida shakllangan eng qadimiy janrlardan biri loflar sanaladi. Lofning bugungi janr holatiga kelish yo'lini quyidagicha belgilash mumkin: Marosim shaklida o'tkazilgan e'tiqodiy qarashlar; (initsiatsiya ham ana shu marosimning bir qismi sifatida) so'z san'ati sifatida marosimlarning folklorga ko'chishi; ertak, qiziq hikoyalar, kulgi janrlari – qiziqchilik, lof, askiya, latifa, pantomima, taqlid va ularning qorishiq jarayoni. Biroq lof janrining shakllanishi va paydo bo'lishi xususida biror manbada aniq ma'lumot berilmaydi.

2. Lof janrining shakllanishida mubolag'aning yuqori darajadaligi, obrazlarning muqobilligi, nutqning dialogik shakldaligi kabi omillar ham muhim. Shuningdek, mutaxassislarning fikriga ko'ra: "Lof janri, asosan, qiziqchi va askiyabozlar orasida shakllangan va ijro etilgan. Binobarin, har bir lofda notabiiy voqealar, salbiy belgilar kulgi ostiga olinadi. Lof aytish mubolag'ali epizodga mantiqiy javob qaytarish, so'zga chechanlik musobaqasi shaklida o'tadi" [6.223].

3. Lofdagi mubolag'ali hozirjavoblik, raqib fikridan kelib chiqib o'sha fikrni bo'rttirish bilan bahslashayotgan tarafdin ustun kelish holatlari askiya, latifalar ijrosida juda qo'l keladi. Bunda askiyachi ham, masxaraboz ham loflardan erkin foydalanib, vaziyatdan chiqib ketadi. Lof ham kulgi san'ati janrlari bo'lmish askiya, latifa kabi alohida mustaqil janrdir.

Shunisi ham borki, qadimgi insonlar olamga dualistik qarar ekan, bu dunyoni yolg'on, u dunyoni esa chin deb bilgan. Shu asosda yolg'on gaplar rostga aylanishiga (o'limdan so'ng tirilishga) ishonch bilan qaraganlar. Loflarning

paydo bo‘lishida, bizningcha, mana shunday e’tiqodiy qarashlarning ham ta’siri bor.

Xulosa qilib aytganda, uydirma – lof aytishning ildizi ibtidoiy folklorning diniy marosimlariga, xususan, initsiatsiya jarayonidagi sinaluvchining, ya’ni voyaga yetgan yigitning “yolg‘onlari” – nargi dunyo haqidagi tasavvurlari, “xotiralari”ga bog‘lanadi deyish mumkin. Buni folklorshunos olim, E.D.Tursunov shunday izohlaydi: “Sinaluvchi qanchalik ko‘p yolg‘on ayta olsa, uning magik kuchi ham shu qadar ko‘p, ilohiy kuchlar bilan aloqasi mustahkam deb hisoblangan” [10. 216]. Bizning yuksak tafakkurli ajdodlarimiz qadimdan so‘zda ilohiy qudrat borligini, so‘z orqali inson borliq bilan ilohiy kuchlar bilan bog‘lana olishi mumkinligini yaxshi bilishgan va bugun biz o‘rganayotgan ilmning tamalini qo‘yib ketganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abbasov I., Ferzeliyev T. Azərbaycan klassik edebiyati kitabxanasi: 20 cildde, I c. Xalq edebiyati / – Bakı: Elm, 1982. – S. 262.
2. Аристотель. Поэтика. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980. – Б. 14.
3. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент, 2007. – Б. 220.
4. Бахтин М. Эпос ва роман (Романни талқин этиш методологияси ҳақида) // Филология масалалари. – Тошкент, 2005. – №3 – Б. 241.
5. Имомов К. Маросим кулгиси // Соғлом авлод учун. – Тошкент, 2001. – №12. – Б. 40–41.
6. Имомов К., Мирзаев Т., Сармсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ поэтик ижоди / дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – Б. 223.
7. Kazımoğlu M. Xalq gülüşünün poetikası. Monoqrafiya. – Bakı: “Elm”, 2006. – S. 30.
8. КошғарийМ. Девону луғотит турк. 3-том. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1969. – Б. 368.
9. Сувонкулов Б. Ўзбек халқ латифаларининг жанр хусусиятлари ва бадиияти: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2007. – Б. 153.
10. Турсунов Е.Д. Генезис казахской бытовой сказки. – Алма-Ата: Наука, 1973.– Б. 216.
11. Фрейденберг О.М. Происхождение пародии // Труды по знаковым системам, в. IV. – Тарту: Тартуский Гос. Ун-т, 1973. –С. 490–497.
12. Фрезер Ж. Золотая ветвь. – М.: Изд-во Политической Лит-ры, 1980. – Б. 831.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATION UNIVERSITETI NTM

INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT

9 (30)
2025-yil, sentabr.

Bosh muharrir:	M.Eshmurodov
Bosh muharrir o‘rinbosari:	S.Samandarova
Mas’ul kotib:	U.Bekmuhammad
Texnik muharrir:	A.Xushnudov
Navbatchi:	A.Xushnudov

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 2-noyabr kuni №0154405 raqamli tasdiqnoma berilgan.

Bosishga topshirilgan vaqti: 10:00. Ruxsat etilgan vaqti: 11:00

Qog‘oz bichimi: A4. Adadi: 200 nusxa.

Hajmi: 9,75 b.t. Buyurtma №1/25.

Nashr ko‘rsatkichi: 1404.

Bahosi kelishilgan narxda.

“Milleniumus print” MCHJda ofset usulida chop etildi.

Urganch tumani, “Shermatlar” MFY, Tadbirkorlar ko‘chasi, 69-uy.

Tel: (+998) 91-994-24-00

Urganch innovatsion universiteti
220100, Urganch shahri, “Mustaqillik” MFY,
Gurlan ko‘chasi, 2-uy.
Tel: (+998) 90-436-20-22